

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Sultonbek Normamatov

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXI
(XIX asr oxiri – XX asr boshlari o‘zbek tilshunosligi)

O‘quv qo‘llanma

60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti.

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili.

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2022**

UO‘K: 811.512.133(091)"XIX/XX"

KBK: 81.2g(O'zb)

N 79

ISBN 978-9943-8268-9-2

Normamatov, S.

O‘zbek tilshunosligi tarixi (XIX asr oxiri XX asr boshlari o‘zbek tilshunosligi) [Matn] : o‘quv qo‘llanma / S. Normamatov. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 102 b.

O‘quv qo‘llanmada o‘zbek tilshunosligining zamonaviy fan yo‘nalishi darajasida shakllanishi va rivojlanishining ilk sahifasi sifatida tarixda qolgan XIX asr oxiri – XX asrning 20-30-yillaridagi sotsiolingvistik sharoit, davr tili va tilshunosligi haqida ma’lumotlar berilgan.

XX asr boshlaridagi lisoniy jarayon, bu davr o‘zbek tili va tilshunosligining taraqqiyoti, shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi, grammatikasi, leksikografiyasiga oid ma’lumotlar davr ziyolilari hisoblangan jadidlarining tilshunos sifatida olib borgan faoliyati misolida yoritilgan. Bunda Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Elbek, Vadud Mahmud, Is’hoqxon Ibrat, G‘ozi Olim Yunusov kabi adib va olimlarning tilshunos sifatida olib borgan faoliyati ilk bor alohida mavzu sifatida belgilangan.

O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili, 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitilayotgan “O‘zbek tilshunosligi tarixi” fanining o‘quv dasturiga muvofiq yaratilgan. Undan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistrantlar hamda mazkur davr tilshunosligi bo‘yicha izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishi mumkin.

Mas’ul muharrir:

Samixon Ashirboyev, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Baxtiyor Abdushukurov, filologiya fanlari doktori, professor

Azamat Pardayev, filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrugiga asosan nashrga ruxsat berilgan.

© **Normamatov S.**

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2022.**

KIRISH

Bugungi kunda ilm-fan, ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, barcha fanlarda bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligi fani oldiga ham yangi talablarni qo'yimoqda. O'zbek tilshunosligi mana shu talablarga ham nazariy, ham amaliy jihatdan javob berishga intilmoqda. Bu quyidagi holatlarda yorqin ko'zga tashlanadi:

1) o'zbek tilini tadqiq qilishning yangi, samaraliroq usullari qidirilmoqda, tadqiqotlar lingvistikaning zamonaviy, ilg'or nazariy usullari asosida olib borilmoqda;

2) nazariy tadqiqot natijalarini nutqiy amaliyotga tatbiq etishning samarali usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda;

3) endilikda o'zbek tili o'zbek xalqi madaniyati va ma'naviyatining tarkibiy qismi, ularning shakllanishi va kamol topishida muhim rol o'ynaydigan vosita sifatida uzil-kesil tan olindi;

4) faqat tilni, til materialini o'rganish emas, balki o'zbek tilini bir asrdan beri tizimli ravishda tadqiq qilib kelayotgan fan – o'zbek tilshunosligi tarixini ham tahlil qilish, uning yutuqlarini ilmiy umumlashtirish ishlari boshlandi;

5) o'zbek milliy va adabiy tilining avvallari sho'roviy mafkura ta'sirida chetlab o'tilgan, tadqiq qilinmagan bosqichlarini, ayniqsa, o'tgan asrning 20-30-yillar davrini jadal ravishda o'rganishga kirishildi. Avval bajarilgan tadqiqotlarda oldinga surilgan nazariy qarashlar, tadqiq metodlari tanqidiy baholanmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar ijrosi yo'lida mamlakatimizda o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi o'rni va maqomini mustahkamlash, uning mavqeyini ko'tarish, ta'lim muassasalarida o'qitish tizimini takomillashtirish, o'zbek tilining asl tabiati va xususiyatlarini to'la aks ettiradigan mukammal akademik va o'quv grammatikalarini yaratish, turli soha va yo'nalishlar bo'yicha lug'at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish kabi vazifalar kun tartibiga qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi

va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmonlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar bu yo‘nalishdagi ishlarda dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek tilshunosligi tarixi murakkab tarixiy davrlarni o‘z boshidan kechirdiki, uning rivojlanish bosqichlarini belgilash va har bir davr bosqichini keng ko‘lamda tadqiq etish fan oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Bu sohada professor A. Nurmonov tomonidan yaratilgan “O‘zbek tilshunosligi tarixi” (Toshkent, 2002) o‘quv qo‘llanmasi dastlabki va mukammal ish sifatida o‘tmish tilshunosligi va hozirgi taraqqiy etgan tilshunosligimiz haqida umumiy ma‘lumot beruvchi asosiy manba sifatida hozirga qadar oliy ta‘lim muassasalari uchun xizmat qilib kelmoqda. Mazkur manbada ilk bor o‘zbek til bilimi davrlashtirildi. To‘g‘ri, qo‘llanmada muallif davrlashtirish tamoyillariga to‘xtalmagan, lekin kitobning mundariyasi uni yaqqol ko‘rsatib turibdi. A. Nurmonov asar mundarijasida XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zbek tilshunosligini eng salohiyatli davr sifatida “O‘zbek ilmiy tilshunosligining shakllanish va rivojlanish davri” deb nomlaydi. Albatta, bu davr o‘zbek tilshunosligining zamonaviy fan yo‘nalishi darajasida shakllanishi va rivojlanishining ilk sahifasi sifatida tarixda qolgan va mazkur davr ancha bahs-munozaralarga ham boy bo‘lgan. Ayniqsa, asr boshidagi siyosiy vaziyat unda o‘z izlarini qoldirdi. O‘zbek tilshunosligi bo‘yicha bu davrda amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyati siyosat va davr mafkurasi tufayli “yopiq eshiklar”da saqlandi, ayrimlaridan keyinchalik tanqidiy foydalanishga ruxsat etildi, xolos. Milliy istiqlol siyosiylashtirilgan va mafkuraviylashtirilgan yaqin o‘tmish davri ijtimoiy fanlari qatori, o‘zbek tilshunosligining ham mazkur davr natijalarini har tomonlama xolis baholash imkonini yaratdi.

Darhaqiqat, o‘zbek milliy tilining shakllanishi va rivojida mazkur davr alohida o‘rin tutadi. O‘zbek milliy tili, uning asosini tashkil etuvchi yangi o‘zbek adabiy tili qanday asoslarga tayangan holda rivojlanmog‘i kerak, deyilgan masalada o‘sha davrda xilma-xil qarashlar va harakatlar oldinga surilgan edi. Mana shunday

g'oyat dolzarb, ham nazariy, ham amaliy, qolaversa, madaniy-ma'naviy ahamiyatga molik ushbu murakkab masalaga o'zbek tilining 20-30-yillar bosqichi xususiyatlari javob beradi. Afsuski, sho'rolar mafkurasi hukmron bo'lgan davrda o'zbek tili va tilshunosligining ushbu davr bosqichini keng o'rganish imkoniyati bo'lmadi. Chunki fikr yuritilayotgan muammo yuzasidan o'sha davrda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Elbek, Miyon Buzruk, G'ozi Olim Yunusov kabi adib va olimlar o'z fikrlarini oldinga surishgan edi. Ushbu qimmatli lisoniy merosni keng tahlil qilish sho'rolar davrining "til siyosati"ga to'g'ri kelmas edi. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi bu to'siqlarni bartaraf qildi. Keyingi yillarda mazkur davr tili va tilshunosligining keng ko'lamda ilmiy tadqiq etilayotgani mana shu imkoniyatning ulkan samarasidir.

O'zbek tilshunosligi tarixi fani bo'yicha tilshunos olim A. Nurmonov tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma ilk manba sifatida mazkur davr tilshunosligi haqida 2002-yilga qadar amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida yaratilgan va unda XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi sotsiolingvistik sharoit, davr tili va tilshunosligi haqida mukammal ma'lumotlar berilgan. O'tgan vaqt mobaynida mazkur davr o'zbek tilshunosligi tarixini tadqiq etish, tilshunoslik fani bo'yicha faoliyat yuritgan jadid adiblari faoliyatini o'rganish, tahlil qilish va natijalarni ilmiy umumlashtirish ishlarida ham bir qancha yutuqlarga erishildi. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek tilshunosligining bu davr bosqichiga oid muayyan ma'lumotlarni boyitish va ta'lim bosqichlaridagi sohaga oid o'quv adabiyotlarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Ana shu ehtiyoj nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda mazkur qo'llanma yaratilishida hozirgacha yaratilgan o'quv adabiyotlariga tayanildi, ma'lumotlar so'nggi yillarda mazkur davr tilshunosligi bo'yicha amalga oshirilgan monografik tadqiqotlar natijalari asosida boyitildi. Bunda mazkur davr tili va tilshunosligi bo'yicha S. Ashirboyev, Sh. Bobomurodova, M. Masharipov, G. Shukurovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan foydalanildi.

XX asr boshlaridagi lisoniy jarayon, bu davr o'zbek tili va tilshunosligining taraqqiyoti, shuningdek, o'zbek dialektologiyasi,

grammatikasi, leksikografiyasiga oid ma'lumotlar davr ziyolilari hisoblangan jadidlarining tilshunoslik faoliyati misolida yoritildi. Bunda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Elbek, Vadud Mahmud, Is'hoqxon Ibrat, G'ozil Olim Yunusov kabi adibva olimlarning tilshunoslik faoliyati ilk bor alohida mavzu sifatida belgilandi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili, 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitilayotgan "O'zbek tilshunosligi tarixi" fanining o'quv dasturiga muvofiq yaratildi. Uni takomillashtirish ishlari davom etadi.

I. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDAGI IJTIMOIIY DAVR TAVSIFI VA O‘ZBEK TILI ILMI.

Tayanch so‘z va iboralar: *jadidchilik, milliy til, adabiy til, klassik adabiy til, adabiy til me‘yorlari, jonli so‘zlashuv tili, panturkizm, purizm, bir tillilik, ko‘p tillilik.*

Ma‘lumki, mamlakat va xalqlar, elat va qabilalar tarixida turli shart-sharoit, har xil sababga ko‘ra, tanazzul va turg‘unlik, qoloqlikning har xil ko‘rinishlari, jaholatparastlik kabi holatlar yuz berib turadi. Bu u yoki bu xalq, elat, qabila yoki mamlakatning umumiy tabiiy sharoiti, holati (bilimsizligi, johilligi, maishatparastligi, beg‘amligi, dangasaligi, diniy va boshqa tazyiq kabilar), tabiiy ofatlar, bosqinchiliklar (xalqlar, hududlar va mamlakatlarni qaram qilish kabilar) asosida yuzaga kelib, turli oqibatlarni keltirib chiqaradi:

1) bir mamlakat ikkinchi mamlakatning hududi, xalqini bosib olib, uning taraqqiyotiga – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy turmushiga aksar hollarda salbiy, qisman ijobiy ta‘sir o‘tkazishi ham mumkin (lekin bu holat juda kam kuzatiladi);

2) bir mamlakat ikkinchi bir mamlakatni bosib olar ekan, bu xalqni, mamlakatni qoloqlikda saqlashga harakat qiladi, talaydi, boyliklaridan o‘z maqsadlarida foydalanadi, faqat o‘z xalqi manfaatini nazarda tutib faoliyat ko‘rsatadi;

3) bosqinchiliklar tufayli ba‘zan yirik, birlashgan mamlakatlar tuzilib, birlashgan mamlakatlarning umumiy taraqqiyoti rivojini ta‘minlash holatlari yuzaga keladi. Bunda bosib olingan mamlakat, hudud va xalqda yuksalish, turli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi;

4) mamlakatlar, ularning yetakchilari o‘rtasidagi o‘zaro nizolar sababli tanazzul holati saqlanadi.

Umumlashtiriladigan bo‘lsa, shartli ravishda, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy tanazzulining ikkita asosiy omilini ko‘rsatish mumkin:

a) ichki omil;

b) tashqi omil.

Bu omillarning asoslilikini tasdiqlash uchun adabiyotshunos A. Abdug‘afurovning “XIX asrning ikkinchi yarmida siyosiy-

ijtimoiy, madaniy va adabiy hayot” nomli tadqiqotidagi quyidagi fikrni keltirishni lozim ko‘ramiz:

“ ... Mehnatkash xalq ikkiyoqlama zulm asoratida qoldi: asrlar davomida mahalliy ekspluatatorlar – xonlar, yirik feodallar, beklar, boylar, reaksiyon din arboblari tomonidan ayovsiz ezilib kelayotgan, son-sanoqsiz soliq va o‘zaro qirg‘in urushlar (ichki omil) natijasida tobora qashshoqlanayotgan omma endilikda chorizmning milliy-kolonial zulmiga ham duchor bo‘ldi (tashqi omil).

O‘lkani boshqarish uchun tayinlangan va cheksiz huquqlarga ega chor general-gubernatorlari va chinovniklari mahalliy ekspluatatorlar bilan tezda “til topishib”, mehnatkash xalqni birgalikda ochiqdan ochiq talay boshladilar... O‘rta Osiyoni o‘z sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozoriga aylantirishga, moddiy boyliklarga serob o‘lkadan arzon xomashyo va ishchi kuchi manbayi sifatida foydalanishga urinar edi. Chorizm mahalliy xalqlarga past nazar bilan qarar, ularni kamsitar, mehnatkashlar ongini zaharlab, qorong‘ulikda saqlashga harakat qilar edi... ¹”. Turkiston xalqining ahvoli, yashash tarzi, hayoti ana shu ahvolga tushib qolgan, tanazzuldan chiqishning yo‘llari axtarilmasa, endi shu holatda qolishi mumkin bo‘lmagan darajaga yetgan edi. Ikkiyoqlama zulm kuchaygan, aldash yo‘liga o‘tilgan, qaramlikda saqlashning barcha yo‘llarini chorizm ham, sho‘rolar hukumati ham qo‘llashga harakat qilayotgan davrga kelingan edi. Shu o‘rinda jadidchilik, Markaziy Osiyodagi uyg‘onish davri adabiyoti xususiyatlarini tadqiq etishda faollik ko‘rsatgan professor Begali Qosimovning bir fikrini keltirib o‘tish o‘rinli: “... Jadidchilik daf‘atan maydonga kelgan harakat emas. U, avvalo, muayyan sabablar bilan umumtaraqqiyotdan uzilib qolgan har bir millat, mamlakat hayotida bo‘lishi tabiiy hol edi. Farqi shuki, u Rusiya musulmonlari orasida “jadidchilik” shaklida namoyon bo‘ldi. Ikkinchidan, u boshlanishdayoq tor, millatchilik yo‘nalishida bo‘lgan emas, aksincha, G‘arb bilan Sharqning eng so‘nggi yutuqlariga tayangan, unga ergashgan harakatchilik edi. To‘g‘ri, u burjua harakatchiligi edi, lekin xuddi shu sharoitda inqilobiy kuchga ega

¹ Ўзбек адабиёти тарихи (дарслик) – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 7-8.

bo'lgan, o'zida taraqqiyot mazmunini tashigan burjua harakatchiligi edi... ²".

Darvoqe, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Marakaziy Osiyoda ziyolilar o'rtasida milliy o'z-o'zini anglash hissi kuchaydi. XVI asrdan boshlangan madaniy, ma'naviy inqiroz tufayli unutilar darajaga kelib qolgan boy madaniy va ma'naviy merosimizni tiklash, kishilar o'rtasida o'tmish madaniyatiga mehr-muhabbat hissini uyg'otish harakati boshlandi. Bu harakatning yalovbardori sifatida jadidchilik harakati maydonga keldi.

Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo'li ma'rifat ekanligini his qilganlari holda, birinchi navbatda, yangi tipdagi maktablar ochish, zamonaviy oliy maktablar tashkil etish, dunyo yangiliklarini xalq o'rtasida tezroq targ'ib qilish, kishilarni uyqudan uyg'otish uchun matbuotni rivojlantirish; taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan illatlarni fosh qilish uchun teatr san'atini barpo etish, iqtidorli yoshlarni Yevropaning eng ilg'or oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborish orqali milliy ongni shakllantirish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar.

Yangi tipdagi maktablar ochishda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Shokirjon Rahimiy, Is'hoqxon Ibrat, Munavvar Qori, So'fizoda, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat singari vatanparvarlar jonbozlik ko'rsatdilar. Ularning ko'pchiligi yangi maktablar uchun darsliklar ham yozdilar.

Xususan, Behbudiyning "Risolai asbobi savod", "Risolai jo'g'rofiyai umroniy", "Risolai jo'g'rofiyai Rusiy", "Kitobat-ul atfol", "Amaliyoti islom", "Tarixi islom"; Avloniyning "Birinchi Muallim", "Ikkinchi Muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq"; Fitratning "Sarf", "Nahv" singari asarlari ana shunday asarlardandir.

Jadidlar taraqqiyot uchun to'siq bo'layotgan illatlarni fosh qilish, xalqni uyqudan uyg'otish uchun sahna asarlari yozib teatr san'atini yaratdilar. Behbudiy, Avloniy, Hoji Muin, Hamza singari bir qator adiblar ilk o'zbek dramalarini yozib, ularni xalq oldida o'zlari namoyish etdilar. Omma o'rtasida ma'rifatni keng yoyish uchun faqat maktablar-u teatr kifoya qilmas edi. Dunyo

² Қосимов Б. Жаидчилиқ (айрим мулоҳазалар). – Тошкент: Университет, 1993. – Б. 15.

voqealaridan kishilarni bahramand etmoq, kundalik hayot ikir-chikirlarini, turmush yangiliklarini el o'rtasida yoyish uchun matbuot ham zarur edi. Shuning uchun ham jadidchilik vakillari matbuotni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berdilar. Turkistonda bir qancha nomdagi gazeta va jurnallar nashr qilina boshladi.

Matbuotning yo'lga qo'yilishi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun ham qulay imkoniyat yaratdi. Avvalo, jadidlar xalqimizning ajoyib ma'naviy merosi bo'lgan til masalasiga alohida e'tibor berdilar. Ular dastlab Ismoilbey Gaspiralinig butun turkiy olamni birlashtirish, turkiy madaniyatning eski obro'yini ko'tarish, umumturkiy adabiy til va adabiyotni yaratish harakatida bo'ldilar. Ana shu g'oya ta'sirida bir qator gazeta va jurnallarda usmonli turkcha va tatarcha elementlar aralash bo'lgan bir tilda ko'plab maqolalar bosila boshlandi. Umumturkiy tilni yaratishga gazeta sahifalarida targ'ibot kuchaydi. Ana shunday jarayonda maktablar uchun yoziladigan darslik va qo'llanmalar qaysi tilda bo'lishi kerak? Turkiy til va adabiyotni birlashtirish tarafdorlari bo'lgan jadidlarning bir guruhi darslik va qo'llanmalar usmonli turk tilida bo'lishini ma'qulladilar. Bu haqida Fitrat quyidagilarni yozadi: "... Mana shunday kulinch bir holda qolgan burungi ziyolilarimiz: "tilimiz ilmiy, adabiy bir til emas ekan" degan kulinch bir qarashga keldilar. Mana shuning bilan maktablarimiz, yozuvlarimiz usmonlicha ta'siri ostida qoldilar. Matbuotimizga bir oz tatarcha ham qatnashib qoldi. Toshkentda ochilgan kurslarda ona tili saboqlari uchun berilgan soatlarning ko'prog'i usmonlichaga berildi. Samarqandda ochilgan birinchi muallimlar kursiga esa ona tili degan narsa kiritilmadi. 1918-yildagi Maorif sho'rosining bir majlisida ham o'tkan yildagi muallimlarning qurultoyida shunday bir qaror berilgan edi: "Maktablarimizning ibtidoiy uch yilida ona tili o'zbekcha o'qitulsin, ondan so'ng adabiy umumiy turk tili o'qitulsin!" Bunlarning adabiy umumiy turk tili deganlari arabcha qatnashgan usmonlicha edi³".

Bu holat, tabiiy ravishda, jadidchilikning boshqa vakillari o'rtasida e'tiroz tug'dirdi. Shuning uchun jadidchilik harakati

³ Абдурауф Фитрат. Чин севиш. – Тошкент: Гафур Гулом, 1996. -Б. 246.

keyinchalik ikki oqimga – o‘ng va so‘l oqimga bo‘linib ketdi. So‘l oqim tarafdorlari “Chig‘atoy gurungi” nomi ostidagi to‘garakka birlashdilar. Gurung qatnashchilari o‘zbek adabiy tili va adabiyotini rivojlantirish, o‘zbek adabiy tilini me‘yorida ortib ketgan arab va fors so‘zlaridan tozalashni o‘z oldilariga bosh vazifa qilib qo‘ydilar.

Bu yo‘nalishga Abdurauf Fitrat rahbarlik qildi. 1917-1918-yillarda O‘rta Osiyoda panturkizm (butun turkiy olamni birlashtirish) harakati ham kuchaymoqda edi. Ayniqsa, Toshkentda panturkizm fikri bilan sug‘orilgan turli to‘dalar tashkil bo‘ldi. Bunda turkiy tillar, turkiy xalqlar adabiyotini birlashtirish shiori ostida ish ko‘rildi. Maktablarda usmonli turk tili, usmonli turk adabiyoti ona tili darslari o‘rnida qabul qilindi. Mana shu harakatga qarshi o‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti shiorlari ostida “Chig‘atoy gurungi” tashkil qilindi. “Chig‘atoy gurungi” o‘zbek millatchiligini, o‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti shiorlari ostida panturkist to‘dalarga va shunga berilgan o‘ng jadidlarga qarshi kurashdi.

Abdurauf Fitrat 1918-yilda tashkil etilgan “Chig‘atoy gurungi” o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yganligini ta’kidlaydi:

“ – Tilimizning tugal, yuksak, san’atkor bir adabiyoti bor. Tilimizning adabiyligi arabiylikda emas, o‘zidadir. Shuni tirgizmak kerak;

– tilimizni yot so‘zlardan qo‘ldan kelgancha tozalamoq kerak;
– adabiyotimizni yuksatmoq uchun burungi san’atkor shoirlarimizning o‘lmagan va o‘lmas narsalaridan foydalanmoq ham taraqqiy qilgan ulushlar tomonidan oraga solingan umumiy asoslarga ergashmak kerakdir;

– tilimizning qoidalarini tatarcha yohud usmoniycha qoida kitoblaridan emas, tilimizning o‘zidan olmoq kerak, shuning uchun, xalq og‘zida yurgan so‘zlarni, xalq adabiyoti bo‘lgan ertaklar, maqollar, laparlarni yig‘ib tekshirmak lozim;

– adabiyot yozg‘uchilik bo‘lgani uchun yozuv qoidalarini, imloni ham tuzatmak kerak⁴”.

“Chig‘atoy gurungi” 30-yillargacha o‘z faoliyatini davom ettirdi. Fitratning ta’kidlashicha, bu vaqtgacha uning oldiga qo‘yilgan vazifalar bajarilgan edi.

⁴ Абдурауф Фитрат. Чин севиш. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1996. -Б. 248.

Fitrat guruning rahbari sifatida to'garak oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda yetakchilik qildi.

U turkiylar jahon madaniyati xazinasiga al-Beruniy, al-Xorazmiy, al-Farg'oni, Jaloliddin Rumiy, Bedil singari buyuk daholarni yetkazib berganligi, lekin bu daholar o'z asarlarini ona tillarida emas, arab va fors tillarida yaratganliklari uchun turkiy til imkoniyatlari ochilmay qolganligi, hazrat Navoiy bu tilning keng imkoniyatlarga ega ekanligini ham badiiy, ham ilmiy asarlari bilan isbotlab berganligi, lekin u hazratdan so'ng yana turkiy til e'tiborsiz ekanligini, uning tarixda baxtsiz bo'lganligini afsus-nadomat bilan tilga oladi.

Shuning uchun, turk-o'zbek tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilash 20-30-yillar uchun eng dolzarb vazifa edi. Bu vazifani yechish esa, eng avvalo, matbuot zimmasiga tushar edi. Chunki bu davrgacha Alisher Navoiyning adabiyot olamidagi katta obro'-e'tibori tufayli uning asariga naziralar bag'ishlash, til uslubiga ergashish natijasida klassik o'zbek adabiy tili vujudga keldi. Nazmiy asarlar ana shu an'ana asosida klassik adabiy tilda yozildi. Bu adabiy til esa jonli o'zbek so'zlashuv tilidan ancha uzilgan, shuning uchun ham keng xalq ommasiga uchun tushunarsiz edi. Bu tilni tushunish uchun ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lish, maktablarda saboq olgan bo'lish kerak edi. Cho'lpon Navoiydan to Muqimiygacha bir xillik mavjud ekanligini, shuning uchun "ko'ngli boshqa narsa istayotganligi", Abdulla Qodiriyning o'qib esa, ana shu bir xillik yo'qolayotganligidan "ko'ngli taskin topayotganligi" ni bayon qiladi.

Darhaqiqat, 20-yillarda o'zbek adabiy tilini jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirish harakati boshlandi. Ashurali Zohiriy bu haqda quyidagilarni yozadi: "... Tilimizni uchga bo'lish mumkin: 1) jonli til; 2) adabiy til; 3) ilmiy til. Adabiy til bilan ilmiy til o'rtasida uncha farq bo'lmasa ham, jonli til bilan adabiy til orasida (o'sish va taraqqiy jihatidan) ancha farq bor.

Jonli tilning ham o'ziga maxsus ko'b qimmatli asarlari bordurkim, ularning barchasiga xalq adabiyoti deyilur. Bu (xalq adabiyoti) adabiy va ilmiy tilning asosidur. Asl tabiiy til – so'zlanaturg'on til, xalq tilidur. Haqiqat shundoq bo'lgani holda, XV asrdan inqilobgacha bo'lg'on davrda xalqning so'zlashaturg'on

tili adiblar tomonidan qo‘pol til, kucha tili sanalib, adabiy tilni unga yaqinlashtirish – kamchilik, xalq tilida yozishlik – qo‘pollik, deb e‘tiqod etilgan. Arabcha, forsha lug‘atlarni tiqishtirish bilan qanoatlanmasdan, hatto taqribalarni ham arabcha, forsha qilg‘onlar. Demak, arab, fors tillari naxviy yoqdan ham tilimizga ta’sir qilg‘on. Shuning uchun chig‘atoy (o‘zbek) adabiyoti usmonli adabiyoti singari xalqdan uzoqlasha boshlag‘on, oddiy xalq uni anglay olmag‘on. Uni bari o‘qumishli, ziyoli sinf anglay oladurg‘on bo‘lg‘on” (A. Zohiriy “Adabiy til”).

Matbuot tili esa jonli so‘zlashuvga asoslangan yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanishiga ko‘proq xizmat qilishi mumkinligini matbuotni oldinroq yo‘lga qo‘ygan turkiy qavmlar tajribalaridan angladilar. Ashurali Zohiriy bu haqda quyidagilarni yozadi: “Tatar qarindoshlarimizning hozirdog‘i til va adabiyotlarini bunday o‘n-o‘n besh yil ilgari adabiyotlariga tatbiq qilinsa, qiyos qabul qilmaslik darajada alarning tillarini kengaymog‘i milliy va ona tilidagi gazetalari bilan bo‘ldi. Demak, gazeta va jurnallarning dunyo ahvolidan va boshqa to‘g‘rilaridan xalqqa xabar berib turmog‘idan va boshqa ulug‘ va ko‘zga ko‘rinmaydurg‘on bir foydasi bo‘lurki, ul ona tilining kengaymog‘i va mukammallashmog‘idir” (A. Zohiriy “Ona tili”). Mahmudxo‘ja Behbudiy ham adabiy tilni me‘yorlashtirishda matbuotning roliga katta baho berib, quyidagilarni yozadi: “Matbuot maydoniga bizdan muqaddam o‘tilgan va do‘stlar ila jarida va maqolalarga sohib bo‘lgan ichkari Rusiya va Kafkaz musulmonlarini matbuot tili va ham kucha tiliga diqqatlik kishiga ma’lumdirki, matbuotlari kucha tilidan necha daraja oliydir” (“Til masalasi”).

Jadidlarning til masalasiga alohida e‘tibor berishlari bejiz emas edi. Chunki til millatning eng asosiy belgilaridan biridir. Shuning uchun ham: “Qachonki, bir millat tilini yo‘qotsa, o‘z dinini va millatini yo‘qotur”, – deydi Ashurali Zohiriy. Behbudiy muharrirligidagi “Oyna” jurnali til masalasiga alohida e‘tibor berdi. Bu davr matbuotida tilimizni ajnabiy so‘zlardan imkon qadar tozalash, o‘z tilimizni chuqur o‘rganish va unga mehr-muhabbat bilan qarashga undash bilan birga, boshqa tillarni ham, albatta, o‘rganishga da‘vat etildi. Xususan, “Oyna” jurnalining 1914-yil 31-sonida “S. A.” imzosi bilan bosilgan “Har millat o‘z tili ila faxr etar”

maqolasida muallif shunday yozadi: “Agar til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, bir oz zamonada til va millatimizni yo‘qoturmiz. Millatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila, albatta, yo‘qolur... Bas, bizga tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur”. Yoki Abdulla Avloniy mazkur jurnalning 1913-yil 1-sonida bosilgan “Ikki emas, to‘rt til lozim” nomli maqolasida yoshlarni ko‘p til bilishga, arab, fors, turk tilini bilish bilan birga, albatta, Ovrupo tillarini, xususan, rus tilini o‘rganishga chaqiradi. Bu tillarni qancha puxta bilsak, ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy merosdan shunchalik foydalanish imkoniyatiga, bugungi dunyo fan va madaniyat yangiliklaridan shunchalik bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishimiz bayon qilinadi.

Shunday qilib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekistonda ziyolilar o‘rtasida milliy o‘z-o‘zini anglash hissi kuchaydi. Milliy madaniyatni rivojlantirishga, adabiy til bilan jonli so‘zlashuv tilini yaqinlashtirishga e‘tibor ortdi. Ana shu harakat tufayli tilshunoslik masalalariga alohida ahamiyat berildi.

Savol va topshiriqlar:

1. XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda milliy o‘zlikni anglash tushunchasining rivojlanishi uchun sabab bo‘lgan omillar nimada?
2. Jadidchilik harakatining “ma’rifatparvarlik”, “ma’rifatchilik”, “demokratik milliy uyg‘onish harakatlari” kabi nomlar bilan ham yuritilishini qanday izohlaysiz?
3. Jadid ma’rifatparvarlarining mazkur davrdagi til siyosatini qanday izohlaysiz?
4. Mazkur davrda Chor Rossiyasining milliy til masalasidagi siyosati nimaga asoslangandi?

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.

3. Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). – Тошкент: Akademiya, 2000.

4. Янгибоева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни (“Маориф ва ўқитувчи” журнали материаллари асосида): филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Қарши, 2019.

5. Adeeb Khalid. The politics of Muslim Gultural Reform: Jadidism in Tsarist Central Asia (Ph. D. diss. University of Wisconsin-Madison) yo 1993.

II. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDAGI DAVR ADABIY TILI TALQINI.

Tayanch soʻz va iboralar: *lisoniy meʼyor, umumturkiy til yaratish gʻoyasi, gʻarbiy turk tili unsurlari, chigʻatoy tili, jargon, vulgarizm, maʼrifiy adabiyot tili, tatarizmlar, lisoniy parallellar, oʻgʻuz komponenti.*

Oʻzbek adabiy tilining mazkur davr bosqichi ijtimoiy-siyosiy va lisoniy jihatdan oʻziga xos murakkabliklari bilan koʻzga tashlanadi. Bu davrda, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy muammolar, ikkinchi tomondan, taʼlim-tarbiya, maorif muammolari, uchinchi tomondan esa, milliy til, adabiy tilga munosabat, tilni davr talablariga moslash, uning umummilliy adabiy til sifatidagi rivojlanish yoʻllarini belgilash kabi murakkab nazariy va amaliy, milliy va maʼrifiy muammolar bir-biri bilan qorishib, chalkashib ketgan edi.

Fikr yuritilayotgan davrda milliy til (ona tili) masalasi baʼzi hollarda bir millat muammosi doirasidan chiqqan hamda umumturkiy masala sifatida oʻrtaga qoʻyilgan edi. Milliy til masalasini hal etishga, muammoni nazariy hamda amaliy jihatdan hal qilishga koʻmaklashuvchi, koʻp holda esa halaqit berayotgan baʼzi omillar mavjud edi. Bular quyidagilardan iborat edi:

1. XIX asr oxiri – XX asr boshida ijod qilgan yozuvchilarning baʼzilari anʼanaviy mumtoz adabiyot tili doirasidan chiqishga, tilni soddalashtirishga intilishar edi. Baʼzi yozuvchilar esa eski oʻzbek tili meʼyoriga amal qilgan holda ijod qilishardi.

2. Oʻzbek tilida matbuot (gazeta va jurnallar) paydo boʻlgan boʻlib, ularning tili qorishiq uslub va unsurlarga boy edi. Matbuot tilida anʼanaviy til, tildagi oʻzgarishga uchrayotgan yangi koʻrinishlar, qardosh tillar va rus tilining ilk taʼsiri, baʼzi hollarda esa sodda xalq tilida yozishga intilish kabi holatlar kuzatiladi. Bu holat milliy adabiy tilni muayyan yagona meʼyorga keltirishga imkon bermas edi.

3. Bu davrda qardosh turkiy tillarning oʻzaro taʼsiri jonlangan boʻlib, bir tildan ikkinchi tilga taqlid qilish holatlari mavjud edi. Bunday taʼsir koʻp holda oʻzaro muloqot, ayniqsa, badiiy adabiyot va matbuot bilan tanishish orqali yuzaga keldi.

4. Ba'zi turkiy tillarni rivojlangan ilg'or va zamon talablariga javob beruvchi til sifatida baholash, boshqa qoloq tillar ulardan o'rnak olishi, o'z lisoniy imkoniyatlarini ilg'or tillar hisobiga boyitishi lozim, degan g'oyalar ilgari surilardi. Usmonli turk tili, ozarbayjon va tatar tillari namunaviy til sifatida baholangani ma'lum.


5. Ko'p holda mafkuraviy-lisoniy qarashlarda har qaysi turkiy tillarning mustaqil rivoji inkor qilinar va barcha turkiy xalqlar uchun umumturkiy til yaratish g'oyasi oldinga surilardi. Bu hol milliy til, ona tilining rivoji uchun kurash olib borayotgan doiralarda ikkilanish va beqarorlikni yuzaga keltirardi.

6. Davlat olib borayotgan til siyosati milliy tillarning rivoji va tengligiga emas, balki xalq va elat tillarining rivojiga to'sqinlik qilish, mamlakatning barcha ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalariga rus tilini zo'rlab yoyish va singdirishga qaratilgan edi. Bu mahalliy milliy tillarning funksional imkoniyatlarini nihoyatda chegaralashga olib kelgandi. Mana shu holat mahalliy xalqlar so'z va iboralarining adabiy tilga kirib borishiga yo'l ochgan edi.

7. Milliy adabiy til, ya'ni ona tilini yoyish, o'rgatish orqali bu tilning roli va o'rnini, amaliy imkoniyatlarini mustahkamlashda ma'rifiy ishlar, ona tilida ta'lim va tarbiya berish muhim omil ekani ma'lum. Ammo o'sha davrning ta'lim tili "islom tili" deb hisoblanuvchi arab tili, yangi ta'lim dargohlarida esa rus tili edi. Demak, ta'lim-tarbiya sohasiga ona tilini kiritish, uning bu boradagi o'rni va mavqeyini tiklash uchun kurash murakkab muammolardan biri edi.

Qayd qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, mazkur davrda, bir tomondan, umumturkiy til yaratish g'oyasi, ikkinchi tomondan, milliy ona tilini rivojlantirish g'oyasi, biror tilni ilg'or rivojlangan til deb hisoblab, qolganlarini chetlash g'oyasi, davlat tili deb rus tilini oldinga surish, milliy-mahalliy tillarni chetlash g'oyasi, kam rivojlangan, davr talabiga javob bera olmaydi deb hisoblangan tilni ilg'or tilga yaqinlashtirish va u bilan birlashtirish g'oyasi, tarixan tarkib topgan eski an'anaviy tildan voz kechmaslik, uni zamonaviy talabga moslash lozimligi fikri bilan zamon talabiga javob beruvchi yangi adabiy tilni yaratish g'oyalari orasida kurash borardi.

Professor A. K. Borovkov 1905-1917-yillar oralig'idagi o'zbek adabiy tilining xususiyatlarini o'sha davrda o'zbek tilida nashr qilingan matbuot tili asosida tahlil qilar ekan⁵, til sohasida hukmron bo'lgan turli qarashlarni ham tahlil qilgan. Muallif o'z kuzatishlarida o'sha davrda yagona turli siyosiy, lingvistik, milliy-ma'rifiy oqimlar tomonidan oldinga surilgan g'oyalarni quyidagi chizmada umumlashtirish mumkin:



Keltirilganlardan tashqari, boshqa alohida tillar rivojiga oid juz'iy qarashlar ham bo'lgan. Chunonchi, o'sha davr matbuoti aksariyat hollarda milliy tillarning (turk, tatar, ozarbayjon, qozoq, chig'atoy) mustaqil rivojlanishi lozimligini ta'kidlar edi. Shunga ko'ra, o'zbek matbuotida o'sha davrda bildirilgan quyidagi fikrlar xarakterlidir:

- ta'lim ona tilida olib borilishi lozim;
- ta'lim arab tilida bo'lishi lozim;
- ona tilini bilish kerak, diniy ta'lim ona tilida bo'lganda u yaxshiroq anglanadi;
- avvalo, ona tilini yaxshi bilish kerak, keyin arab tilini ham, chunki arab tili dinni bilish, anglash uchun kerak;
- avvalo, ona tilini yaxshi bilaylik, keyin rus tilini ham o'rganaylik;

⁵ Боровков А. К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Ташкент: Учпедгиздат УзССР, 1940. – С. 104.

– ona tilini xalq shevalariga yaqinlashtirish kerak⁶.

Bu davrda milliy tilning mavqeyi uchun kurash ona tilining me'yorlarini takomillashtirish harakati bilan birga olib borilganini ko'ramiz. Bu harakat, asosan, ona tilidan "arabcha-forscha so'zlarni haydash", o'zbek tiliga kiritilgan ruscha va yevropacha so'z va terminlarni o'zbek tilining o'z so'zlari bilan almashtirish shiori ostida olib borildi⁷.

A. K. Borovkov "Oyna" jurnalida yozilgan quyidagi fikrlarni keltiradi: "Agar biz adabiyotimiz va tilimizni chet el so'zlarining kirib kelishidan himoya qilmasak, qisqa vaqt ichida milliyligimiz va tilimizni yo'qotamiz. Bu holda xalqchilligimizni yo'qotamiz, diniyligimiz ham barham topadi. Demak, tilimizni chet el so'zlaridan himoya qilish eng muhim vazifamizdir"⁸.

Umuman, mazkur davrning xususiyatlarini bilmasdan turib, davr tiliga, undagi murakkabliklarga to'g'ri baho berish qiyin.

Ma'lumki, A. K. Borovkov 1905-1917-yillardagi o'zbek adabiy tilining holatini o'sha davr matbuoti tili misolida keng tahlil qilgan. U matbuot tilidagi turli xususiyatlarni, gazetalar tilida g'arbiy turk (ozarbayjon), usmonli turk, tatar elementlari (so'z va grammatik shakllar, ba'zi sintaktik birliklar), shuningdek, arab va fors tiliga oid so'zlarni qo'llash kuchli bo'lganligini aniqlagan va ularni tahlil qilgan holda quyidagi xulosaga kelgan: "Bu davrdagi matbuot tili fevral revolyutsiyasigacha bo'lgan davrdagi kabi xalqchil til emas edi. Bu davrdagi birorta gazeta tili o'zbek xalqi tiliga o'xshamasdi"⁹.

A. K. Borovkov fikr yuritilayotgan davrdagi o'zbek matbuoti tilini chuqur tahlil qilar ekan, bu tilni "jargon" deb ataydi. O'rganilayotgan gazetalar tilida jargon xarakteridagi ba'zi maqolalar mavjud bo'lganligini inkor qilmagan holda, uning fikrida munozarali o'rinlar mavjudligini ham ta'kidlash lozim bo'ladi. Bular quyidagilar:

Birinchidan, fikr yuritilayotgan davr adabiy til holatiga birgina gazeta tili (ilmiy-publisistik uslub) materiali asosida baho berish o'rinli emas. Chunki bu davrda nashr qilingan ko'pgina gazetalar tili

⁶ Borovkov A. K. Keltirilgan asar. – B. 8-12.

⁷ Shu manba. – B. 14-16.

⁸ Shu manba. – B. 17.

⁹ Shu manba. – B. 48.

izlanish, shakllanish bosqichida edi. Adabiy tilda publisistik uslub hali shakllanib ulgurmagan edi.

Ikkinchidan, A. K. Borovkov asarining sarlavhasiga qaraganda, u 1905-1917-yillardagi o'zbek adabiy tilining holatini o'rganmoqda. Adabiy til esa ko'pqirrali, ko'p uslubli tildir. Unda publisistik uslubdan tashqari, badiiy adabiyot tili, ilmiy asarlar tili, qisman so'zlashuv uslubi tili, rasmiy uslub tili va boshqa yordamchi uslublar tili o'z ifodasini topgan edi. Binobarin, adabiy tilning holatiga uning barcha uslublari tilidan kelib chiqqan holda baho berish kerak.

Uchinchidan, o'sha davrdagi o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismini mumtoz o'zbek adabiyoti tili va yuzaga kelayotgan yangi badiiy adabiyot tili (masalan, jadidlar yaratayotgan asarlar) tashkil etar edi. Bu adabiyot Abdulla Avloniy, So'fizoda, Tavallo, Fitrat, qolaversa, Furqat, Muqimiy, Hamza kabi demokratik yozuvchilar qalamiga mansub edi. O'zbek adabiy tilining rivoji haqida gap borganda, ular yaratgan asarlar tilini chetlab o'tish mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan fikr yuritilsa, bizningcha, prof. V. V. Reshetovning mulohazalari to'g'ri. U A. K. Borovkovning fikr yuritilayotgan davrdagi matbuot tili "jargon" edi, degan fikriga qo'shiladi. Chunki uning yozishicha: "Samarqand, Farg'ona, Toshkentda chiqarilgan gazetalarda dialektizm va turkiy so'zlar haddan ortiqdir¹⁰". Biroq "O'zbek adabiy tili" degan tushunchani talqin qilishda V. V. Reshetov A. K. Borovkovdan farq qiladi. U bu ibora tagida XX asr boshlarida ijod qilgan Furqat, Muqimiy, Hamza, Zavqiy asarlarini ham hisobga oladi.

To'rtinchidan, butun bir matbuot tilini "jargon" deb yuritishni ham o'ylab ko'rish lozim bo'ladi. Ma'lumki, milliy tilning ijtimoiy tarmoqlanishida "jargon" tor doiradagi ma'lum ijtimoiy guruhning tili hisoblanib, ko'p holda "yashirin", o'sha guruh a'zolariga tushunarli, uning so'zlari, so'z ma'nolarida, fonetik-grammatik tuzilishida sun'iy ijod qilingan vositalar mavjud bo'lgan tor doira tili tushuniladi. Shunday ekan, butun bir millat, xalq o'qishi uchun

¹⁰ Решетов В. В. Узбекский литературные язык. История Узбекской ССР. Том II. – Ташкент, 1959. – С. 434.

mo'ljallangan gazeta tili va uslubini "jargon" deb baholash o'rinsizdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek milliy tilining quyidagi ijtimoiy tarmoq va ko'rinishlari mavjud edi:

1. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek badiiy adabiyoti tili.

2. XX asr boshlaridagi yangi shakllanib kelayotgan o'zbek matbuoti tili.

3. O'sha davr o'zbek ilmiy va ma'rifiy adabiyot tili.

4. O'zbek folklori asarlari tili.

5. O'zbek xalq lahja va shevalari tili.

XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tiliga baho berganda o'zbek tilining keltirilgan til hodisalarining xususiyatlari va o'zaro munosabatini hisobga olgan holda ish tutish maqsadga muvofiqdir.

Davr adabiy tilida umumturkiy til yaratish g'oyasi ta'sirida yuzaga kelgan lisoniy xususiyatlarni ham ta'kidlash o'rinlidir. Umumturkiy adabiy til yaratish g'oyasi va uning ta'sirida o'sha davr matbuoti va badiiy adabiyoti tiliga usmonli turk, ozorbayjon va tatar tillaridan bir qator so'zlar, so'z formalari kirib keldi. Bunga sabab umumturkiy til uchun asos, namuna bo'la oluvchi tillar sifatida usmonli turk tili, ozorbayjon tili, tatar tili, ba'zan "chig'atoy tili" (eski o'zbek tili) oldinga surilgan edi.

O'sha davrda ona tilining sofliqi uchun kurashish, uni keng ommaga tushinarsiz arab va fors tili so'zlaridan, rus tili va u orqali Yevropa tillaridan kirib kelayotgan leksemalardan tozalash g'oyasi ham mavjud edi. Iste'moldan chiqarilgan so'zlar o'rni ona tili yoki genetik jihatdan turkiy bo'lgan so'zlar bilan to'ldirilishi lozim edi. Ba'zi hollarda mana shunday so'zlar o'zbek tili uchun qardosh turkiy tillar leksikasidan ham axtarildi. Mana shunday xarakatlar natijasi o'laroq XX asr boshlaridagi o'zbek matbuoti va badiiy adabiyoti tilida umumlashtirilgan xolda "g'arbiy turk tili unsurlari" deb nomlangan lisoniy hodisalar paydo bo'ldi. Bular: 1) ba'zi so'z (leksema)lar; 2) so'z formalari; 3) so'z yasovchi yoki turlovchi morfemalar; 4) ba'zi so'z birliklari edi.

Qayd qilingan lisoniy vositalar o'sha davr tilida ham uchraydi. Ushbu xususiyatning mohiyati, uni talqin qilish, baholash bo'yicha

turli fikrlar oldinga surilgan bo'lib, bari bir bu masala muammoligicha qolib kelmoqda. Shu sababli biz bu masalaga qisqacha to'xtalishni lozim topdik.

Tilga olinayotgan masalani tushinishda quyidagicha muammolar bor:

1. Bu elementlarning o'zbek tiliga kirib kelishining ijtimoiy-lisoniy asoslari nimada?

2. Bu unsurlar qaysi tillardan kirib o'zlashgan, aslida qaysi tillarga mansub?

3. Bu unsurlar o'zbek tilining qaysi uslubi va janrida ko'proq uchraydi, buning sababi nimada?

4. O'zbek tilida uchraydigan bunday hodisalarni qanday baholash kerak, ular o'zlashmalarmi yoki qo'llanma leksema, jargonlarmi?

5. Bu unsurlarning o'zbek mumtoz adabiyoti tilida uchraydigan "o'g'uz elementlari" deb yuritiluvchi hodisaga munosabati qanday?

6. Bu unsurlarning o'zbek tilidagi miqdori, salmog'i qanday? Turli adiblar tilida ular miqdoran farqlanadimi?

7. Bu unsurlarning keyinchalik o'zbek tilidan chiqib ketish sabablari nimada?

Yuqorida qayd qilingan savollarga javob topish uchun o'zbek tilshunosligida ushbu muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarga qisqacha to'xtalamiz.

XX asr boshlaridagi o'zbek tilida uchraydigan "g'arbiy turk", tatar tili unsurlarini tahlil qilgan tilshunos A. K. Borovkovdir. Uning yozishicha, 1905-1917-yillar davridagi o'zbek adabiy tili xalqchil emas, balki qandaydir "aralash" til tasavvurini tug'diradi. Bu ma'noda u "o'tish davri adabiy tilidir". Unda tatarizmlar, "g'arbiy turk" tili elementlari ko'plab uchraydi. Tatarizmlarning kirib kelish sababini A. K. Borovkov shunday talqin qilgan: "Tatarizm va g'arbiy turk tili unsurlari o'zbek adabiy tili, ayniqsa, davriy matbuot tilida muhim o'rin egallagan. Bunga asosiy sabab, birinchi navbatda, Rossiya, Qrim, Ozarbayjon va qisman Turkiyaning g'oyaviy ta'siridir¹¹".

¹¹ Боровков А. К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Ташкент: Учпедгиздат УзССР, 1940. – Б. 19.

Muallif bu unsurlarni usmonli turk va tatar matbuoti ta'sirida, shuningdek, o'zbek ziyolilarining savdo va boshqa yo'llar bilan Rossiya, Turkiya, Eron mamlakatlariga sayohat qilishlari natijasida kirib kelgan deb hisoblaydi.

A. K. Borovkov fikr yuritilayotgan unsurlarning o'sha davr o'zbek tilidagi mavqeyini "G'arbiy turk tili unsurlari o'zbek adabiy tilida juda mustahkam o'rin egallagan, o'sha davr mobaynida bu unsurlar o'zbek adabiy tili, ayniqsa, davriy matbuot tilida ko'proq saqlanib qolgan" – deb baholaydi.¹²

A. K. Borovkov "g'arbiy element"lar haqida quyidagilarni yozadi: "Keltirilgan misollar shuni tasdiqlaydiki, g'arbiy turk tili unsurlari o'sha davr adabiy tilida muhim o'rin egallagan. Bu haqida ilmiy adabiyotlarda ko'p gapirilgan. Ular "umumturkiy adabiy til"ga o'ziga xos jilo bag'ishlagan¹³".

A. K. Borovkov o'sha davr o'zbek tilidagi tatar tiliga oid elementlarning sababini quyidagicha izohlaydi: "O'sha davr tilida tatar tilidan o'zlashgan unsurlar ham sezilarli ahamiyat kasb etgan. Bu holatni, o'z navbatida, jadid matbuotida asosan tatar ziyolilarining bevosita ishtiroki natijasi deb baholash mumkin. Tatarizmlar fonetik unsurlarda, unlilarning o'ziga xos qisqartirib talaffuz qilinishida o'z aksini topgan¹⁴".

Keltirilgan fikrlardan ko'rinayaptiki, A. K. Borovkov "g'arbiy turk" va tatar tili elementlarining tahlil qilinayotgan davr tilidagi mavqeyi va rolini sal oshiribroq ta'riflaydi. Bordi-yu, agar shunday bo'lsa, ular keyinchalik o'zbek adabiy tili me'yorlarida saqlanmasdan nega chiqib ketdi, deyilgan savollarning tug'ilishi tabiiy.

A. K. Borovkov o'z tahlillaridan kelib chiqqan holda, 1905-1917-yillar o'zbek adabiy tilining holatini quyidagicha baholaydi: "1905-1907-yillar oralig'idagi o'zbek adabiy tilining jonli xalq tiliga munosabati qanday bo'lgan? Bu savolga javob berish uchun maxsus tadqiqotlar o'tkazishimiz zarur. Umumiy ma'noda bu savolga quyidagicha javob berish mumkin: 1905-1917-yillar davri o'zbek adabiy tili aslida feodal davr eski o'zbek adabiy tilining

¹² Shu manba. –B. 20.

¹³ Shu manba. –B. 21.

¹⁴ Shu manba. –B. 21.

davomi bo'lgan va xalq jonli so'zlashuv tilidan yiroq bo'lgan. Bu davrdagi adabiy tilning asosi jonli xalq tili bo'lmagan, shu sababdan ham o'sha paytda adabiy til haqidagi bahslarda shevalar muammolari ko'tarilmagan¹⁵”.

Davr adabiy tilidagi bu unsurlar haqida fikr yuritgan mualliflardan biri atoqli o'zbek adibi Pirimqul Qodirovdir. U jadid ma'rifatparvar adibi Abdulla Avloniyning ona tili haqidagi she'rida uchraydigan *tug'dig'im* so'zi haqida fikr bildirib yozadi: “Turkcha yoki ozarbayjoncha *tug'dig'im* so'zi ham A. Avloniy ijodida tasodifiy emas, usmonli turk va ozarbayjon tillari o'zbek tiliga nisbatan oldinroq zamonaviy taraqqiyot yo'liga kirgan edi. A. Avloniy bu tillarning jonli xalq tili asosiga o'tishdagi tajribasidan foydalanishga urinar edi. Shuning uchun Abdulla Avloniy chiqargan gazetalarda ham, uning kitoblarida ham turkcha so'zlar, iboralar anchagina uchraydi... A. Avloniy hatto, “banim qalamim ila nashr o'linajaq kitoblar” deya bir jumlani butunlay turkcha tuzadi¹⁶”.

Pirimqul Qodirov davr adabiy tilidagi bu unsurlarni A. Avloniy asarlari tili misolida tahlil qilar ekan, bu kabi elementlarning o'rni va rolini A. K. Borovkov kabi baholamaydi, balki ularning juz'iy hodisa ekanini ta'kidlaydi: “Abdulla Avloniy asarlarining tilida bunday taqlid juz'iy o'rin tutadi. Uning “Turkiy guliston”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” kabi darslik kitoblari o'zbek xalqi tilining boyliklaridan samarali foydalanishining o'sha davr uchun yaxshi namunalari bo'la oladi.”¹⁷

O'sha davr ijodkorlari tilida usmonli turkcha, ozarbayjoncha va tatarcha lisoniy unsurlarning uchrashi bejiz emasligi haqida o'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga oid tadqiqotlarda ham fikr yuritilgan. Bu elementlar, bir tomondan, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, ma'rifiy-ma'naviy an'ana bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, Abdulla Avloniyning o'sha davrdagi turk, ozarbayjon, tatar yozuvchi va ma'rifatparvarlari bilan yaqindan shaxsiy aloqada bo'lganligi, tilga olingan xalqlar tilida nashr qilinadigan matbuotni muntazam o'qib borganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari,

¹⁵ Borovkov A. K. Yuqoridagi manba. – B. 22.

¹⁶ Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Adabiyot va san'at, 2000. – B. 34.

¹⁷ Shu manba. – B. 34.

Abdulla Avloniy va boshqa o‘zbek adiblarining asar va maqolalari tilga olingan xorijiy matbuotlarda ham bosilib turgan. ”¹⁸

O‘zbek adabiyoti tarixiga oid ilmiy manbalarda bir qator o‘zbek adiblari Ozarbayjonda nashr qilinadigan ba’zi jurnallarni sistemali ravishda o‘qib borganligi haqida ma’lumotlar bor: “Bokuda chiqadigan “Mulla Nasriddin”, “Dabiston” kabi jurnallarni O‘rta Osiyodagi ko‘pgina ilg‘or ziyolilar qatori yosh Hamza, Ayniy, Qodiriy, So‘fizoda, Ajziy, Avloniy va boshqalar ham sistemali o‘qib turganlar¹⁹”. Ular ushbu nashrlarning muharrirlari bilan shaxsiy munosabat ham o‘rnatishgan: “Bu davrda Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Ajziylar “Mulla Nasriddin” jurnalining redaktori, “Ozarbayjon Gogoli” deb nom olgan mashhur satirik Jalil Muhammadqulizoda bilan shaxsiy muloqotda bo‘lganlar²⁰”.

Mana shu kabi aloqalar tilga olingan adiblar asarlari matnida ozarbayjon tilining ta’siri bo‘lganligini asoslovchi omil mavjud deb taxmin qilish mumkin. Chunki fikr yuritilayotgan davr o‘zbek tili rivojida eng murakkab va nozik davr edi. O‘z lisoniy normalarini belgilashga dastlabki qadamlarni qo‘yayotgan yangi o‘zbek tiliga yuqoridagi kabi tashqi muhitning osongina ta’sir etishi tabiiy edi.

Mana shu kabi fikrlar Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlaridagi holatlar yuzasidan ham aytilgan: “Hamzaning 1914-1917-yillardagi she’rlariga nazar tashlar ekanmiz, ularda o‘zbek klassik adabiyotidan ko‘ra tatar badiiy madaniyati ta’siri ko‘proq bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz. Uning bu davrdagi ijodida ozarbayjon va usmonli turk adabiyotining ham ma’lum unsurlari bor... Hamza hatto tatar tiliga xos ifodalar va jumla qurilishlarini keng istifoda eta boshladi²¹”.

Fikr yuritilayotgan masalaning ta’siri kuchayishida ilmiy hamkorlik va ilmiy tadqiqotlar ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Elbekning lisoniy merosini o‘rgangan Sh. Bobomurodova buni alohida ta’kidlaydi: “XX asr boshlariga kelib fan va madaniyat o‘chog‘iga aylangan Istanbul, Qozon shaharlarida turk tilini tadqiq etuvchi tilshunos olimlar guruhi faoliyat ko‘rsata boshladi. Ular

¹⁸ Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1980, – Б. 308-310.

¹⁹ Shu manba. – B. 309.

²⁰ Shu manba. –B. 310.

²¹ Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 452.

harf, alifbo, imlo muammolari ustida izlanishlar olib borib, turkiy tillarning ilmiy grammatikasini tuzishga kirishdilar. Natijada, bu davrga kelib “Qavoidi lisoni turkiy”, “Qavoidi turkiy” kabi grammatikaga oid bir qancha asarlar yuzaga keldi ²²”.

Fikr yuritilayotgan lisoniy unsurlarning o‘zbek tiliga ta’sirini qanday baholash lozim, ular o‘zlashmalarmi? Bu unsurlarni usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillarining o‘zbek tiliga ta’siri deb tushunish kerakmi? Ushbu unsurlar eski o‘zbek tilida ham uchrab turadigan *o‘g‘uz komponentiga* aloqadormi? deyilgan savollarga aniq javoblar yo‘q. Bu masalalarga aniqlik kiritishda o‘zbek tilshunos olimi Azim Hojiyev tomonidan oldinga surilgan mulohazalar alohida ilmiy qimmatga ega. Biz bu fikrlarni quyida qisqacha tahlil qilamiz. A. Hojiyev XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘zbek tilida uchraydigan ozarbayjoncha va tatarcha lisoniy elementlarni o‘sha davr tiliga qayd qilingan tillarning ta’siri deyilgan fikrga qo‘shilmaydi va ozarbayjoncha elementlarni avvaldan o‘zbek tili tarixida mavjud bo‘lgan hodisa deb biladi. U yozadi: “Hozirgi o‘zbek tilining shakllanish jarayonida (ya’ni shu davr yozma manbalarida) uch til – ozarbayjon, tatar va rus tili elementlari qo‘llanishi kuzatiladi. Ozarbayjon tili elementlarining qo‘llanishi juda sanoqli bo‘lib, ular ayrim leksema va morfologik birliklardan iboratdir. Lekin bu faktni hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida ozarbayjon tilining bevosita ta’siri emas, balki yozuvda eski o‘zbek yozma nutqiga xos elementlarning qo‘llanishi deb izohlash to‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida *-gan* affiksi bilan yasaluvchi *aytgan, sevgan* formasi o‘rnida *aytmish, sevdig‘i* formalarining qo‘llanishi kabi holatlar XX asrgacha bo‘lgan o‘zbek tiliga oid manbalarda ham qo‘llangan. Bu qo‘llanish inqilobdan so‘ng ham davom etib, ulardan ayrimlari, jumladan, *-mish, -dig‘i* affiksi bilan yasaluvchi forma qonuniy ravishda ko‘p o‘tmay iste’moldan chiqib ketdi, ba’zilar esa o‘zbek adabiy tilidan o‘rin oldi. Masalan, asli ozarbayjon tilidan o‘zlashgan *-moqda* affiksi bilan yasaluvchi fe’l formasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida juda keng qo‘llaniladi. Demak, inqilobdan so‘ng yozma manbalarda

²² Бобомуродова Ш. Э. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли. Филол. фан. номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – Б. 6.

ozarbayjon tili elementlarining qo'llanilishini o'zbek tilining taraqqiyotiga ozarbayjon tilining bevosita ta'siri deb emas, balki eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan ozarbayjon tili elementlarining inqilobdan keyin ham qo'llanishda davom etishi deb qarash kerak²³”.

A. Hojiyev o'sha davr tilida uchraydigan tatar tiliga xos ayrim lug'aviy va morfologik elementlarni ham o'zbek tiliga tatar tilining ta'siri deb izohlashga qo'shilmaydi: “O'zbek adabiy tili taraqqiyotining dastlabki etaplarida, ayniqsa, yigirmanchi yillarga oid yozma manbalarida, tatar tiliga xos ayrim leksik va morfologik elementlarning ko'p qo'llangani kuzatiladi. “*Aytalar*”, “*yo'zarg'a tegish*”, “*aytarg'a mumkin*” kabi juda ko'p qo'llangan formalar shular jumlasidandir. Bu hodisani o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga tatar tilining ta'siri deb izohlash mumkin emas. Bu hodisa bir necha sabablar bilan izohlanadi. Masalan, matbuot ishlarida tatar intelligentlarining aktiv ishtiroki asosiy sabab hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek adabiy tilining barcha sohalari bo'yicha normalarning aniq belgilanmaganligi, adabiy til uchun aynan bir shevaga xos birlik norma sifatida tayin etilmaganligi ham tatar tiliga xos elementlarning qo'llanishiga yo'l ochgan. Keyinchalik hozirgi o'zbek adabiy tili uchun norma deb qaraluvchi birliklar o'zbek shevalarining o'zidan belgilanishi natijasida tatar tiliga xos elementlarning barchasi qonuniy ravishda yozuvda ham iste'moldan chiqib ketdi. Demak, o'sha davr yozma manbalarida ozarbayjon va tatar tili elementlarining qo'llanilishi hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotiga bu tillarning ta'sirini ko'rsatuvchi fakt bo'la olmaydi²⁴”.

A. Hojiyevning qayd qilingan qarashlarini fikr yuritilayotgan hodisalarga yangicha yondashishning bir ko'rinishi deb baholash mumkin. Shu bilan birga, ozarbayjon tili elementlarining o'zbek tili tarixida qo'llangani o'sha davrda ham tillararo ta'sir muhim bo'lganidanmi yoki bu tillarning genetik manbayi bir bo'lganligidan

²³ Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти - I. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 24.

²⁴ Shu manba. – B. 25.

yuzaga kelgan lisoniy parallellar bo'lishi mumkinligi kabi masalalar alohida kuzatishlarni talab etadi.

Ma'lumki, tilga olingan davrda o'zbek matbuotida tatar mutaxassislar ishlagani, ba'zi maqolalarni ular yozgani yoki tahrir qilgani ham aniq. Bunday holda material muallifi ongli yoki ongsiz ravishda o'zbekcha matnga tatarcha so'z va iboralarni aralashtirib yuborgan. Bu holda matnda uchraydigan tatarcha elementlarni *o'zlashma* emas, *vulgarizm* deb baholashga to'g'ri keladi. Chunki tilga ta'sir haqida gap borganda bir tildan ikkinchi tilga o'zlashgan, singgan hodisalar ko'zda tutilishi lozim. Bordi-yu, bu elementlar o'zlashgan, o'zbek tiliga singgan hodisalar bo'lganida o'zbek tilidan osonlikcha chiqib ketmas edi. Har holda, bu masalalar kengroq material asosida maxsus tekshirish ishlarini talab qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, XX asr adabiy tilida, ayniqsa, o'zbek matbuoti tilida qo'llanilgan usmonli turk, ozarbayjon va tatar tiliga oid leksik, grammatik shakllar juz'iy faktlar bo'lib, ular o'sha davr o'zbek tilining lug'aviy va grammatik normalariga katta ta'sir o'tkaza olmagan. Buni o'sha so'zlarning o'zbekcha shakllari ham parallel ravishda qo'llanilgani tasdiqlaydi. Umuman olganda, usmonli turk, ozarbayjon, tatar tilidan o'zlashgan sof yangi hisoblanuvchi leksemalar barmoq bilan sanarli darajada. Shaklan o'sha tillarga xos grammatik ko'rsatkichlar (so'z yasovchi va forma hosil qiluvchi morfemalar) esa o'zbek tilidagi formalari bilan parallel ravishda qo'llanilgan. Bundan tashqari, bu morfemalarning o'zbekcha variantlari ularga nisbatan faol qo'llanilgan. Demak, yuqorida qayd etilgan tillar o'zbek tilining lisoniy me'yorlariga ta'sir eta olmagan va salmoqli emas.

Umuman, XX asr boshidagi o'zbek adabiy tili qanday bo'lishi haqida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli fikrlar bildirilgan. Bir guruh ziyolilar adabiy til eski o'zbek tilidek murakkab, kitobiy til bo'lishini targ'ib qilishsa, boshqa guruh ziyolilar tilning jonli xalq tiliga yaqin, sodda va tushunarli bo'lishi tarafdori bo'lgan.

Savol va topshiriqlar:

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida milliy til masalasini hal etishdagi nazariy va amaliy muammolarni izohlang.

2. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy tilining qaysi ijtimoiy tarmoqlari mavjud bo‘lgan?

3. A. K. Borovkov hamda V. V. Reshetovlarning davr adabiy tiliga bergan tavsiflarini o‘zaro solishtiring, qaysi tavsif mukammalligini aniqlang.

4. Davr adabiy tilida qo‘llangan “g‘arbiy turk tili unsurlari”ni o‘sha davr materiallari asosida qaysi uslubga xos asarlarda keng qo‘llanganligini aniqlang.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

2. Боровков А. К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Ташкент: Учпедиздатт УзССР, 1940.

3. Решетов В. В. Узбекский литературные язык. История Узбекской ССР. Том II. – Ташкент, 1959. .

4. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Adabiyot va san’at, 2000.

5. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1980.

6. Бобомуродова Ш. Э. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: филол. . фан. номзоди дисс. – Тошкент, 2002.

III. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDAGI O‘ZBEK ZIYOLILARINING LINGVISTIK QARASHLARI.

3. 1. MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY.

Tayanch so‘z va iboralar: *mafkuraviy-lisoniy qarash, publitsistik uslub, areal tasnif, lisoniy me‘yor, umumturkiy til yaratish g‘oyasi, g‘arbiy turk tili unsurlari, chig‘atoy tili, ma‘rifiy adabiyot tili, tatarizmlar, lisoniy parallellar, vahdati lison.*

XX asr boshlarida yuz bergan lingvistik jarayonda o‘sha davrda faoliyat olib borgan bir qator mashhur adiblar, ma‘rifatparvar ziyolilar, tilshunoslar, jurnalistlar faol ishtirok etishgan. Ana shunday adiblardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiylidir. Ma‘rifatparvar, pedagog, dramaturg, publitsist va noshir Mahmudxo‘ja Behbudiylar XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti, ta‘limi va tilining rivojiga munosib hissa qo‘shgan yorqin ijodkordir.

Zamonasining ilg‘or fikrli ziyolilari qatorida bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiylar – jamoat, madaniyat va maorif arbobi, birinchi o‘zbek dramaturgi, milliy teatr tashkilotchisi, matbuotchi, publitsist sifatida o‘zbek xalqining XX asrdagi buyuk mutafakkir adibi hisoblanadi. Uning badiiy ijodi, ma‘rifatparvarlik va jurnalistik faoliyati, ta‘lim-tarbiya sohasidagi ishlari yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Biroq Mahmudxo‘ja Behbudiylarning tilshunoslik faoliyati va u yaratgan badiiy, xususan, publitsistik asarlarning lingvistik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligidagi ba‘zi ishlar istisno qilinsa, mukammal darajada tadqiq etilgani yo‘q. Behbudiylar 1913-yildan boshlab 20 oy davomida o‘zi nashr qilgan haftalik “Oyna” jurnali orqali jadidizm g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Behbudiylar nashr etgan “Oyna” jurnali sahifalarida o‘sha davrning eng dolzarb masalalaridan biri – til masalasiga bag‘ishlangan maqolalar tez-tez bosilib turadi. Behbudiylarning o‘zi ham bu masalaga bag‘ishlangan bir qator asarlarini nashr etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiylar “Ikki emas, to‘rt til kerak”, “Til masalasi”, “Sart so‘zi majhuldur”, “Sart so‘zi ma‘lum bo‘lmadi” singari bir qator maqolalarida o‘zining tilshunoslikka doir qarashlarini bayon qiladi.

Davr adabiy tili va uning ravnaqi masalasiga befarq bo‘lmagan adib “... *Turkiston o‘lkasidagi xalqning ko‘bragi o‘zbek, qirg‘iz-qozoq ham turkman xalqlaridan iborat. Boshqalar bo‘lsa-da oz, binoan alayh, o‘zbek (sartiya) uchun o‘zbek tili (ba‘zi shevalari) rasmiy til sanalurg‘a teyish...*” – deya o‘zbek tilini milliy adabiy til darajasiga ko‘tarish tashabbuskori sifatida matbuotda bong uradi²⁵.

Darhaqiqat, XX asr boshlarida yuz bergan lingvistik jarayonda o‘sha davrda faoliyat olib borgan bir qator mashhur adiblar, ma‘rifatparvar ziyolilar, tilshunoslar, jurnalistlar qatorida Mahmudxo‘ja Behbudiy ham matbuot nashrlaridagi maqolalari bilan faol ishtirok etadi. Jumladan, “Oyna” jurnalining 1915-yil 2-apreldagi 11-, 16-apreldagi 12-sonlarida “Til masalasi” nomi ostida maqola e‘lon qiladi va mazkur maqolada adib davr adabiy tili haqidagi lisoniy qarashlarini umumlashtiradi. Muallif tilshunos sifatida maqolada dastlab turkiy tillar, ularning grammatik qurilishi, lug‘at tarkibi va o‘sha davrdagi adabiy tilining mavqeyi, holati haqidagi ishonchli ma‘lumotlarni keltiradi. Turkiy tillar lug‘at tarkibidagi forscha leksemalarning o‘zlashishini eroniylar istilosi bilan bog‘lasa, arabcha o‘zlashmalarining ta‘sirini dastlab arablar istilosi, keyin esa diniy ta‘limning mahsuli sifatidagi lingvistik omillar bilan asoslaydi. Bu lingvistik omil ta‘sirida “*turklarning ba‘zi toifasi forsiy va arabiy u qadar ko‘p oldilarki, tillari turkiy, forsiy va arabiydan qo‘shulub, “usmonli tili” ataldi... Azbaski, usmonli shevasinda yozilgan asarlarning aksarini usmonli turklarning kamsavodi anglamaydur*”²⁶ – deya usmonli turk adabiy tilining o‘sha davr holatiga lingvistik baho beradi. Maqolada tatar va no‘g‘ay kabi turkiy tillar haqida fikr yuritilar ekan, mazkur tillarning leksik fondida ham arabcha, forscha o‘zlashmalar ko‘p miqdorni tashkil etishi, “*hatto, sof tatarcha yozmoq tarafdori bo‘lgan matbuot va muharrirlarida arabiy va forsiysiz bir nimarsa yozolmasligi*”²⁷ ta‘kidlanadi. Behbudiy tavsifda davom etib, “*eng sodda turkiy va*

²⁵ Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). –Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б. 88.

²⁶ Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). –Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б. 28.

²⁷ М. Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. –Тошкент: Akademnashr, 2018. 28-bet.

sahroyi, ya'ni ibtidoiy til” deya qozoq tilini e'tirof etadi. Biroq lug'at tarkibi o'zlashmalardan xoli bo'lsa-da, bu til ham adabiy til darajasida shakllanmaganligini, *“fanniy kitoblar nari tursin bir sayohatnoma yozmoqg'a va zamonaviy muhim ba'zi risolalarni tarjimasiga so'z yetkurolmaydur²⁸”* deb xulosa qiladi. Bu kabi Turkiston o'lkasi xalqlarining mazkur davrdagi adabiy tili xususida shunday yozadi: *“Turkistonning o'ziga teyishli shevasi turk tilining chig'atoy lahjasi bo'lub, Navoiy kitobi bu lahjaning go'yo muhim kitobidur. Ammo ko'bdan beri Turkistonda madaniyat va saltanat, adabiyot tadanniy etgani uchun xalq bu lahjani buzganlar. Buzmoq nari tursin, Turkistonning har bir shahrining va, hatto, ba'zi bir qasaba va ko'ylarining shevasi boshqadur... Turkiston turkchasig'a forsiy va arabiy ni qo'shulgani ham barcha yerda bir holda bo'lmay, balki mavqeyi jo'g'rofiyasig'a qarab har navdur. Chunonchi, Buxoro amorati va Samarqand viloyatining turkcha tilig'a forsiy va arabiy ko'b qo'shulgandur... Farg'onaning Xo'qand va boshqa shaharlarida ham forsiy rivojda bo'lub, ulamo va mashoyixni forsiyg'a mayli ko'bdur. Forschaning hukmi Toshkand shahri va Sirdaryo muzofotig'a ozayib, forsiy bilaturgan kishi, ehtimol, mingda bir topilmasa... Turkiston janubi va Turkistoni afg'oniya bo'lsa turkiy va forsiy tili barobardur. Turkistonning Mavoroibahri Hazar qismig'a aksariyat ila turkman shevasi hukmfarmo bo'lsa, Xivag'a kelgancha, muning tili yana usmonlichag'a yaqin bo'lub, faqat arabiy va forsiy qo'shumchalari ozdur...²⁹”*. Izohda muallif Turkiston o'lkasi xududidagi turkiy xalqlarning yozma va og'zaki adabiy tilining mazkur davrdagi holati, lahja va shevalarning areal tasnifi xususida atroflicha ma'lumot bermoqda. Turkiy adabiy tilning shakllanishi va takomilining Alisher Navoiy faoliyati bilan bog'liq holda talqin etilishi, XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga qadar Navoiy yaratgan turkiy adabiy til Turkiston o'lkasi xalqlarining barchasida iste'molda bo'lganligi, XX asrning 20-30-yillariga kelib esa adabiy til bilan jonli xalq tili o'rtasidagi munosabatning yo'qolishi natijasida mazkur adabiy tilning buzilishi va Turkiston o'lkasining hududlarida turli sheva va lahjalarda

²⁸ Shu manba, 28-bet.

²⁹ Shu manba, 29-bet.

so‘zlashish avj olganligining tarixiylik prinsipi asosida tahlil etilganligi muallifning zukko tilshunos bo‘lganligidan dalolat beradi.

O‘tgan asrning 20-30-yillarida shakllanayotgan yangi o‘zbek adabiy tilining me‘yorlarini belgilash, uning ilmiy-nazariy qonun-qoidalarini ishlab chiqish ishlarida zamonasining ilg‘or ziyolisi sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy ham faol ishtirok etadi. Uning fikr yuritilayotgan muammo yuzasidan matbuot nashrlaridagi maqolalarida tutgan nuqtayi nazarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1) Mahmudxo‘ja Behbudiy dastlab panturkizim ta‘sirida bo‘lgan bo‘lsa-da, yangi o‘zbek adabiy tilini mazkur davrda zamonaviy rivojlanish bosqichida bo‘lgan usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillari asosida emas, balki asrlar davomida shakllanib, o‘z takomilini topgan, sodda va tushunarli bo‘lgan xalq jonli tili asosida yaratish tarafdori bo‘ladi; 2) biroq o‘z fikrlarida jonli xalq tili adabiy tildan farqlanishi kerakligini, *“fanniy, adab, ta‘lim, tarbiya va diniy kitoblarni sof avom tilida yozmoq mumkin emasligini”*, *“mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq uchun avom tilidan farqli”* adabiy tilni yaratish zarurligini ta‘kidlaydi; 3) u adabiy tilning tamoyillarini belgilashga harakat qilib, birinchi galdagi vazifani adabiy tilning leksik fondini o‘zlashmalardan “tozalash”da deb biladi. Uningcha, *“muqobil va murodifi xalq tilidan va adabiyotidan yo‘qolgan”* arabcha, forscha so‘zlarni saqlash kerak. Masalan, *dushanba, seshanba, maktab, madrasa, kitob, qasd, tark, insof* kabi so‘zlarni tildan chiqarib tashlashga hojat yo‘q; 4) muqobillariga qaraganda arabcha, forscha so‘zlar qulay bo‘lsa, ularni saqlab qolish kerak, ya‘ni arabcha, forscha so‘zlarning o‘zbekchadagi muqobillari o‘zlari qadar ma‘lum bo‘lmasa. Chunonchi, *“vohidi qiyosiy ma‘nosini solishtirish o‘lchovi* ado etmaydur. Bo‘lsa-bo‘lmasa, bu bir istiloh bo‘lib, *“solishtirish o‘lchovi, ya‘ni vohidi qiyosiy” deyilmaguncha fahmlanmas³⁰”*; 5) o‘zbek tiliga *“muqim o‘rnashgon”* arabcha, forscha o‘zlashmalarni o‘zbek tilining leksik, grammatik qoidalariga moslashtirish lozim. Masalan, *“ulum, funun, ulamo, quzzot demoq yerinda fanlar, ilmlar,*

³⁰ М. Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. –Тошкент: Akademnashr, 2018. 32-bet.

*olimlar, qozilar deb yozingiz*³¹”; 6) ta’limiy adabiyotlarni sheva va lahjalar tilida emas, garchi, arabcha, forsha o‘zlashmalar ta’sirida bo‘lsa-da, adabiy tilda yaratish kerakligiga urg‘u beradi; 7) Behbudiy o‘z kuzatishlari asosida o‘zbek tili arabcha va forsha so‘zlardan butunlay qutula olmasligini tushunadi va *“yolg‘uz turkcha so‘ylashmak va yozmoq abadan mumkin emas, baqadri imkon arabiy, forsiyni oz yozayluk*³²” degan xulosaga keladi.

Mazkur davrda XX asr boshidagi o‘zbek adabiy tili qanday bo‘lishi haqida bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli fikrlar bildirilgan. Bir guruh ziyolilar adabiy til eski o‘zbek tilidek murakkab, kitobiy til bo‘lishini targ‘ib qilishsa, boshqa guruh ziyolilar tilning jonli xalq tiliga yaqin, sodda va tushunarli bo‘lishi tarafdori bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu boradagi qarashlari ham e’tiborlidir. U publitsist, maktab va maorif faoli sifatida ta’limiy adabiyot (darslik va boshqa o‘quv adabiyotlari), matbuot tilini soddalashtirish, butunlay sodda xalq tilida yozishga intilish harakatlariga e’tiroz bilan qaraydi. Bu haqda “Samarqanddan maktub” nomli maqolasida o‘zi yaratgan “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” darsligi xususida shunday fikrlarni keltiradi: *“Kitobimizni avom tili ila yozilmog‘i mumkin emas, yozilganda ham avomlar barchasi fahmlamoqdin ojizdur, bovujud shul avomlarg‘a bilmog‘i lozim ba‘zi fasllarini sodda yozganmiz, o‘tgan musanniflarimizni odatlaricha biroz adabiy-arabiy iboratlar qo‘shulgandur*³³”. Muallif fikricha, maktab o‘quv adabiyotlarini sodda xalq tilida yozishga imkoniyat bo‘lmagan. Chunki davr adabiy tili to‘la shakllanmagan, undagi ilmiy, rasmiy, publitsistik uslublarning me’yorlari ishlab chiqilmagan mazkur davrda bu funksional uslublarning vazifasini jonli xalq tili bajara olmasdi. Shuningdek, yaratilayotgan o‘quv adabiyotlarining fan sohalariga oid terminologik tizimlarida turkiycha leksemalarning yetarlicha emasligi ta’limiy adabiyot tilida an’anada bolgan arabcha, forsha istilohlarning ko‘plab qo‘llanishiga sabab bo‘lmoqda edi. Bu jihatdan olib qaraganda M. Behbudiyning o‘quv adabiyotlarini mazkur davr

³¹ М. Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. —Тошкент: Akademnashr, 2018. 32-bet

³² Shu manba, 34-bet.

³³ Туркистон вилоятининг газети. — Туркистон, 1906. -№15.

talabidan kelib chiqqan holda jonli xalq tiliga yaqinlashtirish bilan birga an'anadagi eski o'zbek tili me'yoriga amal qilgan holda yaratganligini ijobiy baholash mumkin bo'ladi.

Bunday murakkab lingvistik jarayon davr adabiy tilini shakllantirishda milliy til, ona tilining rivoji uchun kurash olib borayotgan doiralarda ikkilanish va beqarorlikni yuzaga keltirardi. Ko'p holda mafkuraviy-lisoniy qarashlarda har qaysi turkiy tillarning mustaqil rivoji inkor qilinar va barcha turkiy xalqlar uchun umumturkiy til yaratish g'oyasi oldinga surilardi. Mahmudxo'ja Behbudiy ham bir muddat mana shu g'oya ta'sirida bo'ladi va bu mavzuda Boqchasaroyda chiqadigan "Tarjumon" gazetasida 1904-yildan boshlab "Vahdati lison – dil birligi", "Haqiqat har tarafdin zuhur edar", "Millat vazifasi", "Turkistonda maktab lisoni" kabi bir nechta jiddiy maqolalarini nashr etadi³⁴. O'z ta'biri bilan aytganda *"lisoni umumiy va lisoni adab"* masalasida, jumladan, shunday fikrlarni yozadi: *"Shu kun biza bir sheva (til) kerakki, Rusiya doxilinda 25 million ahli islomning sinfi oliyi va vasatiyi o'shal sheva ila bir-birina ifodai murod eda bilsun. Bu kun biza bir shevai vasatiyaya ittixoz etmak lozimdirki, besh-o'n sanagacha barcha maktablarimiz ta'sir eda bilsin. Rusiyaning har bir tarafida chiqaturg'on avlodi axlof oyandamiz umuman bir lisoni adabiya molik o'lsun. Qrimda, Qofqozda ta'lif o'linmish kitob Turkistonda, Qozonda, Sibirda o'qula bilsin. Bir maktab uchun ta'lif o'linmish kitob Rusiyada vor hamma maktablarda o'qurluq o'lsin. Ya'ni bizim Rusiya musulmonlarining lisoni adabiyalari, maktab, madrasa, prog'romlari, usuli ma'shatlari bir bo'lsa kerakki, iqtizoi hol, ijodi zamon shudur. Buning mabdai asosi ta'otiyi afkori tavhidi lison emasmu?"*³⁵.

Bu fikrlardan anglashiladiki, Behbudiy ham XX asr boshlarida turk shoiri Ziyo Ko'k Alp tomonidan asos solingan va tatar ziyolisi Ismoilbek Gaspirali tomonidan rivojlantirilgan turkiy tillarni va turk adabiyotini birlashtirish, maktablarda usmonli turk tilini, usmonli turk adabiyotini "ona tili" darslari o'rnida qabul qilish, shuningdek,

³⁴ Абдирашидов З. Исмаил Гаспиринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. –Ташкент, 2011.

³⁵ М. Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. –Тошкент: Akademnashr, 2018. 280-bet.

tilni arabiy va forsiy unsurlardan tozalash targ'ib qilingan "panturkizm" g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan.

Aynan yangi davr adabiy tilini o'z ichki imkoniyatlar asosida yaratish ishi ham o'ta murakkab vazifa ekanligini Behbudiy chuqur anglaydi va quyidagicha xulosaga keladi: *"Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas. Ona tili, ona tili... Bu yaxshi orzu. Ammo tilsiz onalar tiliga maktabiy kitoblar yozila bersa, Turkistonda adadsiz kitoblar yozmoq lozim kelurki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarni tili bir-biridan farqlikdir. Taraqqiy etgan millatlarni onalari o'qutar ekan, biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur. Binobarin, baqadri imkon oz arabiy va forsiy, oddiy, turkiy lug'at (so'zlar) ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdan boshqa iloj yo'qdur³⁶".*

Turkistonning chig'atoy lahjasi ko'p shevali ekanligi ma'lum. Behbudiyning yuqoridagi fikricha, shevalar adabiy til uchun asosiy manba hisoblangani holda o'z yo'nalishida rivojlanishi lozimligi, adabiy til esa yagona me'yorga keltirilishi, keyin esa maktab ta'limiy adabiyotlarini shevalar tilida emas, balki barcha uchun tushunarlilik ta'minlangan adabiy tilda yaratish kerakligi shartdir.

M. Behbudiyning publitsistik merosi o'zi yashab ijod etgan davr adabiy tili haqida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Adib har qancha ziyoli, adabiy til me'yorlarini yaxshi tushungan bo'lsa ham, lekin o'sha davr kishisi sifatida adabiy tilga ta'sir etgan yuqoridagi kabi ekstralingvistik asoslardan voz kecha olmadi va o'z asarlarida bundan foydalandi. Shuning uchun boshqa zamondoshlari qatori adib asarlari, xususan, publitsistikasida usmonlicha, ozarbayjoncha, tatarcha unsurlar ko'plab uchraydi.

O'zbek adabiyoti tarixida ma'rifatparvarlik adabiyotidan keyingi bosqich sifatida maydonga kelgan jadid adabiyoti xalqni ma'rifatli qilib tarbiyalash, jamiyatda yangilanishlarga erishish, vatan va millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish g'oyalarini targ'ib qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. Bu esa, o'z navbatida,

³⁶ М. Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. —Тошкент: Akademnashr, 2018. 34-bet.

ma'rifatchilik va jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni aks ettirishga qaratilgan jadid adabiyotida an'anada bo'lgan adabiy tur va janrlarning yangilanishi uchun ham zamin hozirladi. Aynan dramaturgiya va publitsistik janrlarning shakllanganligini jadid davri adabiyotining mahsuli sifatida qayd etish lozim bo'ladi. Mahmudxo'ja Behbudiy mazkur ikki janrda ham barakali ijod qildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy matbuot masalasiga millat vazifasi deb qaraydi. Shu bois 1903-yildan turli matbuot nashrlarida ishtirok eta boshlaydi. Jumladan, "Turkiston viloyatining gazetisi"da "Samarqanddan maktab" unvonida uning ilk maqolasi e'lon qilinadi. Keyinchalik "Ulfat", "Vaqt", "Sho'ro", "Irshod", "Toza hayot", "Mehnatkashlar tovushi", "Hurriyat", "Najot", "Ulug' Turkiston", "Samarqand", "Tujjor", "Oyna", "Tarjumon" nashrlarida o'z maqolalari bilan ishtirok etadi. Hoji Mu'inning aytishicha, vaqtli matbuotda uning 200 ga yaqin maqolalari bosiladi. Bu kabi nashriyot va vaqtli matbuot ishlarining jadal faollashuvi hamda 20-30-yillarda o'zbek jadid adiblari ijodida badiiy publitsistikaning keng o'rin olishi adabiy tilda publitsistik uslubning shakllanishi uchun asosiy omil bo'ldi. Boshqa jadid adiblari qatorida Behbudiyning ham mazkur janrdagi ijod namunalari o'zbek publitsistik uslubining shakllanishi va taraqqiyotida muayyan darajada xizmat qildi.

Behbudiy publitsistikasi uslubida o'zbek tilining adib yashagan davrda me'yor bo'lgan lisoniy xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Bular: a) o'zbek mumtoz adabiyoti tilida qo'llanilgan an'anaviy lisoniy me'yorlar, an'analardan foydalanish; b) adabiy tilning xalq tiliga yaqinlashuvi bilan aloqador bo'lgan xalqchil lisoniy omillar; d) umumturkiy til yaratish g'oyasi tufayli yuzaga kelgan yangi jarayonlar ta'siri; e) hali unchalik kuchli omilga aylanib ulgurmagan rus tilining ta'siri.

M. Behbudiyning publitsistik va muharrirlik faoliyatini jurnalistik yo'nalishda tadqiq etgan H. Saidovning ta'kidlashicha, uning yozgan maqolalari ikki davrga to'g'ri keladi. Chunki undagi maqolalar bir-biridan farq qiladi. Birinchi davri 1917-yil fevraligacha, ikkinchisi 1917-yildan umrining oxirigacha. Birinchi

davrda uning maqolalarida ma'rifatparvarlik birinchi planga chiqsa, ikkinchi davrda siyosiy-ijtimoiy ohang asosiy o'ringa ko'tariladi³⁷.

Bu holat adibning publitsistik uslubidagi o'ziga xos tomonlarni hamda mazkur uslubning shakllanishi va taraqqiyotidagi xizmatini belgilash imkonini ham beradi. 20-30-yillar o'zbek publitsistik uslubi tilida badiiy uslub janrlaridagi singari an'anaviy mumtoz adabiyot tilining lisoniy imkoniyatlaridan foydalanish sezilarli darajada davom etardi. Lekin bu uslub me'yorlarining shakllanishi uchun nashr etilayotgan maqolalarning mavzusi, estetik maqsadi ham hal qiluvchi omil edi. Xususan, davriy nashrlardagi maqolalar ilmiy, ma'rifiy mavzuda yozilgan bo'lsa, unda mumtoz adabiyot tilida qo'llangan lisoniy vositalar o'z aksini topgan. Shuningdek, publitsistik asar mavzusi ijtimoiy-siyosiy yoki kundalik turmushga oid bo'lsa, unda asar tili xalq tiliga yaqinlashganini ko'ramiz.

Adib publitsistik maqolalarining aksariyati maktab, maorif, ma'rifat, ilmiy, islomiy ma'rifatparvarlik, o'sha davr ijtimoiy hayoti, xalq turmushidagi nuqsonlarni tanqid qilish mavzulariga oid bo'lgani uchun uning maqolalari tilida bu ikki xususiyat yorqin namoyon bo'lganligi kuzatiladi. Ya'ni maqolalarda qo'llanilgan mumtoz adabiyot leksikasiga oid so'zlar, tashbehlar, formulalar va trafaretlar, quyma iboralardan foydalanilgan. Bundan tashqari, adib jamiyat kishilarini muayyan fanga oid bilimlarni, ilm-ma'rifatni egallashga undar ekan, vatan ravnaqi haqida qayg'uradi, o'z maqsadini sodda, xalqqa yaqin tilda ifodalashga intiladi va publitsistik maqolalari tilini uslub nuqtayi nazaridan jonli xalq tiliga moslashtiradi.

Publitsistik uslubga xos bo'lgan hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash, o'quvchini bunga ishontirish, his-tuyg'ulariga ta'sir etish, tashviqot-targ'ibot hamda shu maqsadga muvofiq holda tilning hissiy-ta'siriy vositalaridan o'rinli foydalanish kabi lisoniy me'yorlarning qaror topishida Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining o'ziga xos o'rni bor. Buni quyidagicha umumlashtirish mumkin: 1) Behbudiy publitsistik maqolalarida o'zi

³⁷ Саидов Х. Махмудхўжа Бехбудийнинг публицистик ва мухаррирлик фаолияти: Филол. фанлари номзоди. . . дисс. –Тошкент, 1998. -Б. 18.

yashagan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni, jaholat illatlarini, Turkiston o'lkasining mustamlaka bo'lishi sabablarini, maktab va maorif masalalariga oid yangiliklarni targ'ib qilar ekan, yurt ulamolari, davr mutaassiblarini bu muammolar yechimiga yo'naltirishda o'z fikrini ishonchli faktlar bilan dalillash yo'lidan boradi. Masalan, maktablarda zamonaviy geografiya fani o'qitilishiga oid fikrlarini quyidagicha izohlaydi: *"Hatto Arabiston ahli o'qiydur. Kamina raqami xuruf vaqtiki Madinai munavvara va xarami Nabaviyya ziyoratig'a musharraf edim. Ko'rdumki, maktablarig'a ilmi diniya ila barobar zamoni holiyani ko'rgan ilm va fununlari ushbu jug'rofiya fani o'quladur. Harami sharif ichidaki maktab ibtidoi arab shogirdlari bizni Rossiya mamlakatidaki bahri Hazar – Kaspiy dengizi, ya'ni Krasnovudsk ila Boku oralaridaki ko'l, dengizni ahvol jug'rofiya, tul arz umq mavqeyi atrofidagi mamlakati va havosidan bahs qilub, o'qub turg'onlarini ko'rgan shohidlardan bizni Samarqandda bordur. Har shaharda ham ko'rgan kishi bo'lsa kerak"*³⁸. Muallif deyarli barcha maqolalarida ilgari surgan fikr va g'oyalarini oddiy bayon tarzida emas, balki mana shunday ishonarli dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash va o'quvchini bunga ishontirish bilan tavsiflaydi. Bu esa XX asr boshlarida publitsistik uslubga xos me'yorlardan biri, ya'ni publitsistning "o'z fikrini ishonchli faktlar bilan asoslash" me'yoring shakllanish jarayonini ko'rsata oladi; 2) adib maqolalarida ijtimoiy-siyosiy mavzularni yoritish, "usuli jadid" maktablarida dunyoviy bilimlar berish, ilgari surilayotgan dunyoviy fanlar haqidagi ma'lumotlardan o'quvchilarni xabardor qilishni maqsad qilar ekan, mavzuga oid maxsus ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa fan sohalariga oid terminologiyadan unumli foydalanadi. "Turkistonda islohot", "Ilmning foydasi", "Jug'rofiya ilmi", "Islohi tahsil", "Ikki emas, to'rt til lozim", "Til masalasi", "Hifzi sihatti ila" kabi maqolalarida turli teminosistemalarga oid birliklarning keng qo'llanganligini kuzatish mumkin. Bu holat leksik va grammatik birliklarning publitsistik nutq va uslubga mos tarzda funksional xoslanishining shakllanish jarayonini belgilaydi; 3) publitsistik uslub badiiy uslubga xos

³⁸ М. Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. –Тошкент: Akademnashr, 2018. 34-bet

xususiyatlarni ham o'zida birlashtiradi. Masalan, fikrni bayon qilish jarayonida obrazli ifodalarni ishlatish, ya'ni istiora, epitet, epigraf, o'xshatish, uyushiq bo'lak, takror, mubolag'a, frazema, maqol kabi his-tuyg'uga ta'sir etuvchi vositalardan unumli foydalanishni ham taqozo etadi. Garchi, bu uslubning ilk shakllanish davrida ijod qilishiga qaramasdan, Behbudiy publitsistikasida nutqning obrazlilikini ta'minlovchi bu kabi vositalarning salmoqli o'rin egallashi davr adabiy tili, xususan, publitsistik nutq va uslubi rivoji uchun alohida ahamiyat kasb etgan; 4) adibning o'zbek publitsistik uslubi rivojidadagi xizmati uning tilga ijodiy yondashganligi bilan ham izohlanadi. U publitsistik maqolalarida faqatgina tilda avvaldan mavjud so'zlar, iboralardangina foydalanmagan, balki ba'zi hollarda aytmoqchi bo'lgan fikrni, tushunchani aniqroq, yaxshiroq, kuchliroq, ta'sirchan ifodalaydigan so'zlarni topishga, lozim o'rinlarda ularni o'zi yaratishga, original tarzda qo'llashga intilgan. Bu kabi original qo'llanishlar maqolalar matnida uchraydigan *bahrasizlik, ilmxona, bechorachi, quvvatboz, uzrxohlik, bulhavasona, moziyparast, muqimgoh, nointizomlik* kabi okkozional yasalmalarda, "*haq olinur, berilmas*", "*kelar zamon uchun hozirlanaylik, o'tgan zamon uchun emas*", "*tiyotr ibratxonadur*" kabi aforizmlarning yaratganligida ko'rinadi. Bu hol Behbudiyning uslubiy mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik faoliyati XX asr boshlaridagi yangi o'zbek adabiy tilining shakllanish davriga, til birliklarining me'yorlashishidek murakkab jarayonga, ya'ni "eskilik" bilan "yangilik" o'rtasida kurash borayotgan bir davrga to'g'ri keldi. Tildagi me'yoriy ko'rinishlarning tanlana borishi, davr adabiy tilini shakllantirish ishiga M. Behbudiy ham publitsistik asarlarining tili va uslubi orqali sezilarli hissa qo'shdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiy yashagan davr adabiy tili o'ziga xos me'yoriy murakkabliklarga ega edi. Bu davrda o'zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilashda an'anaviy mumtoz adabiy tilni davom ettiruvchilar va jonli xalq tili asosidagi yangi adabiy tilni shakllantiruvchilar o'rtasida keskin kurash va bahslar bo'lgan. Fan, ta'lim, san'at va madaniyatdagi tanazzul, tarqoqlik adabiy tilning rivoji uchun ham to'sqinlik qilib, bir-biridan farq qiladigan shevalar rivojiga sharoit yaratgan edi. Davr adabiy

tilini yagona tizimga keltirish, me'yorlarini panturkizm ta'siridan holi ravishda o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida shakllantirish, o'sha davr til siyosatidagi mavjud beqarorlikning oldini olishda Mahmudxo'ja Behbudiylarning zamonasining ilg'or ziyolisi sifatida matbuot nashrlarida o'z fikrlari bilan faol ishtirok etdi. Ayniqsa, ta'lim va ta'limiy adabiyot tilining leksik, grammatik me'yorlarini davr talablariga moslash masalasidagi bir qator maqolalarida o'zining ilg'or qarashlarini ifoda etdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mahmudxo'ja Behbudiylarning dramatik va publitsistik asarlari tilini solishtiring, o'ziga xos til xususiyatlarini aniqlang.
2. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek publitsistik uslubi shakllanishidagi Behbudiylarning xizmatlarini tavsiflang.
3. Mahmudxo'ja Behbudiylarning panturkizmga, purizmga bo'lgan munosabatini yoritib.
4. Mahmudxo'ja Behbudiylarning asarlari tilining me'yoriy murakkabliklarini nimada deb baholaysiz?

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
2. Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). –Тошкент: Akademnashr, 2018.
3. Абдирашидов З. Исмаил Гаспиринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. –Ташкент, 2011.
4. Саидов Ҳ. Махмудхўжа Бехбудийнинг публицистик ва мухаррирлик фаолияти: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 1998.
5. Бобожанов Ф. Ўзбек жаҳид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Бехбудий ва Авлоний драмалари мисолида): Филол. фанлари номзоди... дисс. –Тошкент, 2002.

3.2. ABDULLA AVLONIY.

Tayanch soʻz va iboralar: *lugʻaviy meʼyor, pedagogik terminologiya, poetik janr, barmoq vazni, taʼlimiy adabiyot tili, adabiyotshunoslik terminlari, gʻarbiy turk tili unsurlari, xalqchil til.*

Abdulla Avloniy jadid adabiyotining koʻzga koʻringan vakillaridan biridir. U boshqa jadidlar kabi yangi tipdagi maktablar ochish, gazetalar nashr qilish va matbuot orqali xalqni uyqudan uygʻotish, yangi tipdagi maktablar uchun yangi darsliklar yozish, teatrni rivojlantirish, sahna asarlari orqali xalq oʻrtasida turmush illatlarini fosh etish harakatida boʻldi. Buning uchun esa sahna asarlari yozish bilan shugʻullandi.

Abdulla Avloniyning badiiy ijodi va maʼrifatparvarlik, taʼlim-tarbiya sohasidagi ishlari yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Bunda Gʻ. Karimov, B. Qosimov, R. Barakayev, N. Afoqova kabi adabiyotshunoslarning xizmatlarini qayd etish oʻrinli boʻladi. B. Qosimov Abdulla Avloniy badiiy ijodining oktabr toʻntarishigacha boʻlgan davr sheʼriyatidagi xususiyatlari haqida quyidagilarni yozgan edi: "... klassik adabiyotdagi koʻpgina anʼnaviy obrazlar yangi maʼno kasb etdi, qabariq, serboʻyoq, romantik obrazlar vujudga keldi. Koʻpgina poetik janrlarning, jumladan, gʻazalning ichki mazmuni ham tubdan oʻzgardi. Dolgʻali, qasirgʻali yillar shoir sheʼrlariga xitob, chaqiriq ruhini olib kirdi. Barmoq vazni adabiyotimiz tarixida birinchi marotaba xalq ogʻzaki ijodidan yozma adabiyotga olib oʻtildi (masalan, Abdulla Avloniy xalq kuylariga moslab yozgan sheʼrlarida barmoq vaznidan foydalangan edi)³⁹".

Ushbu tadqiqotchi Abdulla Avloniyning sheʼriy merosi haqida gapirib, shunday bir fikrni aytgan: "Avloniy poeziyasi bilan tanishar ekansiz, qiziq bir holga duch kelasiz. Unda birorta ishqiy sheʼr yoʻq. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt gʻamini muhimroq biladi! Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad etadi. Oʻz ona

³⁹ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. — Тошкент: Маънавият, 1998. — Б. 61.

diyorini “yor kabi sevadi” (Negaki, butun mehrini shunga bag‘ishlaydi)”⁴⁰. Abdulla Avloniy yashab ijod qilgan davrlarda yangicha o‘zbek maktablarida ilg‘or ma’rifiy ta’limning yuzaga kelishi, ularning yangi adabiyot va darsliklar bilan ta’minlanishi Toshkentda Saidrasul Aziziy va Abdulla Avloniy, Samarqandda Siddiqiy Ajziy va Abduqodir Shakuriy nomlari bilan, Farg‘ona vodiysida esa Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda va mashhur Hamza nomlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ammo afsuski, shu kunga qadar bu ulug‘ ma’rifatparvarning, umuman, o‘zbek pedagogik terminologiyasi, jumladan, adabiyotshunoslik hamda estetika terminlarining shakllanishidagi ulkan xizmatlari hali yetarli hamda talab darajasida tadqiq qilingan emas.

Abdulla Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi maktab ochadi. Bu maktabda savod o‘rganishning yangi texnologiyasi joriy qilinadi. Eski usulda savod chiqarish uchun bir necha yillab vaqt ketsa, yangi maktabda bolalar olti-yetti oyda savodli bo‘la boshladi. Maktabda dunyoviy ta’lim berishga katta e’tibor beriladi. U o‘zi ochgan maktablar uchun darsliklar ham yozdi. Ular ichida “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kitoblari alohida o‘rin egallaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatishga bag‘ishlangan “Birinch muallim” kitobi oktabr to‘ntarishigacha to‘rt marta nashr etiladi. Muallif Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” kitobiga suyangan holda, ayni paytda o‘zining muallimlik tajribasi asosida original asar yaratgan. Abdulla Avloniyning “Alifbo”, “Ikkinchi muallim” (1912) asarlari birinchi kitobning bevosita davomi hisoblanadi. Unda savodi chiqqan o‘quvchilarni o‘qitmoq maqsadida axloqiy hikoyalar, she’riy parchalar keltiradi. Shuning uchun ham u xrestomatik xarakterga ega.

Abdulla Avloniyning falsafiy, axloqiy va tilshunoslik bo‘yicha qarashlari ko‘proq 1913-yilda yuqori sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallanib yozilgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida aks etgan.

⁴⁰ Қосимов Б. Абдулла Авлоний (Адабий-педагогик портрет). – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 26.

Abdulla Avloniy ham yuqorida tahlil qilingan murakkab davrda ijod qildi. U yirik tilparvar, tilsevar edi. U o'zining deyarli barcha asarlari matnida ona tilini ulug'lash, uni e'zozlash, unga g'amxo'rlik qilish, tilni egallash, nutq madaniyati va axloq haqidagi fikrlarini ifoda etgan. U o'z asarlarida Vatanga, xalq tili va madaniyatiga muhabbatni nihoyatda qadrlaydi. Ayniqsa, u tilning xalq tarixi va taqdiridagi o'rni va rolini yuksak baholaydi: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgon oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur"⁴¹.

Abdulla Avloniy ta'lim tilining yosh avlodga tushunarli bo'lishini ta'kidlar ekan, hali o'z ona tilini (o'zbek tili ko'zda tutilmoqda) yaxshi egallamagan yosh bolaga unga yot bo'lgan tilda yozilgan darslikni tavsiya qilish mutlaqo noto'g'ri ekanini, bu hol "yerdan turib yulduzga qo'l uzatish", "igna bilan quduq qazish" bilan barobar ekanini ta'kidlaydi: *"Bizim Turkiston maktabi islomiyasida avvaldin oxira qadar ta'lim o'linajak kitoblar "Chor devon", "Sabot-ul-ojizin", "Fuzuliy", "Navoiy", "Xo'ja Hofiz", "Bedil" va "Maslak ul-muttaqin"lar kabi she'r kitoblarning ba'zilar e'tiqod va amaliyoti islomiyaga taalluq mushkul masalalardan iborat o'lg'onlaridin hamda aksarlari forsiy tilda yozilg'onlari uchun yosh bolalarning onlardin istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi. Voqeyan, o'z ona tilini durust bilmagan, emdigina harflarni bir-biridan ayirgan bir yosh bolaning qo'liga "Chor kitob"ni berib, "Ibtido mekunam, ba nomi xudo" yoki "Sabot ul-ojizin" ni berib, "Sono lil xoliqul g'afforul aflok" kabi forsiy va arab lisonlarda yozilmish... jummalarni o'qitmak ila yerdan turub yulduzga qo'l uzatmak yoki igna bilan quduq qazimoq orasida farq yo'qtur"*⁴².

Abdulla Avloniy ona tili – o'zbek tilini qadrlash, uning sofligini saqlash haqida qayg'urib quyidagilarni yozgan edi: *"Hayhot! Biz Turkistonlilar milliy tilni saqlash bir tarafda tursun, kundan kun unutmak va yo'qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy*

⁴¹ А. Нурмонов Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 131-бет.

⁴² Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1998.

ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishtirmakdadurmiz⁴³”.

Abdulla Avloniy ona tilida o‘zga til materialidan foydalanish ma’lum maqsadda, ya’ni ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, buning ham ma’lum me’yori bo‘lmog‘i lozim deb hisoblaydi. Adibning quyidagi mulohazalari nafaqat lug‘aviy me’yorning mezonlari masalasida, balki nutq madaniyati ilmiy tamoyillari nuqtayi nazaridan hozirda ham dolzarbdir: *“... bizlarg‘a hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun oshu non kabi keraklik narsa, ammo uni o‘z o‘rnida ishlatmak va so‘zlamak lozimdur. Zig‘ir yog‘i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur⁴⁴”.*

Hozirda tilshunoslikda tilni boyitish va me’yorlash haqida gapirilganda, birinchi navbatda, uning o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanish tamoyili oldinga suriladi. Abdulla Avloniy mana shu nazariy tamoyilni o‘ta sodda qilib quyidagicha talqin qiladi: *“Yoxud! Bizga na bo‘ldi? Bobolarimiz yo‘lidan chiqub ketdik. “Yaxshi qo‘shningdan olg‘uncha, yomon uyingni qidir”, – demishlar. Bobolarimizga yetushgon va yaragon muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O‘z uyimizni qidirsak va axtarsak, yo‘qolganlarini ham toparmiz. “Yo‘qolsa yo‘qolsun, o‘zi boshimg‘a tor edi”, deb Yovrupo qalpog‘ini kiyub, kulgi bo‘lmak zo‘r ayb va uyatdur. Payg‘ambarimiz: “Erlarda jamol lison va tildur” – demishlar⁴⁵”.*

Abdulla Avloniy ta’limiy adabiyot tilining tushunarli va sodda bo‘lishi lozimligini qayd qilar ekan, o‘zining bunga amal qilganini: *“Ikkinchi muallim” – “birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifbodini so‘ng o‘qutmak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozilub, axloqiy hikoyalar, adabiy she‘rlar ila ziynatlanmish o‘quv kitobi”⁴⁶* ekanini ta’kidlaydi.

Abdulla Avloniy ona tilini asrash, saqlash, uni yanada boyitish, undan to‘g‘ri foydalanishning asosiy manbayi va omili ona tili –

⁴³ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1998.

⁴⁴ Shu manba.

⁴⁵ Shu manba.

⁴⁶ Shu manba.

o‘zbek tiliga hurmat hamda cheksiz muhabbat ekanini chuqur his qiladi. Shu sababli u yoshlarga qarata ona tilini “qadrdonim”, “rahmonim”, “shonim”, “adib”, “muallim”, “iltifoti ruhim”, “karamli sultonim”, deya madh qiladi va bu fikrlarini quyidagi misralarga singdiradi:

*Ey ona til, aziz qadrdonim,
Iltifoti ruhim, rahmonim,
Tug‘dig‘im kundan aylading ulfat,
O‘lguncha ayilma, ey jonim.
Menga ilm-u adab san o‘rgatding,
Chin adib, muallim, shonim.
Millatning ruhini ko‘targuvchisan,
Eng muqaddas karamli sultonim⁴⁷.*

Abdulla Avloniy o‘z asarlari tilida, eng avvalo, ona tili – o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalangan. Uning asarlari tilida uchraydigan o‘zbekcha so‘zlar ko‘proq xalq hayoti, kundalik turmushi, kishilarning harakatlari, ruhiy olamini ifoda etadi va ular umumxalq uchun tushunarli. Bu hol shoir asarlari tilining oddiy xalq uchun tushunarli bo‘lishini ta‘minlagan. Abdulla Avloniy o‘z asarlari orqali muloqot qilgan obyekt – xalq, ommadir. Uning asarlarida arab va fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar, izofali birikmalar ham uchraydi. Ularning ko‘pchiligi o‘zbek mumtoz adabiyoti tilida an‘ana sifatida qo‘llanib kelgan leksemalardir. Ammo Avloniy bu so‘z va iboralarni yangi, ko‘chma ma’nolarda qo‘llaydi, ularga yangi uslubiy, lingvopoetik ma’nolar yuklaydi. Bu so‘zlardagi ma’nolar ko‘proq ta‘lim-tarbiya, maorif va ma’rifatga aloqador ma’nolardir.

Jumladan, she‘rlarida qo‘llagan so‘zlarning aksariyati ko‘chma, majoziy ma’nolarni ifodalaydi. O‘zbek mumtoz adabiyoti tilida iste’molda bo‘lgan poetik so‘zlar yakka, individual shaxs (sevgilining sifatleri)ni ta’rif va tavsiflashga, unga murojaat ma’nolarini ifodalash uchun ishlatilgan bo‘lsa, Avloniy asarlari tilida qo‘llanilgan bunday leksemalar xalqqa, millatga murojaat, yurt, vatanga muhabbatni,

⁴⁷ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. 2-жилд. – Б. 61.

ma'rifatga undash, safarbar qilish bilan bog'liq bo'lgan ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan.

Avloniy asarlari leksikasining lug'aviy tarkibi XX asr boshi o'zbek badiiy tili va uslubining yetakchi xususiyatlarini o'zida ifodalaydi. Bu xususiyatlardan eng muhimi badiiy tilni soddalashtirish, xalqchil, xalqqa yaqin qilishga intilishdir. Ushbu ishga Abdulla Avloniy o'z asarlari tilini xalqqa tushunarli qilib yozish orqali munosib hissa qo'shgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Abdulla Avloniyning dramatik va sheriylar asarlari tilini solishtiring, o'ziga xos til xususiyatlarini aniqlang.

2. Abdulla Avloniy asarlarining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek badiiy tili va uslubining shakllanishidagi o'rnini yoritib.

3. Abdulla Avloniy ta'limiy adabiyotlarning til va uslubi qay yo'sinda bo'lishini ilgari suradi?

4. Abdulla Avloniyning o'zbek pedagogik terminologiyasi, jumladan, adabiyotshunoslik hamda estetika terminlarining shakllanishidagi xizmatlarini qanday baholaysiz?

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Т. : Ўзбекистон, 2002.

2. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилдлик. – Тошкент: Маънавият, 1998.

3. Қосимов Б. Абдулла Авлоний (Адабий-педагогик портрет). – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

4. Бабажанов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Бехбудий ва Авлоний драмалари мисолида): Филол. фанлари номзоди... дисс. –Тошкент, 2002.

5. Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. – Тошкент: Фан, 2004.

3.3. ASHURALI ZOHIRIY.

Tayanch soʻz va iboralar: *fonetika-fonologiya, konvergensiya, divergensiya, orfografik tamoyillar, grafika, singarmonizm, lab ohangi, choʻzgʻilar, lugʻat-grammatika, grammatik qonuniyatlar, lugʻatchilik, lugʻatshunoslik.*

Maʼlumki, muayyan bir adabiy-tarixiy davr, adabiy-ilmiy muhit yoki maʼlum bir fan va unga aloqador sohaning taraqqiyot bosqichidagi holati shu davrda yashab ijod etgan bir-ikki ijodkorning faoliyatini tadqiq etish bilan toʻla oydinlashib qolmaydi. Shunday ekan, XIX asr oxiri – XX boshlaridagi oʻzbek tilshunosligiga ilmiy baho berar ekanmiz, bu davrda tilshunoslik boʻyicha ilmiy faoliyat olib borgan, fanning nazariy va amaliy masalalari bilan shugʻullangan, fan takomiliga oʻz hissasini qoʻshgan barcha jadid adiblarining faoliyatlarini mufassalroq yoritish maqsadga muvofiqdir.

Ashurali Zohiriyning oʻzbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi tarixida tutgan oʻrni, ilmiy-ijodiy, adabiy, lingvistik merosi yuzasidan muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Bu oʻrinda adibning tilshunoslik merosi maxsus monografik planda tadqiq etilgan T. Togʻayevning tadqiqotini taʼkidlash lozim. Tadqiqotda Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosini atroflicha tahlil qilish asosiy maqsad etib belgilangan va unda olimning alifbo-imlo masalalariga doir fikr-mulohazalari, “Imlo” risolasidagi yozuv tamoyillari, punktuatsiyaga doir ishlarining amaliy-nazariy ahamiyati hamda Ashurali Zohiriy va “Chigʻatoy gurungi” orasidagi munosabatlar ilmiy tahlilga tortilgan⁴⁸.

20-30-yillar tilshunosligining eng faol vakillaridan biri Ashurali Zohiriydir. U Qoʻqon rus-tuzem maktabida, keyinchalik Qoʻqon oʻqituvchilar seminariyasida oʻzbek tili va adabiyotidan dars berish bilan birga, “Sadoi Fargʻona” (1914-yil), “Yangi Fargʻona” (1922-1928) gazetalarida adabiy xodim boʻlib ishlaydi. “Sadoi Fargʻona”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Yangi Fargʻona” gazetalarida

⁴⁸ Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирийнинг тилшунослик мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolar bo'yicha maqolalar e'lon qiladi.

Davrning ma'rifatparvar olimi sifatida 1917-yilda Qo'qonda "Dorilmuallimin" pedagogika o'quv yurtini tashkil etadi. U pedagogik faoliyatini jurnalistik va ilmiy faoliyat bilan qo'shib olib bordi. Tilshunoslikning turli masalalariga bag'ishlangan maqolalarini e'lon qilib boradi. Ayniqsa, imlo masalasi Ashurali Zohiriy ilmiy faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi.

Yangi ochilgan maktablarda bolalarni imloga o'rgatuvchi kitob bo'lmaganligi sababli u 1916-yilda "Imlo" kitobini yozadi. Bu kitobda ilk marta arab grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida to'g'ri yozish qoidalari, punktuatsion qoidalar o'z ifodasini topdi. XX asrning 20-yillarida jadidizm vakillari arab yozuvining o'zbek tili fonologik tizimini ifodalay olmasligi, shu bilan birga harflar shakli tez yozishni ta'minlash uchun bir qator noqisliklarga ega ekanligini, shuning uchun bu yozuvni isloh qilish lozimligini bayon qildilar. Ashurali Zohiriy garchi arab grafikasini o'zgartirishga qarshi bo'lsa ham, 1926-yilda Bokuda bo'lib o'tgan turkologlar syezdida barcha turkiy xalqlarning lotin yozuviga o'tishi haqida qaror qabul qilingandan so'ng bu siyosat bilan bahslashish ortiqcha ekanligini tushundi. Shu yili Samarqandda bo'lib o'tgan respublika til-imlo anjumanida Nazir To'raqulovning Boku taassurotlari bo'yicha ma'ruzasidan so'ng so'zga chiqqan Ashurali Zohiriy lotin grafikasiga o'tish jarayonida arab yozuvida o'z ifodasini topmagan o'zbek fonemalari uchun maxsus harflar belgilash masalasini kun tartibiga qo'ydi. Bu masalani ko'tarib chiqishi ham Ashurali Zohiriyning sinchkov fonolog ekanligidan dalolat beradi.

Ashurali Zohiriy garchi o'zini "panturkist" hisoblasa ham, lekin o'sha davrda ayrim "panturkist"lar tomonidan ko'tarilgan barcha turkiy tillarni birlashtirish, umumturkiy tilni yaratish g'oyasiga qo'shilmaydi. Sof o'zbek tilining taraqqiyoti uchun kurashadi. U o'tkir publitsistik maqolalari bilan vaqtli matbuotda ishtirok etish bilan birga, matbuot tilining me'yorlashuvi uchun jon kuydiradi. "Farg'ona" gazetasining 1924-yil 21-iyun sonida e'lon qilingan "Olti yillik o'zbek adabiyoti (bosma so'zi)ga bir qarash" maqolasida sho'rolar davrining dastlabki olti yilida matbuotning faoliyati va matbuot ahvoli haqida fikr yuritadi. Vaqtli matbuot tilida

uchraydigan o‘zbek tili uchun yot bo‘lgan leksik birliklar va grammatik shakllarning qo‘llanilishini, ayniqsa, tatar va usmonli turk tiliga xos shakllarning iste’mol qilinishini qoralaydi. Jumladan, Turkiston partiya va ijroiya qo‘mitasining markaziy organi bo‘lib kelgan “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq” gazetalarining 1921-yil boshlarigacha ham “sof o‘zbekchalasha olmagan”, “faqat G‘ozi Yunus muharrirlik qilgandan so‘ng”gina holat o‘zgarganini ta’kidlaydi. Bu gazetalarining o‘zbekchalasha olmaganligi va o‘zbek hayotini xolisona ifodalay olma yotganining bosh sababi unga o‘zbek bo‘lmagan, o‘zbek “muhi, turmushi”dan begona kishilar qo‘lidan chiqib kelgani ko‘rsatiladi. Shuning uchun bu gazetalar “adabiy yoqdan foyda bermaganligi singari, madaniy va iqtisodiy yoqdan ham” foydasi bo‘lmaganligi tanqid ostiga olinadi. Muxtor Bashir muharrirligida 1918-yildan chiqqan boshlagan “Xalq dorilfununi” gazetasiga baho berar ekan, tilining “o‘zbekcha aralash tatarcha” ekanligini ta’kidlaydi. 1920-yil 9-apreldan “Yosh buxoroliklar” tomonidan bir oyda ikki marta chiqarishga mo‘ljallangan, lekin faqat uch sonigina dunyo yuzini ko‘rgan “Teng” nomli jurnalning tili sof o‘zbekcha ekanligi va “mundarijasining muhimligi”ni maqtaydi.

Matbuot tilining tobora me’yorlashib borayotganligini, lekin shunday bo‘lsa ham, ayrim gazetalar shevachilikdan va tatarcha elementlardan qutula olmayotganini, “boru”, “kelu”, “borsamiz”, “kelsamiz”, “qoraylar” singari so‘z shakllari ishlatilayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birgalikda, so‘zlarning yozilishida xilma-xillik uchrayotgani (masalan, *qilalik-qilaylik-qilayluk-kiloylik, qandoq-qondoq-qanday* kabi), shuning uchun ham mutaxassislar yig‘ilishib, bunday shakllardan qaysi birini tanlashni kelishib olish zarurligini ta’kidlaydi.

“Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1929-yil 29-mart sonida mubohasa tariqasida “Til, atama va imlo bahslari” rubrikasi ostida bosilgan “Til va imlo masalasi” maqolasida adabiy til va jonli so‘zlashuv tili, ular o‘rtasidagi munosabat, adabiy tilning tayanch shevalari, atamalarining ahvoli va bundan keyingi istiqbollari, imlo muammolari haqida fikr yuritadi. Muallif adabiy til bilan jonli so‘zlashuv tilini bir-biridan farqlar ekan, adabiy tilning barqaror, jonli tilning esa, aksincha, tez o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega

bo'lishini ko'rsatadi. "Jonli til" deyilishining sababi ham "tez sur'at bilan o'zgarishi"da ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, adabiy til muayyan qoidalar ga, me'yorlarga bo'ysunishi, jonli tilning esa erkinligiga ishora qilinadi. Barcha gazeta, jurnal, badiiy va ilmiy asarlar adabiy tilda yozilishi, ayni paytda, jonli tilning ham o'z adabiyoti borligi, bu adabiyotni xalq adabiyoti deyilishi ko'rsatib o'tiladi.

Ashurali Zohiriy nima uchundir adabiy tildan ilmiy tilni ham ajratadi. Bu ikkisi o'rtasida uncha farq yo'qligini, har ikkisi jonli til bilan zidlanishini ko'rsatadi. U adabiy tilning jonli tilga tayanishi, undan oziqlanishi lozimligini, XV asrdan to XX asr boshlarigacha bo'lgan o'zbek adabiy tilida bu munosabat buzilganligini, adiblar tomonidan jonli so'zlashuv tili "qo'pol til", "ko'cha tili" sanalib, "adabiy tilni unga yaqinlashtirish kamchilik, xalq tilida yozishlik - qo'pollik, deb e'tiqod etilganini", bu tilda adabiy, forsiy elementlar juda ko'p qo'llanganini, shuning uchun "chig'atoy (o'zbek) adabiyoti usmonli adabiyoti singari xalqdan uzoqlasha boshlagani, oddiy xalq uni anglay olmog'oni, faqat o'qumishli, ziyoli sinf anglay oladurg'on bo'lg'oni"ni ta'kidlaydi. Dunyodagi aksariyat madaniy xalqlarning adabiy tillari bilan jonli tillari o'rtasida yaqinlik borligi, "adabiy til jonli til asosiga qurilgan"i haqida fikr yuritadi. Bu sohada XX asr boshlaridagi adabiyot tili jonli tilga ancha yaqinlashib, hamisha muvaffaqiyatga erishganligi, shunday bo'lishiga qaramasdan, adabiy til birligida ba'zan "boshvoqsizlik" kuzatilayotganligi, shu bois adabiy til muayyan shevaga tayanishi lozimligini bayon qiladi. Ana shunday tayanch sheva sifatida "Farg'ona shevasi"ni tavsiya etadi. Buning bosh sababi sifatida "bu kungi o'zbek adabiyotining tili (undagi ba'zi bir mahalliychilikni e'tiborga olmaganimizda) Farg'ona shevasining o'zi" ekanligini ko'rsatadi.

Har bir uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda albatta, millatning asosiy belgisi bo'lgan tilga, til sofliğiga e'tibor kuchayadi. Qayerda tilga e'tibor kuchaygan joyda boshqa tillardan so'z olish muammosi ko'tariladi. XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatida ham xuddi shunday bo'ldi. XX asrning 80-yillari oxiri – 90-yillar boshlarida ham xuddi shunday harakat kuzatildi.

Ashurali Zohiriy ham imkon qadar o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari asosida atamalar tizimini yaratish tarafdori bo‘ladi. Uning fikricha, “agar ajnabiy so‘zlar olinavursa, tilda soflik bitta-bitta, sal yilning ichida boshqa so‘zlar u tilni qoplab, tanimaslik holiga keltiradi va yutadi”. Shuning uchun ham turmushga kirib kelayotgan yangi tushunchalarni ifodalamoq uchun “o‘z tilimizning boyligidan foydalanmoq” ni tavsiya etadi. “Agar bundoq so‘zlar u tilda topilmasa, ovrupocha, arabcha, forsiychadan olmoq” lozimligini uqtiradi. Muallif kimyo, fizika, matematika singari fanlar, umuman, maktab darsliklarida qo‘llaniluvchi ilmiy atamalarni qat’iylashtirish, buning uchun turkologlar qurultoyini chaqirib, shu qurultoy qarori asosida ish tutish lozimligini ko‘rsatadi.

Ashurali Zohiriy ilmiy atamalarning favqulodda muhimligini e’tiborga olib, maorif vazirligi huzurida atama qo‘mitasi tuzish maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi. Bugungi kunda Vazirlar Mahkamasi qoshida Atamaqo‘m faoliyat ko‘rsatayotganligi Ashurali Zohiriy orzusining ushalishidir.

Imlo masalasi Ashurali Zohiriyning tilshunoslik faoliyatida markaziy o‘rinni egallaydi. U rus olimi prof. Afanasyevning orfografiyaning besh tamoyili (asosi) mavjudligi haqidagi fikrini ma’qullaydi: 1) savtiy (fonetik); 2) shakliy (morfologik); 3) tarixiy-an’anaviy; 4) chet so‘zlarni yozmoq asosi; 5) ayrilma asos.

O‘zbek yozuvida esa uchinchi va to‘rtinchi tamoyilga tayanib kelinganligi, arab alifbosida birinchi tamoyilni qo‘llash mumkin bo‘lmaganligi, bundan keyin lotin yozuviga o‘tar chog‘ida orfografik tamoyillarni ham o‘zgartirish, birinchi va ko‘proq ikkinchi tamoyilga asoslanish lozimligini ta’kidlaydi. Masalan, *-di, -dir, -dan* qo‘shimchalari jarangsiz undosh bilan tugagan asosga qo‘shilganda *-ti, -tir, - /lo//* holida talaffuz qilinsa ham, I shakliy tamoyil asosida *-di, -dir, -dan* shaklini yozish me’yorlashtirilishi kerakligi, bu tamoyil boshqa qo‘shimchalar imlosida ham yetakchilik qilishi lozimligi, shundagina turli hududlarda bir xil yozishga erishish mumkinligi bayon qilinadi.

Ashurali Zohiriyning lingvistik merosi ichida o‘zbek tili fonetikasiga doir maqolalari alohida qimmatga ega. Uning ‘Qizil O‘zbekiston’ gazetasining 1929-yil 31-mart sonida “Til, atama va imlo bahslari” rubrikasida e’lon qilingan maqolasida “Lab ohangi

to'g'risida", "Cho'zg'ilar to'g'risida", "Singarmonizm to'g'risida", "Bosh harf to'g'risida" bahs yuritiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, 20-yillarda yangi alifboga o'tish arafasida o'zbek tilining unlilar tizimini belgi lash muhim masalaga aylandi. Mashhur tilshunos Y. Polivanov o'zining "Фонетика Ташкентского говора" asarida turkiy tillar fonologik tizimida ro'y bergan konvergensiya, divergensiya hodisalarini ochib berish asosida, Toshkent dialektida singarmonizm qonuniyati yo'qolganligi, olti unli fonema mavjudligini ko'rsatgan edi. O'zbek yozuvining ham shunga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi.

G'ozim Olim Yunusov, Ashurali Zohiriy singari bir guruh o'zbek tilshunoslari esa o'zbek tilida, ayniqsa, qishloq shevalarida singarmonizm mavjudligini, unlilar esa qator belgisiga ko'ra farqlanishini, bu farqlanish fonologik qimmatga ega ekanligini bayon qildilar. Ashurali Zohiriy ham o'zbek tilida singarmonizm mavjudligini e'tirof etadi. Lab ohangi garchi qirg'iz tili darajasida bo'lmasa ham, ma'lum darajada borligi, lekin uning qo'shimchalarga ta'sir qilmasligi, ana shu belgini ayrim omofonlarni yozishda farqlovchi belgi qilish lozimligini ko'rsatadi. Masalan, *urush* (ot, yasama so'z) – *urish* (fe'l), *o'rum* (birinchi o'rum beda) – *o'rim* (xandagim) kabi. Lekin *-dir*, *-tir*, *-lik* affikslarini lab unlisi qatnashgan asosdan so'ng *-dur*, *-tur*, *-luk* (*o'qutur*, *tugukluk*) tarzida yozishni taklif etgan Qayum Ramazon fikriga e'tiroz bildiradi va qo'shimchalarga lab garmoniyasining ta'siri yo'qligini e'tiborga olib, morfologik tamoyil asosida doim *-dir*, *-tir*, *-lik* holida yozishni tavsiya etadi.

Ashurali Zohiriy o'zbek adabiy tilida oltita unli emas, to'qqizta unli mavjudligini, lotin alifbosida ham ana shu to'qqizta unli uchun harf olnishi kerakligini aytadi. Garchi muallif bu fikrini dalillar asosida isbotlamasa ham, Farg'ona (Andijon, Marg'ilon, Qo'qon kabi) shevalarida ma'no farqlash uchun xizmat qiladigan to'qqizta fonema mavjudligini his qiladi. Darhaqiqat, unlilarning palatal belgisi Farg'onaning bir qator shevalarida bugungi kunda ham farqlovchi belgi bo'lib xizmat qiladi va fonologik qimmatga egadir. Shu bilan birga, Ashurali Zohiriy ayrim mualliflarning to'qqiztadan ortiq unli fonemalarga egaligi haqidagi fikrlarining yetarli isbotlanmaganligini ham tanqid qiladi.

Ashurali Zohiriyning o‘zbek tilshunosligiga qo‘shgan muhim xizmatlaridan biri bosh harflarni amaliyotga kiritish va bu harflarning ishlatilish o‘rinlarini qat’iy belgilab berish bo‘ldi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ashurali Zohiriy zamonasining ilg‘or ziyolisi sifatida o‘zbek tili va adabiyotiga oid o‘tmish nodir manbalarni to‘plash, o‘rganish va matbuotda keng o‘quvchilar ommasiga yetkazish ishlarida ham faol bo‘lgan. Bunday o‘rganilgan va o‘sha davr kitobxoniga taqdim etilgan manbalar qatorida turkiy lug‘atshunoslikka oid asarlarning ham mavjudligi ancha e’tiborni tortadi. Yoshligida Ma’dalixon madrasasida arab va fors tillarini o‘rgangan, turkiy tillardan ozarbayjon, turk, qozoq, qirg‘iz, tatar tillarini hamda rus tilini puxta o‘zlashtirgan Ashurali Zohiriy tilshunoslik, xususan, uning leksikografiya sohasida ham muayyan bilimlarga ega bo‘lgan, turkiy lug‘atshunoslikdagi nodir manbalar bilan ham qiziqqan. Jumladan, u “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1927-yildagi 9-10-sonlarida “Kelurnoma” nomi ostida maqola e’lon qiladi. Muallif maqola muqaddimasida dastlab Mahmud Koshg‘ariyning “Kitobi javohirun fi-l-lug‘ati-t-turk” (“Turkiy tillar nahf va sintaksisi durdonalari”) asarining haligacha topilmaganligini, o‘rganilmaganligini va xalqqa taqdim etilmaganligini afsus bilan tilga olib jumladan shunday deydi: *“O‘rta Osiyo turklarining tillariga “xoru-xas” oralashmag‘on davrlarda yozilg‘on lug‘at, til qoidalari (sarf-nahv) bugungacha topilmadi va nashr etilmadi... Bugina emas, bundan boshqa ham til va adabiyotimizga oid yozilg‘on asarlarning bo‘lishiga shubha yo‘q, faqat bularni izlash, taftish qilish, topilg‘onini maydong‘a qo‘ya borish lozimdir. O‘sha luzumiyat meni “Kelurnoma” ismli kitobni matbuot betiga chiqarmoqliqqa shavq etdi”*⁴⁹. Demak, bu fikrlardan tushunish mumkinki, muallif o‘sha davridayoq qadimgi turkiy til, eski turkiy tilga aloqador nodir manbalar qatorida turkiy lug‘atshunoslik masalalari bilan ham jiddiy shug‘ullangan, lug‘atchilik, lug‘at yaratish prinsiplarini puxta o‘zlashtirgan va shuning barobarida Muhammad Yaqub Chingiyning “Kelurnoma” asari, ya’ni chig‘atoycha-forscha lug‘atini sodda tushuntirish,

⁴⁹ Ашурули Зоҳирий. “Келурнома” // Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1927. – № 9-10.

izohlar asosida o'quvchiga yetkazishni maqsad qilgan. Zohiriy lug'at haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib, *"Mullo Yaqub Chingiy o'zining bu lug'atini tartib berishda darslik yoki o'zi o'rgatgich (samouchitel) bo'lishliq yo'lini tutqon bo'lsa kerak, eng avval, bir necha fe'llarni keltirib, tarjuma qilib, so'ngra to ularni tasrif qiladi. Bulardan keyin yer va ko'kdagi bor ham boshqa ismlarni bayon qilmoqqa boshlaydi"*⁵⁰.

O'zbek tilshunosligi tarixi, shu qatorda lug'atchilik tarixiga ham e'tibor qaratilsa, ma'lum bo'ladiki, so'zlarning nutqda qo'llanish imkoniyatlari (ichki va tashqi xususiyatlari)ga e'tibor berilgan, lug'atchilikda an'ana tusini olgan "lug'at-grammatikalar" ko'plab tuzilganligi kuzatiladi. Ashurali Zohiriyni yuqoridagi fikrida "Kelurnoma" lug'ati oddiy tarjima lug'ati emas, balki "lug'at-grammatika" ekanligi haqidagi to'g'ri va asosli xulosa yotadi, ya'ni yetuk lug'atshunos sifatida "Kelurnoma" ning qanday tipdagi lug'at ekanligiga to'g'ri baho bera olganligi seziladi.

Muallif lug'at haqidagi fikrlarini davom ettirar ekan, "Kelurnoma" jami 15 bobdan iborat ekanligini, asarning 14 bobi fe'llar izohiga, 15-bob esa ismlar (egallik va kelishik qo'shimchalarini qabul qilgan so'zlar) turkumidagi leksemalar izohiga bag'ishlanganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Muhammad Yaqub Chingiy lug'atda keltirgan fe'lning 13 xil grammatik formasini tartibga solib, tahlil qiladi: *o'qudi – o'tkan zamon fe'lining borlig'i (ya'ni fe'lining o'tkan zamondagi bo'lishsiz shakli); o'qumadi – o'tkan zamon fe'lining yo'qlig'i (fe'lining o'tkan zamondagi bo'lishli shakli); o'quptur – o'tkan zamon fe'lining hikoyasi. Borliq. (o'tkan zamon hikoya fe'lining bo'lishli shakli); o'qumaptur – o'tkan zamon fe'lining hikoyasi. Yo'qliq. (o'tkan zamon hikoya fe'lining bo'lishsiz shakli); o'qiydur – hozirgi zamon fe'li. Borliq. (hozirgi zamon fe'lining bo'lishli shakli); o'qimaydur – hozirgi zamon fe'li. Yo'qliq. (hozirgi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli); o'qur – kellar zamon fe'li. Borliq. (fe'lining kelasi zamondagi bo'lishli shakli); o'qumas – kellar zamon. Yo'qliq. (fe'lining kelasi zamondagi bo'lishsiz shakli).* Albatta, ikki tilli, uch va undan ortiq tilli sof tarjima lug'atlariga

⁵⁰ Ашурули Зоҳирий. "Келурнома" // Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1927. – № 9-10.

qaraganda, “lug‘at grammatikalar”ni o‘qib, tushunish, undagi grammatik qonuniyatlarni o‘zlashtirish oddiy kitobxon uchun ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiy. Maqolada “Kelurnoma”ning umumiy holda turkiy xalqlar uchun nodir leksikografik manba sifatidagi o‘rnini ko‘rsatish va o‘z ta’biri bilan aytganda, “matbuot betiga chiqarmoqliq” muallifning birinchi maqsadi bo‘lsa, undagi grammatik qonuniyatlar (fe’llar va ismlarning grammatik shakllari) haqidagi ma’lumotlarning batafsil izohlanishi lug‘atning mazmun-mohiyati bilan o‘sha davr kitobxonini kengroq, soddaroq tanishtirish – ko‘zlangan maqsadning ikkinchi tomoni.

Darhaqiqat, lug‘atlarda muayyan tilning ma’lum bir davrdagi leksik fondi, undagi so‘z va tushunchalar haqida ma’lumotlar aks etishi bilan birga, ularning o‘sha tildagi leksik va grammatik me’yorlarni belgilashdagi vazifasi ham muhim. Maqola muallifi Ashurali Zohiriy yangi o‘zbek adabiy tilining leksik-grammatik me’yorlari endigina shakllanayotgan mazkur davrda me’yorlardagi chalkashliklarni bartaraf etishda, fe’lning zamon kategoriyalarini hosil qiluvchi affiksial morfemalarning to‘g‘ri qo‘llash masalasini “Kelurnoma” asaridagi ba’zi qonuniyatlar asosida hal etishni ham taklif qiladi: *“o‘qiydur, o‘qiyotibdur, o‘qumoqda shakllarida keladurg‘on hozirgi zamon fe’lining uch shaklidan eng tublisi va to‘g‘risi bo‘lg‘on “o‘qiydur” ni “mixond” tarjumasi bilan keltirish – “o‘qur” bilan “o‘qubdi (o‘qiydur)”ni ishlatishda adashadurg‘on, bilar-bilmas butaltiradurg‘onlar uchun zo‘r qoidadir. Bu xilda butaldirish hozirgi gazeta va jurnallarda ko‘b uchraydi”*⁵¹. Demak, Ashurali Zohiriy o‘sha davrda yangi o‘zbek adabiy tilining leksik, grammatik me’yorlari shakllanish jarayoniga ham befarq bo‘lmagan, fikricha, matbuot sahifalarini muntazam kuzatib borgan, ulardagi so‘zlar tanlanishi va gaplar qurilishidagi beqarorlik, ya’ni har xilliklarni bartaraf etish choralari ko‘rgan, yangi o‘zbek adabiy tilining grammatik qonuniyatlarini belgilashda o‘z takliflarini bildirib borgan, ilgari surgan fikrlarini “Kelurnoma” kabi nodir leksikografik manbalardan olingan misollar orqali isbotlashga

⁵¹ Ашурули Зоҳирий. “Келурнома” // Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1927. – № 9-10. – Б. 3.

harakat qilgan. Shuningdek, muallif “Kelurnoma” lug‘atining 14 ta bobida misollar asosida berilgan turkiycha fe’llarning o‘timli va o‘timsizlik, bo‘lishli va bo‘lishsizlik, nisbat kategoriyalari haqidagi nazariy ma’lumotlarni o‘sha davr kitobxoni uchun sodda va tushunarli tilda batafsil izohlab bergan.

Ashurali Zohiriyniing tilshunos olim sifatida turkiy lug‘atshunoslikning tarixi, nazariy masalalari bilan qiziqishi, leksikografiyaga oid nodir manbalar ustida izlanishlar olib borishi va buning barobarida kerakli nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallashi ayni damda o‘zi yaratgan “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at” ning yuzaga kelishi uchun zamin bo‘lgan.

O‘tgan asrning 20-yillarida rus tilini o‘rganish zamon, hayot talabiga aylandi. Shu munosabat bilan Turkiston Maorif komissarligi huzuridagi Ilmiy markaz rus tili bo‘yicha darslik va lug‘atlar chiqarishni rejalashtiradi. Ammo darslik yozish, lug‘at tuzish muammo bo‘lib qoladi. Chunki o‘sha davrda malakali ilmiy xodimlar, rus tilini puxta, mukammal biluvchi mahalliy mutaxassislar juda kam edi. Bundan tashqari, rus tili flektiv tillar guruhiga kiruvchi murakkab til bo‘lganligi sababli, undagi jins, urg‘u, tuslanish, ko‘plik shakllari so‘z shaklini to‘g‘ri aniqlab olishda nafaqat o‘quvchi, balki olimlarda ham ma’lum qiyinchiliklarni tug‘dirardi.

Ruscha-o‘zbekcha lug‘at taqdirini ko‘pdan beri bunday natijasiz yakunlanayotganini ko‘rgan komissarlikdagi mas‘ul xodimlar bu ishga o‘sha paytda rus tili bilimdonlaridan biri, ma’rifatparvar Ashurali Zohiriyni jalb qiladilar. Olim bunday katta va sermashaqqat ishni tezroq ruyobga chiqarish yo‘llarini izlaydi. U 1920-yil Qozonning “Asr” bosmaxonasida ikkinchi qayta nashr etilgan va turkiy xalqlar tomonidan ijobiy baho olgan Sulton Rahmonquli va Abdurahmon Karamning “Ruscha-tatarcha mukammal lug‘at” (bundan keyingi o‘rinlarda RTML shaklida ishlatiladi) so‘zligidan ijodiy foydalanishga, aniqrog‘i, lug‘atning o‘ng tarafidagi tatarcha so‘zlarni o‘zbek tiliga o‘girishga qaror qiladi. Ushbu lug‘at turkiy tillar ichida dastlabki ikki tilli lug‘atlardan biri bo‘lib, ko‘pchilik ma’rifatparvarlar nazariga tushgan edi. Bu fikr maorif komissarligi tomonidan ham ma’qullanadi. Olimning turkiy tillar, ayniqsa, tatar tilini yaxshi bilishi lug‘at ishini tezlatish

imkonini beradi. A. Zohiriy astoydil harakat qilib, qisqa muddat ichida lugʻatning birinchi jildini tayyorlashga muvaffaq boʻladi. “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat”ning (bundan keyingi oʻrinlarda ROʻML shaklida ishlatiladi) birinchi jildi A-O harflarini oʻz ichiga olib, 352 betni tashkil etadi. U 1927-yilning soʻnggi choragida Oʻzbekiston davlat nashriyoti tomonidan Samarqand-Toshkent nashr manzili ostida bosilib chiqadi.

ROʻMLning titul varagʻidagi maʼlumotlar A. Zohiriy ushbu lugʻatni nashrga tayyorlash jarayonida ruscha soʻzlikka quyidagi oʻzgartirish kiritganligini koʻrsatadi: 1) Olim ruscha soʻzlarni rus adabiy tilining yangi alifbo va imlosida bergan, shunga muvofiq ruscha soʻzlarning alifbo tartibiga oʻzgartirish kiritadi; 2) isteʼmoldan chiqqan, eskirgan bir qancha ruscha soʻzlarni ROʻMLdan tushirib qoldiradi; 3) ROʻMLda ruscha soʻzlarning urgʻusi deyarli qoʻyilmagan, yumshatish belgisi bilan tugagan soʻzlarning jins koʻrsatkichi koʻrsatilmagan.

RTML va ROʻMLdagi lugʻat maqolalarni qiyoslash shuni koʻrsatadiki, A. Zohiriy lugʻatni nashrga tayyorlash jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirgan: 1) RTML dagi soʻz va birikmalarni soʻzma-soʻz tarjima qilgan; 2) lugʻat maqolalariga jiddiy oʻzgartirishlar kiritgan. Ular quyidagilardan iborat:

a) lugʻat maqolalardagi oʻzbek oʻquvchisi uchun zarur boʻlmagan ayrim soʻz va birikmalarni tushirib qoldirgan;

b) lugʻat maqolalariga yangi soʻzlar qoʻshib, soʻz maʼnosini yaxshiroq ochib berishga harakat qilgan;

d) lugʻat maqola tarkibidagi notanish soʻzlar oʻrnida tushunarli soʻzlar ishlatgan;

e) RTMLda xato oʻgirilgan soʻz va birikmalarini tuzatib tarjima qilgan.

3) Iboralar tarjimasi asosan oʻzbekcha ifoda etilgan;

4) A. Zohiriy birinchi marta lugʻatga xalq jonli soʻzlashuv tilidan juda koʻp soʻz va birikmalarni olib kirgan. Bu lugʻatning ahamiyatini yanada oshirgan, uni xalqqa yaqinlashtirgan.

5) lugʻatda ayrim kamchiliklar uchraydi:

a) baʼzi soʻz va iboralar notoʻgʻri tarjima qilingan;

b) ayrim soʻz maʼnolari ajratib koʻrsatilmagan.

Ashurali Zohiriyning mazkur lug‘ati o‘zbek lug‘atchiligining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi holatini, xususan, tarjima lug‘atlarining yaratilishidagi takomillashuv jarayonlarini, bu masalada jadid adiblarining umuman tilga, qolaversa, lug‘at yaratish tamoyillariga qay darajada yondashganliklarini ko‘rsatadi. Ahamiyatli tomoni shundaki, jadidchilik davrida ikki tilli, xususan, ruscha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlarining o‘zbek ziyolisi muallifligi ostida yaratilganlarining dastlabkisi ma’rifatparvar jadid adibi Ashurali Zohiriyga tegishlidir. Muallif mazkur lug‘at ustida ancha zahmat chekkan, biroq o‘z faoliyati davomida lug‘atchilikning, lug‘atlar yaratishning nazariy va amaliy masalalari bilan jiddiy shug‘ullanganligi bois, bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Ilk tarjima lug‘ati bo‘lganligi uchun unda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni, tarjimalardagi arabcha, forsha o‘zlashma so‘zlarning, izofali birikmalarning ko‘plab ishlatilganligini to‘g‘ri baholash lozim. O‘sha davrda dastlabki ruscha-o‘zbekcha mukammal tarjima lug‘ati sifatida baholanib, unga boshqa turkiy xalq uchun yaratilgan tarjima lug‘atining asos qilib olinganligi, lug‘atchilikning nazariy va amaliy masalalari, qonuniyatlari hali to‘laligacha shakllanmaganligi, shuningdek, yangi o‘zbek adabiy tilining leksik-grammatik me’yorlari endi shakllanayotgan bir davrda yaratilganligi lug‘atdagi bunday kamchilik va nuqsonlarni keltirib chiqarishi tabiiy edi.

Bungacha rus turkolog olimlari, rus davlat xizmati vakillari va boshqa turkiy xalqlar leksikografiyasida yaratilgan tarjima lug‘atlari “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at” uchun asos vazifasini o‘tagan. Lekin Ashurali Zohiriy lug‘at tartib berishda ularga shunchaki ergashmay, o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini, shakllanayotgan yangi o‘zbek adabiy tilining me’yorlarini e’tiborga olgan. Shu sababli ham ruscha so‘zlarning o‘zbekcha muqobillarini berishda keng o‘quvchilar ommasini manfaatini o‘ylab, lug‘atga jonli xalq tilidan ko‘plab so‘z va iboralarni kiritgan.

Xullas, Ashurali Zohiriy o‘z davrining zabardast ziyolisi, millatning taraqqiyoti, istiqboli yo‘lida tolmas kurashchisi sifatida o‘zbek tilining bir qator amaliy masalalarini hal qilishda faol ishtirok etdi. Ayniqsa, imlo va fonetika sohasidagi kuzatishlari o‘zbek tilshunosligining rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ashurali Zohiriyning fonetika-fonologiya, imlo, grafika sohasida olib borgan izlanishlari o‘zbek tishunosligi rivojida qanday ahamiyatga ega bo‘lganligini izohlang.

2. Mazkur davrda Ashurali Zohiriy pantukizm, purizm masalalariga qanday munosabatda bo‘lgan?

3. Ashurali Zohiriyning singarmonizm hamda adabiy til uchun tayanch dialektni belgilash masalasidagi qarashlariga tavsif bering.

4. Ashurali Zohiriyning o‘zbek leksikografiyasi taraqqiyotidagi xizmatini qanday baholaysiz?

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

2. Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирийнинг тилшунослик мероси: Филол. фан. номз... . дисс. – Тошкент, 2004.

3. Ашурули Зоҳирий. “Келурнома” // Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1927. – № 9-10.

4. Нормаматов С. Жадид адибларининг луғатчилик фаолияти – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018 йил.

5. Раҳмонқули С. , Карам А. Русча-татарча мукаммал луғат. – Қозон: Аср босмахонаси, 1920.

6. Зоҳирий А. Русча-ўзбекча мукаммал луғат. 2 жилдли. – Тошкент – Самарқанд: Ўздавнашр, 1927.

3. 4. ABDURAUUF FITRAT.

Tayanch so‘z va iboralar: *chig‘atoy gurungi, sarf, nahv, fonetika-fonilogiya, kontrast unlilar, cho‘zg‘ilar, sarf qoidalari, substantivasiya, ot olmoshlari, etimologik lug‘at, qiyosiy-tarixiy lug‘at, morfemik lug‘at.*

O‘zbek jadid ma’rifatparvarlari orasida Abdurauf Fitrat shoir va dramaturg, nosir va publitsist, tilshunos va adabiyotshunos sifatida milliy ma’naviyatimiz tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning mumtoz adabiyotimiz namunalarini keng tadqiq etish, jahon andozalari asosida o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazish yo‘lidagi xizmatlari beqiyos.

Abdurauf Fitrat jonkuyar tilshunos sifatida 20-yillar til siyosati qozonida qaynadi va turkiy tillarni birlashtirish siyosatining oqibatlarini sezgani holda, har qaysi turkiy tilning umumiy jihatlari bo‘lishi bilan birga, xususiyl, o‘ziga xos jihatlari ko‘pligi, shuning uchun har qaysi turkiy til mustaqil ravishda rivojlanishi va o‘z xalqiga xizmat qilishi lozimligini angladi. Shuning uchun ham o‘zbek tilining bundan keyingi istiqboli haqida qayg‘urdi. Bu haqda “Sarf” kitobida yozadi: «... *Bukun turk dunyosi uchun bir tilni qabul etmak xayyollari bilan ovora bo‘ldik. Tilimizni shunga to‘g‘ri yurguzmoq uchun unumsiz tirishdik. Bu xayyollarning amalga oshmog‘onini bilgandan keyin o‘z tilimizni tushuna boshladik. Bu yo‘lda birinchi odimni Qo‘qonlik Ashurali Zohiriy otdi. Imlo bitik so‘zini yozib chiqardi. Undan so‘ngra Toshkentda “Chig‘atoy gurungi” ochildi*” (A. Fitrat. 1921-yil Til va imlo qurultoyida so‘zlagan nutqidan).

Abdurauf Fitrat 1919-yil 12-iyunda “Ishtirokiyun” gazetasining 132-sonida e‘lon qilingan “Tilimiz” nomli maqolasida o‘zbek tilining tarixdagi achchiq qismati, uzoq yillar arab va fors tillari ta’sirida bo‘lib kelgani, lekin leksik- grammatik jihatdan bu tillardan hech qanday qolishmasligini ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, har bir tilning boyligi u tildagi so‘zlarning ko‘pligi, yasali sh kengligi (undirish kengligi), bog‘lanish imkoniyati (vus’ati ishti qoq), qoidalarining mukammalligi (mukammaliyati qavoid) bilan o‘lchanadi.

Turkcha (o'zbek tili) bularning har uchasi bo'yicha ham arab va fors tillaridan qolishmasligi, ayrim o'rinlarda ulardan ustun kelishini ta'kidlaydi. Eski o'zbek tilidagi arabizm va forsizmlarga munosabat masalasida juda ilg'or fikrlarni bildiradi. O'zbekcha muqobili bo'lmagan arab va fors so'zlarini o'zbekchallashtirish asosida, ya'ni o'zbek tili fonetik va grammatik xususiyatiga moslashtirish asosida qabul qilishni tavsiya etadi. Bu haqda quyidagilarni yozadi: *“Hozirgi so'zlarimizdagi arabcha, forshalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir, desangiz to'g'ridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Ularni olurmiz, lekin o'zimizniki qilurmiz. Turkchallashtiramiz. “Qoida”ning turkchasi yo'qsir. “Sarf”ningda turkchasini topolmadik. Ikkisin daxi olurmiz. Lekin siz kabi “Qovoidi sarfiya” demasdan, “Sarf qoidalari” dermiz⁵².*

Turk (o'zbek) tilida ifodalash imkoniyati bo'lgan arab, fors so'zlarini turkchasi bilan almashtirish, buning uchun o'zbek tiliga mehr-muhabbat bilan yondashish, uning ichki imkoniyatlarini chuqur o'rganish lozimligini ta'kidlaydi.

Abdurauf Fitrat ma'rifatparvar sifatida yangi maktablar uchun darsliklar yozadi. Abdurauf Fitratdan tashqari boshqa bir qator ma'rifatparvarlar ham bu davrda o'zbek tilining turli masalalariga bag'ishlangan asarlarini e'lon qildilar. M. Fahriddinovning *“Turkcha qoida”* (Toshkent, 1913), Elbekning *“Bitik yo'llari”* (Toshkent, 1919) va *“Yozuv yo'llari”* (Toshkent, 1921), Shorasul Zunnunning *“O'zbekcha til qoidalari”* (Toshkent, 1925), Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning *“O'zbekcha til sabog'i”* (Toshkent, 1925) va boshqalar.

Lekin bular orasida Fitratning *“O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba”* nomli kitobi alohida qimmatga ega va u o'zbek tilshunosligi tarixida o'zbek tilining fonetikasi sarf va nahvini izchil ravishda tavsiflovchi birinchi grammatikadir. Ikki kitobdan iborat (sarf va nahv) bo'lgan bu asar 1930-yillarda ichida olti marta nashr qilindi va bir necha yil davomida o'rta maktablarda darslik sifatida qo'llanildi. Grammatika o'z mundarijasi nuqtayi nazaridan Yevropa tillari mundarijasi andozalariga tayandi. Bu grammatika keyinchalik

⁵² Abdurauf Fitrat. Chin sevish. -Toshkent: Ma'naviyat, 1996. 240-bet.

boshqa grammatikalarning yaratilishiga asos bo'lganligi bilan ham qimmatlidir.

Abdurauf Fitrat o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, har bir lingvistik hodisaning mohiyatini ifodalay oladigan qat'iy qoidalar yaratish lozimligini ta'kidlaydi. Bu haqda u quyidagilarni yozadi: "Tilimizning iste'dodli, boy bir til bo'lg'onini qichqirib so'yladik. Bu til do'qqidir (qo'poldir), buning o'rniga turkchaning adabiy bir shevasini olaylik, degan til bilmaslar bilan kurashdik, unlarni yengdik. Biroq hanuz tilimizning belgili qoidalarini maydonga qo'ya olmadik" (Abdurauf Fitrat. Chin sevish. -Toshkent: Ma'naviyat, 1996. 248-bet).

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tili ko'p shevali bo'lganidan yangi o'zbek adabiy tili qanday bo'lishi, qaysi shevalarga ko'proq tayanmog'i lozim, degan muammo bu davrda muhim masalalardan edi. Fitrat bu muhim masala bo'yicha fikr yuritib, shahar shevalariga arab, fors tillari ta'siri kuchli ekanligi, shuning uchun bu shevalarga emas, balki qishloq shevalariga tayanish lozimligini bayon qiladi. «... Bizning shaharlarimiz ko'plab yillardan beri arab, forsiy adabiyotning hukmi ostida yashaydir. Shuning uchun bizda shahar tili buzulg'ondir. Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlardan ko'ra olamiz»⁵³. Shuning uchun "el-aymoqlar orasida ularning jon ozig'i bo'lib turg'on" dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashula-qo'shiqlarni xalq og'zidan qanday talaffuz qilinsa, shundayligicha yozib olish, ularni sinchiklab o'rganish va shu asosda ma'lum ilmiy xulosaga kelish lozimligini ko'rsatadi. Fitrat yuqoridagi fikrlari asosida singarmonizmli shevalar o'zbek adabiy tilining tayanch shevalari bo'lishi kerak, degan xulosaga keladi. O'zbek tilining fonetik tizimi, morfologik tuzilishi haqida fikr yuritilganda ham ana shu bosh tamoyildan kelib chiqiladi.

Abdurauf Fitratning tilshunoslikka oid qarashlarini o'zi asos solgan va boshchilik qilgan, mazkur davrda o'zbek tili muammolari bilan jiddiy shug'ullangan "Chig'atoy gurungi" to'garagi faoliyati asosida yoritish maqsadga muvofiqdir.

"Chig'atoy gurungi" va o'zbek tili imlosi. Ma'lumki, arab alifbosi o'zbek va boshqa turkiy xalqlarga deyarli ming yillar xizmat

⁵³ Abdurauf Fitrat. Chin sevish. -Toshkent: Ma'naviyat, 1996. 112-bet.

qilib kelgan bo'lsa-da, uning imlo qoidalari rasmiylashmagan, balki eski o'zbek yozuvida so'z va affikslar an'anaga muvofiq yozib kelinardi, lekin ko'p o'rinlarda so'z va qo'shimchalar kotibning bilim saviyasi, o'z tamoyiliga (o'ziga xush kelgan) asosan yozilar edi. Shu tufayli ham *ko'ngil* so'zi to'rt va besh xil ko'rinishda, *qora* so'zi uch xil yozib kelingan. Bu esa eski o'zbek yozuvi imlo qoidalariga amal qilmaydigan yozuv degan qarashlarga olib kelgan. Aslida, bu yozuvning ham o'z qoidalari bo'lgan, lekin rasmiy e'tirof qilinmagan. XX asr boshida Abdurauf Fitrat, Botu, Elbek, Miyon Buzruk va boshqa ziyolilar bunday ishlarni yaratish lozimligini anglab yetdilar va vaqtli matbuot sahifalarida, ayniqsa "Sharq haqiqati" gazetasi va "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali sahifalarida qizg'in munozaralar yuritdilar. Bunday olimlarning bir guruhi ijtimoiy asosdagi tashkilotlarga birlashib ish olib bordilar. Ulardan biri – "Chig'atoy gurungi" uyushmasidir. Bu uyushmaning o'z davrida olib borgan amaliy ishlari, uning yutuqlari, kamchiliklari, unga qo'yilgan siyosiy ayblar hozirgi matbuotimizda keng yoritilmoqda⁵⁴, lekin bu uning faoliyati hali yetarli o'rganilgan emas.

Olim Usmonov "Ishtirokiyun", "Inqilob" gazetalarining materiallariga asoslanib, Fitratning yozuv va imlo haqidagi qarashlarini bayon qilishga harakat qilgan va ko'proq unga siyosiy jihatdan yondoshgan hamda umumiy tarzda bo'lsa ham, u "Chig'atoy gurungi"chilar ushbu isloh qilingan alifbo asosida imlo qoidalarini ham qaytadan ishlab chiqib, yanada takomillashtiradilar,⁵⁵ degan ma'lumotni beradi. Aftidan, O. Usmonov "Chig'atoy gurungi" imlo qoidalariga bag'ishlangan "Bitim yo'llari" (1919) risolasini e'lon qilganlaridan xabari bo'lmagan, shu tufayli bo'lsa kerak, "yanada takomillashgan" imlo qoidalari haqidagi fikr bilan chegaralangan.

Mazkur risolaning e'lon qilinishiga Maorif komissarligi ruxsat etgan bo'lib, u "Bir-ikki so'z", "Harflar", "Cho'zg'ilar", "Yot harflar", "Tutash-uzuk harflar", "So'z", "So'z bo'lagi", "So'z

⁵⁴ Болтабоев Х. Профессор Фитратнинг назарий қўлланмаси // Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент, 1995. – Б. 5.

⁵⁵ Усмонов О. Фитрат ва "Чигатой гурунги" // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. 4-сон. –Б. 56-64.

bo‘laklarining yasaluvi”, “So‘zlarning o‘zgarishlari”, “Qalin va ingichkalik”, “So‘z turlari”, “Birlik, ko‘blik belgisi”, “Odotlarning qo‘shilib yozilmog‘i”, “Odotlarning qo‘shib yoziluvini”, “Ayrim yozilmasligi tevish bo‘lg‘an so‘zlar” va “Arabcha otlar” degan sarlavhalar bilan ajratilgan. Bunda bosh maqsad isloh qilingan arab yozuvining imlo qoidalarini umumlashtirish bo‘lsa ham, o‘zbek tili grammatikasining nazariy asoslarini berishga urinilgan, boshqacha aytganda, o‘ziga xos o‘zbek tili dasturi vazifasini ham o‘tagan.

“Bitim yo‘llari” risolasida quyidagi masalalar ilgari surilgan:

Tovush va harfni farqlashga harakat qilingan. Ma’lumki, inqilobgacha bo‘lgan davrdagi savod o‘rgatish kitoblarida tovush va harf munosabatiga e’tibor qaratilmas edi, ya’ni tovushlarning fiziologik (artikulyasion) xususiyatlari haqida fikr yuritilmas, balki harflarning yozilishi haqida gap borar edi. Bu ishda sodda tarzda bo‘lsa ham, tovushlar artikulyasiyasi haqida ma’lumot beriladi: b tovushini talaffuz qilishda “dudoqlarimizni yopishtiramiz”, r tovushida “til uchini o‘ynatib”, l tovushida “tilimizning uchini ust tishimizning tubiga yopishtiramiz” kabi tavsiflar beriladi. “Ularning surati (rasmi)ning nomi harfdur”, – degan ta’rif beradi va har bir harf bir tovushni ifodalagani uchun uni *tovush harfi* degan termin bilan yuritiladi. Albatta, o‘zbek tili ilmida arab tilshunosligi terminlari ustun qo‘llanayotgan davrda harf va tovush terminlarining farqlanishini ijobiy baholash zarurdir, chunki hozirgacha *harf* termini arab tilshunosligida ham tovush, ham uning yozuvdagi ifodasiga nisbatan qo‘llanib kelmoqda.

Unlilar. “Chig‘atoy gurunigi”chilar o‘zbek tilda 6 ta unlini belgilaganlar. Unli tovushlar *cho‘zg‘i* termini bilan yuritilgan. Unli tovushlarni orqa qator va old qator oppozitsiyada tushuntirishga harakat qilingan. Bunda unlining harfiy xususiyatlari jihatidan yondashadi va o unlisi to‘la ustun, a unlisi ingichka ustun; o‘ unlisi to‘la utru, u unlisi ingichka utru; e unlisi to‘la ostun, i unlisi ingichka ostun deb belgilanadi. Ko‘rinadiki, bunda o-a, o‘-u, e-i kontrast unlilari haqida gap boradi.

Undoshlar. Ular suratli harf sanalib, asosan *tovush harfi*, qisqacha *harf* degan terminlar bilan yuritilgan. Arab va fors tilidan o‘zlashgan undosh tovushlarni ifoda qiluvchi harflar *yot harflar* deb yuritilgan hamda ularga “tilimizga kirib qolg‘an yot so‘zlarda

yoʻzmoq tevishdir” degan izoh beriladi va ularga *se, hoyi hutti, ayn, zol, zo, sod, zod, to, je* harflari va ular ishtirok etgan soʻzlarga misollar keltiriladi.

Muttasil va munfasil harflar *tutosh-uzuk harflar* deb yuritiladi, demak, arabcha oʻrnida oʻzbekcha termin yaratishga harakat qilinganligi koʻrinib turibdi.

Boʻgʻin va uning tuzilishi. Boʻgʻin soʻz boʻlagi, qavs ichida *hijo* deb yuritilgan, lekin boʻgʻinning ilmiy izohi berilmaydi, balki “*bor* soʻzida tovushimiz boʻlinmasdan butun bir boʻlak boʻlib chiqadir, *keld(i)m* deganda tovushimiz ikkiga boʻlinadir” kabi amaliy tahliligina beriladi. Boʻgʻin tushunchasi, aftidan, imlo (yoʻzuv) tarzi bilan bogʻliq holda tushunilgan. Bunday deyishimizga sabab boʻgʻin turlari koʻrsatilganda, harf eʼtiborga olinganini koʻramiz va boʻgʻinning: 1) unli qatnashmagan bir harf (uni choʻzgʻisiz deb yuritadi); 2) bir unlili, 3) ikki undosh va bir unlili, 4) ikki undoshli, 5) uch undoshli turlari koʻrsatilgan.

Soʻz va qoʻshimchalar imlosi. Bu masala soʻzlarning oʻzgarishlari sirasida yoritilgan. Bu oʻrinda gap egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda, *oʻgʻul, oʻrun, koʻngul, butun, boʻyun* soʻzlaridagi ikkinchi boʻgʻindagi *u* unlisining tushib qolishi (eliziyasi) haqida gap boradi va u qoidalashtiriladi, bu toifaga *buyur (buyruq), sovur (sovril), ayir (ayril)* soʻzlarini ham kiritadi, ayni zamonda bu qoidaning istisnolari borligini ham taʼkidlaydi, yaʼni *urush+im, suqush+im* kabi misollarni yuqoridagi qoidadan “chiqib qolgan” deb koʻrsatadi.

q, k undoshlari bilan tugagan soʻzlarga **-i** egalik qoʻshimchasining qoʻshilishi bilan bogʻliq fonetik oʻzgarishlar ham eʼtibordan chetda qolmagan, yaʼni “*q*”ning “*g*”ga (*saboq-sabogʻi, oyoq-oyogʻi, yozmoq-yozmogʻi*), “*k*”ning “*g*”ga (*boʻlak-boʻlagi, elak-elagi, koʻylak-koʻylagi*) oʻtishi, shuningdek, *oq-oqi, koʻk-koʻki* kabi soʻzlarda bu fonetik oʻzgarish yuz bermasligi ham eʼtiborga olingan.

Ushbu risola mualliflari mazkur fonetik hodisani toʻgʻri belgilagan, lekin ularning izohlari ilmiy jihatdan ancha joʻn yoki haqiqatdan biroz yiroqdir. Quyidagi jumalarga diqqatni jalb qilamiz: “Soʻzning bir necha boʻlagidan keyin kelgan turgʻun “*q*” harfi bir yoqgʻa oz-koʻp choʻzilgʻanda, “*g*” harfiga aylanadir” (21-

b.); “Turg‘un *q*, *k* harfi so‘zning birinchi bo‘lagida kelgan bo‘lsa, cho‘zilg‘anda ham eskisi kabi qoladir” (21-b.). Bu jumladagi *cho‘zilg‘anda* so‘zini *qo‘shilish* ma‘nosida tushunganimizda ham “*bir yoqq‘a oz-ko‘p cho‘zilg‘anda*” iborasining ilmga aloqasi yo‘q ekanligini ta‘kidlagan bo‘lar edik.

Singarmonizm va imlo. Bu mavzu “*Qalin va ingichkalik*” sarlavhasi ostida yoritilgan. Aftidan, arab tilshunosligi ta‘sirida yuzaga kelgan o‘sha davr tilshunosligi an‘anasiga ko‘ra til oldi (old qator) va til orqa (orqa qator) degan terminlar qo‘llanmagan bo‘lsa ham, bu tushunchalar unlilar uyg‘unligi tushunchalari bilan yuritilganligi ma‘lum.

“Bitim yo‘llari” mualliflari turkiy so‘zlarda singarmonizmning saqlanishini “Turkcha so‘zlar yo qalin bo‘lur, yo ingichka bo‘lur” – deb izohlaydi hamda “qalin so‘z” va “ingichka so‘z” degan terminlarga murojaat qiladilar. Bu tushunchalarni tavsif qilishda ancha jo‘n izohlardan foydalanadi, ya‘ni “tovushlarimiz qalin bo‘lib chiqsa, qalin so‘z; tovushlarimiz ingichka bo‘lib chiqsa, ingichka so‘z” degan ta‘rif darajasiga yaqin bo‘lgan izoh beriladi va shu tariqa qalin (til orqa), ingichka (til oldi)likning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlash imkoniyatini qidirganlar.

Orqa qator unlilar uyg‘unligining 2 muhim belgisi ko‘rsatiladi: a) so‘zning dastlabki bo‘g‘inida til orqa unli (asarla “to‘la ustun”) qatnashsa: *oldim*, *sotdim*, *topdim*; b) so‘zda *q*, *g*, *x* undoshlaridan biri qatnashsa: *qizdim*, *yig‘ladim*, *uxladim*; til oldi unlilar uyg‘unligining esa uch muhim belgisi ko‘rsatiladi: a) dastlabki bo‘g‘inda til oldi unlisi (asarda “ingichka ustun”) qatnashsa: *aytdim*, *man*; b) dastlabki bo‘g‘inda til oldi *ye (e)* unlisi qatnashganda (bu unli “to‘la ostun” deb yuritiladi): *etmadi*, *berdi*; v) so‘zda *g*, *k* undoshlari qatnashganda: *kuldi*, *yugurdi*, *yigirdi* kabi.

Morfologik va sintaktik shakllar munosabati to‘g‘risidagi qarashlari.

O‘zbek tili sintaksisiga oid deyarli barcha adabiyotlarda gap bo‘laklarining qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanishiga o‘rin beriladi. Zero, morfologiya va sintaksis, to‘g‘rirog‘i, morfologik shakl va sintaktik shakl bir-birini taqozo qiladigan grammatikaning o‘ziga yarasha ziddiyatini tashkil etadigan birliklardir. Abdurauf Fitrat ham morfologik shakllarning sintaktik pozitsiyadagi ishtirokiga

maxsus to'xtalgan va uni "Qanday so'zlar gapning qaysi bo'lagi bo'lishqa yaraydir?" sarlavhasi ostida o'rganadi.

Abdurauf Fitrat "Sarf" asarida 4 ta turkumni ajratganligi (ot, fe'l, sifat, ko'makchi) to'g'risida "Nahv" asarida eslatib o'tadi, aslida "Sarf"da olmoshlar to'g'risida ham fikr bayon qilgan⁵⁶, lekin "Nahv"da olmoshni (shu terminni tilga olmaydi) ot deb keltiradi.⁵⁷

Abdurauf Fitrat fe'llarning sintaksisdagi o'rni masalasida fikr yuritish ekan, avvalo u "Nahv"da ham 4 toifa fe'llar (ularni kuma termini bilan yuritadi)ga ajratganligini aytadi, lekin shu asarning 1927-yilgi nashrida uni 5 kumaga bo'lganligini xotirdan chiqaradi, 1930-yil nashrida esa uch zamonni ifodalagan fe'llarni uch kumaga ajratadi va shundan *so'ngg'i, hozirgi va o'tgan zamon fe'llari* gapda kesim vazifasida kelishiga misollar keltiradi.

Abdurauf Fitratning "Zamonsiz fe'llar" tushunchasi aslida ravishdosh, sifatdosh tushunilishi kerak, lekin "Nahv" asarida uni faqat -gali / kali / g'ali / qali; -gach / kach / g'ach / qach; -y (negadir -a shakli to'g'risida gap yo'q), -b affiksli ravishdoshlarnigina ko'zda tutgan, 1930-yilgi nashrida esa bu bo'lim tushib qolgan. So'z turkumlari va gap bo'laklari munosabatiga ham morfologiyada, ham sintaksisni yoritish chog'ida to'xtaladi. Sintaksisga oid adabiyotlarda muayyan gap bo'laklariga xoslangan so'z turkumlari morfologizatsiyalangan gap bo'laklari deb yuritilishi keng tarqalgan. Bu keyinchalik gap bo'laklarining morfologik shakllari to'g'risidagi qarashlar uchun asos bo'lgan.

Abdurauf Fitrat ham gap bo'laklarining morfologik shakllariga e'tiborni qaratgan. U fe'llarning quyidagi gap bo'laklari vazifasida kelishini ko'rsatadi:

1) "So'ngg'i", "hozirgi", "o'tkan" zamon fe'llari kesim vazifasida keladi. Bu o'rinda u tushilgan fe'lni ko'zda tutadi, bu jihatdan uning qarashlari hozirgi qarashlarga mos keladi. Keltirgan misollari ham maqsadga muvofiq; 2) "Zamonsiz fe'llar (4-kuma fe'llari)dan "sabab fe'li" (-g'ali / gali/qali / kali affiksli fe'llar) "nechunlik to'ldirg'ichi" (sabab holi), "vaqt fe'li"(-gach / kach /

⁵⁶ Абдурауф Фитрат. Сарф. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. — Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1927. -Б. 57-59.

⁵⁷ Абдурауф Фитрат. Наҳф. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. — Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1927. -Б. 27.

g‘ach / qach affiksli fe‘llar) “chog‘ to‘ldirg‘ichi” (payt holi) bo‘lib kelishini ko‘rsatadi. Ushbu shaklga keltirgan misollari o‘rinli, lekin u “Sarf”da “zamonsiz fe‘llarning “hol fe‘li”(-b / ib, -a / y affiksli ravishdosh) turini keltirgan edi. “Nahf”da bu fe‘llarni eslatmasa-da, *“Biz inqilobni yashatibqina taraqqiy qilamiz”* misolini keltiradi va unda *yashatib* so‘z shakliga e‘tiborni tortadi, chunki ravishdosh shakli tuslangan fe‘l tarkibida ham kelgan va u avvalgi o‘rinlarda kesim vazifasini bajargan. Bu o‘rinda esa *“yashatib (qina)”* so‘zini uning ta‘biricha, yo sabab, yoki payt holi deb qarashimiz lozim bo‘ladi, vaholanki, u tarz (ravish) holi bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, Abdurauf Fitrat ko‘rsatgan “nechunlik to‘ldirg‘ichi” sabab ifodalashini ta‘kidlasa ham, uning bizgacha bo‘lgan tadqiqotchilari izohlaganlaridek, sabab holi emas, balki maqsad holini ifoda qiladi (tahlil qiling: *“Men kitobni o‘qimoq uchun oldim”* gapida sabab emas, maqsad ifodalangan). Xuddi shuningdek, Abdurauf Fitrat ko‘rsatgan “sabab fe‘llari” ham sababni emas, balki maqsadni ifoda qilgan. Aftidan, Abdurauf Fitrat maqsad holini ham sabab holi sifatida tushungan va uning tadqiqotchilarini ham chalg‘itgan.

Ko‘rinadiki, fe‘lning boshqa shakllari gapning qanday sintaktik pozitsiyalarini egallashi mumkinligi tahlilga tortilmagan.

Abdurauf Fitrat otni gap bo‘laklarining shakliy tuzilishida qatnashishiga ham e‘tibor qaratadi va *“otlarning hammasi (zot, olmosh, ish otlari) gapning kesim, ega ham butun to‘ldirg‘ichlari bo‘la oladir”*- deb izohlaydi (27-b). Bu ta‘rifni tahlil qilishdan avval qavs ichida ko‘rsatilgan va Abdurauf Fitrat ot deb tavsiya etgan zot, olmosh va ish otlariga aniqlik kiritish zarur bo‘ladi. Abdurauf Fitrat “Sarf”da zot terminini qo‘llamagan, lekin *“narsa oti”* hamda *“narsaning oti bo‘lishi lozim emas”* degan iboralarda “narsa” so‘zini ishlatgan. Bu iborada narsa so‘zi “zot” degan ma‘noni ifoda qilganligini tushunish qiyin. Bizningcha, “Nahv”ni yozish chog‘ida rus tilidagi “predmet” degan tushunchani ifodalash uchun unga ekvivalent bo‘lgan “zot”so‘zidan foydalangan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Qaysi munosabat bilan “zot” so‘zini keltirishidan qat‘i nazar, uni keng ma‘nodagi predmetni ko‘zda tutgan deb talqin qilish mumkin va, aksincha, shu ma‘noda predmetning ifodasi bo‘lgan otlarni olmosh va ish otlariga zid qo‘ygan. Olmoshni ot tarkibida

o'rganishi ham o'ziga xosdir. Abdurauf Fitrat kishilik olmoshlarini "ot olmoshlari" ("yolg'izcha, olmosh") deb yuritgan. Demak, otning mavjudligini ko'rsata oladigan kishilik olmoshlarini ham ot toifasiga kiritgan. Bu ma'noda hozirgi ot, sifat, son, olmoshni qamrab olgan *otlar* tushunchasiga yaqinlashgan. Abdurauf Fitratning "ish otlari" termini va unga nisbatan qarashi e'tiborli bo'lib, uni hozirgi morfologik tizimni qayta yaratishda hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda u bizning tushunchamizdagi harakat nomi affikslari: *-maslik*; *-(i)m*; *-gu/ku/qu/g'u*; *-inch(qo'rqinch)*; *-qin/kin/g'in (keskin)* affikslari ishtirokida hosil bo'lgan so'zlarni tushunadi. Faqat *sovuq*, *yopiq*, *tanuq* kabi fe'ldan yasalgan so'zlarning (uningcha, otlarning) ish otlari emasligini, shunchaki "sodda ot" ekanligini aytadi. Keltirilgan ayrim noto'g'ri fikrlar va misollarni hisobga olmaganda, "ish otlari"ning hosil qilinishi haqidagi fikrlarining ayrimlarini saralab olish foydadan holi emas.

Abdurauf Fitrat keltirgan morfologik shakllar, asosan, u ko'rsatgan gap bo'laklari bo'lib kela oladi, lekin "to'ldirg'ich" ham to'ldiruvchini, ham holni ifoda qilar ekan, ular holning barcha turlarida ham qatnasha olmasligini aytish mumkin. Afsuski, uning misollaridan qaysi morfologik shakl qaysi sintaktik shakl uchun keltirilganligini anglash qiyin bo'ldi. Shunisi e'tiborliki, sifat (uni *sufat* variantida qo'llaydi) o'zi gap bo'lagi vazifasini bajara olmasligini shu o'rinda ham takrorlaydi, chunki Abdurauf Fitrat sifatga xos bo'lgan asosiy xususiyat aniqlovchining morfologik shakli ekanligini ko'zda tutgan bo'lsa-da, uni aniqlovchi bo'lak deyishdan tiyiladi, chunki uning gap bo'laklari aqidasida aniqlovchi yo'q. Shuning uchun ham sifatning otga bog'lanib kelishi to'g'risidagina fikr yuritadi.

Abdurauf Fitratning sifat tushunchasi ham ko'proq predmet atributini bildirishga yaqin. Bu uning "*sufat va sufat qatorida sanalgan sonlar, ko'rsatkichlar biror otqa boylanib keladir* degan jumlasidan ham ko'rinib turibdi va ular ot bilan birga gapning bir bo'lagi bo'lishini uqtiradi. Shu o'rinda Abdurauf Fitrat yangi grammatik terminlarni yaratishga ham muvaffaq bo'lgan, ya'ni *sufat* – *sufatli*, son – *sanalmish*, ko'rsatkich – *ko'rsatilmish*. Albatta, bu tushunchalar keyinchalik rivojlanmadi, balki uning analogiyasi asosida aniqlovchi – aniqlanmish, qaratqich – qaralmish, izohlovchi

– izohlanmish kabi tushunchalarning yaratilishiga turtki bo‘lganligi ehtimoldan holi emas. Demak, Abdurauf Fitratdagi sifatning (u tushunganidek, keng ma’noda) hech qanday sintaktik shakl ma’nosida qo‘llash mumkinmasligi g‘oyasi (chunki, avval ta’kidlaganimizdek, uning sintaktik sistemasida aniqlovchi degan bo‘lak yo‘q edi) uning otlashishi to‘g‘risidagi g‘oyani ham keltirib chiqargan edi. Sifatlar mustaqil qo‘llanganda, uningcha, “*ot holini oladir*” va gap bo‘laklaridan biri bo‘lib kela oladi. Abdurauf Fitrat sifatdosh, sifat, yasama sifat (*hunarli*) va boshqa otlashgan so‘zlarning kesim, ega, to‘ldiruvchi bo‘lib kelishiga misollar keltirgan. Ma’lum bo‘ladiki, Abdurauf Fitrat o‘zbek tilshunosligiga ilk bor substantivasiya to‘g‘risidagi tushunchani olib kirgan.

Abdurauf Fitratning morfologik tizimida “ko‘makchi so‘zlar” degan turkum bor edi, bu turkum professor A. Nurmonov tomonidan ham tavsiflangan, lekin “Nahv”da Abdurauf Fitrat *hamma, endi, hali, kim, nima* so‘zlarini ham komakchi so‘zlar deb qayd qiladi va ularni gapning asosli bo‘laklari (10 ta bo‘lak) bo‘lishga yaraydi deb ko‘rsatadi. To‘g‘ri, umuman olganda, “Sarf”da “ko‘makchi so‘z”lar gapning asosli bo‘laklari bo‘la olmasligini e’tirof etgan. Bu jihatdan u to‘g‘ri pozitsiya tutgan. Aftidan, u belgilash olmoshlari va ravish to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lmaganligi uchun “Nahv”da ularni ko‘makchi so‘zlar deb yuritishga majbur bo‘lgandir, lekin *kim, nima* so‘roq olmoshlarini “Sarf”da so‘rash olmoshlari sifatida qayd qilgani holda “Nahv”da ularni ko‘makchi so‘zlar deb yuritmoqda. Demak, bu o‘rinda u yanglishgan.

Ma’lumki, grammatikaga oid adabiyotlarda so‘z turkumlarining sintaktik shakl, gap bo‘laklari uchun so‘zshakllar morfologik shakl sifatida qatnashishlari ko‘p bora ta’kidlangan⁵⁸. Abdurauf Fitratning “Sarf” asarida sifat turkumi izohida ular fe’l oldida qo‘llanganda, “*sifat emas, hol deb ataladir*” degan fikr keltiriladi. Ajablanarlisi shundaki, Abdurauf Fitratning sintaktik tizimida hol degan bo‘lak aslida yo‘q, bu so‘z “*nechunlik (hol) to‘ldirg‘ichi*” deb aytiladi, lekin hol termini uning izohlarida tilga olinmaydi. Abdurauf Fitrat ko‘rsatgan *holni* biz ravish deb tushunushimiz imkoniyati bor.

⁵⁸ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –Б. 60.

Ehtimol, Abdurauf Fitrat “Nahv”da “hol” terminidan foydalanmoqchi bo‘lgandir, lekin uning arabcha so‘z ekanligi unga ma’qul kelmagan va turkiy *nechuklik* terminiga murojaat qilishga majbur bo‘lgan, chunki u “Sarf”da hatto *sifat* o‘rnida “*turq*”, *fe’l* o‘rnida “*qiliq*” so‘zlarini ham tavsiya etgan edi. Demak, Abdurauf Fitrat gap bo‘laklarining morfologik shakllari to‘g‘risida ilk bor ma’lumot berishi bilan ilmiy grammatikaga dastlabki qadamlarni qo‘ygan edi.

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari haqidagi talqini. Abdurauf Fitrat sintaktik hodisalarni izohlashda induktiv usulni qo‘llaydi va avval misollar keltiradi hamda misollar tahlilidan qoidani keltirib chiqaradi. Bu usuldan “to‘ldirg‘ichlar”ni izohlashda ham foydalanadi, jumladan, “chiqish to‘ldirg‘ichi”ni tushuntirishda *Sharif chiqdi, Karim bizga keldi, Men kitobni oldim* misollarini keltiradi va bu gaplar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni o‘rtaga tashlaydi, ya’ni bu gaplarda chiqish kelishigidagi so‘z formasiga ehtiyoj mavjudligini aytadi. Bu metodik jihatdan muammoli ta’limni eslatga, lingvistik jihatdan shu gapda to‘ldiruvchi va holning bo‘sh o‘rni borligini yaxshi payqay olgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz bo‘ladiki, Abdurauf Fitrat o‘zining “Sarf” va “Nahv” asarlarini “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba” deb atab, uni ilmiy asar sifatida taqdim etgan bo‘lsa-da, unda grammatik hodisalarni yoritishda muammoli ta’lim metodiga murojlat qilishining muayyan sabablari bor. U ham bo‘lsa, Abdurauf Fitratgacha bo‘lgan davrlarda tilning nazariy qoidalari turli bosqichdagi maktablarga mo‘ljallangan qo‘llanmalarda ta’lim jarayonlariga moslab yozilar edi, qolaversa, uning eamonasida risola, monografiyalar yozilishi hali yo‘lga qo‘yilmagan va o‘zbek tilining ilmiy uslubi shakllanmagan edi. Shu tufayli ham Abdurauf Fitrat tilning ilmiy asoslarini bayon qilishda o‘sha davr an’anasiga ko‘ra tadrijiy usuldan foydalangan. Demak, A. Fitratning bu asarini zamonasining o‘ziga xos monografiyasi deb qabul qilishimiz o‘rinli bo‘ladi.

Abdurauf Fitratning “Nahv” asarida gap bo‘laklaridan biri sifatida *to‘ldirg‘ich so‘zlar* aks etgan. Fitrat qo‘llagan *to‘ldirg‘ich so‘zlarni* adabiyotlarda ikkinchi darajali bo‘laklari(ega va kesimdan

boshqa bo‘laklar)ga nisbatan aytilganligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.⁵⁹ Bu bir tomonlama aytilgan bo‘lib, Fitrat qo‘llagan termin aslida to‘ldiruvchi va hol bo‘lagiga muvofiq keladi, ya’ni aniqlovchi bo‘lagini qamrab olmaydi. Fitrat aniqlovchini ham tilga oladi, lekin uni to‘ldirg‘ichlar sirasiga kiritmagan, balki uni “aniqlov uyushmasi” (qaratqich-qaralmish) va “sufat uyushmasi” (sifatlovchi-sifatlanmish) tarkibida so‘z birikmasining tarkibiy qismi sifatida qaragan. Shu o‘rinda yana bir muammoli masala tug‘iladi. Abdurauf Fitrat nima uchundir *ega*, *kesim*, *to‘ldirg‘ich*ga nisbatan *gap bo‘lagi* emas. Balki “so‘z” terminini ishlatadi. U “Sarf” asarida ham so‘z turkumlariga nisbatan “so‘z” terminini qo‘llagan, lekin har bir turkumni yoritishda *ot so‘zi*, *sufat so‘zi* tarzida emas, *otlar*, *sufatlar*, *sonlar* tarzida qo‘llaydi. Lekin “Nahv”da *ega so‘zi*, *kesim so‘zi*, *to‘ldirg‘ich so‘z* terminlariga murojaat qiladi. Ayni zamonda bu qarorida qattiq turmaydi ham / ya’ni *gap bo‘lagi* terminini ixtiyor-beixtiyor qo‘llashga majbur bo‘ladi. Bu quyidagi o‘rinlarda qayd qilinadi: 1) “To‘ldirg‘ich”ni asoslash chog‘ida: “Ega bilan kesimdangina anglashilgan o‘yning kamchiliklarini to‘ldirmoq uchun gapga turli so‘zlar qo‘shiladi. Bu qo‘shilgan so‘zlar ham ega bilan kesimga o‘xshab gapning bo‘laklari bo‘ladir.”⁶⁰; 2) Abdurauf Fitrat sintaksis masalalarini izohlar ekan, “Qanday so‘zlar gapning qaysi bo‘lagi bo‘lishqa yaraydir?”. “Gap bo‘laklarining tushib qolishi”, “Gapning uyushiq bo‘laklari” kabi muammolarni hal qilish chog‘ida majburan *gap bo‘lagi* terminini ishlatadi.

Ko‘rinadiki, Abdurauf Fitrat bu sintaktik hodisaga nisbatan *so‘z* terminini qo‘llashga moyilligi va o‘z davridagi boshqa asarlardan ajralib turish tamoyiliga amal qilishga istagi kuchliligidan qati nazar *gap bo‘lagi* terminidan voz kecha olmagan. *Gap bo‘lagi* termini Fitrat davrida ham, ungacha bo‘lgan davrda ham maktab qo‘llanmalarida ishlatilib kelinayotgan edi⁶¹. Shubhasiz, Abdurauf Fitrat ham bu an‘nadan yiroqlashib keta olmagan. Ehtimol, u *so‘z* terminini *so‘zshakl* ma’nosida tushunishni tavsiya etgandir.

⁵⁹ Тўйчибоев Б. Фитрат – тилшунос. – Тошкент, 1995. –Б. 35.

⁶⁰ А. Fitrat. Nahv. – Samarqand-Toshkent: O‘zdamnashr, 1927. 12-b; А. Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: 2006, 181-b.

⁶¹ Мунаввар Қори, Қайюм Рамазон, Шорасул Зуннун. Ўзбекча тил сабоқлиғи. – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1926.

Ma'lumki, so'zshakl sintaktik birliklarning qurilish elementlari hisoblanadi.

Abdurauf Fitrat ikkinchi darajali bo'laklarning struktura jihatidan fakultativ. mazmunan o'z o'rnini saqlashini yaxshi tushungan. Shuning uchun ham *to'ldirg'ich*larning turlarini tushuntirishda har bir bo'lakning gap strukturasidagi qaysi semantikasi berkitishiga diqqatni qaratadi va shu orqali uning o'rnini belgilashga harakat qiladi. Bu sintaktik vaziyatni gapning semantik to'liqlig'i g'oyasi bilan bog'laydi, uni *"Ega bilan kesimdangina tuzilgan gapdan anglashilg'an o'ynig to'la chiqmay qolg'ani ham bo'ladir"*, *"Ega bilan kesimdan anglashilg'an o'ynig kamchiliklarini to'ldirmoq"* kabi jumlar bilan izohlaydi. To'ldirg'ichlarning barcha (8 ta) turlarini asoslashda ushbu tamoyilni izchil davom ettiriladi. Demak, bu qarashlari bilan Abdurauf Fitrat zamonaviy tilshunoslikka ancha yaqin turadi.

Abdurauf Fitratning *to'ldirg'ich* tushunchasi to'ldiruvchi va hollarning barcha turlarini qamrab olmagan. Bu tushunarli, chunki bu asarni u mukammal bir sintaktik tadqiqot sifatida taqdim etmayotganligi asar nomidan ham ma'lum. Shunga qaramay, to'ldiruvchilarning ifodalanishini to'liq qamrab olgan, lekin hol pozitsiyasida keladigan so'zshakllardan o'zi to'plagan materiallar asosidagina fikr yuritgan. To'ldiruvchilar tushim, borish, chiqish, birgalik "*to'ldirg'ich*"larini tushuntirish jarayonida, hol bo'lagi esa borish, chiqish, o'run, chog', nechunlik, nechuklik *to'ldirg'ich*larini izohlash jarayonida o'rganilgan. Har bir *to'ldirg'ich* to'g'risida gap bo'lar ekan, so'zning shakllanishiga ko'ra shu bo'lakda ifodalanadigan nozik grammatik ma'no ham uning e'tibridan chetda qolmagan. To'ldiruvchi pozitsiyasidagi tushum kelishigi shaklining (tushim *to'ldirg'ichi*) belgisi va belgisiz qo'llanishidagi aniqlik va noaniqlikni anglatishini yaxshi ilg'aganligi A. Nurmonov tomonidan ta'kidlangan edi. Abdurauf Fitratning *to'ldirg'ich*larni izohlashdagi ayrim e'tiborli o'rinlariga to'xtaladigan bo'lsak, "*Chog' to'ldirg'ichi*"ni tushuntirishda – *gach / kach / g'ach / qach* affiksli fe'l shaklining gapda ergash gap kesimi emas, balki hol (*to'ldirg'ich*) bo'lib kelishini uqtiradi. Bu jihatdan ham u hozirgi eng yangi qarashlarga yaqinlashadi. "*Birgalik to'ldirg'ichi*"ni izohlashda uning o'rtoqliq, qurolliq, sabablik va zamondoshlik

semantik turlarini sanab o'tadi. Bunda keyingi ikki ma'no turi to'ldirg'ichning ushbu turiga aloqasi yo'qligi ko'rinib turibdi. Sabab holini eslatuvchi nechunlik to'ldirg'ichiga keltirilgan misollar til tarixiga oiddir (*yo'zarg'a, yo'zg'ali*).

Abdurauf Fitrat gap bo'laklarini belgilar va yoritar ekan, avval ta'kidlaganimizdek o'z davridagi shu kabi asarlarga nisbatan originalroq fikrlashga harakat qilgan. Bu borada muvaffaqiyatlari ham bor, lekin Munavvar Qori, Q. Ramazon, Sh. Zunnunlar tomonidan yaratilgan asardagi ayrim sintaktik terminlar va tushunchalarning muvaffaqiyatli ishlatilganligini e'tiborga olmagan, jumladan, *gap bo'lagi* termini va uning izohi eslatilgan asarda nisbatan to'liq o'z ifodasini topgan, aniqlovchi alohida gap bo'lagi sifatida keltirilgan. Gap bo'laklari *bosh va ergash bo'laklarga* ajratilganki, bunday tasnifga hozir ham befarq bo'lmasligimiz lozim. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi maktab, oliy maktab va ilmiy adabiyotlarimizda qo'llanib kelayotgan rus tilidan tarjima qilib olingan *ikkinchi darajali bo'lak* tushunchasi o'zini mutlaqo oqlamaydi. Balki o'z oppozitsiyasiga ega bo'lmagan tushunchadir, ya'ni *ikkinchi daraja* aslida *birinchi darajaga* nisbatan belgilanishi lozim edi, qolaversa, gap bo'laklarini darajalash zarur bo'lsa, hozirgi qarashlarga ko'ra, birinchi darajali bo'lak sifatida kesimnigina belgilash lozim bo'ladi. Yuqoridagi mualliflar tomonidan gapni bosh va ergash bo'laklarga ajratishda juda katta ma'no bo'lib, bizning tushunchamizdagi ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarga bog'lanib kelishi nazarda tutilgan.

Ko'rinadiki, Abdurauf Fitrat to'ldirg'ichlar talqinida zamonasidagi ayrim ilg'or g'oyalarni e'tiborga olmagan. Shunga qaramasdan u sintaksisni o'rganishning dastlabki metodikasini yaratgan tilshunos sifatida tarix sahifasida qoladi.

Leksikografiya sohasidagi faoliyati. Abdurauf Fitrat faoliyatida o'zbek adabiyoti tarixini tizimli tadqiq etib, dastlab "Eng eski turk adabiyoti namunalari" (1927), so'ngra "O'zbek adabiyoti namunalari (1-jild)" majmualarini (1928) chop ettiradi. Olim "Eng eski turk adabiyoti namunalari" nomli majmuasida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganar ekan, asar matniga kirgan so'zlarning ma'no va mazmuniga e'tibor bergani holda ularni

o'ziga xos tarzda izohlaydi. Muallif o'z asarining uchinchi qismi haqida fikr bildirib, jumladan, shunday deydi: *“O'tkan ikki qismda ko'rganimiz manzumalarda izohka muhtoj ko'b lug'atlar bor. Ularni o'z o'rnida izoh qilish o'quvchilarni maqsaddan uzoqlashtiradir. Shuning uchun uchinchi bir qism orttirib mazkur lug'atlarni alohida izoh qilish munosib ko'rildi”*⁶².

Fitrat yuqoridagi maqsad talabidan kelib chiqqan holda o'z asaridagi o'sha davr kitobxoni uchun tushunilishi qiyin bo'lgan sof turkiycha so'zlarni ilmiy nazariya o'lchovlari asosida izohlaydi va asar uchun o'zining mukammal lug'atini yaratadi. Bu mukammallikni, avvalo, uning so'zlarni izohlash tamoyillarida kuzatamiz.

Ma'lumki, har qanday lug'at ma'lum bir tartib-qoida, ilmiy asos, nazariy prinsiplar asosida yaratiladi. Bu jihatdan o'zbek lug'atchiligi uzoq tarixiy tajriba to'plash jarayonini boshidan kechirgani aniq. Fitratning lug'at yaratish jarayonidagi ilmiy qarashlarini, nazariy prinsiplarini kuzatar ekanmiz, muallifning bu borada ham muayyan tajribaga ega ekanligiga amin bo'lamiz. Uning so'zlar izohini berishdagi birinchi e'tibor bergan tamoyili tarixiy-etimologik tamoyil. Adib *“Devonu lug'otit turk”* asaridagi turkiycha so'zlarning izohini berar ekan, dastlab izohlanayotgan so'zning etimologiyasiga o'quvchi e'tiborini qaratadi. Masalan, *“Qarshi – saroy. “Devonu lug'ot”ga ko'ra, bu so'z turkchadir. “Muqaddimatu-l-adab” ham bu so'zning mo'g'ulcha ekanini ko'rsatmaydir. Holbuki, ko'b kishilar buning mo'g'ulcha ekaniga ishonadilar... ”* (Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008. – Б. 107.)

Ko'rinadiki, muallif so'zlar izohini berishda shunchaki ma'noni izohlash bilan cheklanmagan, balki foydalanuvchi so'zning tarixiy-etimologik manbasi haqida kengroq ma'lumot olishini inobatga olgan, uning etimologiyasiga ham murojaat qilgan.

Yana bir e'tiborli jihat shundaki, bunday prinsip asosida so'zlar izohi berilayotgan paytda, ayrim o'rinlarda, izohlanayotgan so'zning ma'nosi o'sha davr jonli xalq tilidagi variantlari asosida ham

⁶² Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008.

to'ldirilgan: *"Ilarmoq – xayolg'a botmoq. Odam, ot ham boshqa hayvonlar ba'zan o'ylab ketgan kabi bo'lub, ko'zlari harakatsiz hyech narsani ko'rmay, ochiq qoladir. Mana shu holg'a "ilarmak" deyiladi. Bu kunlarda ham Farg'onaning dala o'zbeklari orasida "ot ilardi" degan gap borlig'ini Bo'lot Soliyevdan eshitkan edim"*⁶³. Yoki yana bir misolni olaylik, *"Adash – do'st, o'rtoq ma'nosida. "Adash" bu kunda ham iste'molda. Lekin "do'st" ma'nosida emas. "Hamnom" ma'nosida. Ya'ni, ot-dosh"*⁶⁴.

Ma'lumki, o'zbek tili uzoq tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Bu taraqqiyot davomida o'zbek tilining fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibida turli o'zgarish sodir bo'lgan. Muallif so'zlar izohida e'tibor bergan yana bir jihat tadrijiy taraqqiyot davomida so'zlarning tovushlar tizimida hamda morfemik tarkibida turli fonetik qonuniyat asosida sodir bo'lgan o'zgarishlarni diaxron aspektida ko'rsatib berganligi. Masalan, *"Jash – feruza toshi. Turk tilida "y" bilan "j" tovushlarining olish, berishlarini ko'zda tutub "yashil" so'zining shundan chiqqanig'a hukm etmak mumkindir..."*; *"Uzumoq – uxlamok demakdir. Usmonlichasi "uyumoqdir". "Muqaddimatu-l-adab"ning mo'g'ulchasida "uyqu" muqobilida "judu" so'zi bor. Umuman, turk tilida "a"ning "y"ga, "y"ning "j"ga aylanishini hamda "z"ning "d" bo'lushini e'tibor etkanda "judu" bilan "uzu"ning bir so'z ekani ma'lum bo'ladi"*. Shuningdek, *"Devonu lug'otit turk"* asaridagi *"qamug'"* so'zi orqali hozirgi o'zbek tilimizda keng qo'llanuvchi *"hamma"* olmoshining etimologiyasi, so'z tuzilishidagi fonetik o'zgarishlar ham qisqa, ixcham tarzda ifoda etilganligi o'quvchi diqqatini tortadi: *"Qamug' – hamma. Qamug' – qamu – hamu – hamma"*. Kuzatganimizdek, Fitrat so'zlarni izohlashda ularni sinxron aspektida tavsiflash bilan cheklanmagan, aksincha kitobxon ongida kengroq tushuncha va tasavvurlarni hosil qilish maqsadida so'zning etimologiyasini ham o'ziga xos yoritgan.

Misollardan anglashiladiki, Fitrat so'zlarning etimologiyasi asosida ularning to'g'ri izohini berishda nihoyatda ehtiyotkorlik

⁶³ Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008. – Б. 102.

⁶⁴ Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008. – Б. 104.

bilan ish tutgan, imkon qadar davrlar o'tishi bilan so'zlarning semantik tabiatida sodir bo'lgan turli o'zgarishlarni ham sinchkovlik bilan o'rgangan va o'sha davr xalq jonli tilidagi variantlarini ishonchli manbalar asosida izohlashga harakat qilgan. Bu esa muallifning so'zlar ma'nosini izohlashda ishonchi manbalarga tayanib xulosa chiqarganligidan dalolat.

Abdurauf Fitratning lug'atda so'zlar izohini berishda qo'llagan ikkinchi tamoyili – qiyosiy tamoyil. Lug'atdagi so'zlar izohini kuzatar ekanmiz, aksariyat so'zning ma'nosini izohlash jarayonida ularning usmonli turk, tatar, ozarbayjon, arab, fors tilidagi muqobillari ham keltirilib, qiyoslab o'tilgan. Xo'sh, bunga ehtiyoj bormidi? – degan savolning tug'ilishi tabiiy.

Ma'lumki, bu davrda yangi o'zbek adabiy tilining qaror topishi va takomili uchun asrlar davomida shakllangan, sodda va tushunarli xalq jonli tili bilan birga, arabiy va forsiy so'zlar, izofalar keng qo'llanilgan holda, rivojlanib kelayotgan klassik o'zbek tili, shuningdek, usmonli turk, tatar tillari ta'sirida shakllanayotgan o'sha zamonning rasmiy, badiiy-publisistik tili ham asosiy manba sifatida qaralgan edi. Ushbu lingvistik jarayonning ta'siri natijasi o'laroq o'sha davr keng kitobxonlarining manfaati muallifning bunday yo'l tutishga undaganligini tasdiqlaydi. Fikrimizning isboti sifatida misollarga murojaat qilaylik: *“Uzunmak – uyg'onmoq, usmonlichasi uyonmoq”*; *“Angitmak – hayron qolmoq. Bizda “hayron qoldim” o'rnida “Angkumang qoldim” deyilgani kabi tojiklarda ham “Angu, mang mondam”, “Angam raft” deyiladir. ”*; *“Aqrun – yovosh, sekin ma'nosida. Bu kun tatarchada bu ma'noda “Aqirin” so'zi bordir. ”*; *“Qazash – birodar, qarindosh, demakdir. Ozarbayjon tilida buning “qadash” shakli ishlatiladir. ”*; *“Yatika – arabcha “banotunnash”, forsha “haft dodaron” atalg'an “yetti yulduz”. “Devonu lug'ot”g'a ko'ra “aka” hamshira ma'nosida ekan. Shu holda buning asli “yetti aka” bo'ladir”*⁶⁵.

Fitrat *“Devonu lug'otit turk”* asaridagi turkiycha so'zlarni izohlash, ma'nosini ochib berishda dalillarni yig'ish va o'rganish, unga yondosh bo'lgan manbalarga solishtirish, qiyoslash yo'lidan

⁶⁵ Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008. – Б. 103.

boradi. Manbalarning ham o‘zaro qiyoslanishi asosida so‘zning asl ma‘nosi haqidagi javobni bevosita real voqyelikdan, ba‘zan esa, adabiy asarlarning o‘zidagi matn mazmunidan topadi. Jumladan, lug‘atdagi “*urung*”, “*ukmak*”, “*turu*”, “*kedin*”, “*sig‘tamoq*”, “*to‘nga*”, “*ardam*”, “*asiz*”, “*jalmak*” kabi bir necha so‘zning asl ma‘nosiga Yusuf Xos Hojibning “*Qutadg‘u bilig*”, Ahmad Yugnakiyning “*Hibbat ul-haqoyiq*”, Alisher Navoiyning “*Muhokamat ul-lug‘atayn*”, muallifi noma‘lum “*Abushqa*”, Mahmud Zamaxshariyning “*Muqaddimatul-adab*”, XVIII asrda yozilgan tatarcha “*Asmoil Og‘a sayohatnomasi*” hamda XIX asrda yaratilgan Sulaymon Buxoriyning “*Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy*” kabi turkiy adabiyotning noyob durdonalarida keltirilgan variantlari bilan muqoyasa qilgan holda tavsif berilgan: “*Urung – juda oq narsa. Bu so‘z ‘Hibbat ul-haqoyiq’da ham bordir. Najib Osimbek ‘Lug‘ati chig‘atoyi’ bilan birga ‘lamig‘, porloq’ deb ma‘no beradir. Mahmud Koshg‘ariyning ifodasiga ko‘ra, o‘g‘uzlarning ‘oq’ deganlari turkchada ‘o‘runk’ emish*”; “*Kedin – kezin, keyin. ‘Devonu lug‘ot’da, ‘Qutadg‘u bilig’ bilan ‘Hibbat ul-haqoyiq’da buning (kedin, kekzin) ikki shakliga ham ko‘p uchramoq mumkindir. XVIII asrlarda yozilg‘an tatarcha ‘Asmoil Og‘a sayohatnomasi’da ham bu so‘zlarning ‘kezin-kazin’ shakli bordir*”⁶⁶.

Muallifning lug‘atda turkiycha so‘zlarning morfologik tarkibi, morfemik yasaliş xususiyatlariga to‘xtalganligi uning morfologik tamoyilga ham tayanganligini belgilaydi. Alifbo tartibida so‘zlar izohlangan mazkur lug‘atda “*Devonu lug‘otit turk*” asarida qo‘llangan turkiycha so‘zlarning ma‘nosiga izoh berilishi bilan birga, aksariyat so‘zlarning yasaliş asosi, yasovchi vosita (qo‘shimcha)lari hamda yasalma so‘zning yuzaga kelish o‘rinlari haqida ham ma‘lumotlar berilgan. Masalan, “*Yumutmoq – jam‘ etmak, yig‘moq. ‘Ko‘z yummoq’dag‘i ‘yummoq’ so‘zida ‘jam‘ etmak’ ma‘nosi bordir. Bu ‘yumutmoq’ ham shu tomirdandir. ‘Yumruq’ ham shundandir. ‘Devonu lug‘ot’da ‘hammasi’ ma‘nosida ‘yumg‘i’ so‘zi ham bordirkim, shu tomirdandir*”;

⁶⁶ Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008. – Б. 110.

*“Tabaru – taba+ru, yuqoru, teshqori so‘zlarining oxiridagi ‘-r,-uri’ kabi “taba – tomon, taraf demakdir”; “Azin – Azirmoq – ayirmoqning tomiri bo‘lg‘an “az – ay”dan yasalg‘an; “ayrim – o‘zga, boshqa demakdir”; “Kislinmak – kis + il + in + mak. “o‘z-o‘zidan kesilmak” ma‘nosidadir”*⁶⁷. Shuningdek, lug‘atda har bir so‘zga alohida grammatik mezon bilan yondashilganki, muallif tomonidan berilgan ma‘lumotdan o‘quvchi so‘zning grammatik ma‘nosi, ya‘ni fe‘l bo‘lsa, nisbati, zamoni, sifat-dosh, ravish-dosh yoxud harakat nomi ekanligi haqida; ot bo‘lsa, soni (birlikda yo ko‘plikdaligi), ma‘no guruhi haqida; sifat bo‘lsa, kuchaytirma yoxud ozaytirma shakli ekanini bilib oladi. Bundan tashqari, so‘zlar izohidagi ba‘zi o‘rinlarda muallif tavsiflanayotgan so‘zning morfologik tuzilishi haqida kengroq ma‘lumot berish maqsadida izohlanayotgan so‘zga aloqador bo‘lgan asos-dosh (o‘zak-dosh) so‘zlarning barchasini keltiradi va morfologik tabiati haqida mukammal ma‘lumot berib o‘tadi: *“Yaqishmoq – yaqinlashmoq demakdir. “Yaq”, “yaqin”, “yaqlashmoq”, “yaqinlashmak”, “yaqa” so‘zlari buning bilan tomirdoshdir”; “Kuk – maqom, nag‘ma, kuy. Navoiy buni “nag‘ma” o‘rnida ishlatadi. Bu so‘zdan fe‘l shakllari ham yasalar ekan. Mir Haydardan:*

Turk surudini tuzuk birla tuz

*Yaxshi ayolg‘u bila **kukla** qo‘buz...*

*Fikrimcha, bu bizdagi “kuy” so‘zining xuddi o‘zidir. “Kuy” so‘zidan ham fe‘llar yasaladir. “Kuyladim”, “kuylamak” kabi...”*⁶⁸.

Bunday ilmiy izlanishlar, chuqur nazariy tahlillar muayyan maqsad sari yo‘naltirilganligi aniq. Zotan, XX asrning 20-yillarida o‘zbek tilining ilmiy grammatikasini tuzish o‘zbek tilshunoslari oldida turgan asosiy muammodan biri bo‘lgan. Shu munosabat bilan Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari ilk bor o‘zbek tilini ilmiy asosda o‘rganishga kirishadi. Ular til qoidalarini milliy tilimizning ichki xususiyati asosida yoritish kerakligini tushunib yetganligi bois, tarixiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, shevalar asosida material to‘plab, ularni ilmiy jihatdan o‘rgana

⁶⁷ Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008. – Б. 112.

⁶⁸ Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008. – Б. 111.

boshlaydi. Bu yoʻlda dastlab unutilgan turkiy soʻzlarni tiklashga harakat qilishadi. Bu faoliyat aslida oʻzbek tili soʻz xazinasini boyitish, tilni ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish, milliy adabiy til yaratish yoʻlidagi birinchi ijobiy urinish edi. Abdurauf Fitratning ham “Devonu lugʻotit turk” asaridagi sof turkiycha soʻzlarni bunday mukammal tarzda izohlashdan koʻzlagan asosiy maqsadi, birinchidan, asar mazmunining tushunarliqligini taʼminlash boʻlsa, ikkinchidan, sof turkiycha soʻzlarni keng xalq ommasiga yoyish, adabiy tildagi arabcha, forsha, usmonli turkcha va ruscha soʻzlarni “Devon”dagi sof turkiycha muqobillari bilan almashtirish boʻyicha ilm ahlidan bu borada fikr olish, umuman, unutilgan turkiycha soʻzlarni tiklashga boʻlgan harakat ifodasi edi.

Fitrat ijodini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan oʻrgangan professor Hamidulla Boltaboyev Abdurauf Fitratning ikkinchi bir nodir asari “Oʻzbek adabiyoti namunalari” nomli majmuasi haqida fikr bildirar ekan, muallif mazkur asarida ham turkiy adabiyotning goʻzal namunalarini jamlaganligini va shuning barobarida turkiy tilning nodir soʻz boyliklari izohini mohirona tadqiq va oʻquvchiga taqdim qilganligini alohida taʼkidlab, “muallifning majmualarida oʻz davri matnshunosligi va manbashunosligining, lugʻatshunosligining oʻziga xos jihatlari aks etgan”, – deya haqli ravishda eʼtirof etadi⁶⁹.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Fitratning leksikografik izlanishlari bu borada oʻsha davrdagi mavjud anʼanalardan farqlanib, lugʻatshunoslik sohasining yangi bosqichida eng qadimgi turkiy adabiyot asarlari tilini oʻrganishdagi ilk oʻziga xos ilmiy tadqiqotdir. Umumiy hisoblaganda jami 126 ta sof turkiycha soʻz izohlangan bu lugʻat, oʻz navbatida, etimologik lugʻat, qiyosiy-tarixiy lugʻat, morfemik lugʻat, oʻzbekcha-forsha-arabcha tarjima lugʻat, qolaversa, izohli lugʻat belgilarini ham oʻzida aks ettirganki, bu holat serqirra ijod sohibi Abdurauf Fitrat shaxsiyatini lugʻatshunos jadid adibi sifatida yana bir pogʻona yuqoriga koʻtarishi shubhasiz.

⁶⁹ Болтабоев Х. Матншунос олимнинг илк мажмуа-қўлланмаси. Фитратнинг “Энг эски турк адабиёти намуналари” асарининг янги нашрига сўзбоши. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2013. – Б. 3.

Savol va topshiriqlar:

1. Abdurauf Fitratning fonetika-fonologiya, imlo, grafika sohasida olib borgan izlanishlari o'zbek tishunosligi rivojida qanday ahamiyatga ega bo'lganligini izohlang.

2. Abdurauf Fitratning o'zbek tilining zamonaviy ilmiy grammatikasi shakllanishidagi xizmatlariga baho bering.

3. Mazkur davrda Abdurauf Fitrat pantukizm, purizm masalalariga qanday munosabatda bo'lgan?

4. Abdurauf Fitratning zamonaviy o'zbek lug'atchiligi taraqqiyotidagi o'rniga tavsif bering.

Adabiyotlar:

1. Абдурауф Фитрат. Сарф. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1927.

2. Абдурауф Фитрат. Наҳф. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1927. -Б. 27.

3. Маҳмудов Н. , Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

4. Болтабоев Ҳ. Профессор Фитратнинг назарий қўлланмаси // Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент, 1995.

5. Тўйчибоев Б. Фитрат – тилшунос. – Тошкент, 1995.

6. Мунаввар Қори. , Қайюм Рамазон. , Шорасул Зуннун. Ўзбекча тил сабоқлиғи. – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1926.

3. 5. MASHRIQ YUNUS O‘G‘LI ELBEK

Tayanch so‘z va iboralar: *“go‘zal yozg‘ichlar”, cho‘zg‘i, tovushliq, tomomlig‘, termin, istiloh, atama, lug‘at-grammatika, omoifoda, illyustrativ material, maxsus lug‘at.*

Taraqqiyparvar o‘zbek ziyolilari – jadidlarning ona tili mavqeyini ko‘tarish, mumtoz o‘zbek adabiy tilini xalqqa yaqinlashtirish, zamonaviy yozma tilni shakllantirish borasidagi faoliyatlari bilan tanishar ekanmiz, ularning bu harakatlari barobarida o‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi va rivojlanishiga ham munosib hissa qo‘shganliklari diqqatga sazovor. Bu ishlarda Elbekning xizmatlarini ham alohida ta’kidlash lozim. Zamonasining ilg‘or ziyolilari qatorida bo‘lgan Elbek xalq milliy ongining va umummadaniy darajasining yuksalishi yot (o‘zlashma) so‘zlardan xoli, keng omma uchun tushunarli bo‘lgan adabiy tilni shakllantirish bilan uzviy bog‘liq ekanini chuqur fahmlab, matbuotda amaldagi o‘zbek yozma tilini, to‘g‘rirog‘i, yozuvni isloh etish g‘oyasini izchil targ‘ib qildi, ona tili (o‘zbek tili)ni taraqqiy ettirish va uni mukammal egallash masalasiga o‘zlikni anglashning, millat ma’naviy kamolotining eng muhim omili sifatida e’tibor qaratdi.

Mashriq Yunus o‘g‘li Elbek 1898-yil Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanidagi Xumson qishlog‘ida tug‘ilib o‘sdi. O‘sha yerda eski maktabda saboq olib (1905-1909-yillar), ma’lum vaqt dehqonchilik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgach, 1911-yil oiladagi iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli Toshkent shahriga kelib kun kechira boshladi. Abdulla Avloniy, Munavvar Qori kabi ma’rifatparvarlar tomonidan tashkil etilgan “usuli jadid” maktabi ko‘pgina bolalar qatori Mashriqni ham o‘z quchog‘iga oldi. Yoshligidan adabiyotiga havasmand bo‘lgan Mashriq xalq og‘zaki ijodi namunalaridan parchalarni yod bilar, she’r yozishni mashq qilar, iqtidori va qobiliyati bilan o‘z tengdoshlaridan ajralib turadi.

1918-yildagi Fitratning Toshkentga tashrifi o‘qituvchilik kasbini tanlagan Mashriq hayotida katta o‘zgarishlar yasadi. Xalqni savodsizlikdan qutqarib, ma’rifatga yetishtirish uchun harf va imloni isloh qilish, o‘zbek tilining qat’iy qonun-qoidalarini ishlab chiqish, o‘zbek adabiy tilini rivojlantirish kabi oliy maqsadlarni amalga

oshirish niyatida Fitrat tomonidan tashkil etilgan “Chig‘atoy gurungi” to‘garagida o‘zining ilmiy faoliyatini boshlab yubordi.

Mashriq dastlab matbuotda bosilgan she‘r va maqolalarini “Chig‘atoy gurungi” taxallusi bilan e‘lon qilgan bo‘lsa, 1919-yil “O‘ksuz” nomli she‘ridan boshlab (Ishtirokiyun, oktyabr) ustoz Fitrat tanlab bergan Elbek tahallusini qo‘llay boshlaydi. Bizga ma‘lumki, o‘tmish ajdodlarimizning ko‘pchiligi arab va fors so‘zlaridan tahallus tanlashgan. Til sofliги uchun kurashgan “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari esa bu an‘anadan voz kechib, sof turkiy so‘zlardan tahallus tanlay boshlaydilar. Masalan, yuksak bilim va iqtidorga ega bo‘lgan Fitrat guruh a‘zolariga Botu, O‘ktam, Elxon, Elchi, Chig‘atoy, O‘g‘uz, O‘ktoy, Eltuzar, Jig‘oy, Yildirim kabi jasurlik, qahramonlik bobida dong taratgan ajdodlarimiz nomlari asosida taxallus tanlab bergan.

20-30-yillar o‘zbek ziyolilari gardanida g‘oyat mas‘uliyatli vazifalar turar edi. Shuning uchun ular tor doirada cheklanib qolmasdan, o‘z ijodiy faoliyatlarini keng qamrovda olib bordilar, o‘zbek madaniyatini rivojlantirish, yuksaltirish uchun qo‘llaridan kelgancha xizmat qildilar. Elbek ham ko‘p qirrali ijodkorlardan biri edi. U 20-yillar “Chig‘atoy gurungi” to‘garagidagi faoliyati davomida o‘z she‘rlarini to‘plab kitob holida nashr ettirdi, xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plab bostirdi, “Chig‘atoy gurungi” tarkibidagi “Imlo to‘dasi”(1920-yil) guruhida til va imlo masalasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borib, “Til”, “Alifbo masalasi”, “Imlo masalasi” kabi maqolalarini e‘lon qildi.

Bu davrda maktablarda o‘quv ishlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, darsliklar juda kam edi. Shuning uchun 20-30-yillar davomida Elbek o‘quv qo‘llanmalari tuzish ishlari bilan band bo‘ldi. Bu davrda yaratilgan darsliklarga nazar solsak, ularning asosiy qismi Elbek qalamiga mansub ekanligini ko‘ramiz. Masalan, “O‘rnak” “Bilim” “O‘zbekcha o‘qish” kabi bir necha qismdan iborat o‘qish kitoblari, “Yozuv yo‘llari” nomli imloga oid hamda “Boshlang‘ich maktabda ona tili” nomli metodik qo‘llanmasi, “Go‘zal yozg‘ichlar” nomli she‘riy majmua asrlari fikrimiz dalilidir.

Tilshunoslik Elbek faoliyatining asosiy sohalaridan biri bo‘lsada, u Fitrat, Qayum Ramazonlar kabi oliy o‘quv yurtlariga borib til doirasida bilim va tajriba orttirishga imkon topa olmadi.

Elbek yoshligidan til va imlo masalalariga juda qiziqqanligi uchun (yozuvchilar soyuzi plenumida soʻzlagan nutqida “eskidan mening muhabbatim til sohasida edi” deb aytgan edi) mustaqil ravishda izlanadi. Oʻsha davrda yaratilgan qozoq, tatar, turk tili grammatikalarini oʻrganadi, “Ong”, “Ulfat”, “Oyna” kabi tatar tilidagi jurnallar orqali turkiy til muammolariga bagʻishlab yozilgan ilmiy maqolalar bilan yaqindan tanishadi. Shu asosda egallagan bilim va tajribalariga tayanib, til muammolariga oid oʻz fikr mulohazalari ifodalangan bir qancha maqolalarini eʼlon qiladi.

Elbek alifbo islohotlarida ham oʻzining mustaqil fikrlari bilan faol qatnashib, ularni targʻib qilishda gʻoyat katta rol oʻynadi. Masalan, 1926-yil Yangi alifbe markaziy qoʻmitasida kotiblik vazifasida ishlagan vaqtida Shokirjon Rahimiy bilan birgalikda qoʻmitaning ish rejalarini ishlab chiqqan, orfografiya va terminologiyaga oid materiallar tayyorlagan.

Elbekning ilmiy faoliyatida lugʻatshunoslik alohida oʻrin tutadi. Olim oʻz lugʻatchilik faoliyatini “Chigʻatoy gurunigi” toʻgaragida xalq ogʻzaki ijodida namunalarini toʻplab, ularning til xususiyatlarini oʻrganish bilan boshlagan boʻlsa, keyinchalik lugʻat va atamalar ustidagi (1924-yil) izlanishlari davomida bu sohaga chuqurroq kirib boradi. 1934-1935 yillarda “Oʻzbekcha shakldosh soʻzlar lugʻati”, “Oʻzbekcha maʼnodosh soʻzlar lugʻati” hamda “Oʻzbek toʻla soʻzligiga materiallar” nomli xalq dostonlari tiliga oid lugʻatlarini tuzib, nashrga tayyorladi.

Elbek lugʻat tuzish borasida koʻpgina maqsadlarni oldiga qoʻygan edi. Biroq 30-yillardan boshlab oʻzbek ziyolilariga qarshi boshlangan tazyiqlar ularning faoliyatini bugʻa boshladi, hattoki ayrim nashrga tayyorlab qoʻyilgan (masalan, Elbekning “Maʼnodosh soʻzlar lugʻati” kabi) asarlarini turli mafkuraviy ayblar bilan nashr etilishiga yoʻl qoʻyilmadi. Ana shunday sabablar tufayli, Oʻzbekiston Til va Adabiyot ilmiy tekshirish institutiga katta maqsadlar bilan ishga kirgan Elbek, 7 oy ichida uni tark etib keyingi faoliyatini, asosan, badiiy ijod, tarjimonlik ishlariga bagʻishladi. 1937-yilda xalq dushmani deya qoʻlga olingan Elbek 1942-yil surgunda oʻpka shamollashidan vafot etdi. Oʻzining qisqagina umri davomida badiiy adabiyotda soʻz qoʻllash, uslub yaratish borasida milliylikni doimo olgʻa surib, oʻzbek adabiy tilining yuksaluvda

ijobiy rol o'ynagan Elbekning tilshunoslik merosini o'rganish muhimdir. Bu orqali o'zbek tilshunosligining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari borasida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

O'zbek tili ilmiy grammatikasini yaratish borasidagi faoliyati. XIX asrning 50-yillaridan boshlab ma'naviy uyg'onish sari yuz tutgan turkiy millat ma'rifatparvarlari millatning ko'zgusi, taraqqiyot omili bo'lgan til masalasiga jiddiy e'tibor qarata boshladilar. Matbuotning yuzaga kelishi, nashr ishlarining avj olishi, maktab va maorifga e'tiborning ortishi natijasida imlo masalasi birinchi oringa chiqdi. Ma'rifatparvarlarning dunyoviy ilmu fan va madaniyat sari intilishlari tilni ilmiy asosda o'rganishni kun tartibiga qo'ydi. Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" a'zolari ilk bor o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga kirishdilar. Ular til qoidalarini rus yoki arab tili grammatikasi asosida emas, balki shu tilning ichki xususiyatlari asosida yoritish kerakligini tushunib yetganligi sababli tarixiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, shevalar asosida materiallar to'plab, ularni ilmiy jihatdan o'rgana boshladilar. Natijada matbuot sahifalarida Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnunlarning o'zbek tili tovushlari, unlilar, singarmonizm masalalaridan bahs etuvchi maqolalari ko'rina boshladi. Bular sho'ro davridagi o'zbek tilshunosligiga bag'ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar edi.

Fitrat, Qayum Ramazon hammuallifligida tuzilgan "Bitim yo'llari" (1919) o'zbek tili nazariy masalalari yoritilgan eng birinchi qo'llanma bo'lib, u keyingi tarkib va mazmun jihatdan mukammal bo'lgan til saboqliklarining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Til sohasida o'zining faoliyatini boshlab yuborgan Elbekning birinchi "Yozuv yo'llari" nomli imlo asari ham "Bitim yo'llari" zamirida yaratilgan. Elbek bu asarida ko'proq imlo masalalariga e'tibor bergan.

"Chig'atoy gurungi" a'zolari o'z faoliyatlari davomida o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlar, o'z va o'zlashgan so'zlar imlosi, yo'g'onlik va ingichkalik qonuniyatlari masalalari ustida izlanishlar olib bordilar. 1921-yilda Elbek ta'rifi bilan aytganda *"yolg'uzgina bir uymoqning o'ziga tegishli sanalgan imlosida o'qib yozishlari hamda shu imlo va tilni yalpi shu xalqning o'ziga qabul ettirish"* (Элбек. Имло ва тил қурултойининг чақирилиши олдидан //

Иштрокиюн. 1920 йил 18 сентябр) maqsadida o'tkazilgan Til va imlo qurultoyida harf va imlo qoidalari borasida ko'pchilik tilshunos olimlarning kengashi bilan yangi qarorlar qabul qilindi. Qurultoy qarorlarini amalga oshirish uchun tuzilgan komissiyaning raisi Elbek yangi imloni maktablarda tezlik bilan joriy etish maqsadida "Yozuv yo'llari" saboqligini tuzib tarqatdi. Bu asar 20-yillarda imlo turliligiga chek qo'yish, qat'iy yozuv qoidasini o'rnatishda g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi.

"Bitim yo'llari"ga hamohang tuzilgan Elbekning bu qo'llanmasi quyidagi jihatlari bilan undan farq qilardi:

"Bitim yo'llari" o'qituvchilarga qo'llanma sifatida yaratilgan bo'lsa, Elbekning "Yozuv yo'llari" maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangandi. Ushbu asarda o'sha davrda turk va tatar saboqliklarida an'anaga aylangan o'tilgan mavzularga oid savollar qismi ham o'rin olgan;

"Bitim yo'llari"da so'z turkumlari, otlarda birlik va ko'plik kabi masalalar ham yoritilgan. Elbek qo'llanmasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lganligi uchun uni imlo qoidalari aks etgan saboqlik tarzida tuzadi, shu sababli "Bitim yo'llari"dagi kabi grammatikaga oid nazariy masalalarga to'xtalmagan;

Elbek "Yozuv yo'llari"ni 1921-yilgi qurultoy xulosalariga muvofiqlab tuzganligi uchun unda "Bitim yo'llari"dagi kabi "Yot harflar", "Arabcha otlar" kabi arabiy so'zlar imlosiga bag'ishlangan mavzular yo'q;

"Yozuv yo'llari"da qoidalar, izohlar birmuncha mukammal ishlangan. Ularda ilmiylik ko'zga yaqqol tashlanadi. Masalan, "Bitim yo'llari"da unli tovushlarga shunday ta'rif berilgan: *"Bor" deganda yana ikki turli tovush chiqaramiz: boshda dudoqlarimizni yopishturamiz, so'ngra tilimizning uchini o'ynatamiz. Bu ikki turli tovushning suratlari "b" va "r" harflaridir. Lekin bu ikki xarfning orasida shu "o" shakl bordir. Shu shakl bo'lmog'onda "b" harfini "r" harfig'a yopishturub "bir" der edik. Bu yerda "o" shaklini ko'rgach "b" harfini "r" ga yopishtirmasdan burun ustga cho'zamiz. Demak, "o" shakli o'zidan oldin kelgan harfni ustka cho'zdura ekan. Buning odi "cho'zgi harfi"dir⁷⁰.*

⁷⁰ Чигатой гурунги. Битим йўллари. — Тошкент, 1919. — 32 б.

Tovushlar borasida yaxshigina izlanishlar olib borgan Elbek o‘zining mustaqil ilmiy xulosalariga tayangan holda unlilarga keng va aniq ta’rif bergan: *“Qul”, “qol”, “kel” deganimizda birinchi “qul” so‘zidagi “q” tovushliqining ilgariga cho‘zilg‘onlig‘in, “qol” deganimizda “q” tovushlig‘ining ustga cho‘zilg‘onlig‘in hamda “kel” deganimizda “kel” so‘zidagi “k” tovishlig‘ining ostig‘a cho‘zilg‘onlig‘in ko‘ramiz. Mana shunday tovushliqlarning o‘z aytilishidagi tovushlaridan ortiqroq tovush bildirishiga sabab bo‘lgan tovushliqlarg‘a “tovushliq cho‘zg‘ulari” yohud yolg‘uzcha “cho‘zg‘i” deb aytiladir. Cho‘zg‘ilarning cho‘zilishda o‘zlariga tegishli aptlari bo‘lsa-da, o‘qulishda tovishlarin saqlayolmaydilar. Yolg‘uz o‘zlaridan burun kelgan tovishliqlarning chiqorg‘on tovishlarig‘a qo‘shulub, ularga ko‘mak beribgina turadilar”*⁷¹.

“Bitim yo‘llari”da *“atf sig‘asi”, “odot”* kabi arabcha grammatik terminlar qo‘llanilgan (ushbu terminlar Mahmud Koshg‘ariyning *“Devonu lug‘otit turk”* asarida ham ishlatilganligi ma’lum). Elbek o‘z asarida bularning o‘zbekchalarini topib ishlatishga harakat qiladi. Masalan, *“odot”* o‘rnida *“qo‘shimcha”* terminini qo‘llaydi. “Bitim yo‘llari”dagi *“tovush harfi”*ni ixchamlashtirib *“tovushliq”* tarzida ishlatadi. Elbek shu asosda saboqlikni soddalashtiradi.

1921-yil Til va imlo qurultoyida zarur qarorlar qabul qilingach, harf, imlo masalalari sekin asta izga tusha boshlaydi. Tilshunoslar oldida turgan asosiy muammolardan biri o‘zbek tilining ilmiy grammatikasini yaratish edi. Elbek ilmiy hay’atda ishlab yurgan chog‘larida maktab o‘quvchilari uchun turli fanlarga oid o‘quv qo‘llanmalarini tuzdirib, ularni nashr ettirish ishi bilan mashg‘ul bo‘ladi. Darsliklar tuzishga kirishgan mualliflar ilmiy atamalar borasida ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishar, turli munozaralar avjiga chiqar edi. Bunga sabab mavjud atamalarning arab, fors, rus tiliga oidligi, o‘zbekcha atamalarning hali shakllanmaganligi edi. Elbek bu qiyinchilikni bartaraf etish maqsadida 1923-yildan boshlab iqtisodiyot, riyozat, kimyo, adabiyot, tibbiyot, tilshunoslik sohalariga oid atamalar ustida izlanishlar olib bordi. O‘zbek ilmiy

⁷¹ Элбек. Ёзув йўллари. –Тошкент: Туркистон жумхуриятининг давлат нашриёти, 1921. – 30 б.

terminologiyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Olim forscha, arabcha terminlar o'rnida turkiy muqobil atamalarni to'plab, uni "Lug'at va atamalar" nomi bilan matbuotda chop etdi. Elbek mazkur asarida quyidagi lingvistik terminlarni iste'molga kiritishni taklif qiladi:

Terminlarning Elbek taklif qilgan turkiycha muqobili	O'sha davrda amalda bo'lgan o'zlashma terminlar
o'zak	modai asli
negiz	asos
belgi	alamat
qo'shimcha	odot
son	adad
olmosh	zamir
ishlik	fe'l
atama	istiloh
so'ylam	jumla
kesim	hukm
turtki	nuqta
yoy	qavs
so'rog'	savol
apt	shakl
bichim	forma

Elbek bu terminlarning ko'pchiligini turkiy tillardan olib, ma'qul bo'lganlarni o'zbek tilida ham qo'llashni taklif qilib chiqqan.

20-30-yillar matbuotini sinchiklab ko'zdan kechirganimizda, til masalalariga bag'ishlangan maqolalarining asosiy qismi Elbek qalamiga mansubligi ko'rinadi. Tilshunos bu maqolalarida tilning nazariy masalalari haqida fikr yuritir ekan, zarur o'rinlarda turli lingvistik terminlarni qo'llaydiki, ularning ko'pchiligi o'quvchilarimizga notanishdir. Garchi Elbek Fitrat, Q. Ramazon kabi o'zbek tili grammatikasiga oid asarlar e'lon qilmagan bo'lsa-da, o'zbekcha lisoniy atamalar tizimining shakllanishida alohida xizmatlari bor. Masalan, *cho'zg'i*, *tovushliq*, *ust*, *ost*, *o'tru*,

qo'shimcha, yolg'ov, jirnoq, tirkalgich, atama, imloq, ishoti (harakat nomi), kesim kabilar Elbek tomonidan ilk marotaba lingvistik terminlarlar sifatida qo'llangan. Demak, yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Elbek atama tanlashda uchta asosiy tamoyilga amal qilgan: 1. Atamalarni sof turkiy so'zlardan tanlashga harakat qilgan; 2. Ularning sodda, aniq va tushunarli bo'lishiga harakat qilgan; 3. Tanlangan terminlar til hodisasining mohiyatiga to'la mos kelishini e'tiborga olgan. Shu sababli Elbek iste'molga kiritgan atamalarning ko'pchiligi hozirga qadar tilshunosligimizda istisnosiz ishlatib kelinmoqda.

Umuman olganda, 20-yillarda tilshunoslar o'zbek tilining nazariy grammatikasini tuzishga kirishdilar. Elbekning "Yozuv yo'llari" saboqligi imlo masalasiga bag'ishlangan bo'lib, u bu bosqichdagi dastlabki qadamlardan biri bo'ldi. Elbek va uning hammaslamlari o'zbek tilining qonun-qoidalarini arab yoki rus tili grammatikasi asosida emas, balki shu tilning ichki xususiyatlari asosida yoritish kerakligini tushundilar.

Lug'atchilik faoliyati. "Chig'atoy gurungi" to'garagi 20-yillarda ba'zi sabablarga ko'ra rasman yopib qo'yilgan bo'lsa-da, tilni soddalashtirish, xalq anglashi qiyin bo'lgan fors, arab, rus so'zlarining sof turkiy muqobillarini izlab topib muomalaga kiritish, yangi so'zlar ijod qilish va shu asosda tilni rivojlantirish uchun izchil kurash olib bordilar. Til sofligini saqlash uchun boshlangan bu harakatlarning tashabbuskori Fitrat bo'lsa, Elbek uning yonida zo'r g'ayrat bilan faoliyat ko'rsatdi. Elbekning qaysi bir asarini olib qaramaylik, til masalasiga juda jiddiy e'tibor berganligini ko'ramiz. Chunki Elbek tilning fan va madaniyat taraqqiyotida ahamiyatli ekanligini ba'zi bir zamondoshlaridan ko'ra ko'proq anglab yetgan, shu sabab o'z faoliyatining asosiy qismini o'zbek tilining lug'at boyligini o'rganishga bag'ishladi. O'lkamizda matbuotning rivojlanishi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojiga katta ta'sir qildi. Yangi ilm-fan va texnikaning kirib kelishi ziyolilar gardaniga ularni o'zlashtirish va xalqqa yetkazish kabi mas'uliyatli vazifalarni yukladi. Tilshunoslar oldida yangi o'quv darsliklarini tuzish uchun ilmiy, fanniy, siyosiy terminlar yaratish, ularni adabiy tilga o'zlashtirish kabi muhim vazifalar turar edi. Ana shu mas'uliyatlarni his etgan Elbek o'zining bor imkoniyati, iqtidori,

salohiyatini ishga solib, lug‘at to‘plashga kirishdi. U “Chig‘atoy gurungi” a‘zolarining yot so‘zlarni yoppasiga turkiylashtirish harakatlari natijasida yuzaga kelgan nuqsonlar va chalkashliklarga barham berish, ularni mubohasalar yordamida ilmiy hal qilish maqsadida 20-yillar davomida muomalaga kiritila boshlagan sof turkiy so‘zlarni hamda o‘z izlanishlari davomida to‘plagan lug‘at va atamalarni jamlab fikr olish uchun matbuotda quyidagi tartibda e‘lon qila boshladi:

<i>Turkiy</i>	<i>O‘zga</i>
<i>tegra-to‘g‘arak</i>	<i>doira</i>
<i>avay</i>	<i>ehtiyot</i>
<i>yut</i>	<i>qahat</i>
<i>boshqarma</i>	<i>idora</i>
<i>buyurma</i>	<i>hukumat</i>
<i>bosqoq</i>	<i>noyib</i>
<i>yozoq</i>	<i>maktab</i>

Shu asosda 550 ta turkiy so‘z o‘zining muqobillari bilan gazetaning o‘nta sonida (1923-yil 5-sentyabrdan 21-noyabrgacha) “Lug‘at va atamalar” bobi nomida berib boriladi (Элбек. Луғат ва атамалар // “Туркистон” газетаси. – Тошкент, 1923 йил. №3, 5, 8, 10, 19, 21, 28). Elbekning bu lug‘at va atamalarni matbuotda e‘lon qilishdan asosiy maqsadi quyidagilardan iborat edi:

1. Arab, fors va rus tillaridan kirib kelgan o‘zlashma so‘z va terminlarga o‘zbekcha muqobil topish, ularning qo‘llanilishini ta‘minlash, matbuot ahllarini ana shunday hodisa va tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ma‘nosi bilan yaqindan tanishtirish. Masalan, 20-yillarda keng iste‘molda bo‘lgan *mamnu’*, *ixtilol*, *muhtoriyat*, *ittihod* kabi arabcha so‘zlarning oddiy xalq uchun tushunarli bo‘lgan *qatag‘on*, *qo‘zg‘olon*, *erkinlik*, *birikma* kabi muqobillari bor. Bu so‘zlar arabcha muqobillarining ma‘nolarini o‘zlarida to‘la ifoda eta olarkan, ularni keng iste‘mol doirasiga kiritish, yot so‘zlarni esa muomaladan chiqarish zarurligini uqtiradi. Yo‘lboshlovchi ma‘nosini anglatuvchi arabcha *dalil* o‘rnida ilgari turkiy xalqlar *qulag‘ur* (yoki *qulag‘uz*) so‘zini ishlatganlar. Elbek til sofligini saqlash uchun unutilgan mana shunday turkiy so‘zlarning qayta iste‘molga kiritilishini lozim topadi;

2. Matbuot sahifalarida ba'zi arabcha, forsha, ruscha so'zlar o'rnida noto'g'ri tanlangan turkiy so'zlar qo'llanilayotgan edi. Chunochi, 20-yillarda *inqilob* o'rnida turkiycha *o'zgarish* so'zi ishlatilgan. Elbek bu so'zning shu ma'noda qo'llanilishiga qarshi chiqadi. Sababi *o'zgarish* – *tag'yir* so'zining tarjimasi bo'lib, inqilob ma'nosini bermaydi. Olim *inqilob* o'rnida *to'ntarish* so'zini qabul qilish yaxshiroq degan xulosaga keladi;

3. O'lkada chiqayotgan turli gazeta, jurnal, risolalarda bir o'rinda bir necha turli so'z va atamalar ishlatilardi. Ana shu so'z va atamalarni tartibga tushirish, ularning tildagi qat'iy o'rnini belgilash lozim edi. Masalan, o'sha davr matbuotida *qasaba* (arabcha kichik shahar degani) va *bo'lis* (*volost* ya'ni katta qishloq ma'nosida) so'zlari bir-birlarining o'rnida aralash ishlatilgan. Elbek bunday so'zlar o'rnida azaldan qo'llanilib kelayotgan *kent* so'zini qayta tiklashni taklif qiladi. Chunki *kent qasaba*, *bo'lis* so'zlarining ma'nolarini bemalol ifodalay oladi. O'sha vaqtda yaratilgan maktab darsliklarida mualliflar tomonidan turli xil terminlar qo'llanilgan. Masalan, arabcha *zuli'* so'zi *tomon* ma'nosini anglati-da, Toshkentda bu o'rinda *qobirg'a* so'zi qo'llangan. *Musallas* o'rnida Farg'ona vodiysida *uchburchak*, Toshkentda *uchlik* terminlari ishlatilgan. Elbek bunday har xillikni bartaraf etish maqsadida har bir tushuncha uchun qat'iy bir termin belgilashni yoqlab chiqadi;

4. Elbekning matbuot sahifasida lug'at va atamalar burchagini ochishda aosiy maqsadi, "Chig'atoy gurungi" tomonidan qo'llanila boshlagan sof turkiy so'zlarni keng xalq ommasiga yoyish, shu masalada bosh qotirayotgan ilm ahliga ularni havola etish, bu borada fikr olish, noto'g'ri qo'llanayotgan turkiy muqobillarni bahs, munozaralar bilan ilmiy hal etish edi. Shu asosda Elbek tilimizning ishlanishiga yo'l ochib, ba'zi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etdi.

Turkiston gazetasida Elbekning "Lug'at va atamalar"i e'lon qilingach, "Inqilob" hamda "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnallarida yana "Lug'at va atamalar" nomidagi maqolasi bosilib chiqadi. Lug'atshunos so'z boshida bunga shunday izoh beradi: "Men, shunda shul tanqiddan o'tgan lug'at va atamalarg'a bo'lg'onicha dalil va sanadlar keltirib o'tmakchi bo'ldim, bundan tilak esa ilmiy tekshirish bo'lub, tumanli ko'rungan lug'at va atamalarni ochuq anglash va taarruz etmakchi bo'lg'on o'rtoqlarg'a masalani yanada

ochiqroq tushuntirishdir” (Элбек. Луғат ва атамалар // Инқилоб. 1924 йил. -№ 13, 14). Elbekning bu lugʻatida 97 ta turkiy soʻz Mahmud Koshgʻariy, Soʻfi Olloyor, Abulgʻozi Bahodirxon, Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih asarlari va baʼzi bir dostonlardan keltirilgan misollar bilan izohlanadi. Masalan: *Xonboliq: “poytaxt” demakdir.*

Misol: *Ultonxon oʻttuz ming kishini qidirib, xonboliq bordi.*

Har kim xonboliqda Podsho boʻlsa Ulton derlar...

“Shajarayi turk”

Tilchi: “josus” demakdir.

Misol: *Oʻrislar tilchici anda bor edi,*

Kelibon jondir olgʻa aytur erdi...

“Mulla Husayn Shayx... ”

Elbekning 97 soʻzdan iborat izohli lugʻati shunisi bilan ahamiyatliki, unda har bir soʻz maʼnosi manbalar asosida misollar bilan tushuntirib berilgan. Bu bilan u oʻzining 20-yillarda til tarixi bilan jiddiy shugʻullangan yetuk tadqiqotchi ekanligini namoyon qiladi. Uning “Lugʻat va atamalar”i XX asr oʻzbek lugʻatshunoslik sohasida yangi bosqich boʻldi. Unda oʻzbek shevalari, mumtoz asarlar tili, baʼzi bir soʻzlarning etimologiyasi boʻyicha yangi maʼlumotlar keltirilgan.

Elbek oʻsha paytdagi Oʻzbekiston Til va adabiyot ilmiy tekshirish institutining topshirigʻi bilan xalq ogʻzaki ijodi namunalari, xalq dostonlari variantlarini toʻplaydi hamda ularning tili va uslubini oʻrganishga kirishadi. Xalq ogʻzaki ijodi materiallari asosida mingdan ortiq soʻzlarning izohli lugʻatini tuzib, “Til problemalari” nomli jurnalda eʼlon qiladi. Keyinchalik, bu asar “Oʻzbek toʻla soʻzligiga materiallar” deya nomlanadi. Uning oʻzbek lugʻatchiligi tadrijiy takomilida muhim oʻrin tutuvchi mazkur asari tilimizning boy lugʻat zahirasini toʻplash, uni oʻrganish va keng xalq ommasiga yetkazish yoʻlida toʻplagan boy materiallari, turkiy lugʻatchilik anʼanalari negizida oʻrgangan tajribasi asosida yaratilgan dastlabki izohli lugʻat namunasi.

Darhaqiqat, adabiy til hamisha xalq lahja va shevalaridan oziqlanib tursagina, u oʻzini taʼminlab turuvchi manbadan, asosdan uzilib qolmaydi. Chunki xalq tili adabiy tilni oziqlantirib turuvchi tuganmas boyliklar bulogʻi. Shuning uchun ham Mahmud

Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi adiblar hamisha adabiy til bilan shevalarni bir-biri bilan aloqada olib qaraganlar. Bu holatni to'g'ri anglagan ma'rifatparvar jadid adiblari XX asr boshlaridagi yangi o'zbek adabiy tilini, xususan, terminologiyani shakllantirishda, uning nazariy asoslarini ishlab chiqishda xalq jonli tili, xalq og'zaki ijodi namunalarining tili, ularning lingvistik xususiyatlari birlamchi manba bo'lishi lozimligini qat'iy belgilagan. Elbek ham adabiy til va shevalar munosabati masalasiga jiddiy e'tibor qaratadi. Shevalarning adabiy tilni boyitib boruvchi manba ekanligini to'g'ri baholaydi. Shu bilan u shevalarni o'rganish (shevashunoslik) ishiga o'z hissasini qo'shadi. Tilshunos sifatida so'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratish masalasini Elbek XX asr boshlarida ko'tarib chiqad.

Elbek mana shu maqsad talabidan kelib chiqib "O'zbek to'la so'zligiga materiallar" asarining so'zboshi qismida: *"O'zbekiston bo'ylab hali tuzuk o'rganilmagan joylar ko'p. Bulardagi so'z boyliklarini qo'lg'a kiritish kerak. Masalan, bizda jonivorlar, o'sumliklar va jug'rofiy terminlar ancha bor, biz ularni qo'lg'a to'plamasdan turib, albatta, termin yarata olmaymiz..."* (Элбек. Ўзбек тўла сўзлигига материаллар // Тил проблемалари. Ўзбекистон Тил ва адабиёт илмий текшириш институти. Тил секторининг мажмуаси. 2-сон. – Тошкент: Ўздавнашр, 1935. 42-бет), deya ta'kidlaydi va adabiy tildagi o'zlashma so'zlarning, terminlarning turkiycha muqobillarini turli qishloq shevalari, xalq og'zaki ijodi namunalari tilidan izlab topishga harakat qiladi. Asarning so'zboshi qismida xalq tilidagi *"terskay"*, *"quzg'ay"*, *"kungay"*, *"o'ng'ur"*, *"eldik"* kabi geografik terminlarni; *"bo'ribag'ir"*, *"kamxastak"*, *"qotrang'i"*, *"chetan"*, *"tubulg'i"*, *"muchcha"*, *"kakra"*, *"yulg'un"*, *"chachratg'i"*, *"jiga"* kabi bir qancha o'simlik nomlarini keltirib, mazkur so'zlarning etimologiyasi, semantikasi haqidagi ma'lumotlarni ham keltirib o'tadi. Masalan: "... tog'ning quyosh tushmayturg'on tomonini *"quzg'ay"* yoki *"terskay"* deyдилar. Shuningdek, mag'orani *"o'ng'ur"*, tog'dan quyig'a tushushni *"eldik"* yohud *"endik"* derlar va bunday so'z va terminlar qushlar, o'sumliklar haqida ham ko'p topiladi..." (Элбек. Ўзбек тўла сўзлигига материаллар // Тил проблемалари. Ўзбекистон Тил ва адабиёт илмий текшириш

институти. Тил секторининг мажмуаси. 2-сон. – Тошкент: Ўздавнашр, 1935. 43-бет).

20-30-yillarda harf va imlo masalalari hal etilib, sarv-nahv tuzish ishlari izga tushgach, tilshunoslarimiz asosiy e'tiborni lug'at tuzishga qaratdilar. Elbek ham o'z tajribalari, to'plagan materiallari asosida "O'zbekcha shakldosh va ma'nodosh so'zlar" nomli birinchi maxsus lug'atini tuzdi. O'zining lug'atshunoslik faoliyatini "Chig'atoy gurungi" to'garagida boshlagan Elbek 1924-yillardan boshlab tilimizdagi omonim so'zlarni o'rganishga kirishgan edi. Masalan, uning "Tilimizdagi yanglishiqlar" ("Туркистон" газетаси. – Тошкент, 1924 йил сонлари) ruknidagi maqolalarining ba'zilarida aynan shu shakldosh so'zlar to'g'risida fikr yuritiladi. Elbekning ijodini ko'zdan kechirganimizda o'zbek tilining boy, serqirra ma'nolariyu rang-barangligini ifoda etuvchi jozibador shakldosh so'zlardan samarali foydalanib, mumtoz adabiyotimizdagi tuyuq janridan bir muncha farq qiluvchi to'rtliklar ham ijod qilganligini ko'ramiz:

O't o't ichidan, o'ting bor bo'lsa,
Yot yot ichida, kuching yo'q ersa,
Yeng yeng ichida, yoning kelishsa
Yon yon ichida, yoning quyishsa.

Elbekning bu she'riy parchasida o't (o'tmoq; olov), yot (yotmoq; begona), yeng (yengmoq; yashirin ma'nosidagi ibora), yon (yon, olovlan; tomon, taraf) omonimlari asosida o'sha davr tuzimiga nisbatan norozilik ohangi, xalqimizning fidoiy yigitlarini erk uchun, millat uchun kurashiga da'vat etish, ularni ruhlantirish kabi yashirin fikrlarni uqish mumkin.

Bu vaqtda rus lug'atshunoslari tomonidan ma'nodosh va shakldosh so'zlar, jamlangan, bir qancha lug'atlar tuzilgan edi. Masalan, I. Davidovning "Словарь русских синонимов" (1856-60), V. Pavlov-Shishkin, P. Stefanovskiylarning "Учебный словарь синонимов русского литературного языка" (1930-31) kabilar fikrimiz dalilidir. Ammo turkman, tojik, qozoq, qirg'iz, o'zbek xalqlari tillarida esa ma'nodosh va shakldosh so'zlar yuzasidan biror bir tadqiqot va maxsus lug'atlar yaratilmagan edi. Xalq orasida bunday lug'atlarga ehtiyoj tug'ilayotgandi. Elbek qo'lida to'plangan materiallarga tayanib, ana shunday mas'uliyatli ishni o'z zimmasiga

oldi va o‘zbekcha shakldosh hamda ma‘nodosh so‘zlar lug‘atini tuzish maqsadida Maorif komissarligi Davlat til-termin qo‘mitasiga murojaat qildi. U terminqo‘m ruxsatini olgach, tezda ishga kirishdi. Toshkent, Namangan, Xorazm shahar va qishloqlariga chiqib, material to‘pladi, 1933-yilga kelib “O‘zbekcha shakldosh va ma‘nodosh so‘zlar lug‘ati”ni yozib tugatdi va nashriyotga topshirdi. Biroq lug‘atning hajmi katta edi. Elbek noshirlarning maslahati bilan lug‘atini “O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati” va “O‘zbekcha ma‘nodosh so‘zlar lug‘ati” nomlari ostida alohida-alohida ko‘rinishda qayta bosmaga tayyorladi.

Shunday qilib, 1934-yil 22-fevralda Terminqo‘m muharrirligida, Maorif vazirligining tasdig‘i bilan lotin grafikasida 1500 nuxsada “O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati”⁷² Samarqand davlat nashriyoti tomonidan bosib chiqarildi (“O‘zbekcha ma‘nodosh so‘zlar lug‘ati”i esa nashrdan chiqmagan va yo‘qolib ketgan). Lug‘at “Yozuvchidan” nomli kirish so‘zi bilan boshlanadi. Unda omonim so‘zlarni to‘la jamlay olmagani, buning uchun ko‘p vaqt va katta mablag‘ kerakligi, lug‘at o‘zbek tilida birinchi bor tuzilayotganligini sababli ba‘zi kamchiliklari bo‘lishi mumkinligi aytiladi.

Lug‘at “*och*” so‘zi bilan boshlanib, “*zar*” so‘zi bilan yakunlangan. Unda 416 shakldosh so‘z alifbo tartibida berilgan bo‘lib, bulardan 281 tasi 2 ma‘noli, 101 tasi 3 ma‘noli, 31 tasi 4 ma‘noli, 2 tasi 5 ma‘noli, 1 tasi 6 ma‘noli. Omoifoda tarkibiga birlashgan har bir omoleksemaning ma‘nolari arab raqamlari bilan farqlangan. Ularni joylashtirishda turkumlarga amal qilinmagan. Ba‘zi o‘rinlarda goh ot so‘z turkumiga oid omonim birinchi keltirilgan bo‘lsa, boshqa joyda sifat yoki fe‘l so‘z turkumiga oid omoleksema birinchi orinda keltirilgan. Shakldoshlarning berilish tartibi juda ham sodda, ya‘ni avval shakldosh so‘z izohlangan, so‘ngra ilyusrtativ misollar keltirilgan. Ilyustrativ misollar lug‘at maqolasidagi so‘z va iboralarning hamda ularning ma‘no hamda ma‘no nozikliklarini tilda mavjudligini tasdiqlash uchun xizmat qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi. Elbek lug‘atni tuzishda lug‘atshunosligimizda an‘anaga aylangan illiyustrativ misollar

⁷² Элбек. Ўзбекча шаклдош сўзлар луғати. –Тошкент-Самарқанд: Ўздавнашр, 1934. – 139 б.

keltirish usulidan unumli foydalangan. Olim lug‘atga asosan 20-30-yillarda o‘zbek tilida iste’molda bo‘lgan omonim so‘zlarni kiritgan va ularni tasdiqlash uchun o‘sha davrda ijod etgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Uyg‘un, Komil Yashin, M. Gorkiy, A. Mayakovskiy kabi 40 dan ortiq o‘zbek va rus yozuvchi, shoirlarning badiiy asarlaridan hamda qurultoy materiallaridan illyustrativ misollar keltirgan. Bu manbalar talabini qondirmagan vaqtda Elbek qo‘lida mavjud bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalariga murojaat qilgan. Xalq laparlari, topishmoq, doston, matal va maqollardan omoifodaga tegishli juda chiroyli misollar keltirib, asar qimmatini yanada oshirgan. Masalan:

Taxta:

1. Og‘ochdan tilinib oling‘och yuqa, yassi narsa.

Misol: Sen ketaring bilganimda

Uzatib qo‘ymasmidim.

Taxta ko‘pruk panjarasin

Tuzatib qo‘ymasmidim.

(Xalq ashulasidan)

2. Yer parchasi, ayrim bo‘laklarga bo‘lingan yer.

Misol: Tuyanining hazili bir taxta yontoqni yer.

(Maqol)

Shunday qilib, Elbekning “O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati” o‘zbek lug‘ashunosligi tarixi uchun qimmatli asar bo‘lib, uning yangi tuzilayotgan lug‘atlar uchun tadbiq qilinadigan jihatlari bor. Bu lug‘atda 20-30-yillarda so‘zlashuv nutqida, dialektlarda, xalq og‘zaki ijodi namunalari hamda badiiy adabiyotda qo‘llanilgan omonim so‘zlar qamrab olingan bo‘lib, lug‘at o‘zbek leksikografiyasida yaratilgan ilk maxsus lug‘at hisoblanadi. Lug‘atdagi turli izoh usullari ko‘magida so‘z ma’nolarining aniq ochib berilishi, bu ma’nolarni tasdiqlash uchun ishonchli manbalardan misollarning havola qilinishi shundan dalolatdirki, Elbek o‘sha davr rus hamda turkiy tillar lug‘ashunosligining lug‘at tuzish prinsiplarini chuqur o‘rgangan va o‘z lug‘atlariga tadbiq qilib, o‘zbek lug‘atchiligini yangi bosqichga ko‘targan.

Umuman olganda, Elbek faol xizmatlari, salmoqli ilmiy merosi bilan o‘zbek tilshunosligi fani taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shdi va tilshunos olimlar orasida alohida e’tibor qozondi.

Savol va topshiriqlar:

1. Elbekning fonetika-fonologiya, imlo, grafika sohasida olib borgan izlanishlari o'zbek tishunosligi rivojida qanday ahamiyatga ega bo'lgan?

2. Elbekning o'zbek tilining zamonaviy ilmiy grammatikasi shakllanishidagi xizmatlariga baho bering.

3. O'zbek lingvistik terminologiyasining shakllanishidagi Elbekning xizmatlariga baho bering.

4. Elbekning zamonaviy o'zbek lug'atchiligi taraqqiyotidagi xizmatlariga baho bering.

Adabiyotlar:

1. Бобомуродова Ш. Элбекнинг тилшунослик мероси. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 108 б.

2. Элбек. Ёзув йўллари. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1921. –Б. 30.

3. Элбек. Бошланғич мактабда она тили. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923. –Б. 23.

4. Элбек. Ўзбекча шаклдош сўзлар луғати: – Тошкент-Самарқанд: Ўздавнашр, 1934. –Б. 139.

5. Элбек. Ўзбек тўла сўзлигига материаллар // Тил проблемалари. Ўзбекистон тил ва адабиёт илмий текшириш институти тил секторининг мажмуаси. 2-сон. – Тошкент: Ўздавнашр, 1935. –Б. 139.

6. Мунаввар Қори, Қайюм Рамазон, Шорасул Зуннун. Ўзбекча тил сабоқлиғи. – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1926.

3. 6. IS'HOQXON IBRAT

Tayanch soʻz va iboralar: *grammatalogiya, fonetik tuzulish, grammatik qurilish, tematik printsip, gʻarb lugʻatchiligi tamoyillari, ideografik usul, izofali konstruksiya, koʻp tilli tarjima lugʻat, dialektal lugʻat.*

Oʻz davrining zabardast ziyolisi, millat taraqqiyoti, istiqboli yoʻlida tolmas kurashchi sifatida jadid maʼrifatparvarlari orasida alohida mavqiyega ega boʻlgan Isʼhoqxon Junaydulla Xoʻja oʻgʻli Ibrat oʻzbek adabiyoti, taʼlimi va tilining rivojiga munosib hissa qoʻshgan yorqin hamda betakror ijodkordir.

1862-yilda Namangan yaqinidagi Toʻraqoʻrgʻon qishlogʻida oʻqimishli xonadonda tavallud topgan Isʼhoqxon (taxallusi Ibrat) boshlangʻich maʼlumotini oʻz onasi Hurbibidan oladi. Soʻngra 1878-1886-yillarda Qoʻqondagi Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida tahsil oladi. 1886-yilda Qoʻqon madrasasini tugatib, Toʻraqoʻrgʻonga qaytib keladi va oʻz faoliyatini ilgʻor maorifchi sifatida maʼrifat tarqatish bilan boshlaydi, oʻz qishlogʻida yangi usuldagi maktab ochadi. Uning bu faoliyati oʻzbek adabiyotida, madaniy hayotida, maorifda tub oʻzgarish sodir boʻlayotgan davrga toʻgʻri keladi.

Ibrat “Lugʻoti sitta alsina”, “Jomeʼ ul-xutut” va “Tarixi Fargʻona” asarlarida yozishicha, onasini haj safariga olib borish hamda chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish maqsadida Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida boʻladi. Afgʻonistonning Kobul, Arabistonning Jidda, Hindistonning Bombey va Kalkutta kabi shaharlarida istiqomat qiladi, bu safarlar davomida Sharq va Gʻarb xalqlari hayoti, madaniyati va sanʼatini muqoyasa qilish imkoniga ega boʻladi. Yevropaning ilgʻor ilm-fanini yaqindan oʻrganadi, ilmiy asarlari uchun qimmatli materiallar toʻplaydi.

Isʼhoqxon Ibratning shoir va tarixnavis, noshir va islomshunos, pedagog sifatidagi faoliyati oʻzbek adabiyotshunoslari, tarixchi olimlari tomonidan mukammal oʻrganilib, oʻzbek adabiyotida uning

ijodiga munosib baho berilgan⁷³. Uning ko‘p qirrali faoliyatida tilshunoslik, xususan, lug‘atchilik alohida bir yo‘nalishni tashkil etadi. Ibrat dastlab tilshunos olim sifatida tilning ijtimoiy jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini yuqori baholaydi, til bilishning esa jamiyatda maktab va maorif, fan va madaniyat ishlarini yuksaklik sari olg‘a siljituvchi qudratli qurol ekanligini o‘z davrida keng targ‘ib qiladi. Chunonchi, “insonlari o‘lurki, o‘z mamlakatlari lisonin toza bilmaslar”, deya o‘z milliy tili, ya‘ni o‘zbek tilining go‘zal va nafis jozibadorligi, grammatik xususiyatlari haqida yetarlicha tushuncha va tasavvurga ega bo‘lmagan vatandoshlari holidan qattiq ranjiydi. Shu ma’noda, o‘sha davrdagi maktab va maorif tizimida, o‘zi isloh qilgan maktabda o‘quvchilarning boshqa fanlar qatorida til bilimi, til ilmi bo‘yicha mukammal ma’lumotga ega bo‘lishlari lozimligiga alohida e’tibor qaratadi.

Ma’lumki, tilning tarixi hamda unga nisbatan ikkilamchi vosita hisoblangan yozuvning tarixi, ma’lum ma’noda, xalqning tarixi hamdir. Shuning uchun ham yozuvlar tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimning zimmasida xalqning tarixi, tilning tarixi, madaniyatining tarixi haqida ham muayyan xabardorlikda bo‘lish talab etiladi. Is’hoqxon tilshunoslikning mazkur “grammatalogiya” deb nomlanuvchi murakkab sohasida izlanishlar olib borib, ancha mukammal ilmiy qiymatga ega bo‘lgan “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) nomli asarini yaratadi. Muallif asarda insoniyat tarixidagi piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari: finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg‘ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida ma’lumot beradi.

Is’hoqxon asarning yaratilishi haqidagi muddaosini quyidagicha izohlaydi: “... *Bu namunalardan muddao buki, har asrda bir olam tabodul bo‘lib, asr o‘zgarib, olam, odam, ashyolar – hamma narsa tabodul bo‘lmog‘i bizga bir sarxatdur. Bunga qarab ibrat olib ish tutmak darkor. Avvali holimiz ul, emdi bul, olam yurishi shul.*

⁷³ Исҳоқхон Тўра Ибрat. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2005; Исҳоқхон тўра ибн Жунайдуллоҳ хўжа. Мезон уз-замон. – Тошкент – Токио, 2001; Ishakhan Ibrat. Siirlar. – Turkiya Disindaki Turk edebiyatlari antolojisi. 15. O‘zbek edebiyati. Ankara, 2000.

*Binobarin, tajdidi ahvol va atvor ibrat bo‘lur ekan. Shul o‘ttiz yil (ga) bir nazar qarasak, ko‘p farqlar bor... ”*⁷⁴.

Muallif bu fikrlarida tilning o‘zgaruvchan hodisa ekanligini, asrlar osha zamon va makondagi turli o‘zgarishlar tilda ham sekinlik bilan o‘z aksini topishini, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni bir avlodning yashash davrida ajratib olish va uni qayd qilish ba‘zan qiyinchilik tug‘dirishini alohida ta‘kidlamoqda. Is‘hoqxon tilning fonetik, grammatik yaruslaridagi bunday siljishlarni faqat bir narsa tufayli, ya‘ni yozuv orqali bilib olish mumkinligini, agar yozuv bo‘lmasa, til evolyusiyasi to‘g‘risida kishilarda hyech qanday tasavvur bo‘lmasligini, faqat yozuv orqaligina tilning tarixiy taraqqiyotini kuzatish imkoniyati mavjudligini o‘z davrida to‘g‘ri anglaydi. Shu maqsad yo‘lida o‘z zamondoshlarini jamiyat tarixi, adabiyot va san‘at tarixi, til tarixidan muayyan xabor qilish maqsadida mazkur asarini yaratadi.

Albatta, yozuv bilan til o‘zaro chambarchas bog‘liq. Biror tilni shu tilning yozuvini o‘rganmasdan, yoki aksincha, biror yozuvni shu yozuvga tegishli bo‘lgan til haqidagi tushunchaga ega bo‘lmasdan o‘rganish mumkin emas.

Ibrat o‘z davrining ilg‘or ziyolisi sifatida ko‘p til bilishni jahondagi xalqlarning ilm-fan yutuqlarini, ularning madaniyati haqidagi bilimlarini egallashning birinchi omili sifatida targ‘ib qilar ekan, til bilan yozuvni chambarchas aloqadorlikda ko‘radi va zamonasi kishilarini jahondagi tillarni o‘rganishda bu tillarning lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi bilan birga ularning yozuvi haqida ham ma‘lum tushuncha va tasavvurlarga ega bo‘lishga da‘vat etadi. Tekshirishlari natijasida asarda dunyoda mashhur bo‘lgan 41 xil yozuv tizimi haqida ma‘lumot keltiradi va o‘z ilmiy xulosasida bu xil dunyo tillari va yozuvlarini o‘rganish dolzarbligining ijtimoiy sabablarini quyidagicha tavsiflaydi: *“Dorixona borganda lotincha zarur. Hindistonga xat qilinsa, inglizcha bo‘lmasa olmaydur, Eronistonga fransaviy. Biz turkistonliklarga birinchi zarurimiz rusiya xatidurki, muni qozi va mudarrislar inkor qilmaslar. Axbornoma, rapurt yozsalar, mudarrislar bo‘lsa, o‘ruscha*

⁷⁴ Исҳоқхон Ибрат. Жомеъ ул-хутут. – Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912. – Б. 48.

biladurgan kishiga oqcha berib, rapurt yozduradurlar, alarga juda zarur. Savdogarlarga Maskovdan mol yozmoqqa zarur hukumat xati bo‘lub, binobarin, ehtiyoji xalqulloh hama jihatdin buni bilmak zarurligi badehiy” (Исҳоқхон Ибрат. Жомеъ ул-хутут. – Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912. 106-бет).

Is’hoqxon “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) asarida kishilik jamiyatidagi piktografik, logografik, iyeroglifik yozuv namunalari haqida ma’lumotlar keltirishi bilan birga, o‘z tekshirishlari natijalari asosida tilshunoslik ilmiga oid ayrim qimmatli fikrlarni ham qayd etadi. Jumladan, uning yozuvlar tadrijiy takomida harf-tovush tizimi birinchi marta finikiya xalqlari tomonidan yaratilgan va boshqa qo‘shni xalqlar: yahudiy, suriya, arab yozuvlari finikiya yozuvi asosida vujudga kelgan, degan ilmiy xulosalari bugungi kun tilshunoslik ilmidagi nazariy qarashlardan deyarli farq qilmasligi bilan ahamiyatli.

Muallifning yozuv turlari va yozuvlar tarixini bunday jiddiy o‘rganishga jur‘at qilganligini yana shunday izohlash mumkinki, jamiyat kishilari ilmiy tafakkuri taraqqiyotida milliy til – ona tili bilan birga yozuvning ham ahamiyati yuqoriligini, yozuv asosida olingan bilimlar ilmiy tafakkur taraqqiyotini tezlashtirishda, xalq madaniy saviyasini yuqori darajaga ko‘tarilishida muhim rol o‘ynashini Is’hoqxon Ibrat o‘z davrida to‘g‘ri anglagan.

Yurtboshimiz Is’hoqxon Ibratning XX asr boshlaridayoq milliy til (ona tili)ni puxta egallash, uning ravnaqi, istiqboli uchun kurashish, shuningdek, bular qatorida o‘zga tillarni ham o‘rganish yo‘lidagi qarashlari, olib borgan ilmiy izlanishlarini alohida ta’kidlab: *“XX asr boshida olti tilli – o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan Is’hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so‘zlarini eslatmoqchiman: Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘satsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”*⁷⁵, – deya, uning vatanparvar, tilparvar,

⁷⁵ III. Мирзиёев. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ) // “Халқ сўзи” газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218.

til ilmi bo'yicha yetuk tilshunos olim bo'lganligini haqli e'tirof etgan edilar.

Sharq va G'arb xalqlari tillaridan o'nga yaqin tilni, shu jumladan, rus tilini ham ancha mukammal bilgan ma'rifatparvar olim Is'hoqxon Ibratning tilshunoslikka oid ikkinchi asari – "Lug'oti sitta alsina" ("Olti til so'zlari" yoki "Olti tilli lug'at") nomli lug'ati. Olti tildagi: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sartcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan mazkur lug'atning muqaddimasida yozilishicha, muallif ushbu asarini Afg'oniston, Hindiston va Forsiston (Eron) shaharlarida sayohatda yurganida safar ahli uchun o'zga bir tilni bilish muhim ekanligini e'tiborga olgan holda yaratganligini alohida qayd etadi.

Lug'at ikki qismdan iborat, birinchi qismda 156 ta fe'ning masdar (infinitiv) hamda hozirgi-kelasi zamon shakllari, 12 ta fe'ning o'tgan zamon va buyruq mayli shakllari hamda 5 ta olmosh – jami 341 ta so'z 6 ta ustunga bo'linib, forsha-arabcha-turkcha-sartcha-hindcha-ruscha lug'at shaklida arab alifbosi tartibida berilgan. Lug'atning ikkinchi jildi jami 694 ta ismni (ot, sifat, va son turkumidagi) qamrab olgan, ular 37 ta mavzu guruhiga ajratilib, arabcha-forsha-turkcha-hindcha-sartcha-ruscha lug'at shaklida olti ustun qilib berilgan.

"Lug'oti sitta alsina" o'zining nomidan ham bilinib turganidek, olti tilli lug'at, unda dastlab o'zbekcha so'zlar berilgan hamda bu so'zlarning ruscha, arabcha, forsha, turkcha va hindcha muqobillari keltirilgan.

"Lug'oti sitta alsina" ommabop lingvistik lug'at, keng o'quvchilar ommasi uchun mo'ljallab tuzilgan. Dastlab lug'atning o'z oldiga qo'ygan maqsadi, uning yaratilishidagi lug'atchilik an'anasi, so'zlarning izohlanish tamoyillari hamda o'zbekcha so'zlikning tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur lug'atda bu jihatdan o'sha davrda yaratilgan boshqa lug'atdan o'ziga xos anchagina sezilarli farqlar mavjudligi kuzatiladi.

Is'hoqxon Ibrat milliy adabiyotimizda jadidchilik namoyandasi sifatida e'tirof etiladi. Davr nuqtayi nazaridan baho beradigan bo'lsak, jadid davri adabiyoti o'zbek adabiyotshunosligida an'anaviy mumtoz badiiy adabiyotidan yangi o'zbek adabiyotiga, o'zbek tilshunosligida esa eski o'zbek tilidan XX asrda shakllangan yangi

o'zbek adabiy tiliga o'tish davriga, ya'ni an'ana va yangilik kesishgan nuqtada, oraliq maydonda yuzaga kelgan adabiyotdir. Bunda nafaqat badiiy adabiyot namunalarida, balki leksikografiyaga oid mavjud lug'atlarda ham ana shu oraliq holat ikki rivojlanish nuqtani birlashtirish vazifasini bajarganligini va har ikki nuqtaning belgilarini o'zida namoyon qilganligini ko'ramiz. Garchi, yangicha g'oya, yangicha tafakkur, yangicha bilim olish tarafdorlari bo'lgan ilg'or jadid ma'rifatparvarlari qatorida bo'lsa-da, Is'hoqxon "Lug'oti sitta alsina" asarini yaratishda yangicha yo'nalishdagi G'arb lug'atchiligi tamoyillari bilan birga, an'anaviy Sharq lug'atchiligi prinsiplariga ham tayangan holda lug'at tuzganligining guvohi bo'lamiz. Yuqorida qayd etgan ma'lumotlarimiz, ya'ni lug'atda fe'llarni masdar (*chochmak, kesmak, kiymak*), hozirgi-kelasi zamon (*o'ynar, yog'ar, xohlar*), o'tgan zamon (*yotgan, turgan*) hamda buyruq mayllarida (*kelma, o'rganma*) berilishi; ismlarning esa 37 ta tematik guruhga ajratilib tarjimalarining berilishi jadid davrigacha bo'lgan Sharq lug'atchiligi, xususan, arab lug'atchiligi an'analarining ta'sir belgilaridir. Shuningdek, lug'at mavzular bo'yicha "*Moziy va amr*" (*O'tgan zamon va buyruq mayli*), "*Almutakallim*" (*Olmoshlar*), "*A'zoyi hayvonot*" (*Jonzotlarning a'zolari*), "*Asmou ahli qarobat*" (*Qarindoshlik nomlari*), "*Asmoi aqsomi taom*" (*Taom nomlari*), "*Asmoi nag'amot*" (*Musiqasi asboblari nomlari*), "*Aqsomi rang*" (*Rang nomlari*)⁷⁶ kabi bir necha bo'linga bo'lingan va sarlavhalangan. Sarlavhalarining arabcha nomlanishi ham arab leksikografiyasi belgilari. Chunki lug'at o'zbek kitobxonlari uchun mo'ljallanar ekan, sarlavhalar ham o'zbekcha nomda berilishi kerak bo'ladi.

Bu masalaga lug'atdagi o'zbekcha so'zlikning struktasi nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, lug'atda tub va yasama so'zlar qatorida *ko'fiki daryo, bangi devona, xishti puxta, toshi faysa, ahli hikmat* kabi bir qancha arabcha, forscha yasaliş modelidagi izofali konstruksiyalar ham mavjudligi kuzatiladi. Tekshirishlarimiz lug'atda arab va fors tillarida faol so'z yasovchilar hisoblangan *-gar, -paz, -kor, -po'sh, -shunos, -xona* kabi affiksali morfemalar yordamida hosil qilingan leksemalarning ham ko'p miqdorda

⁷⁶ Исҳоқхон Ибрат. Луғоти ситта алсина. — Тошкент: Илйин типографияси, 1901.

ekanligini ko'rsatdi: *yog'furosh, g'allafurosh, zinpo'sh, miroxur, arqongar, dorishunos, kavobpaz, qog'azgar, kamongar* va boshqalar.

Shuningdek, fe'llar izohi berilgan bo'limda tub fe'llar bilan birga *ziyod etmak, xafa bo'lgan, g'alva qilmaq, hosil qilmoq, zikr qilmoq, sulh qilmoq, ma'qul qilmaq, qaror qilmaq, gumon qilmoq, sabr qilur, zohir bo'lur, sano aytar, xazar qilmoq, qasd qilmoq* kabi 72 ta qo'shma fe'lning olti tildagi tarjimasi berilgan. Genetik tarkibi jihatdan qarasak, bu fe'llar birinchi komponentining aksariyati arabcha so'zlar.

Ikki o'rinda ish-harakat leksemalari qatorida tarjimada tobe bog'lanishli o'zbekcha so'z birikmalari berilgan: *"xirom ila yurar", "baho ila olmoq"*.

Lug'atda ayrim o'rinda so'zning o'zbekcha hamda forsha varianti uchun bitta so'z berilgan holatlar uchraydi. Masalan, adabiy tildagi *"yopqich"* so'zi o'zbekcha ustunda ham, forsha ustunda ham *"zinpo'sh"* tarzida, *"tumsox"* so'zi har ikki tilda ham *"susmor"* tarzida, *"ustun"* so'zi *"stun"* tarzida, *"kraxmal"* so'zi *"nishasta"* tarzida, *"qog'oz"* so'zi *"kog'az"* shaklida, musiqa asbobi hisoblangan *"organ"* so'zining tarjimasi esa forshada ham, o'zbekchada ham *"arg'anun"* shaklida berilgan. Tarjimadagi bu so'zlarning aksariyati arabcha, fors-tojikcha leksemalar bo'lib, bu holat ularning o'sha davr o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lganligini ko'rsatadi.

Is'hoqxon Ibrat lug'atshunos sifatida o'sha davrda keng iste'molda bo'lgan turli tushuncha va tasavvurlarni, ish-harakat va holatni ifodalaydigan so'zlarni lug'atga kiritishga harakat qilgan. Albatta, bular orasida fors-tojikcha, arabcha lug'aviy o'zlashmalar, bu tillardagi so'z yasash qolipi ham adabiy tilda keng iste'molda bo'lgani shubhasiz. Fe'llar izohida infinitiv shakl ayrim o'rinlarda -*mak* (*o'rgatmak, tushmak, chochmak kabi*), ba'zi o'rinda esa -*moq* (*solmoq, to'qimoq, o'qimoq kabi*) tarzida berilgan. Bu holatni o'sha paytda lug'at yaratish uchun adabiy tilda yagona grammatik me'yor bo'lmaganligi hamda endigina shakllanayotgan yangi o'zbek adabiy tilining lug'aviy hamda morfologik normalari hali to'laligicha shakllanmaganligi bilan izohlash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, muallifning lug'atda arabcha, fors-tojikcha so'z va istilohlardan,

soʻz yasash modelidan foydalanishga, buning barobarida lugʻatchilikdagi anʻanaviy prinsiplarni qoʻllashga majbur boʻlganligini tushunish qiyin emas.

Muallif lugʻatda soʻzlikni joylashtirishda leksikografiyadagi eng ilgʻor va samarali usul boʻlgan ideografik usulni qoʻllagan. Bu usulning afzalliklari shundaki, kerakli soʻzni izlagan oʻquvchi mavzular boʻyicha osonlik bilan topa oladi.

Darhaqiqat, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida sharqshunoslik va turkiyshunoslik fanlarining rivojlanishi taʼsirida anʻanaviy lugʻatchilik bilan bir qatorda yangicha yoʻnalishdagi ruscha-oʻzbekcha va oʻzbekcha-ruscha, shuningdek, oʻzbek tilini boshqa yevropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab oʻrganishga moʻljallangan lugʻatlar ham paydo boʻla boshladi. Shular qatorida, Isʼhoqxonning mazkur lugʻatini ham mazmun-mohiyati bilan oʻsha davridagi yangicha yoʻnalishdagi, yaʼni Gʻarb lugʻatchiligi anʻanalari taʼsirida yaratilgan lugʻatlar sirasiga ham kiritish mumkin. Ibrat lugʻatidagi bu yangilik belgilari quyidagilarda namoyon boʻladi:

a) tilshunos olim A. Madvaliyev eʼtirof etganidek⁷⁷, oʻzbek leksikografiyasida Ibratgacha ham, Ibratdan keyin ham ayni shu xildagi, yaʼni olti til materiallari qamrab olingan va bu til materiallarining oʻzaro qiyosiy tarjimalari berilgan lugʻat tuzilgan emas;

b) muallif XIX asr oxiri – XX asr boshlari Sharq va Gʻarb mamlakatlaridagi madaniy hayot, ilgʻor fan va texnika yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish maqsadida qilgan sayohati davomida lugʻat uchun material toʻplagan. Lugʻatda oʻsha davr uchun oʻzlashma sifatida qabul qilish mumkin boʻlgan *kraxmal*, *kursi*, *qandil*, *kasalxona*, *limon*, *kema*, *dorishunos* kabi koʻpgina leksik birliklar ham uchraydiki, bu holat Isʼhoqxon Ibratning XX asr boshlaridagi oʻzbek tili lugʻat boyligini rivojlantirishga ham maʼlum darajada oʻz hissasini qoʻshgan deyishimizga asos boʻla oladi;

d) lugʻatda soʻzlar tarjimasi berilgan tillar geneologik jihatdan turli til oilalariga mansub. Jumladan, *oʻzbek tili*, *turk tili* turkiy tillar oilasiga; *rus tili* hind-yevropa tillari oilasining slavyan tillari

⁷⁷ Мадвалиев А. Исҳоқхон Ибратнинг олти тилли луғати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2018. – № 4. – Б. 53-56.

guruhiga; *fors-tojik tili* hind-yevropa tillari oilasining eroniy tillar guruhiga; *hind tili* Hind-yevropa tillari oilasining Hind tillari guruhiga; *arab tili* esa Semit-xami tillari oilasiga mansub tillar. Bu jihatdan olib qaraganimizda ham mazkur lugʻatning oʻziga xos tomoni, yaʼni turli til oilalariga mansub tillarning leksik birliklari oʻzaro qiyoslanganligi va bunda muallif lugʻat tuzishda olti tilning taʼsiriga qarab leksemalarni tanlaganligi eʼtiborni tortadi. Bunday usul Isʼhoqxon Ibratning Gʻarb lugʻatchiligi anʼanalariga tayanib lugʻat tartib berganligining isboti;

d) “Lugʻoti sitta alsina” (“Olti tilli lugʻat”) dagi oʻzbekcha soʻzlikning tarkibida xalq tili elementlari ham koʻplab uchraydi. Masalan, *huqmazak* (*husnbuzar*), *chirk* (*kir*), *shoti* (*norvon*), *sutun* (*ustun*), *turfoq* (*tuproq*), *archaxilol* (*tish kovlagich*), *javori* (*juxori*), *fatinjon* (*baqlajon*), *kirfitikan* (*tipratikan*), *choʻja* (*joʻja*), *chovutka* (*chigirtka*), *teva* (*tuya*), *qulon* (*hoʻkiz*), *katta acha* (*katta ona*), *choch* (*soch*) kabi soʻzlar. Bunda Isʼhoqxon muallif sifatida keng oʻquvchilar ommasining manfaatini oʻylab, yaʼni tarjimadagi soʻzning oʻzbek tilidagi barcha uchun tushunarli muqobilini keltirishni maqsad qilib imkon qadar soʻzlarning adabiy tildagi varianti bilan bir qatorda xalq shevalaridagi variantlarini ham keltirib oʻtadi. Bu esa, birinchidan, oʻsha davrda jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlam vakillari orasida mazkur tillarni keng miqyosda targʻib va tashviq qilishning samarali usuli boʻlsa, ikkinchidan, oʻzbek tilining mavjud soʻz boyligini toʻplash va tavsiflash, unut soʻzlarni qayta tiklashga boʻlgan harakatining ifodasi. Lugʻat bu jihati bilan dialektal lugʻat belgilarini ham oʻzida mujassam etadi.

Umuman olganda, Isʼhoqxon Ibrat lugʻatni tuzishdan oldin turkiy lugʻatchilik, arab, fors-tojik lugʻatchiligi, usmonli turk tili lugʻatchiligi va shuning barobarida, rus lugʻatchiligi bilan ham mukammal tanishib chiqqan. Aniqroq qilib aytganda, lugʻatchilikning nazariy va amaliy masalalarini hamda lugʻat tartib etish uchun zarur boʻlgan oʻzbek tili, fors-tojik tili, arab tili, turk tili va hind tillarini chuqur oʻzlashtirgan va puxta egallagan. Lugʻat muallifning oʻzi taʼkidlaganidek, oʻsha davrda “safar ahli” (sayohatchilar) manfaatini koʻzlagan holda tuzilgan soʻzlashgich boʻlsa-da, lingvistik manba sifatida oʻsha davrda Sharq va Gʻarb lugʻatchiligi tamoyillarini oʻzida mujassamlashtirgan, oʻz xalqini jahon mamlakatlaridagi

madaniy hayot, ilg'or fan va texnika yutuqlari, yangiliklari bilan tanishtirish barobarida xorijiy tillarni ham egallashga da'vat etgan, o'zbek lug'atchiligining tadrijiy takomilida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan leksikografik asar.

Savol va topshiriqlar:

1. Is'hoqxon Ibratning "Jome' ul-xutut" asari yozuvlar tarixini o'rganishda qanday ahamiyatga ega?
2. Is'hoqxon Ibratning o'z davrida ilm-fan, maorif va madaniyatning rivojlanishidagi xizmatlariga baho bering.
3. Ibratning "Lug'oti sitta alsina" ("Olti tilli lug'at") asarini qanday lug'atlar sirasiga kiritish mumkin?
4. Is'hoqxon Ibratning zamonaviy o'zbek lug'atchiligi taraqqiyotidagi xizmatlariga baho bering.

Adabiyotlar:

1. Исҳоқхон Ибрат. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар Улуғбек Долимов, Нурбой Жабборов). – Тошкент: Маънавият, 2020. – 200 б.
2. Исҳоқхон Ибрат. Жомеъ ул-хутут. – Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912.
3. Исҳоқхон Ибрат. Луғоти ситта алсина. – Тошкент: Ильин типографияси, 1901.
4. Мадвалиев А. Исҳоқхон Ибратнинг олти тилли луғати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2018. – № 4. – Б. 53-56.
5. Нормаматов С. Жадид адибларининг луғатшунослик фаолияти. – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018. – 118 б.

3. 7 ABDULLA QODIRIY

Tayanch so‘z va iboralar: *jonli xalq tili, kasb-hunar leksikasi, nutq madaniyati, uslubiyat, so‘z qo‘llash, terminologik tizim, leksikografik tamoyil, okkazional yasalma, leksikografik ishora, xalqchillik, tarjima lug‘at.*

O‘zbek zamonaviy nasrining darg‘asi, buyuk adib Abdulla Qodiriy o‘zining ko‘p turli janrlarga boy asarlari bilan o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallaydi. Aniq ma’lumotlarga tayangan holda, aytish mumkinki, uning tilshunoslik, nutq madaniyati, uslubiyat, xususan, leksikografiya bilan ham jiddiy shug‘ullanganligi adib ijodining o‘rganilmagan yana bir qirrasini namoyon qiladi. Albatta, Abdulla Qodiriyning tilshunoslikka, uslubiyatga oid qarashlari, tilning boy imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati, adabiy tilni xalq tili bilan yaqinlashtirish borasidagi fikrlari, xalq tiliga e’tiborliligi kabi masalalar prof. I. Sultonov, akademik Oybek, yozuvchi Primqul Qodirov, tilshunos Yormat Tojiyev, jurnalist F. Nasriddinov va boshqalarning ayrim ishlarida o‘z ifodasini topgan⁷⁸.

Abdulla Qodiriy tilshunoslik masalalariga oid yoki nutq madaniyati va uslubiyat asoslariga aloqador alohida biror kitob yoki maqola yozgan emas (agar mavjud bo‘lsa, bizga ma’lum emas). Shunga qaramay, adibning ijodiy faoliyatida tilga, tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlariga taalluqli bo‘lgan ajoyib fikrlarni kuzatamiz. Bu fikrlar tilshunoslik va uning sohalariga oid muhim nazariy masalalar bo‘yicha adib qarashlarining asosini tashkil etadi. Ana shu fikrlar Abdulla Qodiriyning tilshunoslik sohasidagi ilmiy merosi bo‘la oladi.

Abdulla Qodiriyning ibratli shogirdlaridan bo‘lgan Malik Rahmon “To‘g‘ri so‘z ustoz” xotira maqolasida (“Qodiriyni qumsab” (Yodnoma). – Toshkent, 1994.) adibning quyidagi fikrini keltiradi: – *“Turli kasb egalari, hunarmandchilik, kosibchilik*

⁷⁸ Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965; Ойбек. Адибнинг ижод йўли. – Тошкент, 1935; Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973; Ё. Тожиев. Тил жозибаси (Адабиёт, бадиият, абадият) – Тошкент: Университет, 2004; Насриддинов Ф. Маҳорат жилolari. – Тошкент: Фан, 1974.

namoyondalarining soʻz boyliklarini toʻplash uchun jumhuriyatning turli rayonlariga vakillar yuborib, kasb egalarining soʻz boyligini fursat gʻanimatligida toʻplab olish kerak. Vaqt oʻtishi bilan har narsa unutiladi” – dedilar. Shu bilan birga, “*Bu ishda tilning oʻziga xos tomonlarini saqlab borishga ham rioya qilish lozimligini uqtirdilar*” (“Qodiriyni qumsab” (Yodnoma). – Toshkent, 1994, 51-bet). Bu fikr tilshunoslikning murakkab boʻlimlaridan boʻlgan dialektologiya (shevashunoslik) sohasiga aloqador boʻlgan ham nazariy, ham metodologik, ham amaliy ahamiyatga ega boʻlgan, dialektologiya fanining tub mohiyat – maqsadini yoritib beradi. Bu sohaga yondashishning metodologik asosini tashkil etadi.

Maʼlumki, har bir til lugʻat tarkibining “Kasb-hunar leksikasi” deb ataluvchi maxsus qismi bor. Bu til lugʻat zaxirasining asosiy qismini tashkil etadi: temirchilik sohasiga oid soʻzlar, terminlar; duradgorchilik terminlari; kashtachilik terminlari; zargarlik terminlari; kulolchilik va boshqa sohaga oid terminlar, xullas, paxtachilik, pillachilik, gʻallachilik, chorvachilik, sholichilik, bogʻdorchilik kabi yana koʻplab sohalarga oid terminlar; fan sohalariga oid soʻz-terminblarni (bular nihoyatda koʻp-faqat qovunchilik yoki uzumchilik terminlarining oʻzi 600 dan ortiqdir) yigʻish va oʻrganish masalasi adib tomonidan anglab boʻlingan. Shunga koʻra, u bu ishni amalga oshirish boʻyicha tavsiya beryapti. Chunki shu ishlarsiz tilning haqiqiy boyligini belgilab boʻlmaydi. Shuningdek, til egalarini bu soʻz zaxirasidan bahramand qilish masalasi ham borki, Abdulla Qodiriy asosiy diqqatni ana shunga qaratgan. Adib tilning soʻz boyligi tez oʻzgarib turishi mumkinligini, taraqqiyot jarayonida koʻpgina soʻzlar isteʼmoldan chiqib ketishi, eskirishi, ular oʻrniga yangi soʻzlar kelishi mumkinligini, shu tariqa til lugʻat tarkibi dinamikasini nazariy asoslayapti. Shu bilan birga Abdulla Qodiriy tilning lugʻat tarkibi bilan ish tutishda (ularni aniqlash, toʻplash, saralash, tahlil qilish kabilarda) har bir tilning oʻziga xos xususiyatlarini saqlab borishga ham rioya qilish lozimligini taʼkidlaydi. Koʻrinadiki, til lugʻat tarkibining oʻzgarib turishi masalasi ham, tilning lugʻat tarkibi bilan ish tutishda har bir tilning oʻziga xos xususiyatlari hisobga olinishi zarurligi masalasi ham eng muhim va juda jiddiy nazariy masaladir. Ana shu masalalar Abdulla Qodiriy tomonidan toʻgʻri talqinini

topgan. Abdulla Qodiriy, aynan til lug‘at tarkibini nazarda tutgan holda yana quyidagi doimiy muammoligicha turuvchi, bir nazariy fikrni to‘g‘ri talqin etadi: *“Hamma til ham qo‘shni tillardan “qarz” oladi. Busiz iloji yo‘q. Asar faqat o‘z tilidagina yozilsa, shirasiz, quruq chiqadi. Yozuvchi o‘z xalqining tilini, folklorini o‘rganishi shart va bir necha tillarni, ayniqsa, yaqin qo‘shni tillarni bilishi fazilat. Shundagina tili boyiydi, asri jonlanadi”* (“Qodiriyning qumsab” (Yodnoma). – Toshkent, 1994, 72-bet).

Matndagi birinchi fikr yirik tilshunos Mahmud Koshg‘ariyning “Dunyoda aralashmagan til yo‘q”, degan mashhur fikriga hamohangdir. Bu fikr orqali adib tillarning o‘zaro aloqasi, so‘z o‘zlashtirish kabi eng dolzarb va murakkab nazariy masalaning yechimini bayon qilyapti. Shuningdek, badiiy asarda o‘zlashgan so‘zlardan ham foydalanishning o‘rni, bu so‘zlarning asar tili rang-barangligiga, ta’sirchanligiga ta’siri masalasini ham to‘g‘ri hal etgan. Abdulla Qodiriy adib ijodiy faoliyatida o‘z tilini, folklorini mukammal o‘rganish, hayotni, xalq urf-odatlarini, turmush tarzini mukammal bilishi va ulardan foydalanishi shart ekanligini ta’kidlaydi. Ko‘p til bilishning ahamiyati, nutqni boyitishdagi o‘rnini, so‘z qabul qilish me’yorlarini ham to‘g‘ri belgilab beryapti. O‘zbek tili taraqqiyotiga to‘g‘ri baho bergan Abdulla Qodiriyning quyidagi fikri o‘rinlidir: *“O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini (“tilni yaxshi bilmasliklarini”, – demoqchi) o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”*. Adibning bu fikri tilga baho berish, uni mukammal bilish lozimligi haqida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Abdulla Qodiriy o‘z ijodiy faoliyatida nutq odobi, nutq madaniyati, muomala xulqi borasida ham eng muhim qarashlarni bayon qiladi: *“So‘z so‘zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Tuzilgan jumlaning yozuvchining o‘zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo‘lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashmovchilik solmaslikdadir”*. Bu fikrdan quyidagilarni anglaymiz: a) matndagi “so‘z” iborasi nutq ma’nosida qo‘llangan, so‘zning shunday ma’nosi ham bor va bu o‘rinda u to‘g‘ri qo‘llangan; b) so‘z jumlaning, matnning materiali, uni

shakllantiruvchi asosiy birlik – jumlar, soʻzlardan, soʻz birikmalaridan tuziladi; d) biroq jumla tuzilar ekan, uni shakllantirish uchun soʻz tanlashga juda katta eʼtibor berish lozim. Har qanday soʻzni grammatik va maʼno-mazmun jihatdan mos kelar ekan, deb ishlataverish mumkin emas. Vaziyatga, kimga aytilayotganligiga qarab, mulohaza qilib turib nutq tuzish, uni bayon qilish lozimligi uqtirilyapti. Tanlangan soʻzlarning hammaga barobar tushunarli boʻlishi, soʻzlar oʻzi ifodalayotgan tushunchalar mohiyatiga mos boʻlishi lozimligiga, yaʼni nutq aniqligi, mantiqliligi, ayniqsa, joʻyaliligi talablariga javob berishi kerak. Abdulla Qodiriy oʻz fikrini davom ettirib: *“Qalam-oʻqlogʻ, adabiyot-ketmon bozori emas. Yoʻsinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir soʻzdan jumlar toʻqimoq fazilat sanalmaydi. Soʻz qolip (“soʻz” bu oʻrinda gap-jumla maʼnosida), fikr uning ichiga quyilgan gʻisht boʻlsin, koʻpchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos boʻlib yotsin”*. Bu fikr bilan adib “Gapning oʻziga xos maʼlum qoliplari, andozalari bor. Ular milliy tilda davrlar oʻtishi bilan shakllangan-sayqal topgan. Milliy tilning oʻziga xos Grammatik- semantik qonun- qoidalari asosida tarkib topgan, fikrning nutqdagi shaklidir. Ana shu andoza – fikr ifodachisi. Bu fikr va shakl mosligini yuzaga keltiradi. Mazmun va shaklning mosligini nutqiy jarayonda uygʻunlashadi, qoliplashadi, koʻpchilik xumdonida pishadi, meʼyorlashadi, hayotga yoʻl oladi”, demoqchi. Jumla tuzishda soʻz tanlashning nihoyatda muhim ekanligi adib tomonidan qayta-qayta taʼkidlangani bejiz emas. Chunki soʻz fikrning aniq, loʻnda va mantiqli ifodasi uchun xizmat qilishi lozim. Abdulla Qodiriy ana shunga oʻquvchi eʼtiborini tortmoqchi.

Adib *“Fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan soʻz va jumlalarga yozuvchi aslo oʻrin bermasligi lozim. Shundagina iborani tuzatib bosishga yoʻl qoʻymagan, mustaqil uslub va ifodaga ega boʻlib, oʻzimizning qalamdagi istiqbolingizni taʼmin qilgan boʻlasiz. Kishiga ishonish va behuda kuchanish maʼqul gap emas. Birovga orqa qilib, oʻzingizda boʻlgan talantning ruhiga fotixa oʻqiy koʻrmangiz. Bir soatda emas, oʻn soatda yozish, bir qayta emas, oʻn qayta tuzatish kishining yordamiga termulishiga qaraganda ham foydali ham umidlidir”*, – deya haqli fikrni

bildiradi. Ko‘rinadiki, bu fikr zamirida ham, asosan, jumla tuzishga e‘tibor, so‘z tanlash, uni qo‘llashga e‘tibor haqida fikr boryapti. Haqiqatan ham, izohga hojat yo‘q. Chunki fikrni qisqa, lo‘nda, aniq ifodalashda so‘z tanlash masalasiga jiddiy e‘tibor berishligining muhimligi adibning qarashlarida keng o‘rin olmoqda.

Adibning uslub haqidagi fikri ham uslubiyatga aloqador bo‘lgan mavjud fikrlarga aniqlik kiritadi, ularni nazariy jihatdan to‘ldiradi, boyitadi: *“Uslub degan narsa, til bilishga bog‘liq bo‘lgan va har bir yozuvchi tilining xarakteri kabi bo‘lib tanilgan bir xususiyatdir. Yozishga malaka hosil qilingach, uslub ham o‘z-o‘zidan tug‘iladi.”* Abdulla Qodiriy uslub so‘zi mohiyatini ancha chuqur his etgan, ya‘ni har bir yozuvchining o‘ziga xos yozish uslubini ham, umumxalq tilining tarmoqlanishini ham, shu bilan birga til birliklarining nutq jarayonida reallashuvchi imkoniyatlaridan foydalanishni ham shu uslub doirasida qaraydi. Uning *“Uslub degan narsa til bilishga bog‘liq”* degan qarashi buni isbotlaydi: a) tilning tarmoqlanganlik holatini xis etish, albatta, til bilish bilan bog‘liq; b) yozuvchining o‘ziga xos uslubi borligi (shakllanganligi) ham uning til va uning imkoniyatlarini bilish bilan bog‘liq; v) til birliklari imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanish mahoratining namoyon bo‘lishi ham yozuvchining o‘z tilini qay darajada bilishi bilan bog‘liqdir. Demak, yozuvchi – nutq egasi til birliklari imkoniyatlarini bilgani holda, bu imkoniyatlardan o‘ziga xos tarzda foydalanishi bilan o‘z uslubini yaratadi. Abdulla Qodiriy uslub haqida, asosan, to‘g‘ri nazariy fikr aytish bilan birga, amaliyotda, o‘z asarlari orqali fikrining to‘g‘ri ekanligini ham asoslaydi, ko‘rsatadi.

Abdulla Qodiriyning so‘z, uning ma‘nosi, izohlanishi, yozilishi haqidagi fikrlari, bu masalalar bo‘yicha qarashlari adibning to‘g‘ri yozish, so‘z ma‘nolarini to‘la anglagan holda qo‘llash masalalariga ham jiddiy e‘tibor berganligini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda adibning G‘ozi Yunus bilan bo‘lgan quyidagi muloqotini keltirmoqchimiz: *“– Haqiqatdan qochib, tilga yangi qoidalar tuzish razolatdir, o‘rtoq!”* (G‘ozi Yunusga nisbatan aytilgan fikr – S. N.); *“Men “so‘zda iqtisodsizlik”, deb “Mushtum”ning nihoyatda serso‘z va kam ma‘no ekanini murod tutgan edim. Mulla G‘ozi bo‘lsa “iqtisodsizlik” zamirida tilimizning ishlanmaganini, uslubsizlikni va*

*tag'in allanima balolarni ko'rsata kelib: "Bu kun imlochilarning har biri bir boshqa imlo bilan yozg'anda bir jumla so'zni o'n kishi o'n xil tuzadir", deb o'zini kulgili bir holga qo'yadir. Sizga muallimlik qilmayman-ku, biroq aytib o'taman: bir jumla so'zni, albatta, o'n kishi o'n xil tuzadir (bu o'rinda bir fikrni o'n kishi o'n xil shaklda ifodalashi mumkinligi haqida, deb tushunish kerak – S. N.). Siz buni bir xil yozmaydi, deb ayt mangki, uyat. Agar qabul qilsangiz, bir ma'noni anglatqan bir jumlaning o'n kishi tarafidan o'n turlik yozilishi siz aytgan imloning tuzalishiga hyech bir vaqt qaramaydurg'an tabiiy bir qonundir. Imlo tuzalgach, kishilar bir tuz, bir surat va bir bo'yda tug'iladirlar, deb qarash ayniqsa sizga – G'ozini Yunusga yarashmaydir... ”*⁷⁹.

Aytish kerakki, albatta, bu o'rinda ikki adib nutqlarida tub mohiyatni tushunishda yondashish boshqacha bo'lgan. Ya'ni G'ozini Yunus so'zlarning to'g'ri yozilishi bo'yicha imlo qoidalaridagi har xillik haqida hamda to'g'ri yozish bo'yicha imlo qoidalari pishiq ishlanmagan taqdirda, so'zni turli xil yozish holati yuz berishi xususida fikr yuritgan bo'lsa, Abdulla Qodiriy har bir ijodkorning bir fikrni turli xil ifodalashi, jummalarni har xil tuzishi mumkinligi, ya'ni uslubiyat haqida fikr yuritib, G'ozini Yunusni ana shu holatning farqiga bormaganlikda ayblayapti. Bu oddiy anglashilmovchilik bo'lgan. Bu o'rinda o'z tushunishlaricha, G'ozini Yunus ham, Abdulla Qodiriy ham haq. Ular masalaga ikki tomondan yondashmoqdalar, xolos. Shuningdek, *“falagimizga tushkan shung'iylar”* yoki *“palagimizdan shung'iya chiqdi”*, *“palagimizni shung'iya bosdi”* birikmalarining yozilishi haqida gap borganda ham, har ikki adib yondashuvida har xillik kuzatiladi. Bunda G'ozini Olim *“palak”* so'zining *“falak”* tarzida yozilishiga e'tiborni qaratsa, Abdulla Qodiriy *“shung'iya chiqdi”*, *“shung'iya tushdi”*, *“shung'iya bosdi”* birikmalaridagi *“chiqdi, tushdi, bosdi”* so'zlarining qo'llanish holatiga e'tibor beradiki, bu ham anglashmovchilik oqibati. Shunga qaramay, gapda to'g'ri jumla tuzish, so'z ma'nolarini farqlab qo'llash haqida borayotganligining o'zi biz uchun qimmatli. Chunki bu narsa Abdulla Qodiriyning har

⁷⁹ Ҳабибулла Қодирий. Отам ҳақида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 252.

bir soʻz, uning maʼnosi, qoʻllanishiga eʼtibor berganligini tasdiqlovchi dalillar.

Abdulla Qodiriyning imlo, soʻz, soʻz qoʻllash, uning maʼnolariga eʼtibor berish borasida qayd etgan fikrlari uning “Moskov xatlari” nomli asarida ham oʻz ifodasini topgan: “... Endi bu uch gazetamiz imlosi ustida darozliq (qoʻli uzunlik) qilayliq... . Surnaychilardan bittasi mashq qilib turgan ekan, shul vaqt savili (orqadagilar) ham qoʻshilishib yuboribdir. Bu bemaza mashqdan achchigʻlangʻan surnaychi surnayini qoʻligʻa olib: – Yo san chal va yo man chalay! – degan. Shunga oʻxshash bizning imlolarimizning “Unisi qolsin-u va yo bunisi!”. Shu choqqacha bu toʻgʻrida soʻz aytguchi birorta bemaza mardikor yoʻqligʻi ajoyib bir hodisadir. Hozirgi gazetalarimizdan olgʻan taassurotim shugina, boshqa gaplar boshqa vaqtgʻa”. (Қодирий Ҳабибулла. Отам ҳақида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. 258-бет).

Bu yerda gap “Fargʻona”, “Zarafshon”, “Kommunist” gazetalaridagi xato jumlar xususida borgan. Abdulla Qodiriy “Kommunist” gazetasida “loyihaning ogʻurlashtirilganligʻini soʻzladilar” gapidagi “ogʻur” soʻzini “ogʻir” tarzida, “moʻpirning xitobasi” birikmasidagi “moʻpir” soʻzining “mopr” tarzida, “xitobasi” soʻzini “xitobnomasi” shaklida yozilmaganligini, shuningdek, “chegirish” soʻzi oʻrnida “guzasht” soʻzi nooʻrin qoʻllanganligini jiddiy tanqid ostiga olib, imloga boʻlgan oʻz munosabatini bayon qilgan.

Lugʻatchilik faoliyati. Abdulla Qodiriyning shogirdlaridan Malik Rahmon “Toʻgʻrisoʻz ustoz” deb nomlangan xotira maqolasida quyidagi fikrlarni aytadi:

“... Oʻsha davrda (1930-yillar) ishlarimizga Oʻzbekiston fanlar komitetining boshligʻi Otajon Hoshimov katta yordam qilgan edi. Komitetda til-imlo, atamalar, lugʻat tuzuvchilar boʻlimlari tashkil etilgan edi. Abdulla Qodiriy, Sanjar Siddiq va Nabi Alimuhamedovlar lugʻatlar tuzishda juda katta xizmat qildilar. Oʻzbek tilining besh tomlik ruscha-oʻzbekcha lugʻati shular ishtirokida dunyoga kelgan edi. Abdulla Qodiriyning atamalar

sohasidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib, shu sohaga – terminkomga bosh maslahatchi – konsultant etib tayinlashdi".⁸⁰

Abdulla Qodiriyning lug'at tuzishda ishtirok etganligini uning "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1934-yil 11-avgustdagi 184-sonida e'lon qilgan "Lug'at pudratchiligi va quruq rasmiyat" nomli maqolasida keltirgan quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: "... So'ngra O'znashr tazyig'i ostida kollektiv a'zolari bilan kelishib tuzilgan shartnoma asosida "P" harfini ishlab berishni so'rab ("P" harfi bilan boshlanuvchi barcha so'zlar nazarda tutilyapti – S. N) menga murojaat qiladi. Men qabul qilaman, bir qancha vaqtlar o'tib "P" harfini tuzib chiqaman. Kollektiv qabul qilib oladi... "P" harfidan 497 so'zdan boshqasi ("P"ni taxminan 11 000 so'z deylik – A. Q.) Abdulla Qodiriy tomonidan ishlangan. Bunda Saidovning hech qanday alog'a va xizmati yo'q. O'znashr hisobni Abdulla Qodiriy bilan yurguzsin, mazmunli qaror chiqarib nusxasini O'znashrga yuboradi. O'znashr kollektivning qaror va murojaatiga iltifot qilmaydi. Biz formal ravishda Abdulla Saidovni taniymiz, siz bilan ishimiz yo'q, sudga beringiz, deydi. Ish, xizmat meniki, O'znashr arxivida saqlangan asl qo'lyozma meniki, ammo bu mehnat baravariga haq olish "vijdonli" Saidovniki!".⁸¹

Abdulla Qodiriyning lug'atchilik bilan ancha jiddiy shug'ullanganligini, bu borada ancha tajribaga ega ekanligini uning o'g'li Habibulla Qodiriyning quyidagi fikrlaridan ham to'la anglash mumkin: "Yodimda shu shiypon tagiga g'isht terilayotganida Yudaxin familiyali bir rus kishi dadamni so'rab keldi va rus bo'lishiga qaramay, u hamma usta-mardikorlar bilan "horma, bor bo'l" qilib o'zbek tilida so'rashib chiqdi. Yudaxin sharqshunos, shu yillarda birinchi o'zbekcha-ruscha lug'at tuzar va shu munosabat bilan Qodiriydan ba'zi bir maslahatlar olgani biznikiga kelgan ekan... U portfelidan bir dasta qog'oz chiqarib dadamga ko'rsatgan edi. Qog'ozlarda qator qilib arab alifbosida o'zbekcha va ruscha

⁸⁰ Малик Раҳмон. Тўғрисўз устоз. Қодирийни кумсаб. Ёднома. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. 15-бет.

⁸¹ Абдулла Қодирий. Диёри бакр. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Хондамир Қодирий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 390-бет

soʻzlar yozilgan edi... . Yudaxinning 15 000 soʻzlik bu lugʻati 1927-yilda bosilib chiqdi”⁸².

K. Yudaxin kabi yirik tilshunos, shevashunosning oʻz vaqtida Abdulla Qodiriydan soʻzlar izohlarini berishda maslahat olishi bejiz emas, albatta. Bu holat ulugʻ adib Abdulla Qodiriyning lugʻat tuzish boʻyicha ham maʼlum tajribaga ega boʻlganligidan dalolat beradi. Oʻgʻillari Habibulla Qodiriy oʻzining “Otam haqida” kitobida, haqiqatan ham, Abdulla Qodiriy “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzli lugʻat”ining 11000 soʻzdan iborat “P” harfini tuzganligini alohida qayd etadi: *“1933 yilning kech kuzagi edi, shekilli, dadam bir-ikki oy oʻtirib, “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzli lugʻat”ning “P” harfini tuzdilar. Yodimda, u kishi sandalda oʻtirib, atroflariga oʻnlab rus, oʻzbek, arab, turk lugʻatlarini yoyib qoʻyib, alfavit boʻyicha kitoblardan yangi soʻzlar izlar va topib yozgach, lugʻatlardan unga yana maʼno qidirar edilar... 34 ming soʻzdan iborat lugʻat 1934-yil yozida lotin alifbosida bosilib chiqdi*”⁸³.

Abdulla Qodiriy asarlarining tili bir qancha lingvistik tadqiqotlarda oʻrganish manbai boʻlgan. Biroq bu tadqiqotlarda u hammualliflik qilgan “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik”ning leksikografik xususiyati hamda adibning lugʻatchilik faoliyati xususida mukammal maʼlumot keltirilmagan. Bu oʻrinda ulugʻ adibning lugʻatchilik sohasidagi faoliyatini oʻzi yaratgan soʻzlikning leksikografik xususiyatlari misolida tahlil qiladigan boʻlsak, adib ijodining lugʻatshunos sifatidagi yana bir ochilmagan qirrasiga guvoh boʻlamiz.

Maʼlumki, lugʻat soʻz yoki atama maʼnosining yoritilishiga koʻra izohli va izohsiz turga boʻlinadi. Soʻz yoki terminning imlosini, tushunchaning ruscha-oʻzbekcha yoki oʻzbekcha-ruscha nomini berish bilan cheklangan lugʻat izohsiz lugʻat deb atalsa, shunday soʻz yoki termin maʼnosiga tushuntirish beradigan lugʻat izohli lugʻat deb atalishi maʼlum. Bu jihatdan ulugʻ adib hammualliflik qilgan “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik” (2-jild, 34 ming soʻz, Toshkent-Qozon, 1934) izohsiz lugʻat sirasiga kiradi.

⁸² Ҳабибулла Қодирий. Отам ҳақида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. 121-бет

⁸³ Ҳабибулла Қодирий. Отам ҳақида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. 159-бет

Lekin, shunga qaramay, “P” harfi bo‘yicha adib tomonidan ishlangan ruscha so‘zlarning o‘zbekcha tarjimasida so‘zning ma’nosini to‘laroq ochib berish maqsadida turli leksikografik izoh usulidan foydalanilganligining guvohi bo‘lamiz: **a) tarjimada ruscha so‘zlarning o‘zbek tilidagi xalqona variantlarini keltirish** *перемёрзлый* – to‘ngg‘an, muzlab qolg‘on;⁸⁴ *непесудчик* – g‘aybatchi, so‘zchin (104); *непышка* – kashnish, qog‘ursoq (123); *паненка* – oyimqiz, bikach, qaqajon (13); *паг* – dara, uchastka, kent (1); *пелмени* – chuchvara, barak (45); *панел* – salmataxta (13); *немза* – yong‘irtosh (45); *простыня* – choyshab, ro‘ja (453); **b) sinonimlar yordamida izohlash** *памятоват* – eslamak, yodlamak, xotirlamak, eska tushurmak (11); *напуа* – kal, toz, yag‘ir (32); *пассажир* – yo‘lchi, yo‘lovchi, safarchi (34); *папера* – idish, jom, qadah (36); *пеняные* – o‘pkalash, arazlash, kinalash (48); **v) so‘z ma’nolarini zidlash asosida izohlash** *положительный* – musbat, manfiyning aksi (255); *проза* – nasr, o‘lchaksiz so‘z, nazmning teskarisi (421); **g) iboralar yordamida izohlash** *навлинится* – kekkaymoq, “kattalik qilmoq” (1); *перекоробит* – egmak, sindirmoq, “ko‘nglini og‘ritmoq” (74); *перекрошивает* – uvoqlamoq, uvalamoq, mayda-mayda qilmoq, “tit-pit qilmoq”; **d) tarjimada ruscha so‘zlarni parallel keltirish orqali izohlash** *печатник* – chopchi, matbaachi, pechatnik (124); *понутчик* – yo‘ldosh, safardosh, poputchik (284); *портсигар* – popiros qutisi, portsigar (295); *приказчик* – magazin xizmatchisi, prikazchik (364); **e) okkazional yasalmalar orqali izohlash** *паломничество* – ziyoratchilik, hajchilik (8); *памятливость* – yodliligi, esda tutuvchanlik (10); *переговороват* – yillamoq, yil kechirmak (61); *пережитый* – uzoq yashov, yashamolliq (68); *подёшник* – kunlikchi, mardikor (187); *подставка* – xarrak, ko‘targi, taglik (212); *покрыв* – qopqoq, yopqi, o‘rama (242); *принправа* – dorivor ta’mلاغич (383).

Abdulla Qodiriy lug‘at tuzishda, eng avvalo, ona tili – o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilgan. Ruscha

⁸⁴ Қодирий А., Раҳматий С. Русча-ўзбекча тўла сўзлик 2-жилд, П-Я ҳарфлари. – Тошкент – Қозон: Ўздавнашр, 1934. – Б. 81. Кейинги мисолларда қавс ичида луғат саҳифалари кўрсатилмоқда.

soʻzlar tarjimasida uchraydigan oʻzbekcha soʻzlar koʻproq xalq hayoti, kishilarning kundalik turmushida uchraydigan tushuncha va tasavvurlarni ifoda etadi va ular umumxalq uchun tushunarli. Bu hol lugʻat tilining jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlam vakillari qatorida oddiy xalq uchun ham tushunarli boʻlishini taʼminlagan. “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik” dagi izoh usullarini tahlil qilish lugʻat XX asr boshlaridagi oʻzbek lugʻatchiligining yetakchi xususiyatini oʻzida ifodalaganini koʻrsatadi. Bu xususiyatdan eng muhimi – lugʻat tilini soddalashtirish, xalqchil, xalqqa yaqin qilishga intilish. Ushbu ishga Abdulla Qodiriy “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik” dagi ruscha soʻzlar tarjimasini xalqqa tushunarli qilib ifodalash orqali munosib hissa qoʻshgan.

Abdulla Qodiriyning hammualliflikda yaratgan “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik” lugʻati soʻzligining miqdori, leksikografik izohlarning semantik mukammallik darajasi hamda hozirgi ikki tili tarjima lugʻatlariga xos leksikografik ishoralardan samarali foydalanganligi, xalqchilik, soddalik tamoyillarida tuzilganligi bilan oʻsha davrda yaratilgan boshqa lugʻatlardan ajralib turadi. Lugʻat XX asr boshlaridagi oʻzbek lugʻatchiligining yetakchi xususiyatlarini oʻzida ifodalagan va jamlagan noyob manbadir. Bu Abdulla Qodiriy buyuk adib va soʻz sanʼatkori hamda isteʼdodli lugʻatshunos ekanligini ham koʻrsatadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Abdulla Qodiriyning nutq madaniyati va uslubiyatga oid qarashlarini izohlang.
2. Davr adabiy tilining shakllanishida A. Qodiriy asarlari tili qanday rol oʻynagan?
3. Abdulla Qodiriyning zamonaviy oʻzbek leksikografiyasining shakllanishidagi xizmatlariga baho bering.
4. Abdulla Qodiriy hammuallifligida yaratilgan “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik” lugʻati soʻzligini mazkur davrda yaratilgan boshqa tarjima lugʻatlari soʻzligi bilan qiyoslang.

Adabiyotlar:

1. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 218 б.

2. Тожиев Ё. Тил жозибаси (Адабиёт, бадиият, абадият) – Тошкент: Университет, 2004;

3. Ҳабибулла Қодирий. Отам ҳақида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 252.

4. Қодирий А. , Раҳматий С. Русча-ўзбекча тўла сўзлик 2-жилд, П-Я ҳарфлари. – Тошкент – Қозон: Ўздавнашр, 1934.

5. Нормаматов С. Жаид адибларининг луғатшунослик фаолияти. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. –179.

6. Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз... . дисс. – Тошкент, 2007.

3. 8. ABDULHAMID CHO‘LPON

Tayanch so‘z va iboralar: *jonli xalq tili, kasb-hunar leksikasi, nutq madaniyati, uslubiyat, so‘z qo‘llash, terminologik tizim, leksikografik tamoyil, okkazional yasalma, leksikografik ishora, xalqchillik, tarjima lug‘at.*

XX asr o‘zbek adabiy tilining rivojlanishida o‘ziga hos davr bo‘ldi. XX asr boshlaridan 1930-yilgacha bo‘lgan davrda tilning barcha sathlarida, hususan, fonetik, leksik, sintaktik tuzilishlarida o‘ziga xos o‘zgarishlar bo‘ldi. Bunday o‘zgarishlar jamiyatdagi ilg‘or ziyolilar ijodida o‘z aksini topdi.

Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan har qanday hodisa qanday davrda bo‘lishidan qat’iy nazar badiiy adabiyotda, publitsistikada o‘z aksini topadi. Bu jarayon esa til vositasida yuzaga chiqadi. Cho‘lpon o‘z ijodi bilan 20-30-yillardagi ijtimoiy hayotni haqqoniy ifodalashga, tilimizning bor bo‘yi-bastini ko‘rsatishga harakat qildi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakillanish jarayoni juda murakkab. Bu til 20-yillardan boshlab eski o‘zbek adabiy tilining eng yaxshi an‘analarini davom ettirgan holda, iqtisodiy, siyosiy va madaniy shahar-shevalari zaminda rivojlana borish asosida to‘liq shakillandi. 20-30-yillarda o‘zbek adabiy tilining ichki qurilishida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tili hozirgi zamon adabiy tilining shakillanish arafasidagi tildir. Unda, bir tomondan eski turkiy va eski o‘zbek adabiy tiliga xos turli unsurlar saqlanib qolgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, hozirgi o‘zbek tiliga xos ko‘pgina yangi so‘z, shakl va konstruksiyalarning paydo bo‘lganligini ko‘ramiz.

20-yillarda o‘zbek tilida yuz bergan o‘zgarishlar, dastlab o‘zbek vaqtli matbuoti tilida o‘z ifodasini topdi. Chunki yozma adabiy tilning boshqa usullariga oid asarlar, jumladan, turli darsliklar, lug‘atlar, ilmiy va badiiy asarlar tilidagi o‘zgarish, rivojlanishni aks ettirishda vaqtli matbuotga nisbatan ancha orqada qolgan edi.

Cho‘lponning mahorati nafaqat prozada, lirikada, balki publitsistik janrda ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ldi. Ma’lumki tilning boshqa uslublariga qaraganda publitsistik uslub o‘ziga hos o‘ringa ega. Chunki bu uslub orqali omma bilan doimiy ravishda

muloqot olib boriladi va ommaga tezkor axborot yetkazib berish vazifasini bajariladi. Shu bilan birga bu uslub omma ongiga ta'sir etishda birlamchi vosita hisoblanadi. XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan taraqqiyparvar jadidchilik harakati o'z matbuoti orqali ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng ommaga targ'ib etar ekan, hayotdagi jaholat, mutaasiblik va qoloqlikka qarshi kurashda publitsistik uslubdan keng foydalandi. Publitsistik uslubning keng namoyon bo'ladigan sohasi esa, asosan publitsistikadir. Cho'lpon serqirra ijod sohibi sifatida o'zbek publitsistik uslubining shakllanishiga barakali hissa qo'shdi. Adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish harakati aynan Cho'lponning publitsistik maqolalarida ko'zga tashlanadi. Bu holat uning so'z qo'llash, leksemalardan foydalanish mahorati bilan belgilanadi. Ayniqsa, hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlarining panturkizm ta'siridan holi ravishda o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlariga tayangan holda belgilanishida Cho'lponning xizmatlari katta bo'ldi. U publitsistik matn tilining jonli xalq tili asosidagi adabiy tilda bo'lishini ta'kidlab "Muhtaram yozuvchilarimizg'a" nomli maqolasida shunday deydi: "Onda aralashub yurulsa, ondagi so'zlarni, odatlarni o'rganmoqqa bo'ladurki, kitob betlariga ko'churub yozmoqqa materyollarning eng asllari xalq orasidan olinur"⁸⁵ Cho'lpon qaysi janrda qalam tebratmasin so'z qo'llash masalasidga doim jiddiy e'tibor qaratdi. "Turkiston" gazetasining 1923 yil 1-aprel sonida bosilib chiqqan "Tilimizning ishlanishi" nomli maqolasida "Buxoro axbori" gazetasi haqida "ko'zga qadalaturg'on bitta zo'r xato" borligini, u ham bo'lsa, gazeta sahifalaridagi "til, sheva kamchiligi, to'g'risi, tilga ahamiyat bermaslik xatosi" ekanligini ta'kidlaydi.

Cho'lpon publitsistik asarlarini kuzatish jarayonida tilimizda publitsistik uslub shakllanishi, umuman, hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibining yangilanishi hechog'li ziddiyatli kechganiga guvoh bo'lamiz. Cho'lpon, bir tomondan, so'z o'zlashtirish zaruratini sezadi, ikkinchi tomondan esa, o'zlashma so'zlarni milliylashtirishga harakat qiladi. Jumladan, arabcha, forsha o'zlashmalarni yangi ma'noda qo'llash bilan birga, ularni o'zbekchalashtirishga intiladi. Masalan, "...*Bu sahna bu kun ulug' va **yarashar** bir Sharaf bilan*

⁸⁵ Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973. -Б. 113.

o‘zining ellik yillik bayramini o‘tkazmakdadir...” (Cho‘lpon. Sahnalar tegrasida // “Turkiston” gazetasi, 1923-yil 15-aprel, 109-son); “...*Elning o‘z turmushini ingichka qilib ko‘rsatmak...*” (Cho‘lpon. Sho‘rolar hukumati va sanoii nafisa // “Qizil o‘zbekiston” gazetasi, 1936-yil 20-iyun); “...*Asarda darrov sezilaturg‘on bir qarshilik (ziddlik-противоположность) bor...*” (Cho‘lpon. Iblis // “Turkiston” gazetasi, 1923-yil 14-mart, 10-son). Keltirilgan misollarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘z qatlamga mansub bo‘lib, ular tilimizga singib ketgan “munosib”, “ziddiyat”, “nafis” so‘zlari o‘rniga qullanayapti.

Ma’lumki, asrimiz boshidagi o‘zbek tili va uning uslubiga forsiy, arabiy, usmonli turk, tatar tillarining ta’siri keragidan ortiq edi. Bu tabiiy ravishda har qanday adabiy-badiiy matinning tushunilishini qiyinlashtirar, ularning ta’sir kuchini susaytirar edi. Ilg‘or fikrli ziyolilar bu salbiy holatdan qutilish borasida jiddiy sa’iy-harakat ko‘rsatganlar. Cho‘lpon “Tilimizning ishlanishi” nomli maqolasida “Buxoro Axbori” gazetasidagi bunday qusur haqida taassuf bilan shunday yozadi: “*Lokin yo‘ldoshimizning (“Buxoro Axbori” gazetasining) doimiy ko‘zga qadalaturg‘on bitta zo‘r xatosi bordirki, uni xayrixohlik bilan aytib o‘tmasak bo‘lmaydir. Bizning ko‘rsatmak istaganimiz kamchilik – til, sheva kamchiligi, to‘g‘risi, tilga ahamiyat bermaslik xatosidir. Bosh sarlavha yonida “adabiy jaridai turkiya” deb yozilgan bu gazeta, ma’lumdirkim, o‘zbek shevasida chiqadir Buxoro hokimiyatining rasmiy tili ham o‘zbekchadir. Buxorodek fors-eron ta’siriga ortiq yutulub ketib, o‘z tilidan ajralib qolg‘on bir o‘lka uchun, u yerdagi ko‘pchilik avom uchun tilning ahamiyati juda zo‘rdir. Holbuki, “Axbor” yo‘ldoshimizda bu jihatga sira diqqat etilmaydir yoki etila olmaydir...*” (Cho‘lpon. Tilimizning ishlanishi // “Turkiston” gazetasi, 1923-yil 1-aprel).

1905-1917- yillarda Turkistonda bosilgan vaqtli matbuotni chuqur o‘rgangan tadqiqotchilar bu to‘g‘rida shunday yozadilar: “Sadoi Turkiston” gazetasi va “Oina” jurnali o‘zbek milliy adabiyoti tilning rivoji va sofliigi uchun faollik ko‘rsatdi. Badiiy asarlar yozishda tushunilishi qiyin arabiy, forsiy jumalardan foydalanishiga qarshi chiqdi, “*Bas, biz aql arbobining biror narsa yoza boshlasa, iboralarning arab va forsiy lug‘atlari ila to‘ldirmaklari ilm va*

fazlga aslo dalolat qilmaydur. Eng fozil va komil bo'lg'on insonlar o'zlarining ko'ngillaridagi fazl va kamolni aholining ona tillarida so'ylab tushuntururlar” (//“Turkiston viloyatining gazetisi”, 1914, 85-son).

Aytish kerakki, asrimiz boshidagi til jarayonlarning ahvoli, jonli so'zlashuv tili bilan yozma asarlar tili o'rtasidagi munosabat, yozma adabiy tilning shakillanishi va rivoji bilan bog'liq masalalar ancha murakkabdir. O'zbek tilining sofligi va soddaligi uchun xolis ilmiy mantiq bilan tinimsiz kurashga Abdurauf Fitrat 1928- yildagi til va imlo qurultoyida so'zlagan nutqida mazkur ahvolning tub ildizlarini, masalaning mohiyatini atroflicha ochib bergan: Boshqa turk ellari tomonidan chiqorilg'on gazetalar va kitoblarni o'qidik. Usuli jadid maktablari ham ochdik. Ilgarirak bosub gazet ham chiqardik. Maktab uchun, gazet uchun tilimiz kerak bo'lib qoldi. Uni yangidan qayg'ura boshladik, tushuna boshladik. Bu ishlarni qilg'onlar – bizning ochiq fikrlilarimiz, ziyolilarimiz edilar. Bularning sonlari oz, ishlari ko'b edi. Muallimimiz, adibimiz, shoirimiz, siyosiyimiz, faylasufimiz hammasi shular edilar. Bunlar shuncha ishlari bilan birga til va adabiyotni ham chuqurroq, teranroq tekshira olmadilar. Tilimizni tushunar ekan, “kep qopsiz” kabi buzuq so'zlar, yozuvimizni axtarar ekan, xaligi madrasa maktublariga uchradilar. Bunlar, albatta, sovuq edi, yaramas edi.

Holbuki, bir yoqdan tili oz-ko'p tuzalgan tatar gazetalar ham yozilg'on kitoblari turar edi. Mana shunday kulinch bir holda qolg'on burungi ziyolilarimiz: “tilimiz ilmiy, adabiy bir til emas ekan”, degan kulinch bir qarashga ham keldilar.

Mana shuning bilan maktablarimiz, yozuvlarimiz usmonlicha ta'siri ostida qoldilar. Toshkentda ochilg'on ona tili saboqlari uchun berilgan soatlarning ko'bragi usmonlichaga berildi. Mana shu ishlarning hammasi tilimizni taxqir etish, tilimizga hurmatsizlik ko'rsatish edi. Bunlarning hammasi til-adabiyotimizni yaxshigina tanimaslikdan kelgan edi. Mana shularning hammasiga yog'iqmoq, isyon etmak, shularning hammasi bilan kurashmak ucun yosh va yigit bir kuch 18 yilda maydonga keldi”.

Bu “yosh va yigit bir kuch” o'zbek tili, imlosi, adabiyoti, san'ati va madaniyatini milliy asoslarda rivojlantirishday ulug' maqsadlar bilan Fitrat rahbarligida tashkil etilgan va Elbek, G'ozir Yunus, Botu,

Saidalixo‘ja, Sanjar Siddiq, Qayum Ramazon, Cho‘lpon, Shorasul, Zunnun kabi o‘z zamonasining ilg‘or ziyolilarini birlashtirgan “Chig‘atoy gurungi” jamiyati edi. O‘zbek adabiy tilining mutlaqo sof va tabiiy o‘zanlarda rivoj topishi yo‘lida maktablar ochgan, o‘zbek tilining ilmiy grammatikalarini yaratgan Fitrat Boybo‘latov degan kimsaning tuxmatona tanqidlariga yozgan “Yopishmagan gajaklar” nomli ochiq xatida bu jamiyatning maqsadi haqida, jumladan, quyidagilarni ta’kidlaydi: “...Maktablarda usmonli tili, usmonli adabiyoti ona tili darslari o‘rnida qabul qilindi. Mana shu harakatga qarshi o‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti shiorlari ostida “Chig‘atoy gurungi” tashkil qilindi. “Chig‘atoy gurungi” o‘zbek millatchiligi, o‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti shiorlari ostida panturkist to‘dalarga va shunga berilgan o‘ng jadidlarga qarshi kurashdi. .”.

Fitrat 1919-yilda “Tilimiz” nomli maqolasida o‘zbek tilining osha paytdagi holatidan benihoya yozg‘irib, kuyib yonib shunday degan edi: *“Turkcha baxtsizdir. Ming yildan beri ezila kelmishdir. Lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. Negakim boydir. Turkcha yashamishdir. Yashar, lekin o‘zini arab, fors tillaridan qutqara olurmi, yo‘qmi? So‘zni bu yerga yetirgach, barmog‘imni yaraning o‘zagiga bosmish bo‘ldim...”*

Milliy adabiyotning takomiliga, eng avvalo badiiy asar tilini soddalashtirish orqali erishish mumkin deb hisoblagan Cho‘lpon ham Fitrat ham o‘zbek adabiy tilining tabiiy, tabiatiga muvofiq tarzda rivojlanish yo‘lida barakali mehnat qildi. Umuman, G‘. Abdurahmonov alohida aytib o‘tganidek, *“Adabiy til va uning uslubini soddalashtirish, so‘zlashuv tilidagi boy imkoniyatlarni o‘rganib, ularni adabiy tilga singdirish jarayoni XX asarning birinchi choragida, ayniqsa, 20-yillarda keng ko‘lamda olib borildi”* (//Ўзбек тили ва адабиёти -Тошкент, 1994. 4-сон). Cho‘lpon o‘z safdoshlari bilan birga keng ommaga tushunarli bo‘lgan o‘zbek adabiy tilini shakllantirish, bu tilni jonli tilga yaqinlashtirishga jiddiy hissa qo‘shdi. O‘zbek adabiy tilining leksik jihatdan boyishi, grammatik jihatdan sayqallanishi, mukammallashishi, umuman, takomillashishida Cho‘lponning hizmatlari alihida ahamyatga molikdir. Uning bu boradagi hizmatlari o‘z davridayoq nafaqat xayrixohlari, balki beshafqat tanqidchilari, to‘g‘rirog‘i, qoralovchilari tomonidan ham ilojsiz ochiq e’tirof etilgan. Masalan,

1927-yilda adibga “Cho‘lpon yo‘qsul halqning shoiri emas, u millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir” degan tuturuqsiz siyosiy aybni qo‘yib turgan Olim Sharofiddinov ayni shu maqolasining o‘zida uning tiliga qoyil qolib shunday yozadi: *“Uning tili soda, har turli fikr tuyg‘ularini ifoda qilishga yararlik ham nuqsonsizdir. Bu kungi o‘zbek adabiy tili, shubhasiz, Cho‘lpon tilidir. Cho‘lpon buning bilan taqdir etarlik maqtarlikdir”*.

Betakror so‘z ustasi Oybek ham o‘sha yillarda Cho‘lpon asarlari tili haqida haqqoniy gaplarni yozgan edi: *“Bugungi yosh nasl uning sodda tilini, totli uslubini, texnikasini ko‘p sevadi. Undan ko‘p go‘zalliklar oladi. . ”*. Ko‘rinadiki, Cho‘lpon o‘zining butun nasriy va nazmiy ijodi, butun ma‘rifatparvarlik faoliyati bilan hozirgi o‘zbek adabiy tilimiz mezonlarining shakillanishi va takomiliga samarali hissa qo‘shgan ulkan adibdir.

Cho‘lponning nasriy nutqdagi badiiy mahoratining cho‘qqisi bo‘lmish “Kecha va Kunduz” romani nafaqat yozuvchining estetik idrokini, balki o‘zbek tilining estetik mohiyatini ham namoyon eta oladigan asardir. Bu roman tilining lingvopoetikasi Cho‘lponning badiiy til mahoratini ko‘rsatadi. Ayni paytda bu go‘zal romanning lingvopoetikasi usta so‘z san‘atkori tasarrufidagi o‘zbek tili o‘zining estetik vazifasini ne chog‘li mukammal bajarganligini ko‘rish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Abdulhamid Cho‘lponning o‘zbek publitsistik uslubi shakllanishidagi xizmatlariga baho bering.
2. Til va uslub nuqtayi nazaridan Cho‘lponning badiiy ijodi zamondoshlari ijodidan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?
3. Abdulhamid Cho‘lponning “Chig‘atoy gurungi” jamiyatidagi faoliyatini izohlang.
4. O‘zbek adabiy tilining leksik jihatdan boyishi, grammatik jihatdan sayqallanishi, mukammallashishi, umuman, takomillashishidagi Cho‘lponning xizmatlariga baho bering.

Adabiyotlar:

1. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 218 б.

2. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари – Тошкент: маънавият, 2002. – 80 б.

3. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2004. – 145 б.

4. Шарофиддинов О. Чўлпонни англаш. – Тошкент: Ёзувчи, 1994.

5. Қуронов Д. Чўлпон поэтикаси (насрий асарлари мисолида): филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 1994.

6. Эшонова З. Чўлпон шеърятининг ғояқий-бадий хусусиятлари (шоирнинг 20-йиллар шеъряти мисолида): Филол. фан. номз... . дисс. – Тошкент, 1991.

3. 9. G‘OZI OLIM YUNUSOV

Tayanch so‘z va iboralar: *dialekt, shajara, leksikografiya, etnolingvistika, lingvogeografik metod, fonetik qonuniyat, lab garmoniyasi, spontan o‘zgarishlar, spirantizasiya, cho‘ziq unlilar, unlilar mosligi.*

Mazkur davr tilshunosligi rivojiga hissa qo‘shgan jadid ma‘rifatparvarlari orasida G‘ozi Olim Yunusovning lingvistik faoliyati alohida o‘rin tutadi. U tilshunoslik bo‘yicha birinchi o‘zbek professori, tarjimon, etnograf, fol’klorshunos, shevashunos olimdir. Uning tilshunoslik merosini tadqiq etish bugungi kun tilshunosligi uchun dolzarb masalalardan biri sanaladi.

G‘ozi Olim o‘g‘li 1893-yil Vyatsk gubernyasi, Bubi qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi Olim Yunus o‘g‘li Rossiya imperiyasining faxriy fuqarosi edi. U inqilobgacha Toshkentdagi Volga-Kamskiy tijorat bankida xizmat qilgan. Yosh G‘ozi dastlab qishlog‘idagi Abdulla Bubi maktabida Gubaydulla Bubi qo‘lida o‘qigan. So‘ng 1909-1913-yillarda Turkiyada Istambul pedagogika institutida o‘qiydi. U tahsil olish maqsadida undan avvalroq Buxorodan Istambulga kelgan Fitrat, Atoulla Xo‘jayev, Mazhar Burhonov, Ahmadjon Mahzum va Muqumiddinbeklar bilan tanishadi. Shuningdek, xorazmlik Begjon Rahmonov, toshkentlik talabalar Shohid Eson Musayev, Xolid Saidlar bilan bir vaqtda o‘qiydi. Turkiyada Fitrat, Mahzar Burhonov, Abdulaziz Kuljaviylar rahbarligida turkistonlik talabalarning “Turon nashri maorif jamiyati” va “Turk o‘chog‘i” tashkilotlari bo‘lib, ular “Yosh turklar”ning “Ittihod va taraqqiy” partiyasi bilan yaqin aloqada bo‘lishadi.

1913-yil Istambulda oliy pedagogika institutini tugatgan G‘ozi Olim Yunusov Qohiradagi Al-Azhar madrasasiga kiradi. Unda bir yil o‘qigach, 1914-yil Turkiya ta‘lim vazirligi ma‘murlari Rif‘atbey va Azizbeylar yordamida tahsilni Germaniyada davom ettirishga erishadi. Biroq, jahon urushi boshlangani tufayli bu niyat amalga oshmay qoladi. 1914-yil iyulda Vatanga qaytgan G‘ozi Olim Toshkentda “Turon” jamiyatida Abdulla Avloniy, Nizomiddin Xo‘jayevlar bilan ishlay boshlaydi. G‘ozi Olim 1917-yil “Turkiston

Muxtoriyati”ni e’lon qilish maqsadida chaqirilgan ta’sis qurultoyida “Ulamo jamiyati” vakili sifatida ishtirok etadi. U bir guruh ulamolar qatorida muxtoriyat hukumatining Dutov va kadetlar partiyasi bilan ittifoq tuzish fikriga “ular hech qachon Turkistonga milliy mustaqillik berishga rozi bo’lmaydi” deb qarshi chiqadi.

Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgach, Toshkentda qaytib “Turk o’chog’i” to’garagini ochadi. So’ng “Izchilar to’dasi” (boy-skaut maktabi) jamiyatini ochishda faol ishtirok etadi. 1918-yil Ulamo jamiyati tomonidan G’ozi Olim Yunusov Nuriddinbek Xudoyorxonov bilan Turkiston ozodligi uchun kurashda Turkiya hukumatidan yordam so’rab boradi. Bu vaqtda Munavvar qori Abdurashidxonov ham Turkiyaga Mufti Sadriddinxon Sharifxo’jayev va Said Nosir Mirjalilovlarni yo’llagan edi. Ular Turkiya hukumatining yuqori darajali mulozimlari, jumladan, Turkiya bosh vaziri Tal’at Posho, xavfsizlik vaziri Azizbey, Nuri Posholar bilan muzokaralar o’tkazadi. Bu vaqtda o’zining ahvoli og’ir bo’lgan Turkiya hukumati yordam qo’lini cho’za olmaydi. Biroq ular Said Nosir Mirjalilov va G’ozi Olim Yunusovlarni Jenevaga “Millatlar ligasi”ga borib, u yerda Turkistonni sovetlardan ajratib olish masalasida jahon hamjamiyatidan yordam so’rashni taklif etadi. Said Nosir Jenevaga borish ustida bosh qotira boshlaydi. G’ozi Olim esa bu taklifni rad etadi. Toshkentga qaytib, Fitratning “Chig’atoy gurungi”da ish olib boradi. G’ozi Olim Yunusov Turkiston Maorif xalq komissarligi huzuridagi ilmiy kengashda ishlab, 1924-yilgacha teatr etnografik bilim hay’ati a’zosi, o’zbek bilim hay’ati raisi sifatida faoliyat olib boradi. U o’zbek folklor va etnografiya materiallarini to’plash, imlo qoidalarini ishlab chiqish, o’quv qo’llanmalari yaratish borasida samarali ishlarni amalga oshirdi. Ayni paytda Adliya xalq komissarligida ham ishlab, ko’plab huquqiy hujjatlarni o’zbek tiliga tarjima qildi. Iqtisod va adliya atamalarining lug’atini yaratish ishi bilan ham mashg’ul bo’ldi. Albatta, G’ozi Olim Yunusovning ilmiy publisistik merosi juda katta. Jumladan, uning dastlabki chiqishlaridan “Turkiston” gazetasining 1922-yil 18-dekabr sonida bosilgan “O’zbeklarda el tanish ishi” maqolasi muhim mavzuga bag’ishlangan. Unda muallif: *“ ... turk urug’lari orasida o’zbek urug’i eng oz tekshirilgan bir urug’dir. O’zbekning qabilaviy turmushi, o’zaro urug’larga*

bo‘linishi, xalq adabiyoti, dini, huquqi, odatlari ijtimoiy va iqtisodiy hollari to‘g‘risida turk-islom adabiyotida jiddiy asarlar bo‘lmag‘onidek, rus va g‘arb adabiyotida ham bu haqidagi ma‘lumotlar g‘oyat suyuqdir. O‘zbeklarni tanish masalasini birinchi marotaba o‘zbek bilim hay‘ati butun borlig‘i bilan ko‘z oldig‘a keltirib qo‘yib, bu mas‘alani asosli sur‘atda hal qilmoqchi bo‘ldi va bu yangi va g‘oyat qiyin bo‘lg‘on vazifani mening ustimga tashladi. To‘g‘ri, bu vazifa juda sharaflilik, faqat ma‘naviy, moddiy kamchiliklar, vositasizlik ichida bu vazifani o‘tash juda qiyin bo‘lsa ham men bir tomondan xalqimga, ikkinchi yoqdan etnografiya ilmiga bo‘lgan muhabbatim orqasidan bu ishka kirishmakka jasorat qildim...”⁸⁶

Muallif maqolada qayd etishicha, mazkur topshiriq bo‘yicha to‘rt oy davomida Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona muzofotlarida qishloqqa qishloq yurib o‘zbekning moddiy va ma‘naviy madaniyati bilan tanishadi. Xalqimizning ma‘naviy merosi boyligini e‘tirof etgan holda sayohat rejasidagi ikkita masalaga: o‘zbekning qabilaviy bo‘linishlari hamda o‘zbek xalq og‘zaki adabiyotini ilmiy o‘rganishga alohida e‘tibor qaratganligini aytadi.

G‘ozi Olim “Inqilob va o‘lkani o‘rganish ishlari” deb nomlangan maqolasida o‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasining qisqa muddatdagi faoliyati xususida jurnalxonlarga hisobot berib, “... Agar biz o‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasining bir yillik hisobiga ko‘z solsak, g‘oyat muhim natijalarga erishilganligini ko‘ramiz. 1925-ilning dekabr oyidan boshlab ishga kirishgan bu qo‘mita o‘zbek tarixiga, an‘anasiga, el adabiyotiga, turli o‘zbek shevalariga nabotot, hayvonot madaniyat kasb va san‘atiga oid 80 juz (pechatniy list) dan ortiq ma‘lumot to‘plangan, ilmiy tatabbuot ishlari bilan doimiy suratda mashg‘ul bo‘lishi uchun o‘zbekning turli yerlarida 18 dan ortiq maxsus kishilar ta‘yinlagan. Har kimning qo‘lida saqlangan ko‘p tarixiy adabiy asarlarni to‘plab bulardan ilmiy kitobxona tuzgan.

Maorif komissarligining ilmiy ishlarida: imlo harf, til adabiyot masalalarida maktab kitoblari tuzish va ilmiy va amaliy yordamda

⁸⁶ Go‘zi Olim Yunusov. O‘zbeklarda el tanish ishi // “Turkiston” gazetasi. – Toshkent, 1922-yil, 18-dekabr.

bo'lgan, o'zbeklarni o'rganish yo'lida mashg'ul bo'lgan havaskorlarning ishini amaliy usul va muayyan rejaga solish maqsadida turli ma'lumotlar to'plash usullari to'g'risida qo'llanmalar tuzib nashr etgan qo'mita butun o'zbek ilmiy kuchlarini va Ovro'po olimlarini o'z atrofiga to'plab ulardan mumkin bo'lgan darajada foydalanishga tirishgan..."⁸⁷ – deydi. Darhaqiqat, G'ozī Olim 1925-1929-yillarda O'zbekiston Maorif xalq komissarligi fan bo'limining ilmiy kotibi va O'zbeklarni o'rganish qo'mitasining raisi lavozimlarida ish olib boradi. Bir paytda pedagog sifatida Samarqand pedakademiyasida ishlab o'zbek tili kafedrasī professori unvoniga sazovor bo'ladi. Yangi o'zbek lotin alifbosini yaratish ishi bilan bir paytda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlariga uyushtirilgan folklor etnografiya va dialektologiya ekspeditsiyalariga boshchilik qiladi. U o'zbek lahjalarining bilimdoni edi. Shuningdek, o'zbek tilida terminlar tizimini yaratish va adabiy til sofliqi uchun mislsiz kurash olib boradi. 1926-yilda "Yuridik terminlar lug'ati", 1930-yil "O'zbek urug'laridan qatag'onlar va ularning tili" asarlari chop etilgan. G'ozī Olim 1931-1933-yillarda Toshkentdagi Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutida, 1934-1937-yillarda Til va adabiyot institutida ilmiy izlanishlar olib boradi. Shu yillarda olib borgan izlanishlari natijasida 1936-yilda "O'zbek tili gramatikasi" kitobini nashr ettiradi. Ayni paytda 1931-1937-yillarda A. Ikromov nomli pedagogika instituti Tilshunoslik kafedrasida professor lavozimida talabalarga dars beradi.

1937-yil 24-aprelda tilshunos olim, professor G'ozī Olim Yunusov O'zbekistonda mustaqil burjua davlat tuzish tarafdori, aksilinqilobiy tashkilot a'zosi deb qamoqqa olinadi. 1938-yil 4-oktyabrda otishga hukm qilinadi.

O'zbek tilining fonetik qonuniyatlari, yangi alifbo va imloni yaratish ishlaridagi faoliyati. Jadidlar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, maktab va maorif sohalari qatorida milliy til, adabiy til, alifbo va imlo masasalarida ham yangilanishlar

⁸⁷ Ғозӣ Олим. Inqilob va o'lkani o'rganish ishlari // "Маориф ва ўқитғувчи" журна́ли. – Toshkent, 1926-yil. 9-son. – B. 29-32.

tarafdori bo'lib maydonga chiqishdi. Mazkur davrda o'zbek matbuotida adabiy til, alifbo va imlo masalalari bilan bog'liq ko'plab bahs-munozalar bo'lgan. Tilni soflashtirish va soddalashtirish, jonli xalq tili asosida yagona adabiy tilni shakllantirish, adabiy tilning yozma shakli uchun arab yozuvi asosidagi eski o'zbek yozuvidan lotin yozuviga o'tish, lotin alifbosidagi yozuv uchun imlo me'yorlarini o'zbek tilining asl tabiatidan kilib chiqqan holda yaratish kabi vazifalar kun tartibiga qo'yiladi. Mazkur davrda singarmonizm til hodisasining talqini ham ko'p munozaralarga sabab bo'lgan va uning qonuniyati, asosan, to'g'ri belgilangan. Biroq uning o'zlashma so'zlarda amal qilinishi masalasida yagona yondashuv bo'lmagan.

XX asrning 20-yillarida yangi alifboga o'tish, o'zbek tilining fonetik qonuniyatlarini belgilash va uni adabiy tilda qo'llash, bunda singarmonizm qonuniyatining amalda bo'lish yoki bo'lmasligi xususida Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Abdulla Alaviy, Otajon Hoshim, G'ozil Olim Yunusov kabi davr ziyolilari matbuotda katta munozaralar yuritishadi.

G'ozil Olim Yunusovning o'zbek folklorshunosligi rivojidagi faoliyatini monografik tadqiq qilgan U. S. Amonovning ta'kidlashicha,⁸⁸ adib o'zbek urug'lari, ularning tarixi, tarqalishi, tili, lahjalari to'g'risida fundamental tadqiqotlar olib borar ekan, xalq asarlarini jonli tilda, sheva elementlari bilan yozib olib, o'z qarashlarini asoslashga intilgan. Shu orqali uning folklorshunoslik faoliyati bilan birga tilshunoslik, xususan, shevashunoslik faoliyati parallel ravishda rivojlanib borgan. Darhaqiqat, o'zbek tili turkiy tillar ichida eng ko'p shevali til bo'lganligi uchun ham bu tilning juda ko'p nazariy va amaliy masalalarini hal etish lahja va sheva materiallarini o'rganish, tahlil etish masalalari bilan aloqadordir. XX asr boshlarida davr ziyolilari oldida jonli xalq tili asosidagi yangi o'zbek adabiy tilini hamda shunga monand lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi va imlosini yaratish masalalari turar ekan, adabiy tilning yozma shaklidagi imlo me'yorlarini ishlab chiqishda xalq lahja va shevalaridagi fonetik qonuniyatlarni ham

⁸⁸ Амонов У. Ўзбек фольклоршунослиги хрестоматияси. – Тошкент: “Paradigma”, 2018. – Б. 9.

yozma nutqda aks ettirishga alohida e'tibor qaratishadi. Chunki shevalarda tilimizning milliy xususiyatlari to'la va aynan saqlanganligini, o'z navbatida, ular to'g'ri anglashadi. O'zbek tilining asl milliy tabiatini aks ettiruvchi ana shunday belgilaridan biri singarmonizm qonuniyati hisoblanadi.

Ma'lumki, singarmonizm, ya'ni ohangdoshlik hodisasi turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lib, u tovushlardagi uyg'unlikni, o'zaro ohangdoshlikni ta'minlaydi. Singarmonizm unlilardagi til oldilik va til til orqalik, lablanganlik va lablanmaganlik; undosh tovushlardagi jaranglilik va jarangsizlik hodisasi bilan xarakterlanadi. Bu jarayon turkiy tillar tarixining qadimgi davridan boshlab 1940-yilga qadar o'zbek adabiy tilining asosiy fonetik qonuni sifatida qaralib kelingan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ohangdoshlik qonuniyati saqlangan. Aksariyat hollarda labial uyg'unlik buzilgani bilan undoshlardagi jaranglilik, jarangsizlik hamda tanglay uyg'unligi nutq ravonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'kidlanganidek, o'zbek adabiy tili shakllangandan to 1940-yilga qadar tilimizda singarmonizm qonuniyati saqlanib keldi. Singarmonizm masalasi adabiy tilning tayanch dialekti kontekstida qaralishi lozim bo'lgan masalalardan hisoblanar ekan, XX asrning 40-yillarida adabiy til uchun o'zbek tilining Toshkent-Farg'ona dialekti tayanch dialekt sifatida belgilangandan so'ng, singarmonizm qonuniyatiga salbiy munosabat ham bildirilgan. XX asrning 20-yillarida singarmonizm masalasi til-imlo munosaralarida ham jiddiy muhokama qilingan. O'rganilayotgan davrda singarmonizm qoidasi ilmiy adabiyotlarda, xususan, Abdurauf Fitratning "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf" nomli asarida ilmiy asoslangan. Vaqtli matbuotda esa shu davrda ijod qilgan ziyolilar turli munosabatlar bilan bu qonuniyatga o'z nuqtayi nazarlarini qaratganlar. Shular qatorida ma'rifatparvar jadid adibi G'ozii Olim Yunusov ham bu borada o'z qarshlarini bildiradi.

G'ozii Olim Yunusovning "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1928-yil 38-sonida "Yana til-imlo masalasi ustida" nomli maqolasi e'lon qilinadi. Muallif maqolada dastlab o'sha davrda lotin alifbosiga asoslangan yangi imlo qoidalaridagi tartibsizliklarning asosiy sabablari haqida to'xtalar ekan, asosiy muammo o'zbek

tilidagi arabcha, forsha o‘zlashma so‘zlarni yuzuvda aks ettirish borasida bo‘layotganligi quyidagicha tavsiflaydi: *“Bu kun bizni imlo masalasida eng ko‘p shoshirg‘on narsa til masalasidir. Chunki tilimiz faqat turkiy so‘zlardan uyushmasdan buning orasig‘a turli chet so‘zlar ham kirib o‘rnashg‘on. Turkiy til uchun tuzilgan qonun-qoida ularga yot keladur, ular bu qoidaga bo‘ysunmaydir. Natijada imlo ustida chatoqliklar bo‘lmoqda... Bu imloning ham boshiga kelgan og‘ir kunlar chet so‘zlar kasri bilan bo‘lmoqda. 1921-yilda arab so‘zlarini buzib yozishga qarshi bo‘lg‘onlar, bir necha vaqt tortishmadan so‘ng, harfni o‘zgartirmasdan buzib yozishga rozi bo‘lib edilar...Endigi tortishmamiz arab so‘zini buzib yozish yoxud harflarni o‘zgartirish ustida emas, balkim chet so‘zlarni singarmonizm qoidasiga, ya’ni qalinlik, ingichkalikka uydirish ustida boradir”*⁸⁹.

Muallif bu fikri orqali davr adabiy tilida singarmonizm qonuniyatini saqlash masalasini aynan eski o‘zbek yozuvining isloh qilinishi jarayoni bilan qiyosan izohlamogda. Haqiqatan, 1921-yilda uzoq yillar iste’molda bo‘lib kelgan arab yozuviga isloh kiritiladi. Isloh, asosan, faqat arablar talaffuzigagina xos bo‘lgan **zod** - "ض" **sod** - "ص" **to** - "ط" **zo** - "ظ" **se** - "ث" harflarining yozuvdan chiqarib tashlanishida o‘z ifodasini topadi. Ularning o‘rniga **sod** va **se** "ص" - "ث" harflari uchun **sin** - "س", **to** **ba** **te** "ط" - "ت" harflari uchun **te** - "ت", **zo** **ba** **zod** "ظ" - "ض" harflari uchun **ze** - "ز" harfi qo‘llanishi belgilanadi. Shu bilan birga isloh qilingan eski o‘zbek yozuvida qisqa unlilar hamda **vov** - "و" harfini ifodalovchi uchta tovush uchun ham maxsus belgilar qabul qilinadi. Anglash mumkinki, 1921-yilda eski o‘zbek yozuvini isloh qiluvchilar xalq orasida savodsizlikni tugatish maqsadida eshitilgan tovushni yozuvda aks ettirish tarafdori bo‘lishgan. Maqolada muallif masalaga ilmiy yondashgani holda Toshkentda ittifoq lotinchilarining keng plenumi bo‘lib o‘tganligini va unda tatar tilshunosi professor Bakir Cho‘bonzodaning o‘z ma’ruzasida turkiy tillarning singarmonizm qoidasidan uzoqlasha borayotganligi, bu qonuniyat turkiy tillarning

⁸⁹ G‘ozi Olim Yunusov. Yana til-omlo masalasi ustida. // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. – Toshkent, 1928-yil, 38-son.

ma'lum qismidagina saqlanayotganligi, aksariyat tillarda bu qonuniyat buzilganligi, shuningdek, turkiy tillar uchun fonetika qoidasi muvofiq kelishi haqidagi fikrlariga va uni qo'llab-quvvatlovchilarga keskin qarshi chiqadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 20-yillar oxirida lotin alifbosiga o'tish arafasida o'zbek tilidagi unlilar tizimini belgilash muhim masalaga aylanadi. Bu masala yuzasidan rus turkolog olimi Y. D. Polivanov olib borgan izlanishlari natijasida turkiy tillar fonologik tizimida ro'y bergan konvergentsiya, divergentsiya hodisalarini ochib berish asosida Toshkent dialektida singarmonizm qonuniyati yo'qolganligi, olti unli fonema mavjudligini ko'rsatadi va o'zbek yozuvining ham shunga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. G'ozli Olim esa mazkur maqolasida bu fikrga quyidagicha munosabat bildiradi: *"...Oling, professor Polivanovni. Ul til to'g'risida bizga shunday yo'l ko'rsatdikim, u yo'lg'a kirgan kishi, albatta, odoshadi... Bas. Bu kungi to'siqlarg'a qarab singarmonizmdan qo'l tortmaymiz. Singarmonizm o'zbek adabiy tilining yengilmas temir quroli, jonidir. Singarmonizmga qarshi bo'lg'onlar o'zbek adabiy tilini yiqmoq istaganlar yoxud bu tilning kelgusidagi o'ynayturg'on rolini tushunmaguchilardir"*⁹⁰

G'ozli Olim Yunusov arabcha, forsha o'zlashmalarning adabiy tildagi salmog'i oz miqdorda ekanligini, biroq shunday bo'lsa-da, o'zlashma so'zlarni ham, o'z ta'biri bilan aytganda, "singarmonizm qoidasiga bo'ysundirish, ya'ni qalinlik, ingichkalikka uydirish" tarafdori bo'ladi. Shuningdek, bunday so'zlarning o'zbek tilida yoinki boshqa turkiy tillarda juda oz miqdordaligi singarmonizmning ahamiyatini yo'qotmasligini ta'kidlaydi va o'zlashma so'zlarni ham imlo qoidalarini ishlash chog'ida singarmonizmga bo'ysundirish lozimligini uqtiradi.

G'ozli Olimning chet so'zlarni singarmonizm qoidasi asosida imloda aks ettirish bo'yicha tavsiyasi 1921-yilda eski o'zbek yozuvining isloh qilinishi bilan bog'liq qoidalariga mos keladi. Bu masalada G'ozli Olim arabcha, forsha o'zlashmalarni singarmonizm

⁹⁰ G'ozli Olim Yunusov. Yana til-omlo masalasi ustida. // "Qizil O'zbekiston" gazetasi. – Toshkent, 1928-yil, 38-son.

qoidasiga bo'ysundirishni eski o'zbek yozuvidagi harflarni o'zgartirish orqali o'qitish ishlarini yengillashtirish bilan bog'laydi.

Umuman olganda, singarmonizm qonuni o'zbek tilshunosligi tarixida e'tirof etilgan masalalardandir. Tilshunoslik tarixida bu qonuniyat haqida turlicha fikrlar bildirilganligiga qaramay, turkolog olim A. K. Borovkov eski o'zbek tili, xususan, Alisher Navoiy asarlari tili shahar va qishloq shevalarini birlashtirgan, bu tilda singarmonizm unsurlari mavjud deb xulosa qilgan edi. Bu hodisa hozirgi o'zbek adabiy tilida qabul qilinmagan bo'lsa-da, hozir ham o'zbek shevalarida mavjud va bu qonuniyat o'zbek tilini turkiy tillarga dahldor qilib turibdi. Professor G'ozii Olim Yunusov ham XX asr boshlarida o'zbek tilida, ayniqsa, qishloq shevalarida singarmonizm mavjudligini, tildagi unli va undosh tovushlar bir qator belgilariga ko'ra farqlanishini, bu farqlanish fonologik qimmatga ega ekanligini haqli ravishda e'tirof etadi va quyidagicha umumiy xulosaga keladi: *“Tilimizning singarmonizmsiz yashay olmaslig'i, natijada bu kungi qoida o'rnig'a bir necha qoidalarning maydong'a chiqish ehtimoli borlig'i tajriba bilan isbot etilmishdir. Tlimizdagi boshboshdoqlikni yolg'iz singarmonizm birlashtirishini bu kun til tekshirguvchilarimiz ochiq anglashlari lozim”* (G'ozii Olim Yunusov. Yana til-omlo masalasi ustida. // “Qizil O'zbekiston” gazetasi. – Toshkent, 1928-yil, 38-son).

Demak, G'ozii Olim Yunusov mazkur davrda singarmonizm hodisasining asl mohiyatini to'g'ri anglagan, lotin grafikasida asoslangan o'zbek alifbosining imlo me'yorlarini ham aynan singarmonizm qonuniyati asosida ishlab chiqish tarafdori bo'lgan. Anglashiladiki, mazkur davrda arab yozuvidan lotin yozuviga o'tishning qiyin muammo ekanligi e'tirof etilgan va bu masalani hal etishda matbuot nashrlarida fikr buldirganlarning aksariyati arab yozuvida savod chiqarganligi masalani yanada murakkablashtirgan. Shunga qaramay, G'ozii Olim Yunusov o'zbek tilining asosiy fonetik qonuni bo'lgan singarmonizm hodisasi haqida fikr bildirishda yetarlicha ilmiy va amaliy tajribaga ega bo'lgan. Ayniqsa, uning o'zbek adabiy tilining taynch dialektini belgilashda singarmonizmli va singarmonizmni yo'qotgan shevalarning har ikkisini ham e'tiborga olish lozimligi haqidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etib, hozirgi mavjud ilmiy adabiyotlarimizdagi fikrlarga to'la mos keladi.

Adibning o‘zbek tili fonologik tizimini yaratish, fonetik xususiyatlarning ilmiy talqini haqidagi nazariy fikrlari esa hozirgi ilmiy fonetikamiz uchun ham qimmatli manba bo‘la oladi.

Jadid ma’rifatparvarlari xalqning savodlilik darajasini oshirish uchun, avvalo, yozuv va imlo masalasini hal etish lozimligini anglab etdilar. Shu bois ham XX asrning 20-yillarida alifbo va imlo masalasi umummilliy masala sifatida qaraldi va turkiy xalqlarning ming yillardan buyon asosiy yozuvi sifatida amalda qo‘llanib kelayotgan arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek yozuvidan lotin yozuviga o‘tish kun tartibiga qo‘yildi.

XX asr boshlarida Turkiya, Qrim, Kavkazda adabiy til islohoti borasida ro‘y bergan o‘zgarishlar 20-30-yillarda o‘zbek adabiy tilida ham yuz beradi, ya’ni Turkistonda ham adabiy tilni jonli xalq tiliga yaqinlashtirish, adabiy til leksik fondini soflashtirish, undagi arabcha, forsha so‘zlarni mumkin qadar chiqarib, yot so‘zlardan holi bo‘lgan leksik fondni shakllantirish va shu asosda yangi o‘zbek adabiy tilini yaratish borasida harakatlar boshlanadi. Shuningdek, mazkur davda turkiy xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy sohada yaqinlashish imkoniyatini ham izlaydilar. Ma’lum muddat davrning ilg‘or ziyolilari tomonidan umumturkiy til va adabiyotni yaratish bo‘yicha ham bir qator nazariy va amaliy harakatlar olib boriladi. Bu davrda yangi o‘zbek adabiy tilini shakllantirish borasida turli munozarali fikrlar o‘rtaga tashlangan bo‘lsa, yangi alifboni yaratish ishlarida ham turli xil qarashlar paydo bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, fikr yuritilayotgan davrda milliy til, alifbo masalasi ba’zi hollarda bir millat muammosi doirasidan chiqqan holda umumturkiy masala sifatida o‘rtaga qo‘yilgan. Lotin alifbosi va shu asosidagi yangi imloni shakllantirish ishlarida Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Nazir Tor‘aqulov, Otajon Hoshim kabi davr ziyolilari qatorida G‘ozi Olim Yunusov ham faol qatnashadi. Mazkur murakkab lingvistik jarayonda G‘ozi Olim Yunusov turkiy xalqlar uchun yagona alifbo va imloni joriy etish ta’sirida ham bo‘lgan. Uning bu boradagi amaliy harakatlarini quyidagi maqolasi orqali izohlamogchimiz. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1927-

yil 6-sonida uning “O‘rta Osiyo turklarining yangi alifbosi”⁹¹ nomli maqolasi va unga ilova qilgan holda o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan alifbo loyihasi e‘lon qilinadi. Muallif maqolada dastlab o‘sha davrdagi ijtimoiy-lisoniy vaziyat haqida to‘xtalib, O‘rta Osiyo respublikalari arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tishga qaror qilganliklari, respublikalarda yangi alifbo qo‘mitalari tuzilganligi, shuningdek, sobiq Ittifoqda turkiy xalqlar uchun yagona alifbo tuzish g‘oyasi ham paydo bo‘lganligi va O‘zbekiston Maorif Komissarligining tashabbusi bilan O‘rta Osiyo turklarining yangi alifbolarini birlashtirish maqsadida Yangi alifbo kengashining chaqirilganligi haqida ma‘lumot beradi. Shuni ta‘kidlash joizki, mazkur davrda sobiq Ittifoqda turkiy xalqlarning yagona alifbosini yaratish g‘oyasi ilgari surilgan. Bundan G‘ozi Olimning xabari bo‘lgan. G‘ozi Olim mazkur maqolasida Qozog‘iston, Qirg‘iziston vakillari ishtirokida o‘tgan kengashda O‘rta Osiyo turklari uchun yagona alifbo ishlab chiqilganligini va uning tamoyillari belgilanganligini bayon qiladi. Bizningcha, O‘rta Osiyo turklarining yangi alifbosi loyihasining tuzilish tamoyillarini G‘ozi Olim tayyorlagan. Maqolada keltirilishicha, unda quyidagi tamoyillarga amal qilingan: 1) O‘rta Osiyo turkiy xalqlari tillarining barchasi uchun umumiy bo‘lgan tovushlar uchun bir xil harflar olinganligi aytiladi. Biroq bu tovushlar qaysi ekanligi ko‘rsatilmaydi; 2) muayyan turkiy tilga xos alohida tovushlar ifodasi bo‘lgan harflar umumturkiy alifboga kiritilgan. Muallif bu g‘oyani shunday izohlaydi: *“Bir lahjaning o‘ziga xos bo‘lg‘on tovushlarga alohida harf olinib, ul harflar umum O‘rta Osiyo alifbosiga kirgizildi”* (G‘ozi Olim Yunusov. O‘rta Osiyo turklarining yangi alifbosi // “Maorif va o‘qitg‘uvchi”. – Toshkent, 1927. -№ 6. 39-bet).⁹² Bunda G‘ozi Olim o‘zbek va qirg‘iz tilidagi **z** –tovushi o‘rnida qozoq tilida **s** – ishlatilsa-da, alifboda bular uchun bir harf olinganligini, shuningdek, o‘zbek tilidagi **x** – tovushi qirg‘iz tilida bo‘lmasa ham, uning qabul qilinganligi aytiladi. Hozirgi grafikadagi **sh**, **s**, **x** – harflari aytilgan tillarning barchasida mavjud. **Sh** – undoshining

⁹¹ G‘ozi Olim Yunusov. O‘rta Osiyo turklarining yangi alifbosi // “Maorif va o‘qitg‘uvchi”. – Toshkent, 1927. -№6. – B. 39-40.

⁹² G‘ozi Olim Yunusov. O‘rta Osiyo turklarining yangi alifbosi // “Maorif va o‘qitg‘uvchi”. – Toshkent, 1927. -№ 6. – B. 39.

qozoq tilida mavjud emasligi, **x** – undoshining qirg‘iz tilida yo‘qligi haqidagi fikrlar haqiqatga mos kelmaydi. Demak, bu tamoyil alifbo uchun maqbul bo‘lolmadan; 3) alifboda harflar singarmonizm (qalin-ingichkalik) qonuniga moslashtirilgan, ya’ni “juft” tovushlar belgilangan. Harflar uchun asos sifatida “qalin” tovushlar olingan. Bundan istisno sifatida **k, g, q** – tovushlari uchun alohida harf qabul qilinganligi aytiladi. Bu tamoyilga ham aniqlik yetishmaydi. Tildagi barcha tovushlarni qalin-ingichka qatorlarga ajratish an’anasi 20-yillarda bo‘lgan emas, qolaversa, bu tamoyilni unli harflarga nisbatangina qo‘llash o‘rinli bo‘lar edi, chunki undoshlar adabiyotlarda ingichka-qalin tarzida tasnif qilinmagan. To‘g‘ri, orqa qator, old qator unlilar bilan kelgan undoshlarda akkomodatsiga uchrash holati bor, lekin uni alohida olingan barcha undoshlarning ikki ukladli (til orqa va til oldi) bo‘lishi mumkin emas. Buni G‘ozi Olim keltirgan faktlarning o‘zi ham asoslab turibdi. Ko‘rinib turibdiki, undoshlar uchun uning qo‘ygan tamoyili ishonarli emas; 3) G‘ozi Olim lotin alifbosi harflari uchun shakl tanlash tamoyillari to‘g‘risida ham fikr yuritadi. U 1927-yil 28-maydagi Samarqand shahrida tuzilgan yangi alifbochilar kengashining materiallarini tahlil qilish natijasida shakl tanlashning quyidagi tamoyillarini sanab o‘tadi: a) o‘zbek tili tovushlari uchun harflar (mullif “harflar”ni “shakllar” deb ataydi) faqat lotin alifbosidan olindi, “agar ul yetishmasa”, lotin harflari asosida tuzilgan alifbolardan olindi. Lekin bu tamoyilni asoslovchi dalillar keltirilmaydi; b) uningcha, lotin harflari lotinchada ifoda qilgan tovushlarga mos qilib olingan. Bu o‘rinda G‘ozi Olim “lotinchada ifoda qilingan tovushga mos” deganda qaysi til tovushlarini nazarda tutganligi ahiiq aytilmagan, ya’ni lotin tili to‘g‘risida fikr yuritilmasligi aniq. Biroq Yevropa xalqlari tillaridan qaysi birini nazarda tutganligiga ham ishora yo‘q. Demak, bu tamoyilni belgilanishi uchun aniq asos yo‘q deb hisoblash mumkin; v) harflarning bir-biriga o‘xshash bo‘lishidan qochilganligi ta’kidlanadi. Berilgan misollardan anglash mumkinki, bu tamoyilga to‘la amal qilingan; g) harflar ostiga yoki ustiga belgilar qo‘yishdan mumkin qadar saqlanilganligi aytiladi. Bu tamoyilga ham imkon qadar amal qilingan; d) muallif bir tovushga murakkab shakl olinmaganligini ta’kidlaydi. Bunda muayyan harflarni murakkablashtirishni emas, balki bir tovush uchun ikki

yoki uch harfdan foydalanilmaganlikni tushunishimiz mumkin. Malumki, bir tovush uchun ikki va undan ortiq harflardan lotin alifbosiga asoslangan aksariyat milliy yozuvlarda foydalanish an'anasi hozir ham davom etayotganligini ko'ramiz. Jumladan, hozirgi o'zbek yozuvimizda ham **ch**, **sh** grafemalari qo'llanilmoqda. Aslida G'ozim Olim "bir tovushga bir harf" tamoyilini nazarda tutganligini payqash qiyin emas edi; 4) shuningdek, muallif ta'limda yengillik va iqtisod yuzasidan harflarning birgina shakllari, ya'ni katta, kichik, yozma va bosma harflar uchun bir shakldagi harf olinganligini ta'kidlaydi. Demak, G'ozim Olim asoslayotgan lotin alifbosi dunyo amaliyotida bo'lgan an'analarga amal qilmasligi ko'rinadi, ya'ni unda yuqorida ta'kidlanganidek, bosh va kichik, bosma va yozma harflar bo'lmaydi. Ma'lumki, bunday tamoyillarga asoslangan yozuvlar bor, xususan, arab yozuvi shunday yozuvlardan. Ko'rinadiki, G'ozim Olim turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi uchun yaratiladigan yozuvni ham shu tamoyil asosida qo'llash tarafdori bo'lgan. Shuni ta'kidlash lozimki, harflarning differentsial xususiyatlari ta'limda muayyan qulaylikni yuzaga keltirishi mumkin, lekin bu bilan yozuv orqali fikrlashdagi signallar tizimini yo'qqa chiqarib qo'yilishini ham unutmaslik kerak. Yozma nutqda harflarning differentsial belgilari asosida gapning boshlanishi, atoqli otlar va turli urg'u beriladigan so'zlarni ajratib ko'rsatish mumkinligini ham inobatga olish o'rinli bo'ladi. Aslida, harflarning to'rt xil shakli o'rnida bir xil shaklini qo'llash iqtisod uchun ham daxli yo'q, chunki harfning qaysi shakli bo'lmasin, yozuvda bir o'rin egallaydi, xolos.

G'ozim Olim Yunusovning mazkur maqolasidagi turkiy xalqlar uchun umumiy bo'lgan lotin alifbosi to'g'risidagi fikrlarida ijobiy o'rinlar bilan birga ayrim noaniqliklar ham ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilar: 1) O'rta Osiyo xalqlari tilidagi tovushlarni qiyoslaganda, bir tomonlama fikr yuritadi. Ya'ni, o'zbek va qirg'iz tillaridagi **sh** – tovushi o'rnida qozoq tilida **s** – tovushi ishlatiladi deyiladi. Bunda qozoq tilida mustaqil **s** – undoshi mavjudligi e'tiborga olinmaydi. Bu o'rinda ko'proq **sh** – **s** tovush mosligi ko'zda tutiladi; 2) muallifning o'zi ta'limda yengillikni ta'minlamoqchi bo'ladi, lekin ingichka so'zlar, ya'ni old qator unlili so'zlarga **y** belgisini qo'yib borilishini ko'rsatadi. Bu esa yozuvda

qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiy edi; 3) unlilar qatorida **a** – old qator unlisi berilmagan. Bu unlining o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq tillarida shu davrda bo‘lmaganligiga hech kim ishonch bildiray olmaydi.

Alifbo yaratish tamoyillaridagi bu kamchiliklarga qaramay, G‘ozi Olimning umumturkiy alifbo to‘g‘risidagi qarashlari o‘z davri uchun muhim edi. Biroq o‘sha davrda “umumturkiy til” yaratish imkoniyati amalda mumkin bo‘lmaganidek, “umumturkiy alifbo”ni yaratish g‘oyasi ham amalda o‘z tasdig‘ini topmay, tezda qarshilikka uchraydi. Umuman olganda, XX asrning 20-30-yillarida o‘zbek tilining rivoji, yangi lotin alifbosini qay tartibda, qaysi tamoyillar asosida yaratish masalasida yagona nuqtayi nazar yo‘q edi. Bu borada bir-biriga mos kelmaydigan turli lisoniy qarashlar oldinga surilar edi. O‘z davrining ilg‘or ziyolisi sifatida G‘ozi Olim Yunusovning alifbo va imlo kabi murakkab nazariy va amaliy, milliy va ma‘rifiy masalalar xususida bildirgan fikrlari XX asrning 20-30-yillar davri o‘zbek adabiy tilining rivojlanish va boyish tendensiyalarini belgilashda, adabiy tilning yozma shakli uchun alifbo yaratish tamoyillarining takomillashishida, qolaversa, o‘zbek tilshunosligining mazkur davr bosqichini tavsif etishda qimmatli material bera oladi.

O‘zbek shevalari tadqiqiga oid faoliyati. G‘ozi Olim Yunusov o‘zbek dialektologiyasi sohasida ham dastlabki ilmiy tadqiqotlarni olib borgan tilshunos olim hisoblanadi. U o‘zbek folklori va etnografiyasiga oid materiallarni to‘plash bilan birga, o‘zbek lahja va shevalarini o‘rganish, bu bo‘yicha maxsus o‘quv qo‘llanmalarini yaratish borasida samarali ishlarni amalga oshirdi. Uning bu yo‘nalishdagi tadqiqotlari dastlab vaqtli matbuotdagi publitsistik maqolalarida ko‘zga tashlanadi. Jumladan, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1926-yildagi 10-11 va 12-sonlarida “O‘zbek urug‘lari (qabilalari) va ularning shevalariga tegishlik ma‘lumot to‘plovchilarga qisqacha qo‘llanma”⁹³ sarlavhasi ostida uning ikkita maqolasi e‘lon qilinadi. Birinchi maqolada o‘rganilayotgan

⁹³ Ғози Олим Юнусов. Ўзбек уруғлари (қабилалари) ва уларнинг шеваларига тегишлик маълумот тўпловчиларга қўлланма // Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1926. -№ 10-11. -Б. 42-44; -№ 12. -Б. 33-35.

shevaning etnik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi. Unda aholi strukturasi, respondentni tanlash, yashovchi aholining antropologik xususiyatlari, aholi punkti tarixi to'g'risida ma'lumot to'plashga qaratilgan savollarga o'rin berilgan. Muallif maqolada: *"... o'zbek urug'lariga va ularning urug' turmushiga tegishlik ma'lumot to'plashda ushbu ko'rsatilgan nuqtalarga diqqat qilish kerak"*, – deya quyidagilarni asosiy vazifalar sirasida keltiradi:

- o'zbek urug'laridan birortasini tekshirganda, shu urug' (qabila) ko'proq yashaydigan qishloqqa borib, shu qishloqda yashovchi o'zbek urug'larining nasabnomasini (shajarasini) yozish;

- nasabnoma to'g'risida ko'proq o'sha urug'ning qarilaridan ma'lumot olish va ma'lumot yig'ilgandan so'ng, shu urug'ning xususiy nasabnomasi, ya'ni urug' o'zaro yana necha bo'limga – shoxga bo'linganligini aniqlash;

- qishloqda bu urug'ning qaysi bo'limlariga yoki bo'limchalariga mansub kishilar yashashini o'rganish hamda ularning miqdorini belgilash;

- qishloq xalqining qiyofatini aniqlash;

- shu qishloqda yashovchi xalqlarning tili, urf-odat va madaniy turmush jihatdan bir-biriga ta'siri va munosabatini ko'rsatish;

- siz tekshirgan o'zbek urug'i yoki urug'lari qachon bu qishloqqa kelib o'rnanishganligini aniqlash.

Bu tavsiyalarda muallifning shevalarni o'rganish orqali urug'-qabilalarning joylashish xududlarini aniqlash, etnonimlar, toponimlar, antroponimlar, umuman, onamastika sohasiga oid til birliklari vositasida xalq tarixining muhim tomonlarini yoritishni maqsad qilganligini tushunish mumkin.

G'ozim Olim tavsiyalaridagi *"qishloqda bu urug'ning qaysi bo'limlariga yoki bo'limchalariga mansub kishilar yashashini o'rganish hamda ularning miqdorini belgilash"*, *"qishloq xalqining qiyofatini aniqlash"*, *"shu qishloqda yashovchi xalqlarning tili, urf-odat va madaniy turmush jihatdan bir-biriga ta'siri va munosabatini ko'rsatish"*, *"siz tekshirgan o'zbek urug'i yoki urug'lari qachon bu qishloqqa kelib o'rnanishganligini aniqlash"* kabi vazifalar shevalarni lingvogeografik metod asosida o'rganish belgilarini ham o'zida aks ettiradi. Chunki muallifning bu tavsiyalarida

o'rganuvchilar oldiga shevalarga xos bo'lgan xususiy lingvistik belgilarnigina emas, balki o'rganilayotgan shevalarga xos ma'lum til hodisalarining o'рни va tarqalish chegarasini ham aniq belgilash vazifa qilib qo'yilmoqda. Uning shevalarni o'rganish bo'yicha yuqoridagi tavsiyalaridan xulosa qilishimiz mumkinki, o'zbek dialektologiyasi fanida *lingvogeografik metodning* dastlabki yo'nalish va tadqiq usullari, bizningcha, dastlab XX asrning 20-30-yillari o'zbek tilshunosligida yuzaga kela boshlagan.

Ikkinchi maqola esa to'laligicha shevalarni o'rganishga bag'ishlangan. Bu "qo'llanma"⁹⁴ o'sha davrda o'zbek dialektologiyasi bo'yicha ish boshlayotgan ilmiy xodimlar uchun ma'lum darajada uslubiy ko'rsatma, dastur vazifasini bajargan. O'zbek dialektlarini o'rganish bo'yicha dasturlarning bo'lishi va uning ahamiyatli ekanligi keyinchalik ham tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan.

G'ozim Olim Yunusov tomonidan ishlab chiqilgan mazkur "qo'llanma"da "Til to'g'risida", "Lab ohangi (gubnaya garmoniya)", "Qalinlik va ingichkalik" kabi bo'limlar bo'lsa-da, undagi savollarning xarakteriga ko'ra ularni quyidagicha guruhlash mumkin: 1) o'zbek shevalarining fonetik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan savollar va namunalar; 2) fonetik qonuniyatlarning amal qilishini aniqlashtirish bo'yicha savollar va namunalar; 3) morfologik xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan savol va namunalar; 4) shevaning leksik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tavsiyalar.

G'ozim Olim fonetik jarayonlarning uzoq davr mahsuli ekanligini qayd etgan holda, bu jarayon lahja va shevalar o'rtasidagi munosabatlarni, ulardagi umumiylik va xususiylik belgilarni aniqlashda xarakterli mezon ekanligini o'z davrida to'g'ri anglaydi. Bu esa fonetik jarayonlarni sharhlash asosida so'zlar etimologiyasini belgilashga qaratilgan dastlabki nazariy qarashlar edi. "Qo'llanma"da shevalardagi fonetik qonuniyatlarni o'rganishda asosan arabcha, qisman o'zbekcha va ba'zan ruscha terminlardan foydalanilgan. O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha

⁹⁴ Ғози Олим Юнусов. Ўзбек уруғлари (қабилалари) ва уларнинг шеваларига тегишлик маълумот тўпловчиларга қўлланма // Маориф ва ўқитғувчи. — Тошкент, 1926. -№ 10-11. -Б. 42-44; -№ 12. -Б. 33-35.

tuzilgan savollar quyidagi masalalarni tekshirishga qaratilgan:

- tovush mosligi **g'//v:** *tov – tog'*; **g'//y:** *bog'lamoq – boylamoq*; **y//j:** *jiy – yig'*; **g//y:** *tugma – tuyma*; **x//q:** *xotin – qatin*; **t//d:** *tovush (dovush)*; **p//b:** *paqir – baqir*; **sh/s:** *shupur – supur*; **s//ch:** *chochmoq – sochmoq* kabi; assimilyasiya **l>n:** *mongnoy – manglay* kabi;

- spontan o'zgarishlar **q>g':** *g'arg'a – qarg'a*;

- spirantizasiya **k>g:** *egin*; **p>v:** *gav*; **ch>sh:** *ushta*; **b>v:** *bova*; **p>b:** *tobilg'an* va *hokazo*;

- unlilar mosligi **ye//i:** *yegri – iyri*;

- cho'ziq unlilarning qo'llanishi *it – i:t*; *qыз – qы:z*.

Savollarda *murakkab cho'zg'i* (unli) deb yuritilgan *-iy*, *-iy* harfiy birikmalari bilan ifoda qilinadigan tovushlarning mavjudligi ham so'ralgan hamda qanday so'zlarda *i*, *u* unlilari juda qisqa talaffuz etilishi ham o'z aksini topgan.

O'zbek xalq shevalarining undoshlar tizimi umumiylik kasb etgani holda asosan bir-biriga mos keladi. Biroq ularda ma'lum darajada o'zaro farqlanish ham mavjud. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, muallif savolnomada undoshlarning qo'llanishi bo'yicha faqat *f* va *j* undoshlarining mavjudligiga e'tibor qaratishni so'raydi. Fonetik qonuniyatlardan lab ohangini aniqlash uchun *qo'lu – qo'li*, *keldim – keldum*, *kulib – kulub* so'zlarining aytilishigina so'ralgan. Qalinlik-ingichkalikni aniqlash bo'yicha so'zning qo'shimchali holatlarida saqlanishi yoki saqlanmasligiga doir savollar qo'yilgan va namunalar berilgan.

Odatda lahjalardagi morfologik xususiyatlar egalik, kelishik, shaxs-son ko'rsatkichlarini sharhlash, shuningdek, so'z turkumlariga xos grammatik kategoriyalarning adabiy til bilan qiyoslab tahlil qilinishi orqali amalga oshiriladi. Muallif tomonidan lahja va shevalardagi morfologik xususiyatlarni aniqlash uchun ot, sifat, olmosh va fe'llardagi o'zgarishlar bo'yicha savollar qo'yilgan. Ya'ni *-ning/ding/di/ti* (ularni izohot qo'shimchalari deb ataydi); *-lar/nar* (ularni jam' alomatlari deb ataydi); *-g'a/a* (ularni maf'ulu alayh deb ataydi); *-dan/nan/non* (ularni maf'ulu anih deb ataydi) qo'shimchalarining qaysi fonetik holatda va shu qo'shimchalar qo'shilganda, so'zlardagi fonetik o'zgarishlar yuz berishini tavsiflaydi. Qo'llanmada shevalardagi leksik xususiyatlarni

o'rganishda muayyan shevaga taalluqli so'zlar lug'atini tuzish topshirig'i berilgan. Mumkin qadar 300-400 ta so'zni to'plash so'ralgan. Ularni tahlil qilishda negadir kishi va hayvon a'zolarining nomlarini yozishga ahamiyat berilishi ta'kidlangan. Albatta, "qo'llanma"ning muayyan shevani to'liq yozib olish uchun yetarli imkoniyat tug'dirishi to'g'risida fikr yuritib bo'lmaydi, ayni zamonda uning dastlabki tajriba ekanligini ham unutmaslik kerak. Shu jihatdan uning ahamiyatli ekanligini aytish mumkin. Ma'lumki, hozirgacha ham shevalarning barcha xususiyatlarini yoritishni qamrab olgan dastur yaratilgan emas. Har holda, bu "qo'llanma"dan keyin o'zbek shevalarini o'rganish bo'yicha bir necha qo'llanma va anketalar yuzaga keldiki, ularda o'zbek shevalarining u yoki bu xususiyatlarini nisbatan to'laroq yoritish imkoniyati yaratildi. G'ozim Olim Yunusovning o'zbek lahja va shevalarining fonetik, morfologik, leksik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilishga, o'zbek shevalarining tarqalish chegarasini aniqlash hamda shevalarni tasnif qilish masalalariga oid ilmiy izlanishlari, bir tomondan, XX asr boshlarida shakllangan yangi o'zbek adabiy tili uchun tayanch dialektini aniqlash, uning normalarini belgilashda muhim rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi jihat bilan o'zbek dialektologiyasi fanida shevalarni o'rganishning dastlabki metod va tadqiq usullarining ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir.

G'ozim Olim Yunusov o'zbek shevalarini o'rgangan va ularni tasnif qilgan o'zbek tilshunoslarining birinchilaridandir. Uning birgina "O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba"⁹⁵ nomli asari fikrimizning dalili bo'la oladi. Olim o'z asarida tilning ijtimoiy hodisa ekanligini, til har qanday davrda ham jamiyat hayotining ajralmas bir bo'lagi bo'lib qolaverishini alohida qayd etgan holda, lahjalar tasnifiga o'tishdan oldin "o'zbek elining tuzilishi bunday murakkab, qurama ekan, uning tili ham qurama til bo'lishi tabiiydir" degan fikrni ilgari suradi. Turkiy tillarning genetikasi, til xususiyati jihatidan o'zaro munosabati masalasiga olimlar juda qadimdan qiziqib kelganlar. Turkiy tillarni, aniqrog'i, turkiy qabilalarni

⁹⁵ G'ozim Olim Yunusov. O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. -Toshkent: O'zdatnashr, 1935. -68 b.

birinchi bo'lib tasnif qilgan olim Mahmud Koshg'ariydir. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, turkiy tillar tasnifi bilan qiziqish XIX asr oxiri va XX asrlarda qaytadan boshlandi va ko'pdan ko'p tasniflar vujudga keldi. Tilshunoslarning qayd etishicha, bu tasniflarning metodlari, oldiga qo'ygan vazifalari, maqsadlari turlichadir. Ulardan ba'zilar puxta o'rganilgan va ishlangan tasniflar bo'lsa, ayrimlari u yoki bu jihatdan kamchiliklardan ham xoli emas. Professor G'ozim Olim Yunusov o'zi to'plagan juda boy daliliy materiallarga suyangan holda 1935-yilda, turkolog olim Ye. D. Polivanov tasnifidan keyin o'zbek shevalarini uch katta guruhga bo'lib tasnif qildi va shu asosda tasnif holatini ham berdi. Mahmud Koshg'ariy tasnifidan farqli o'laroq, professor G'ozim Olim Yunusov o'z tasnifida umumiy turkiy lahjalarini emas, balki XX asrning 20-30-yillarida "o'zbek xalqi" nomi ostida birlashgan xalq tili lahjalarini va ularga xos bo'lgan lisoniy xususiyatlarni o'z tasnifi uchun manba sifatida belgilagan. G'ozim Olim Yunusov o'zbek lahjalarini quyidagicha tasniflaydi: 1) Qipchoq lahjasi; 2) Turk-barlos lahjasi; 3) Xiva-Urganch yoki o'g'uz lahjasi.

Olimning qipchoq lahjasi va uning xududiy tarqalishi haqidagi fikrlarini Areal lingvistika fani uchun qimmatli manba sifatida e'tirof etish mumkin: *"Bu lahja asrlardan beri o'zbek nomi ostida yashab kelgan va bu nom bilan boshqa millatlarga tanilgan xalqning tili bo'lib, bu kunda O'zbekiston halqining ko'pchiligi bu lahjada so'zlashadi. Tojikiston va Afg'oniston o'zbeklarining aksariyati, O'zbekistonda esa Ohangaron, Mirzacho'l, O'ratepa atrofi, Samarqand, Zarafshon, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazmda yashovchi xalqlarning ko'pchilik qismini qipchoq lahjasida so'zlashuvchilar tashkil qiladi. Bundan tashqari, bu lahja vakillari Andijon, Namangan, Qo'qonda ham bor bo'lib, bu yerlarda ozchilikni tashkil etadilar..."* (G'ozim Olim Yunusov. O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. -Toshkent: O'zdavnashr, 1935. 18-b).

Muallif Qipchoq lahjasida ko'plab xalq og'zaki ijodi namunalari, o'nlab yirik xalq dostonlari yaratilishiga qaramay, bu lahja hech qachon yozma adabiy til bo'la olmaganligi haqida ham to'xtaladi. Qipchoq lahjasiga kirgan tillarni to'rt guruh (sheva)ga

ajratadi va ulardagi fonetik, morfologik oʻziga xosliklarni quyidagi tavsiflaydi:

1. Qirq shevasi

a) qisqa *i* tovushi oʻrnida uzun *iy*, *i:* tovushlari uchraydi. Masalan, *pi:t*, *i:t* kabi;

b) olmoshga joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi qoʻshilganda *menga* oʻrnida *magʻan*, *senga* oʻrnida *sagʻon*, unga oʻrnida *ugʻon* shakllari hosil boʻladi.

2. Jaloyir-laqay shevasi. Bu boʻlimga kirgan oʻzbek shevalarida soʻzning ikkinchi boʻgʻinida ham *ye* tovushi kelishi mumkin. Masalan: *kegen*, *beden*, *kelgen* kabi.

3. Qipchoq shevasi. Boshqa oʻzbek qipchoq shevalarida lab uygʻunligining kuchli saqlanishi bilan ham oʻziga xos koʻplik belgisi borligi bilan ajralib turadi. Bu shevada Andijon, Qoʻrgʻontepa, Jalaquduq tumanlarida yashovchi va oʻzlarini qipchoq deb atovchi oʻzbeklar soʻzlashadilar. Qipchoq shevasida lab uygʻunligi ikkinchi va uchinchi hissalarda ham saqlanadi: *topolos*, *iyigo* kabi. Bu shevaning oʻzbek-qipchoq lahjasiga kirgan boshqa lahjalardan ajralib turgan xususiyati *lak* formasining boʻlishidir. Bu *lak* formasi qirgʻizchada va baʼzi Oltoy shevalarida ishlatiladi. Qipchoq shevasidagi *ul kela lak* degani *ul kelgan yoʻq* demakdir.

4. Gurlan shevasi. Bu boʻlimchaga oʻzbek-qipchoq lahjasining hamma xususiyatlarini saqlagan, biroq soʻz boshida *ch* tovushini koʻp soʻzlarda yoʻqotgan oʻzbek shevalari kiradi.

Gʻozi Olim Yunusovning oʻzbek tili qipchoq lahjasining asosiy fonetik-morfologik xususiyatlari yuzasidan bildirgan fikrlari keyingi davr ilmiy-tadqiqotlardagi nazariy xulosalar bilan qiyoslanganda, ayrim kamchiliklardan ham xoli emasligi koʻzga tashlanadi. Jumladan, oʻzbek lahjalarining bugungi zamonaviy tasnifida qipchoq lahjasining asosiy fonetik-morfologik xususiyatlari sifatida quyidagilar keltiriladi:

1) kontrast juft unlilar *u*, *o\o*, *u\i*, *a\e* ning mavjudligi va buning natijasida singarmonizmning saqlanishi;

2) soʻz boshida kelgan oʻrta koʻtarilish unlilarning diftonglashuvi;

3) qisqa va uzun unlilarning farqlanmasligi, undosh tovushining tushib qolishi hisobiga bo‘ladigan ikkinchi darajali cho‘ziqlikning mavjudligi: suhbat (suhbat);

4) so‘z boshida *y* tovushining *j* tovushiga o‘tishi: *yo‘l > jol*, *yomon > jamon*;

5) so‘z boshidagi *h* undoshning ortirilishi: *arra > harra*, *ayvon > hayvon* kabi;

6) so‘z oxirida *k*, *q* undoshning tushib qolishi: *kichchi < kichik*, *sarik < saro‘* va boshqalar;

7) qaratqich va tushum kelishigi affiksida *n/d/t* tovushlarining almashinishi: *-nying//ning*, *dying//-tying-ting*, *-ni//-ny*, *-dy//-di*, *ty//ti*.

8) shaxs olmoshlarining jo‘nalish kelishigi shakli *-magan*, *-sag‘an*, *-og‘an* shaklida kelishi;

9) hozirgi zamon davom fe‘lining *-djatyr* bilan yasalishi: *barajatyr* kabi;

10) hozirgi kelasi zamon sifatdash *-tyg‘an* bilan yasalishi: *kelatyg‘an* (Б. Ҳасанов. , Б. Тўйчибоев. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Мерос, 2004. -112 б).

Qiyosdan anglashilganidek, G‘ozi Olim tasnifi qipchoq lahjasining asosiy xususiyatlarini to‘la qamrab ololmagan, qipchoq lahjasi shevalarining boshqa lahja sevalaridan lingvistik farqlarini ko‘rsatuvchi belgilar berilmagan. Shuning uchun ham, bu tasnifni olimlar o‘z vaqtida tanqid qilishgan (I. A. Batmanov tomonidan). Biroq o‘zbek ilmiy tilshunosligining dialektologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlar endigina shakllanayotgan XX asrning 20-30-yillarida tasniflardagi bu kabi nomukammallikning bo‘lishi tabiiy edi. Shunga qaramay, mullafning o‘zbek ziyolilari orasida birinchilardan bo‘lib adabiy til va shevalar munosabatini tadqiq etishga harakat qilganligi, o‘zi to‘plagan materiallar asosida o‘zbek shevalarini qiyosiy-tarixiy, tipologik jihatdan tadqiq etilishi, shuningdek til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi areologiya asosida ilmiy tekshirilishi o‘zbek shevashunosligi rivojiga qo‘yilayotgan dastlabki qadamlardan edi.

G‘ozi Olim Yunusov o‘z tasnifidagi ikkinchi guruh lahja haqida shunday yozadi: “*Mening tasnifimda ikkinchi bo‘limga kirgan bu lahja “chig‘atoy lahjasi”, “chig‘atoy tili” ham deb*

ataladi. Temur va Temuriylar davrida hokim vaziyat olgan va bu kunda ham yarim ko'chmanchi O'zgan, Andijon (Jalaquduq, Marhamat rayonlarida), O'smat (Jizzax rayonida), Urgut (Qoratepa, Taxtaqoracha), Kitob (Qashqadaryo) va Qoratog' (Tojikiston) atrofida yashovchi Turk-Barlos qabilasining jonli tili bo'lib, Chig'atoy adabiy tiliga asos bo'lgan bu tilni mazkur qabila ismiga nisbatan *turk-barlos lahjasi deb ataymiz...*" (G'ozim Olim Yunusov. O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. -Toshkent: O'zdamnashr, 1935. 19-b). Anglashiladiki, muallif bu guruhga hamma shahar va shahar tipidagi shevalarni, ya'ni Toshkent, Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon shaharlari va bu shaharlarning atrofida yashovchi o'zbek shevalarini kiritgan. Bu lahja vakillari Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Zarafshon vodiysining yuqori qismi, Chimkent, Sayram, O'sh, O'zgan shaharlari va uning atroflarida yashovchi o'zbeklar ham ekanligi ta'kidlanadi.

G'ozim Olim bu lahjaning asosiy til xususiyatlarini hisobga olib, to'rt mayda guruhga bo'ladi:

1) Sayram-Chimkent shevasi. Bu sheva o'z ichiga Xiva, Xonqa, G'azovot, Shohobod, Kat, Toshovuz, Eski Urganch, Yangi Urganch, Xazorasp, To'rtko'lda yashovchi o'zbek shevalarini o'z ichiga olishi aytiladi. Biroq tasnifda bu shevalarning o'ziga xos xususiyatlari alohida berilmagan;

2) Toshken-Xos shevasi. Bu shevaning asosiy xususiyati sifatida tushum kelishigi qo'shimchasining *-t* bilan tugagan so'zlardan keyin *-ti:tti* tarzida talaffuz qililishi, shuningdek, so'z oxirida assimilyatsiyaga uchrab, oldingi undoshga moslashishi aytiladi: *biz-bizzi* kabi;

3) Andijon shevasi. Bu tip shevalarning asosiy xususiyati sifatida tushum kelishigi *-ni* formasidan tashqari *-ti*, *-di* shakllarida ham kelishi; hozirgi zamon davom fe'li *-yap*, *-yep* shakli orqali yasalishi, ya'ni *kelyepman* tarzida ifodalanishi aytiladi;

4) Namangan shevasi. Bu shevaning asosiy xususiyati hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasining *-ut* shaklida ifodalanishi aytiladi.

Tasnifdagi eng e'tiborli jihatlardan biri sifatida muallifning mazkur lahjaga oid yozma adabiy manbalarning xronologik tartibda

keltirganligidir. Tasnifda bu haqda shunday ma'lumotlar keltiriladi: *"Mug'ul istilosidan so'ng, "chig'atoy tili" nomini olgan bu til melodiy VI asrdan XIV asrgacha bo'lgan hayotida Qutubning "Xusrav va Shirin", Rabg'uziyning "Qissasul anbiyo" asarlarini yuzaga keltirdi... Zamaxshariy tomonidan tuzulib, Otsiz Xorazmshoh o'g'liga atalgan "Muqaddimatul adab" lug'atining turkchasi ham shu lahjaning o'rnaklaridir... O'zbek davlatining markazi Samarqandga ko'chganidan so'ng, Oltin O'rda davlati chegarasida yozilgan Qutbning "Xusrav va Shirin", Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si va To'xtamishxon yorlig'i qipchoq-o'zbek yozuvchilarining turk-barlos adabiy tilini tatbiq etishlaridagi birinchi tajribalari edi."* (G'ozim Olim Yunusov. O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. -Toshkent: O'zdavnashr, 1935. 20-b).

G'ozim Olim Yunusov tasnifda o'zbek tilining Turk-Barlos lahjasi shevalarining fonetik, morfologik, leksik xususiyatlarini tavsiflar ekan, bu shevalarning o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi mavqeyi, ulardagi til hodisalarining tarqalish chegarasi va sheva vakillari yashash hududlarinig geografik joylashishi haqidagi ma'lumotlarni ham keltirishga harakat qiladi: *"Turk-Barlos lahjasida so'zlaguvchi temuriy turklar (chig'atoylar) soncha o'zbeklardan so'ng ikkinchi o'rinni tutib, Toshkent, Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon shaharlarida va rayonlarida yashab, y yerlardagi xalqning ko'pchiligini tashkil etadilar. Sobiq Samarqand, Zarafshon, Buxoro va Qashqadaryo okruglarida bu lahja vakillari bo'lsa-da, bu yerlarda ular juda ozchilikdirlar. Qozog'istonning Turkiston, Chimkent, Sayram shaharlarida yashovchi va Qirg'izistonning O'sh, O'zgan shaharlarida yashovchi xalq ham shu Turk-Barlos lahjasida so'zlashadi. Bu lahja vakillari Afg'onistonning Balx, Qunduz shaharlarida ham bor. Turk, Barlos, Kaltatoy, Qoraxon (Karmana va Shofrikon rayonlarida), Xos, Taqachi (Sirdaryoning o'ng qirg'oqlarida Dilbarzinda) qabilalari ham shu lahjada so'zlashadilar"* (G'ozim Olim Yunusov. O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. -Toshkent: O'zdavnashr, 1935. 21-b).

Bundan ko'rinadiki, G'ozim Olim Yunusovning o'zbek shevalari tasnifi biz yuqorida ta'kidlagan lingvistik geografiya metodiga ham asoslanilganligi bilan ko'zga tashlanadi va o'zbek tilshunosligida bu

metod asosida shevalarni o'rganish ishiga XX asrning 60-yillaridan emas, balki XX asrning 30-yillaridan dastlabki qadamlar tashlanganligining guvohi bo'lamiz.

Muallif "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 1927-yil 12-sonidagi "O'zbek shevalarining tasnifi" ("Maorif va o'qitg'uchi" - Toshkent, 1927, №12) nomli maqolasida tasnifdagi bu ikkinchi guruhni *uyg'ur-chig'atoy* shevalari deb nomlaydi va unga hozirgi tilshunosligimizda *qarluq-chigil-uyg'ur* lahjasiga oid bo'lgan shevalarni kiritadi. Bu guruh shevalarni *tog'chilar* deb ataydi hamda A. Samaylovich tasnifiga ko'ra, bu shevalar *shimoliy-sharqiy guruhga* kiritilganligi aytiladi.

Tasnifdagi har xilliklarga qaramay, G'ozii Olim Yunusovning fanda ilk bor o'zbek tilining uch guruh shevalardan (lahjalardan) tarkib topganligini ko'rsatib bergan. O'zbek tilining uch lahja asosida shakllanganligini fanda biz professor Ye. D. Polivanov nomi bilan bog'lab kelganmiz. Vaholangki, bu ishga dastlab G'ozii Olim Yunusov qo'l urganligi ayni haqiqat. G'ozii Olim Yunusov va Ye. D. Polivanov tasniflaridagi farqli tomonlarni lahjalarning tartiblanishi va nomlanishida ko'ramiz. Ya'ni G'ozii Olimda lahjalar *qipchoq, uyg'ur-chig'atoy, o'g'uz* shaklida tartiblangan bo'lsa, Ye. D. Polivanov tasnifida *chig'atoy, o'g'uz va qipchoq* tarzida tartiblangan. Muhimi, har ikki tasnif biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki Ye. D. Polivanov o'zbek tilidagi lahjalarni aniqlashtirgan va ularning tarixini batafsil yoritishga muvaffaq bo'lgan.

Umuman olganda, G'ozii Olim Yunusovning o'zbek ilmiy tilshunosligini yuksaltirish yo'lidagi ilmiy-amaliy faoliyati, o'zbek dialektalogiyasi hamda zamonaviy leksikogarafiyaga oid ishlari davr adabiy tilining shaklanishi, o'zbek milliy tilshunosligining rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'lib, uni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish 20-asrning 20-30-yilar davri o'zbek adabiy tili, ilmiy tilshunosligining rivojlanish va boyish tendentsiyalarini belgilashda muhim sanaladi. Bu esa G'ozii Olim Yunusovning lingvistik faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish va tadqiq qilish lozimligini ko'rsatadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Lotin alifbosiga o'tishning G'ozim Olim Yunusov talqiniga tavsif bering.
2. Turkiy tillardagi singarmonizm qonuniyatiga G'ozim Olim Yunusov qanday munosabatda bo'lgan?
3. G'ozim Olim Yunusovning XX asr boshlarida shakllangan yangi o'zbek adabiy tili uchun tayanch dialektni aniqlash, uning normalarini belgilashga oid qarashlarini izohlang.
4. G'ozim Olim Yunusovning o'zbek dialektologisi fanida shevalarni o'rganishning dastlabki metod va tadqiq usullari ishlab chiqilishidagi, shevalar tasnifi yaratilishidagi xizmatlariga baho bering.

Adabiyotlar:

1. Амонов У. Ўзбек фольклоршунослиги хрестоматияси. – Тошкент: “Paradigma”, 2018. – 124 б.
2. Ғози Олим Юнусов. Ўзбек уруғлари (қабилалари) ва уларнинг шеваларига тегишлик маълумот тўпловчиларга қўлланма // Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1926. -№ 10-11. - Б. 42-44; -№ 12. -Б. 33-35.
3. G'ozim Olim Yunusov. O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. -Toshkent: O'zdavnashr, 1935. – 68 b.
4. G'ozim Olim Yunusov. O'rta Osiyo turklarining yangi alifbosi // “Maorif va o'qitg'uvchi”. – Toshkent, 1927. -№ 6. – B. 39.
5. G'ozim Olim Yunusov. Yana til-omlo masalasi ustida. // “Qizil O'zbekiston” gazetasi. – Toshkent, 1928-yil, 38-son. –B. 139.
6. Янгибоева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни (“Маориф ва ўқитғувчи” журнали материаллари асосида): филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Қарши, 2009.

3. 10. VADUD MAHMUD.

Tayanch soʻz va iboralar: *munaqqidchilik, tillar bilingvizmi, chigʻatoy tili, jonli xalq tili, panturkizm, purism, milliy til, leksik fond, grammatik qurilish, soʻz qoʻllash, singarmonizm, tarixiylik printsipli.*

XX asr boshlarida tarix sahnasiga chiqqan jadid maʼrifatparvarlari qatorida Vadud Mahmud ham oʻz safdoshlari boʻlgan Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriylar kabi oʻz umri va iqtidorini millat ozodligi, yurt ravnaqiga bagʻishladi. Jadid ziyolilarining oʻz davri ijtimoiy-siyosiy muhitiga koʻrsatgan taʼsirini turli sohalarda kuzatish mumkin. Vadud Mahmudning ham rang-barang ijodiy merosida nasr, nazm, publitsistika bilan bir qatorda adabiy tanqidchilik alohida oʻrin tutadi. Uning xalq maorifi yoʻlidagi fidoyiligi, tashkilotchiligi, publitsistikasi, xususan, adabiy-tanqidiy maqolalaridagi mavzular koʻlamining kengligi oʻz zamonasining ilgʻor fikrli ziyolisi ekanligidan dalolat beradi. Uning millatparvarlik mayllarini oʻsha davrda turli jurnallarda nashr etilgan maqolalaridagi milliy tilga, uning tarixiga, tilni taraqqiy ettirishga, sofligini asrashga qaratilgan daʼvatlarida kuzatishimiz mumkin.

XX asrning 20-30-yillari adabiy jarayonida asosan adabiyotshunos-munaqqid sifatida koʻzga tashlanuvchi Vadud Mahmudning oʻzbek tili tarixi, oʻzbek tilshunosligi tarixi, milliy til, adabiy til va imlo, til va uslub masalalari yuzasidan bildirgan fikrlari ham qimmatlidir. Jumladan, Vadud Mahmud “Til va harf” nomli maqolasida XX asrning 20-yillari ijtimoiy-siyosiy hayotida keskin bahs va munozaralarga sabab boʻlgan oʻzbek milliy adabiy tili masalasi, imlo va alifbo muammolari xususida oʻz fikr-mulohazalarini oʻrtaga tashlaydi: “... Turk dunyosining har yerida “*xalq tiliga*” yaqinlashmoq mayli boshlangʻoni uchun bir turk tili boʻlinib, turli lahja va sheva adabiyotlari boshlandi. Bu “*tamoyul*” soʻng yillarda yana kuchayib, haligacha bir oz “*munfail – passiv*” vaziyatda boʻlgʻon oʻzbek, qirgʻiz, uygʻur kabi qabilalar ham oʻz shevalarida gazetalar, jurnallar, kitoblar bosdira boshladilar. Bu

soddachilik harakati, tashlang'on arab, fors so'zlari o'rnig'a ishlatish uchun yangi so'zlar topish ehtiyojini tug'dirdi... ”⁹⁶

Darhaqiqat, muallif XX asr boshlarida Turkiya, Qrim, Kavkazda adabiy til islohoti borasida ro'y bergan o'zgarishlar 20-yillarda o'zbek adabiy tilida ham yuz berganligini, Turkistonda ham adabiy tilni xalq jonli tili bilan yaqinlashtirish, adabiy til leksik fondini soflashtirish, undagi arabcha, forsha so'zlarni mumkin qadar chiqarib, yot so'zlardan holi bo'lgan leksik fondni shakllantirish borasidagi harakatlar boshlanganligini va bu o'zgarishlar dastlab vaqtli matbuot tilida o'z ifodasini topganini munosib baholamoqda.

Muallif Turkiston o'lkasida sodir bo'layotgan bunday o'zgarishlarni boshqa hududlarga solishtirar ekan, jumladan, Turkiyada bunday istilohlar muvaffaqiyatli chiqmaganligini, ular bunday ishni amalga oshirish ko'p fursat talab etishini inobatga olib, adabiy tilni eski qolipda muomalada qoldirganliklarini, Tatariston esa uch yuz yildan beri rus madaniyati ta'sirida bo'lganligi uchun rus istiloh va ta'birlarini qabul qilishga moyillik ko'rsatayotganligini, shuningdek, Qrim, Kavkaz, Turkman mamlakatlari tillari usmonli turk tiliga yaqinlashayotganligini e'tirof etadi va Turkistonda yangi o'zbek adabiy tilining bu davrda qanday asoslarga tayangan holda rivojlanayotganligining aniq bir yo'nalishi yo'qligini qayd etadi.

Vadud Mahmud mazkur maqolasida imlo masalasida ham fikr bildirib, jumladan, shunday deydi: *“Yangi imlo masalasining Turkiyada, Totoristonda va bizda boshlanganiga ko'b yillar bo'lsa ham, lotin harfini qabul qilish uchun jiddiy muzokaralar shu ikki yil orasida kuchayib qoldi... . Bu masala Totoristonda jiddiyrak qo'zg'olg'on bo'lsa ham, tez so'ndi. Qofqoziyoda esa kundan-kun bu tashabbus ortmoqdadir... Bu lotinchilik bir yoqdan shu mavaffaqiyatlarga erishmakda bo'lsa, ikkinchi jihatdan Qrimda, Totoristonda, Qofqoziyoda bir kuchli jiddiy qarshi harakat ham qo'zg'atmoqdadir... ”⁹⁷.*

⁹⁶ Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. –Б. 134.

⁹⁷ Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. 136-бет.

Ma'lumki, XX asrning 20- yillarida Turkistonda ham yangi imlo va alifbo masalalarini joriy etish masalasi kun tartibiga qo'yiladi. Vadud Mahmud bu masalaga o'z munosabatini bildirishdan oldin Qrimning mashhur yozuvchilaridan Hasan Sabriy Ayvazufning, "Maorif va madaniyat" jurnalining mudarrisi Muhiddinning, Qrim dorulfununi mudarrisi B. Cho'bonzodaning bu boradagi fikrlarini munaqqid sifatida tahlil qiladi va imlo borasidagi o'zining umumlashgan nazariy xulosalarini quyidagicha izohlaydi: *"Yuqoridan beri keltirilgan harf to'g'risidagi fikrlarning hammasini bir bir yerga yig'sak, shu chiqadirki, bu harfni (alifbo nazarda tutilmoqda – S. N.) o'zgartirish masalasi hech bir ijtimoiy foydasi bo'lmag'on, balki ko'b zararlar bo'lg'on tashabbusdir. Buning ilmiy bir qiymati yo'qdur. Shuning uchun bu masalalarni qo'yub, madaniy hayotning o'sushiga yordam beraturg'on boshqa masalalar bilan shug'ullanmoq kerakdur"*⁹⁸.

Vadud Mahmudning adabiyotshunoslikdagi adabiy-tanqidiy maqolalari uning teran fikrli munaqqid ekanligini belgilasa, milliy adabiy til xususida bildirgan fikrlari uning til ilmining ham yetuk bilimdoni ekanligini isbotlaydi. Munaqqid "Navoiygacha turk adabiyoti" nomli maqolasida, jumladan, shunday deydi: *"Turk tili bir vaqtlar mo'g'il tili deb ham yuritilgan (Hisom Kotibning Sulton odli mashhur kesikbosh hikoyasining mo'g'ilchadan, ya'ni chig'atoychadan turkchaya, ya'ni usmonlichaya chevirmasi), so'ngra uyg'ur tili, hoqoniya turkchasi yoki qoshg'ar tili, o'g'uz lahjasi, chig'atoy tili, usmonlicha, ozoricha kabi cho'q otlar taqilg'on. Asosan, chig'atoycha uyg'urchaning muayyan adabiy holga kirgan bir boshqa shaklidir"*⁹⁹. Bu fikr muallifning turkiy til, turkiy adabiy til tarixidan ham yetarlicha bilim va tasavvurga ega ekanligidan dalolat beradi. Chunki bu ma'lumotlarga diqqat qilsak, turkiy tilimiz tarixda, haqiqatan ham, yuqoridagi kabi nomlar ostida iste'molda bo'lganligini, shu nomlar ostida badiiy asarlar yaratilganligini bugungi tilshunosligimiz tarixi ham isbotlaydi.

⁹⁸ Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. 139-бет.

⁹⁹ Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. 27-бет.

Maqolada muallif turkiy xalqlarning yozma adabiyoti xususida ham fikrlar bildirar ekan, turkiy xalqlar yozuvi uzoq tarixga borib taqalishini ta’kidlaydi va bu haqda o’sha davrda aniq ma’lumotlar yo’qligiga qaramay, ularning tarixiy taraqqiyot davomida qadimgi xun, xitoy, urxun, suriya alifbosi, tibet alifbosi hamda xuastuanift yozuvlaridan foydalanganliklarini misollar asosida yoritishga harakat qiladi.

Muallif o’z davrining dolzarb va muhim muammolari ko’tarilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma’rifiy mavzudagi maqolalarini tarixiylik prinsipi asosida tahlil etishga va uning ahamiyatini belgilashga harakat qiladi: *“Turk tili asosan boy til bo’lishi bilan va turk millatining og’zida necha ming yillardan beri yurub, ikki ming yilga yaqin adabiy yo’lg’a kirdi va beshinchi asr hijriydan boshlab o’nlarcha buyuk shoir va adiblarga ega bo’lub, ilmiy va adabiy ishlanib keldi; sharq turk adabiyotining oltun davrlari bo’lg’on Navoiy, Umarxon davrlari bilan g’arb turk adabiyotining Fuzuliy, Boqiy, Nadim, Lola davri va asrimizda Homid, Nomiq va Fikrat kabi eng buyuk shoir va san’atkorlar qo’lida ham keraginchalikda ishlandi va turk tili shuning uchun-da asriy bir holga kirdi”*¹⁰⁰. Munaqqidning turkiy adabiy til, uning shakllanishi va rivojlanishi xususidagi yuqoridagi fikrlari ham ishonchli tarixiy manbalarga asoslanib aytilgan fikrlar, muallifning sinchkov tilchi sifatida ko’tarilgan masala haqida yetarlicha ma’lumot bera olganligini va uning o’sha davrdagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan til muammosi masalasiga ham befarq emasligini ko’rsatadi.

Sharq mumtoz adabiyotimiz tarixiga va o’tmishda yashab ijod qilgan ulug’ adiblarimiz shaxsi va ijodiga murojaat qilish, ular yaratgan ma’naviy xazinani boqiy qadriyat sifatida tahlil va tadqiq etish, undan ilhomlanib o’sha davrda uni keng xalq ommasiga yetkazish vazifasida ham Vadud Mahmudning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Munaqqid Alisher Navoiyning shaxsi va ijodiga baho berar ekan, jumladan, shunday deydi: *“Navoiyning asli muhim shaxsiyati na mutasavvifligi, na shoirligi, na tarix yozg’onidir. Uning mumtozligi shunday qaynag’on va yuzlarcha yildan beri*

¹⁰⁰ Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. 36-бет.

singib ketgan forslikning markazida turklar muassasalarini qurishidir... Navoiy o'z asarlarida forschaning nozik, ohangdor bo'lg'onini va u bilan she'r aytish qulay va xush kelaturligini aytadi. Lekin "modomiki, biz ayri irqimiz va ayri til egasimiz, nima uchun o'z elimiz tushunaturligini qilib o'z tilimiz bilan yozmaylik?" deydi... Mana, Navoiyning bizga muhim bir xizmati va uni bu kun turk adabiyoti otasi atalishining amaliy o'zagi shundadir" (Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. 139-бет).

Keltirilgan jumlada munaqqid Alisher Navoiyning daho mutaffakkir sifatida munosib baholanishi uning yozgan badiiy, tarixiy asarlari bilan emas, balki milliy tilga murojaat qilib, uni adabiy til sifatida shakllantirib rad etib bo'lmaydigan darajada asoslaganligini, bu bilan chinakam vatanparvarlikni boshlab berganligini, shuningdek, forsiy til an'anasi hukmron bo'lgan bir sharoitda turkiy tilning adabiy til sifatida shakllanishidagi, rivojlanishidagi xizmatlarini yuqori o'ringa qo'yib haqli ravishda e'tirof etmoqda. Bunda muallifning milliy adabiy til masalasiga alohida urg'u berib, tilni milliylikning birinchi belgisi sifatida bu masalaning muhokamasiga o'quvchi diqqatini qaratishi o'zining ham buyuk tilparvar, tilsevar jadid adibi ekanligidan dalolat beradi.

Vadud Mahmud turkiy tilning tarixi va asosini o'rganishda, uni to'g'ri anglashda, muammolarning tub asosini ochib berishda aniq dalillarni yig'ish va o'rganish, unga yondosh bo'lgan hodisalar bilan solishtirish, qo'yilgan muammoga zarur javobni bevosita real voqeyelikdan, ba'zan badiiy asarlar tilidan izlab topish yo'lidan boradi. Muallif "Adabiy tanqidga bir nazar" nomli maqolasida Abdurahmon Sa'diyning "O'zbek yosh shoirlari" nomi ostida chiqqan maqolasidagi ayrim fikrlarga munosabat bildirib, turkiy til tarixiga oid muhim ma'lumotlarni izohlashga harakat qiladi. Bunda Sa'diyning XX asr boshlaridagi adabiy tilni "o'zbek tili" deb atab, uning boshlanish davrini Abulg'azi Bahodirxonga borib taqalishini, "chig'atoy tili"ni esa undan ayro holdagi bir til deb tushunish g'oyasini ma'qullamaydi. Muallif o'z fikrini asoslashda "Shajarai turk" va "Boburnoma" asarlaridan parchalar keltirib, ularning tili va uslubini o'zaro solishtiradi, aniq dalillar asosida bu ikki asarning tili

va uslubida “hyech bir ayriliq emas, balki birlik ko‘rinadur”, deb ishonchli xulosalarga keladi. Abdurahmon Sa‘diyning esa “Shajari turk”da iste‘mol qilingan bir necha so‘zning “Boburnoma”da yoki boshqa chig‘atoy tilida yozilgan asarlarda uchramaganligi sababli bunday xulosalarga kelgan, deb e‘tirof etadi. Shuningdek, Sa‘diyning “Behbudiylar Abulg‘ozi til-uslubini boshqadan tirgizdilar”, – degan fikriga ham qo‘shilmaydi. Munaqqid Behbudiy va bu kabi boshqa jadid vakillari asarlarining tili ham asli “chig‘atoy tili” asosida qurilganligini, til qurilishi va lug‘at fondidagi o‘zgarishlar, tafovutlar esa “chig‘atoy tili”ning zamonlar osha takomili, rivojlanishi asosida ro‘y berganligini xolisona baholaydi. Muallif o‘z fikrlarini davom ettirar ekan, “... Haqiqatan, o‘zbek tili degan bir til bormidir, yo‘qmidir yoki bu faqat yuqorida aytganimiz kabi quruq bir otdan iboratmidir?” – degan savolni o‘rtaga tashlaydi. Bu savolga o‘zi quyidagicha javob beradi: “Turkistonda “o‘zbek” atalgan bir qavm bo‘lgani kabi “o‘zbekcha” degan bir til ham bordir. Lekin u til bugungi gazeta va kitoblarimizning tili emas. Balki u til hali adabiyotimizga kirmagandir. Bu o‘zbekcha sof o‘zbeklar yashagan joylarda ishlatiladirkim, uning namunasini G‘ozi Olim o‘rtoq adabiyotimizga birinchi o‘laroq hadya etdi (“Bilim o‘chog‘i”ning 2-sonida “Alpomish” dostonini qarangiz)”¹⁰¹.

Muallif bu o‘rinda sof qipchoq lahjasida yozilgan “Alpomish” dostonidan bir parcha keltiradi va uning tilini “o‘zbekcha” deb ataydi. O‘z fikrlarini nazariy xulosalar ekan, XX asr boshlaridagi adabiy tilni A. Sa‘diy aytganidek, “o‘zbekcha” emas, balki “chig‘atoycha” deb baholaydi.

Vadud Mahmudning ham bu fikrlarida ba‘zi munozarali o‘rinlar mavjud bo‘lishiga qaramay, masalaga ilmiy yondashib milliy til, adabiy til va uslub, uning rivojlanish, tadrijiy takomil bosqichlari haqidagi aytgan ilmiy g‘oyalari jadid davri adabiy tili, ilmiy tilshunosligining taraqqiyoti haqidagi tushun cha va tasavvurlarni muayyan ma‘lumotlar bilan boyita oladi.

XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tili takomilini yuqori miqyoslarga olib chiqishda turkiy adabiy til tarixi hamda turkiy

¹⁰¹ Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. 93-бет

adabiyot manbalari tilini chuqur o'rganish bu davr adiblari uchun bosh masalalardan biri bo'ldi. Turkiy adabiy til asrlar osha takomillashib, sayqal topgani bois milliy-ma'naviy meros sifatida yangilanish arafasida turgan XX asr o'zbek adabiy tili uchun asos vazifasini o'tashi lozimligini jadidlar to'g'ri tushunib yetdilar. Shu bois milliy adabiy til rivojlanishida eski mumtoz adabiy tilimizga, bu tilda yaratilgan badiiy, ilmiy asarlarga qayta-qayta murojaat qildilar.

Vadud Mahmud "Fuzuliy Bog'dodiy" nomli maqolasida Fuzuliyning forsiy shoir sifatida yuqori tab' egasi bo'lganligini e'tirof etgan holda, uning turkiy tildagi ijod namunalari hisoblangan g'azal, ruboiy, dostonlarining badiiyati, shuningdek, til xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, *"Fuzuliy turk she'rida, forsiyda Hofiz qadar lirik-rubobiydir. Turkda Fuzuliy kabi dardli va o'tli bir shoir yo'qdir"*, – deya e'tirof etadi.

Maqolaning "Fuzuliyning Turkistonga ta'siri" deb nomlangan bo'limida esa Fuzuliy asarlarining Turkistonda keng kitobxonlar tomonidan sevib o'qilishi, maktablarda ma'rifiy adabiyot sifatida o'qitilishi natijasida Turkistondagi adabiy tilning leksik fondida ham ba'zi o'zgarishlar bo'lganligini muallif quyidagicha izohlaydi: *"... Fuzuliyning Turkistonga tarqalishidan so'ng bizda g'arb turkchasining ta'siri kuchaydi va ikki lahja bilan yozatirg'on shoirlar ko'runa boshladi. Hatto aytish mumkinki, Fuzuliy bilan birga bizda ikkinchi lahja ham tug'di. Chunki chig'atoy tili soyasida yashab turub ham xolis "g'arb turkchasi" bilan devonlar to'ldurg'on shoirlar kam emaslar..."* (Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. 45-бет). Bundan ko'rinadiki, Fuzuliy asarlari tilining ta'sirida Turkistondagi o'sha davr adabiy tilida g'arbiy turk tili unsurlari kirib kela boshlagan va bu unsurlar so'zlashuv muomala nutqida, badiiy hamda ma'rifiy adabiyotlar tilida mukammal o'rnashgan. Munaqqid sinchkov tadqiqotchi sifatida turkiy til leksik fondidagi bunday o'zgarishlar sabablarini lingvistik jihatdan to'g'ri asoslay olgan.

Tillarning bilingvizmi, ya'ni o'zaro ta'sir belgilarini tahlil qilar ekan, XX asr boshlaridagi jadid adiblari tilidagi g'arbiy turk tili unsurlarini muallif Fuzuliyga bog'lamaydi. Darhaqiqat, XX asr

boshlarida Turkistonda ro'y bergan lingvistik jarayonlarning eng muhimi jadid ma'rifatparvarlari orasida kechgan "umumturkiy til yaratish g'oyasi" bilan bog'liq munozaralar. O'sha davrda panturkizm ta'sirida bo'lgan adiblardan aksariyatining tilida usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillarining unsurlari ko'p uchraydi. Bunga sabab, adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, umumturkiy til uchun mazkur tillar namunaviy til deb asos sifatida baholanganligi. Munaqqid bu jarayonlarni yaratilayotgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarning tili nuqtayi nazaridan tahlil qilib, holatni mumtoz adabiy tilimizning davomiyligi sifatida tavsiflab emas, balki ushbu lisoniy jarayonning mahsuli sifatida baholab, ayni haqiqatni bayon qiladi.

Ma'lumki, til tarixining ham, adabiyot tarixining ham suyanuvchi manbasi mumtoz asarlardir. Til tarixi bilan adabiyot tarixining bir manbaga suyanishi ular o'rtasidagi munosabatning uyg'unligini belgilaydi. Bu, o'z navbatida, manbalarni ilmiy o'rganishda til ilmidan ham, adabiyot ilmidan ham ma'lum xabardorlikni talab etadi. Vadud Mahmud munaqqid sifatida mumtoz adiblarning shaxsiyati va ularning yaratgan badiiy asarlarni adabiy manba sifatida o'rganar ekan, ularga baho berishda, ular bilan keng xalq ommasini tanishtirishda ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashadi. Asar tiliga baho berganda, albatta, tarixiylik tamoyilidan kelib chiqadi.

Til tarixi xalq tarixi ham. Xalq tarixida bo'ladigan o'zgarish uning tiliga ham ta'sir etadi. Chunonchi, dastlabki turk xoqonligi davri, arablar istilosi, somoniylar davri, qoraxoniylar davri, mo'g'ullar bosqinchiligi va boshqa tarixiy jarayonlarni tahlil etsak, o'sha davr tiliga ularning ta'sirini juda aniq sezamiz. Muallif ham tilimiz tadrijiy taraqqiyotidagi bunday o'zgarishlardan mukammal darajada xabardor bo'lgan, tilning tarixini xalqning tarixidan ayro holda tasavvur qilmagan, bu esa uning tilning leksik fondi va grammatik o'zgarishidagi lingvistik omillar haqida ishonchli xulosalar chiqarishiga sabab bo'lgan. Jumladan, ana shunday jarayonlardan biri bo'lgan – "chig'atoy tili" (turkiy til) hamda g'arbiy turk tillarining bir-birlariga bo'lgan o'zaro ta'sirini quyidagicha bayon qiladi: *"... Navoiy asrida chig'atoycha g'arb turklari ustiga ko'b ta'sir qoldirg'on edi. Ahmad va Oshiq Posholar va hatto Fuzuliyga ham Navoiyning ta'siri kuchlidir. Faqat*

Fuzuliydan soʻng gʻarb turkchasi sharq turkchasiga taʼsirini kuchaytirdi va bukun usmonli lahjasining takomuli bilan bu taʼsir yana kuchaydi va bu hol bundan buyon ham davom etsa va kun sayin kuchaysa kerak. Chunki Turkiya tili asri madaniy til holiga kirgandir va biz hozir ham undan mutaassirmiz va istiqbolda bizning madaniy harakatimiz kuchaygan sari gʻarb turkchasi bilan robitamiz kuchayadir”¹⁰².

Munaqqidning bu fikrlaridan Alisher Navoiy tomonidan asoslangan adabiy til nafaqat Oʻrta Osiyoda, balki boshqa hududlarda ham “maʼnaviy qurol” sifatida keng foydalanilganligini, Navoiy tilining taʼsirida boshqa turkiy xalqlar adiblari ham oʻz tillarida boy badiiy-maʼnaviy meros yaratganliklarini, buning barobarida “chigʻatoy tili”ning mazkur tillar qatorida usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillariga ham oʻz taʼsirini oʻtkazganligini, Fuzuliy ijodi taʼsirida esa bunday holatning aksi sodir boʻlganligini anglash qiyin emas. Ayni paytda XX asr boshlaridagi oʻzbek milliy adabiy tili haqida bildirilgan “bukun usmonli lahjasining takomuli bilan bu taʼsir yana kuchaydi” degan maʼlumot ham ayni haqiqat. Chunki oʻsha davr adabiy tilidagi gʻarb turkchasining oʻzbek tiliga taʼsirining birinchi sababi “panturkizm” boʻlsa, usmonli turk, ozarbayjon tillarining oʻzbek tiliga nisbatan oldinroq zamonaviy taraqqiyot yoʻliga kirganligi va jadid adiblarining unga taqlid qilishlarining natijasi bunday holat yuzaga kelishining ikkinchi omili sifatida qayd etish mumkin. Zero, istifodadagi “Turkiya tili asri madaniy til holiga kirgandir va biz hozir ham undan mutaassirmiz” degan qaydlar bizning yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, oʻzbek tili tarixida XX asrning 20–30-yillar bosqichi oʻzbek mumtoz adabiy tili bilan hozirgi oʻzbek adabiy tili oʻrtasida koʻprik vazifasini oʻtaydi. Shunday ekan, bu davr tili oʻzining lugʻat tarkibi, fonetik, leksik, grammatik meʼyorlarining davr talabiga mos ravishda yangidan shakllanish jarayonida boʻlganligi uchun oʻziga xos murakkabliklari bilan koʻzga tashlanadi. Bunday lisoniy masalalarni ijobiy hal etishda, yangi

¹⁰² Вадуд Махмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. 48-бет.

o‘zbek adabiy tilini qanday asoslarga tayangan holda rivojlantirish masalasida bir-biriga mos kelmaydigan turli qarashlar oldinga surilar edi. Ushbu nuqtayi nazarlar o‘sha davrdagi bir qator o‘zbek ziyolilari qatorida Vadud Mahmudning ham nazaridan chetda qolmagan.

Vadud Mahmud ijodini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rgangan professor Bahodir Karimov ta’kidlaganidek, Vadud Mahmud munaqqid sifatida adabiy-ilmiy muammolar, ijtimoiy-siyosiy voqyealar, maorif ishlari, harf va imlo masalalari, o‘zbek tili muammolari, xullas, qanday mavzuda qalam tebratmasin, dunyoqarashining kengligi, teran fikrlashi, adabiy merosga hurmat-ehtiromi, jahon madaniyati tarixidan xabardorligi yaqqol sezilib turadi¹⁰³.

Shuni aytishimiz mumkinki, jadid munaqqidi sifatida tanilgan Vadud Mahmudning milliy va adabiy tilga munosabat, tilni davr talablariga moslash, uning umummilliy adabiy til sifatidagi rivojlanish yo‘llarini belgilash, alifbo va imlo kabi murakkab nazariy va amaliy, milliy va ma’rifiy muammolar xususida bildirgan fikrlari XX asrning 20–30-yillar davri o‘zbek tilshunosligidan muayyan darajada xabardor qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Vadud Mahmud 20-yillarda lotin alifbosiga o‘tish masalasiga qanday munosabatda bo‘lgan?
2. Vadud Mahmudning umumturkiy adabiy til yaratish masalalari haqidagi qarashlariga izoh bering?
3. Vadud Mahmudning purizmga bo‘lgan munosabatiga tavsif bering.
4. Vadud Mahmud usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillarining davr adabiy tiliga ta’sirini qanday baholaydi?

¹⁰³ Баҳодир Карим. Жадид мунаққиди Вадуд Махмуд. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 91.

Adabiyotlar:

1. Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007. – 174 б.

2. Баҳодир Карим. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Тошкент: Университет, 2000. –112 б.

3. Янгибоева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни (“Маориф ва ўқитғувчи” журнали материаллари асосида): филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Қарши, 2009.

4. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. д-ри (DSc)... . дисс. – Тошкент, 2020.

5. Нормаматов С. Жадид адибларининг луғатшунослик фаолияти. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. –179.

UMUMIY XULOSA

O'zbek tilshunosligi turli davr va yo'nalishlar doirasida keng tadqiq qilingan bo'lsa-da, XX asrning 20-30-yillari o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti misolida to'laligicha maxsus o'rganilgan deb aytilib bo'lmaydi. Yuqoridagi fikrlar o'zbek tilshunosligining 20-30-yillardagi taraqqiyoti bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida shakllantirilganiga qaramay, ularda o'zbek tilining fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi, lug'at tarkibi, leksikografiyasi, umuman olganda, tilimizning umumnazariy masalalari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar to'laligicha qamrab olingani yo'q. Chunki 20-30-yillar o'zbek tili ilmiy grammatikasi, uning ilmiy asoslari shakllanishiga xos bo'lgan manbalar, har bir til sathining namoyon bo'lish tarzi ma'lum o'ziga xosliklarga ega va bu masalalar mazkur davrda turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan.

Shuningdek, davr milliy adabiy tilini shakllantirish, lisoniy me'yorlarini belgilash kabi XX asr boshlarida yuz bergan lingvistik jarayonda o'sha davrda faoliyat olib borgan bir qator mashhur adiblar, ma'rifatparvar ziyolilar, tilshunoslar, jurnalistlar, matbuot nashrlari faol ishtirok etishgan. Ushbu muammo yuzasidan yuqorida keltirilgan jadid adiblari qarashlari ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, hali bu borada anchagina ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Chunonchi, davr tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shgan Hoji Muin, Munavvarqori Abdurashidxonov, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunun, Botu, Mannon Ramz, Otajon Hoshim, Sanjar Siddiq, Abdulla Yo'ldosh, Yoqub Omon kabi jadid adiblarining tilshunoslik faoliyatini o'rganish maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Kelgusida bu yo'nalishda tilshunos olimlarimiz tomonidan olib boriladigan tadqiqotlar mazkur davr tili va tilshunosligiga oid muayyan bilimlarni yana takomillashtirishga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy davr tavsifi va o‘zbek tili ilmi.....	7
II. XIX asr – oxiri XX asr boshlaridagi davr adabiy tili talqini.....	16
III. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zbek ziyolilarining lingvistik qarashlari:.....	30
3. 1. Mahmudxo‘ja Behbudiy.....	30
3. 2. Abdulla Avloniy.....	42
3. 3. Ashurali Zohiriy.....	48
3. 4. Abdurauf Fitrat.....	61
3. 5. Mashriq Yunus o‘g‘li Elbek.....	83
3. 6. Is’hoqxon Ibrat.....	99
3. 7. Abdulla Qodiriy.....	109
3. 8. Abdulhamid Cho‘lpon.....	121
3. 9. G‘ozi Olim Yunusov.....	128
3. 10. Vadud Mahmud.....	153
Umumiy xulosa.....	164

Sultonbek Normamatov

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXI
(XIX asr oxiri – XX asr boshlari o‘zbek tilshunosligi)

O‘quv qo‘llanma

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 10.06.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 10. Shartli bosma taboq 9,7.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru



[t.me/ Bookmanyprint](https://t.me/Bookmanyprint) ☎ +998 99 180 97 10